

DAVLAT BYUDJETI

O'que qo'llanma



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

DAVLAT BYUDJETI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta
maxsus ta'lim vazirligi tomonidan o'quv qo'llanma
sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT
«IQTISOD-MOLIYA»
2021**

UO'K: 336.14

KBK 65.261.3

Taqrizchilar: *prof., O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan iqtisodchi E.N. Xodjayev;*
Moliya Bosh boshqarmasi bo'lim boshlig'i I.A. Axtamov

D14 Davlat byudjeti: O'quv qo'llanma / J.R. Zaynalov, B.Sh. Xusanov,
S.S. Aliyeva, Sh.M. Latipova; – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2021. – 316 b.

Mazkur o'quv qo'llanmada davlat byudjetining iqtisodiy mohiyati va uni davlatning o'z funksiya hamda vazifalarini bajarishidagi ahamiyati, byudjet tizimi byudjetlari o'rtasidagi munosabatlar va ularni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, byudjet tasnifi, byudjet daromadlari va xarajatlari tizimi, ularning tahlili, byudjet holati va byudjet jarayoni tarkibiga kiradigan byudjet loyihasini ishlab chiqishdan boshlab, uning ijrosi bilan bog'liq masalalar o'z aksini topgan.

O'quv qo'llanmada davlat byudjeti, byudjet daromadlari va xarajatlari, byudjet jarayonining nazariy asoslari yoritilgan bo'lib, u 5230600 – “Moliya” ta'lim yo'nalishi talabalariga “Davlat byudjeti” fanidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.

O'quv qo'llanma Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O'quv-uslubiy Kengashining 2020-yil 22-dekabrda 5-son bayon yig'ilishida muhokama qilindi va tasdiqlandi

Institut Kengashining 2021-yil 11-yanvardagi 7-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan

UO'K: 336.14

KBK: 65.261.3

ISBN 978-9943-7321-7-9

© J.R.Zaynalov, B.Sh.Xusanov,
S.S.Aliyeva, Sh.M.Latipova, 2021
© “IQTISOD-MOLIYA”, 2021


KIRISH

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni liberallashtirish va fuqarolik jamiyatini tubdan takomillashtirishda davlat moliyasi va uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan davlat byudjeti muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat byudjeti mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik va boshqa vazifalarini amalga oshirishning moddiy-moliyaviy asosini tashkil etadi va moliya tizimining barcha bo'g'inlari bilan byudjet-moliya qonunchiligi orqali tartibga solinadigan muayyan munosabatlarni o'zida aks ettiradi.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasining uchinchi "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari" bo'limida ham asosiy e'tibor xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan holda oliy ta'lim tizimida "Davlat byudjeti" fanini o'rganish bo'lajak mutaxassislarning yanada bilimli bo'lishlarini ta'minlaydi. Shularni e'tiborga olgan holda talabalar uchun ushbu fandan o'quv qo'llanma yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2017-yilning 22-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga qilgan Murojaatnomasida Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari xalq uchun ochiq-oshkora bo'lishini ta'minlash zarurligini ko'rsatib o'tdi. O'z navbatida, byudjet ma'lumotlarini jamoatchilik uchun ochiq-oshkora bo'lishi davlatimiz rahbarining "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi lozim", degan tamoyillariga to'liq mos keladi. Aholining keng qatlami uchun axborotning mazmungan qulayligini ta'minlash byudjet borasida fuqarolar bilan o'zaro hamkorlik qilish mexanizmlarining samaradorligini oshirishda muhim yo'nalish hisoblanadi. Ushbu o'quv qo'llanma aynan shu tamoyil doirasida yaratilganligi bilan ajralib turadi.

Havola etilayotgan o'quv qo'llanma 2019–2020-yillardagi byudjet va soliq siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari hamda



2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda yaratilgan bo‘lib, u davlat byudjetining iqtisodiy mohiyati, ahamiyati, byudjet tuzilishi va tizimi, shuningdek, byudjet daromadlari va xarajatlarini prognoz qilish va moliyalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek byudjet jarayonini amalga oshirishni ham nazariy, ham amaliy jihatdan o‘rganish imkonini beradi.

O‘quv qo‘llanmani yaratishdan asosiy maqsad – talabalarda davlatning o‘z vazifalarini bajarishda byudjetning ahamiyati, uning daromadlarini prognoz qilish hamda xarajat turlari va yo‘nalishlarini rejalashtirish, shuningdek, ushbu jarayonni amalga oshirishda qo‘llaniladigan tamoyillar, byudjet tizimi byudjetlari o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni amalga oshirish yo‘llari bo‘yicha nazariy bilimlar hosil qilish hamda ushbu munosabatlar doirasida nazariya bilan amaliyotning uyg‘unligini ta‘minlashdan iboratdir.

O‘quv qo‘llanmani yaratishda bir qator milliy va xorijiy iqtisodchilarning ilmiy ishlaridan, o‘quv adabiyotlaridan foydalanildi. Jumladan, T.S.Malikov va N.H.Haydarovlar tomonidan yozilgan “Davlat byudjeti” nomli o‘quv qo‘llanma asosida davlat byudjeti, uning iqtisodiy mohiyati, uni ijro etish jarayoni hamda mamlakatimizda byudjetni tartibga solishning huquqiy-me‘yoriy hujjatlariga oid ma‘lumotlar o‘rganildi. Z.X.Srojiddinova tomonidan yaratilgan “O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi” nomli darslik asosida esa byudjet munosabatlarining nazariy va amaliy jihatlari, byudjet qurilishi va tizimi, uning o‘ziga xos xususiyatlari kabi masalalar tahlil qilindi. Bundan tashqari, mamlakatimizda byudjet tizimi va jarayoni hamda uni ijro etilishini yoritishda O.G‘aybullayev va U.O‘roqovlar tomonidan yaratilgan “O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni” nomli o‘quv qo‘llanmadan foydalanildi.

O‘quv qo‘llanmadan foydalanish jarayonida talabalar davlat byudjeti, byudjet tizimi byudjetlari, ularning tasniflanishi, holati, byudjet munosabatlarini tartibga soluvchi me‘yoriy hujjatlar, byudjet tizimi byudjetlari daromadlari va xarajatlarining tahlili va byudjet jarayonini amalga oshirish bo‘yicha bilimga ega bo‘ladilar.

I BOB. “DAVLAT BYUDJETI” FANIGA KIRISH

1.1. “Davlat byudjeti” fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va boshqa iqtisodiy fanlar tizimidagi o‘rni

Har qanday davlatning erkin rivojlanishida jamiyat manfaatlariga mos tushadigan mustaqil iqtisodiy siyosat majburiy shartlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Ana shunday siyosatni izchillik bilan olib borish mamlakatimiz mustaqilligi, uning qaror topishi va yanada taraqqiy etishida hal qiluvchi omildir. Jamiyat a‘zolarining manfaatlarini qondirishga mo‘ljallangan bozor iqtisodiyotini yuritish bu siyosatning asosini tashkil etadi. Davlatning ana shunday siyosatini amalga oshirishiga sharoit yaratadigan dastak – bu Davlat byudjetidir.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini erkinlashtirish va liberallashtirish sharoitida davlat moliyasi va uning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan davlat byudjeti alohida o‘rin egallaydi. Prezidentimizning O‘zbekiston Respublikasini 2018-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan murojaatnomasida “2018-yilda soliq siyosatini amalga oshirishda keskin chora-tadbirlardan voz kechamiz. Chunki islohotlar davrida davlat tizimining uzluksiz faoliyat ko‘rsatishi uchun byudjet barqarorligi suv bilan havodek zarur” degan fikrlarni ilgari surganlar¹. Shu sababli mutaxassislik fanlari tarkibida “Davlat byudjeti” faniga alohida e‘tibor beriladi.

“Davlat byudjeti” fanining predmeti davlatning bir qator ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik va boshqa shu kabi funksiyalarini amalga oshirishning moddiy-moliyaviy asosini tashkil etish bo‘yicha davlatning markazlashtirilgan pul fondlarini shakllantirish, ularni taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni o‘rganish bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotining bugungi bosqichida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish, davlatning innovatsion

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini 2018-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan murojaatnomasi». 2017-yil 22-dekabr.

yangilanish dasturini shakllantirish, innovatsiya va investitsiyalardan samarali foydalanadigan yangi avlod kadrlarini, yangi sarmoyadorlar sinfini tayyorlash, shular asosida izchil iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini yanada oshirish borasidagi vazifalarni to'liq va samarali amalga oshirish sharoitida iqtisodiyotni erkinlashtirish vazifalarini bajarishda davlat byudjetining amal qilish mexanizmlarini puxta o'rganish har qachongidan ham dolzarbdir.

“Davlat byudjeti” fanining asosiy maqsadi – talabalarga davlat byudjeti va byudjet tizimi haqida nazariy bilimlar berish, ularda mamlakatda tasdiqlangan respublikani rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasi doirasidagi tadbirlarni amalga oshirishning bugungi sharoitida davlat byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari va ularni hayotga tadbiiq etish yo'llari bo'yicha asosiy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib fan o'z predmetini o'rgatish uchun quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini o'rganish;
- byudjet tuzilishi va byudjet tizimi amal qilish asoslarini o'rganish;
- byudjet tizimini boshqarishning tashkiliy asoslarini o'rganish;
- davlat byudjeti daromadlari tizimini va uning manbalarini o'rganish;
- davlat byudjeti xarajatlari tizimi va tarkibini o'rganish;
- byudjet jarayoni va byudjet istiqbollari belgilash asoslarini o'rganish;
- byudjet nazoratini amalga oshirish va tashkil etish asoslarini o'rganish;
- byudjetning holatini, byudjet taqchilligining mohiyati va uni tartibga solish usullari va vositalarini o'rganish;
- iqtisodiy rivojlanishning har bir bosqichida davlat byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va h.k.

Ushba fan byudjet tizimiga kiruvchi boshqa kategoriyalar bilan munosabatlarini ham o'rganadi. Uning mazmuni O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetini tashkil etadigan markazlashgan pul fondlari asosan soliqlar orqali shakllanishi hamda davlat tomonidan o'z funktsiya va vazifalarini bajarish uchun sarflanishi, davlat byudjetining qonuniy kuchga ega ekanligida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

"Davlat byudjeti" fani iqtisodiy fan sifatida moliyaviy va iqtisodiy qonunlar doirasida amal qilib, obyektiv va subyektiv zaruriyatlar haqida tushuncha beradi. Shu sababli "Davlat byudjeti" fani barcha iqtisodiy fanlar bilan aloqadordir. Iqtisodiyot nazariyasi fani "Davlat byudjeti" fanining asosini tashkil etadi. Ushbu fan shuningdek, "Moliya" ta'lim yo'nalishida o'qitilayotgan "Moliya", "Davlat moliyasi", "Davlat xaridlari", "Soliqlar va soliqqa tortish", "Moliyaviy nazorat", "G'aznachilik" va "Davlat moliyasi" kabi fanlar bilan bevosita bog'liq hisoblanadi.

Fanga oid bilimlarni chuqurroq egallash, markazlashgan pul fondining mazmunini yanada mukammal jihatlarini o'rganishga, byudjetning bir butun yaxlit tizim ekanligiga, uning istiqbolini belgilash, uslubiyati va shakllantirilishining yagonaligini yuqorida keltirilgan fanlarga bog'liqligini kafolatlaydi.

1.2. Davlat byudjeti – iqtisodiy kategoriya sifatida

Jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmasining shakllanishi va rivojlanishida tarixiy taraqqiyotning har bir bosqichida muayyan siyosat doirasida amalga oshiriladigan davlat tomonidan tartiblash muhim rol o'ynaydi. Davlatning o'z vazifa va funksiyalarini bajarishiga, o'z iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishiga imkon beradigan qurol, dastaklardan biri ham bu davlat byudjetidir.


Byudjet – bu davlat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish vazifalari va funksiyalarini moliyaviy ta'minlash uchun mo'ljallangan pul mablag'lari jamg'armalarini to'plash va sarflash shaklidir.

Bozor munosabatlari va iqtisodiyotni erkinlashtirishning hozirgi sharoitida makro va mikro darajadagi moliyaviy resurslar oqimlarining barqaror mexanizmlarini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy resurslar oqimlarini mukammallashtirish iqtisodiyot rivojlanishining o'zaro nisbiyligini va tengligini ta'minlaydi, iqtisodiyoning turli sektorlari va sohalarini rivojlanishi hamda samarali ishlashini ta'minlaydi hamda byudjet daromadlari va harajatlarning tengligini ta'minlaydi.

Byudjet munosabatlari – bu jamiyat iqtisodiy tizimining ajralmas qismidir, uning amal qilishi davlat tomonidan unga tegishli funksiyalarni bajarishi uchun zaruriy moddiy-moliyaviy bazani shakllantirish bilan obyektiv ravishda aniqlanadi.

Davlat byudjeti davlatning asosiy (bosh) moliyaviy rejasi sifatida davlat iqtisodiy imkoniyatlarining moliyaviy asoslarini tashkil etadi.

Demak, bir tomondan byudjetning paydo bo'lishi davlatlarning paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, aynan bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy sohalaridagi davlat islohotlarini amalga oshirishning asosiy instrumenti sifatidagi byudjetning sifat belgilariga aniqlik kiritiladi.



1.1-chizma. Iqtisodiy kategoriya sifatida davlat byudjetining xususiyatlari

Byudjet – murakkab iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Chunki, uning moddiy asosini kengaytirilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoni tashkil qiladi.

Byudjet iqtisodiy kategoriya sifatida markazlashtirilgan pul mablag‘lari fondini shakllantirish, rejali taqsimlash hamda foydalanish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy (pul) munosabatlar yig‘indisini anglatadi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida byudjet yuqoridagi xususiyatlarga ega (1.1-chizma):

Tarixiylik xususiyati – byudjet kategoriya sifatida tarixan shakllangan, turli davlatlarda o‘ziga xos yaratilish xususiyatlariga ega va bu holat zamonaviy sharoitlarda ham namoyon bo‘lmoqda.

Rejalilik xususiyati – byudjet amal qilishining asosiy xususiyati uning rejali xarakterga ega ekanligidir.

Huquqiy xarakterga egaligi xususiyati – byudjet me‘yoriy hujjat sifatida qonuniy kuchga ega ekanligini anglatadi.

Muddatlilik xususiyati – byudjet belgilangan muddat uchun tuziladi va ijro etiladi.

Demak, iqtisodiy kategoriya sifatida davlat byudjeti – davlat bilan yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasida mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotni, uning faol qismi bo‘lgan milliy daromadni (qisman milliy boylikni) qayta taqsimlash bo‘yicha kelib chiqadigan pul munosabatlari tizimini anglatib, uning natijasida iqtisodiyotni, ijtimoiy-madaniy sohalarni, mudofaa va davlat boshqaruvi ehtiyojlarini moliyalashtirishga mo‘ljallangan pul fondi – davlat byudjeti tashkil topadi va belgilangan maqsadlar uchun ishlatiladi.

1.3. Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va funksiyalari

O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksida Davlat byudjeti – davlatning vazifa va funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta‘minlash uchun mo‘ljallangan markazlashtirilgan pul jamg‘armasi ekanligi

ta'kidlangan². Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati uning iqtisodiy kategoriya sifatidagi funksiyalarida namoyon bo'ladi. Turli davr va turli maktab iqtisodchilari davlat byudjetining (moliyaning kabi) funksiyalarini yoritishga turlicha yondoshadilar. Jumladan, rus iqtisodchilari T.N.Kalinina va Y.S.Stryuchenkolarning fikricha, byudjet deganda jamiyat va fuqarolarning manfaatlarini samarali ta'minlash va himoya qilishga mo'ljallangan hamda qonun me'yorlariga asoslangan munosabatlar tizimi tushuniladi³. Mualliflar davlat byudjetining pul mablag'lari jamg'armasini shakllantirish, undan foydalanish va nazorat qilish funksiyalarini ajratib ko'rsatishgan.

Byudjetning birinchi funksiyasi moliyaning birinchi funksiyasi bilan mos keladi. Ikkinchi funksiyasi esa byudjet mablag'larini taqsimlash bilan bog'liq. Uning mohiyatini aniqlashda quyidagilarga e'tibor berish kerak. Rus olimi A.I.Bukovetskiy "xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida daromadlar emas, xarajatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati davomida daromadlaridan ortiq xarajatlarni amalga oshira olmaydi. Davlat moliyasi zarur hollarda xo'jalik yurituvchi subyektlardan kerakli resurslarni o'ziga daromad sifatida jalb qiladi" deb ta'kidlagan⁴. Agar tijorat asosida faoliyat yurituvchi subyektlarning maqsadi foyda olish bo'lsa, davlat moliyasining asosiy mazmuni sifatida jamiyatga xizmatlarni taqdim etishda yuzaga keladigan xarajatlar maydonga chiqadi. Bundan ko'rinib turibdiki, davlat moliyasi sohasida ikkinchi funksiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Olimlar tomonidan keltirilgan byudjetning uchinchi funksiyasi davlat (mahalliy) daromad va xarajatlar, byudjet daromadlari va xarajatlarini rejalashtirish va tasdiqlash, byudjet xarajatlarini moliyalashtirishni ta'minlash bo'yicha samarali byudjet siyosatini olib

² O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 1-bob, 3-modd. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-1-son.

³ <https://cyberleninka.ru/article/n/ekonomicheskaya-suschnost-byudzheta>

⁴ <https://cyberleninka.ru/article/n/ekonomicheskaya-suschnost-byudzheta>


borish bilan bog‘liq. Byudjetning ushbu funksiyalarini ajratib ko‘rsatishda aksariyat olimlar byudjetning qayta taqsimlash jarayonidagi o‘rniga alohida e‘tibor berishadi.

Milliy iqtisodchilarimizdan T.Malikov, N.Haydarov hammualifligidagi “Davlat byudjeti” o‘quv qo‘llanmasida davlat byudjetining funksiyalari quyidagi tarzda yoritilgan: “Davlat byudjeti moliyaning tarkibiy qismi sifatida, uning ikki funksiyasiga tayanadi: taqsimlash va nazorat⁵. Demak, davlat byudjetining amalda namoyon bo‘lish shakllarini o‘rgangan hamda ko‘pchilik iqtisodchi olimlarning fikriga qo‘shilgan holda, davlat byudjeti quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi deyish mumkin (1.2-chizma):

1. YalM qiymatini qayta taqsimlash funksiyasi;
2. Iqtisodiyotni tartibga solish va boshqarish funksiyasi;
3. Ijtimoiy funksiya;
4. Nazorat funksiyasi.

Yalpi ichki mahsulot qiymatini qayta taqsimlash funksiyasi. Davlat byudjeti mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot va uning tarkibiga kiruvchi milliy daromadning qiymatini qayta taqsimlashda o‘zining qayta taqsimlash funksiyasi bilan ishtirok etadi. Mamlakat yalpi ichki mahsulotining davlat byudjeti orqali qayta taqsimlanish jarayoni 1.2-chizmada aks ettirilgan. Bunday qayta taqsimlash jarayonlari natijasida byudjet daromadlari shakllanadi. Byudjet daromadlari davlat markazlashgan moliyaviy resurslarining bir qismi bo‘lib, davlatning funksiyalarini bajarish uchun zarurdir. Ular pul mablag‘lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni o‘zida ifoda etadi va turli darajadagi hokimiyat organlarining ixtiyoriga kelib tushadi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, har yili davlat byudjeti orqali mamlakat YalMning 30-40 foizi qayta taqsimlanadi.

⁵ Malikov T.S., Haydarov N.H. Davlat byudjeti. O‘quv qo‘llanma / Toshkent Moliya instituti. T.: IQTISOD–MOLIYA, 2007. 17-bet.



1.2-chizma. Davlat byudjetining iqtisodiy va huquqiy kategoriya sifatida mohiyati va funksiyalari

Iqtisodiyotni tartibga solish va boshqarish funksiyasi. Soliqlar va byudjet xarajatlari orqali byudjet iqtisodiyotni tartibga solish, investitsiyalarni rag‘batlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning hal qiluvchi va muhim quroli bo‘lib xizmat qiladi. Bunda byudjet mablag‘lari hisobidan iqtisodiyotning ilg‘or tarmoqlari – aviasozlik, kosmik dasturlar va loyihalar, atom sanoati, energetika va mashinasozlik sanoatlari kabilar qo‘llab-quvvatlanadi. Samaradorligi

yuqori bo'lgan va o'zini tez qoplovchi loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ham muhimdir. Lekin davlat byudjetining bu funksiyasidan orqada qolayotgan va qoloq ishlab chiqarishlarga moliyaviy yordam berish kabi yaqin o'tmishda mavjud bo'lgan va o'zini oqlamagan maqsadlarda foydalanish iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga jiddiy putur yetkazishini unutmaslik lozim.


Davlat byudjetining ijtimoiy funksiyasi. Mamlakat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda davlat byudjeti muhim o'rin egallaydi. Davlatning ijtimoiy kafolatlari doirasidagi xizmatlarni ko'rsatadigan ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat sohalarini mablag' bilan ta'minlash, aholining kam ta'minlangan qatlamlarini (pensionerlar, nogironlar, bolalar, kam ta'minlangan oilalar) ijtimoiy himoya qilish - ijtimoiy siyosatning ustuvorliklari hisoblanadi. Bundan tashqari, madaniyat keng ma'noda – iqtisodiy taraqqiyotning muhim komponentlaridan biridir, bu borada jamiyat a'zolarining imkoniyatlarini rivojlantirish taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Shunday ekan, bu yo'nalishdagi davlat tadbirlarini mablag' bilan ta'minlashda davlat byudjetining ijtimoiy funksiyasi yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Davlat byudjetining nazorat funksiyasi byudjet daromadlarining shakllanishi, byudjet mablag'larining oqilona va maqsadga muvofiq ishlatilishi, byudjetdan mablag' oluvchilarning moliya-xo'jalik faoliyati, ular tomonidan byudjet qonunchiligiga rioya qilish holati, yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning taqsimlanish va qayta taqsimlanish nisbatlarini nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega. Bunga asosiy sabab sifatida iqtisodiy munosabatlarning erkinlashtirilishi sharoitida davlat moliyaviy resurslarining shakllanishi va ishlatilishi ustidan nazoratning zarurligi va ahamiyatining tobora ortib borishini keltirish mumkin.

1.4. Davlat byudjeti orqali yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi

Moliyaning taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasi ushbu kategoriya bilan bog'liq byudjet kategoriyasiga ham xos bo'lib, u orqali jamiyatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot qayta taqsimlanadi.

Moliyaning ushbu funksiyasi orqali dastlab birlamchi daromadlar hosil bo'lishi kuzatiladi. Ularning miqdori milliy daromadga teng bo'ladi. Asosiy daromadlar milliy daromadning moddiy sohada faoliyat yuritayotgan ishchi-xodimlar o'rtasida taqsimlanishi natijasida hosil bo'ladi (1.3-chizma).



1.3-chizma. Moliya orqali YalM va MDning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi


Bunday daromadlar ikki guruhga bo'linadi: moddiy ishlab chiqarishda band bo'lgan barcha ishchi-xodimlarning ish haqi (daromadi) va shu soha korxonalarning daromadlari. Ammo birlamchi daromadlar mamlakatda xalq xo'jaligining ustuvor sohalarini rivojlantirish, davlat mudofaasini saqlab turish, aholining moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan markazlashgan pul fondlarini hosil qilmaydi.

Byudjet orqali qayta taqsimlash deganda byudjetga konsentratsiya qilingan (markazlashgan) moliyaviy resurs (daromad)lardan belgilangan funksiyalarga muvofiq, byudjet subyekti – davlat yoki mahalliy hokimiyat organlari talablari asosida foydalanish tushuniladi⁶.

Yalpi ichki mahsulotning byudjet orqali qayta taqsimlanishi jamiyatdagi umumiy ehtiyojlar: maorif, sog'liqni saqlash, mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, aholi tarkibida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, mudofaa, chegaralar dahlsizligini saqlash va favqulodda holatlar uchun shakllantiriladigan davlat zaxiralarining talab etilishi tufayli yuzaga keladi. Shuningdek, davlat byudjet orqali jamiyatning ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir qilishning moliyaviy dastaklariga ega bo'ladi.

Shuni ta'kidlash joizki, hozirgi sharoitda byudjet vositasida YaIMni taxminan 30-40% qismi qayta taqsimlanib, moliyaning boshqa hech qaysi bo'g'ini tarmoqlar, hududlar va iqtisodiyotning sohalari, davlat hokimiyatining markaziy va mahalliy darajalarida mablag'larni bunday yirik miqdorda qayta taqsimlash imkoniyatiga ega emasdir. Bozor munosabatlari sharoitlarida milliy daromadni taqsimlanishi pul daromadlari va jamg'armalarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish vositasida amalga oshiriladi. Bunday daromadlarga avvalo davlat daromadlari, korxona va tashkilotlar daromadlari, turli tijorat tizimlari, moliyaviy institutlar hamda aholi daromadlari kiradi.

⁶ Бюджетная система Российской Федерации. Учебник / под общ. ред. Ю. С. Долгановой, Н. А. Истоминой. Екатеринбург: Урал. унта, 2019. 356 с.




1.4-chizma. YaIMning byudjet orqali taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi⁷

⁷ Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. Darslik. T., 2010. 13-b.


Milliy daromadni sezilarli qismi davlat, xususiyl va tijorat korxonalari daromadlarini soliqqa tortish vositasida markazlashgan pul foni (byudjet)ga to'g'ridan to'g'ri taqsimlash yo'li bilan kelib tushadi. Aholini sof daromadlarining bir qismini byudjetga qayta taqsimlash tartibida kelib tushadi.

Davlat byudjeti orqali milliy daromadning bir qismini taqsimlanishi jamiyat ijtimoiy hayotining ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari, tarmoqlari o'rtasida mablag'larni taqsimlash yo'li bilan kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va jamiyatning boshqa yalpi ehtiyojlarini qondirish uchun markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini shakllantirish zarurati bilan bog'liqligi Z.X.Srojiddinova tomonidan yuqoridagi 1.4-chizmada yoritilgan.



1.5-chizma. **Qayta taqsimlash jarayonida byudjetning ahamiyati**

Byudjet munosabatlari natijasida hududlar, jamoat faoliyati sohalari va tarmoqlar o'rtasida resurslarning qayta taqsimoti amalga oshiriladi. Har bir mamlakatda turli xil samaradorlikka ega bo'lgan tarmoqlar kuzatiladi. Byudjet munosabatlari orqali samaradorligi yuqori



bo'lgan tarmoq daromadlari samaradorligi past bo'lgan tarmoq hamda ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan sohalar (masalan sog'liqni saqlash)ga qayta taqsimlanadi. Shu orqali iqtisodiy tenglik ta'minlanadi. Byudjetning qayta taqsimlash jarayonidagi ishtirokini quyidagi chizma orqali ifodalashimiz mumkin.

Demak, mamlakatda yaratilgan YaIM soliqlar, yig'imlar va bojlar orqali taqsimlanib, davlatning markazlashtirilgan pul fondi, ya'ni byudjet (daromadlari)ni hosil qilsa, qayta taqsimlanishi natijasida esa mamlakatda noishlab chiqarish sohasini, milliy iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini hamda ma'muriy hududlarni mablag' bilan ta'minlash jarayoni amalga oshiriladi.

1.5. Davlat byudjeti: moddiy ma'noda, davlat ixtiyoridagi markazlashtirilgan pul fondi va huquqiy kategoriya sifatida

Davlat byudjeti tushunchasining mazmunini keng yoritish, uning mohiyatini tushunish uchun byudjetning moddiy ma'noda, huquqiy kategoriya hamda davlat ixtiyoridagi markazlashtirilgan pul fondi ekanligini o'rganish lozim.

Moddiy tushuncha sifatida davlat byudjeti – markaziy hukumat va tegishli darajadagi mahalliy hokimiyat idoralari faoliyatini ta'minlovchi, ular oldidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vazifalarni bajarishga mo'ljallangan markazlashtirilgan pul mablag'lari fondidir. O'zbekiston Respublikasida 2014-yilgacha amalda bo'lgan "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonunda davlat byudjetiga aynan moddiy ma'nodagi tushuncha sifatida ta'rif berilgan. Unda ta'kidlanishicha, "Davlat byudjeti – davlat pul mablag'larining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromad manbalari va ulardan tushumlar

miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi"⁸.

U.Inoyatov, G.Ahmadjonovalar tomonidan byudjetning moddiy mazmuniga berilgan ta'rif ham diqqatga molik. Ularning fikricha, "Davlat byudjeti – davlat ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi pul resurslarini shakllantirish bilan bog'liq jamiyat boyligining bir qismi bo'lib, bu munosabatlar subyektlari davlat korxonalari, birlashmalari, tashkilotlari, muassasalari va fuqarolar hisoblanadi"⁹.

Byudjetning mohiyati ham davlatning qo'lida markazlashtirilgan pul jamg'armalarining tashkil etilishi va davlatning ijtimoiy iqtisodiy siyosatini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish uchun kengaytirilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish natijasida yaratilgan qo'shilgan qiymatning bir qismi hisobiga markazlashtirilgan pul fondlarini shakllantirish bilan bog'liq pul munosabatlarini bildiradi.

Davlat byudjetiga davlat ixtiyoridagi markazlashtirilgan pul fondi sifatida yondashadigan bo'lsak, u davlat pul mablag'larining markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Huquqiy kategoriya sifatida davlat byudjeti – markaziy va tegishli mahalliy hokimiyat va ijroiya organlari tomonidan ishlab chiqiladigan va belgilangan tartibda tasdiqlanadigan, markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini shakllantirish, taqsimlash va maqsadli ishlatishni ko'zda tutuvchi asosiy moliyaviy reja, yuridik hujjatdir. Yuridik hujjat sifatida O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti Byudjet kodeksida belgilangan tartibda va muddatlarda har moliya yili uchun (O'zbekiston

⁸ O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi to'g'risida"gi O'RIQ- 158-II-son Qonuni, 3-modda.

⁹ Inoyatov G.U., Ahmadjonova G.N. Byudjet va byudjet tizimi: O'quv qo'llanma. T.: O'MKHTM, Turon-iqbol, 2006. 304 bet.

Respublikasida moliya yili kalendar yiliga mos keladi, lekin dunyo mamlakatlarida ularning an'analari va mamlakat hayotidagi muhim, hal qiluvchi tarixiy sanalariga muvofiq, byudjet yili kalendar yiliga mos kelmasligi mumkin) tuziladi, ko'rib chiqiladi, tasdiqlanadi va ijro etiladi.

1.6. Davlat byudjetining umumiy moliyaviy munosabatlar tarkibidagi o'rni va ahamiyati

Byudjet iqtisodiy kategoriya sifatida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimida markaziy bo'g'inda ishtirok etishi bilan aholining ma'lum qatlami manfaatlarini o'zida aks ettiradi. Bu tushunchada byudjet munosabatlari o'zida iqtisodiy rivojlanishning aniq falsafasi va ideologiyasini aks ettiradi.

Byudjet munosabatlari obyektiv xarakter kasb etadi. Chunki byudjet davlat va unga tegishli funksiyalarni amalga oshirish uchun zaruriy moddiy-moliyaviy baza shakllantirilishi uchun obyektiv zarurdir. Shu bilan birgalikda, byudjet munosabatlari bazis elementi hisoblanadi. Takror ishlab chiqarish jarayonida byudjet munosabatlari ularga muvofiq keluvchi moddiy shaklni oladi.

Byudjet munosabatlari – jamiyat iqtisodiy tizimining elementidir. Iqtisodiy kategoriya sifatida byudjet munosabatlari moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Byudjetning moliyaga xos sifat belgilari birinchidan, ijtimoiy mahsulot qiymatining taqsimlanish jarayonida, aniqrog'i qayta taqsimlanishi jarayonida vujudga kelib, pul munosabatlarining o'ziga xos shakli hisoblanadi. Ikkinchidan, byudjet davlat ehtiyojlari uchun zaruriy markazlashtirilgan moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va undan foydalanish bilan bog'liq pul munosabatlari hisoblanadi.

Byudjet munosabatlarining o'ziga hos xususiyatlari quyidagilardan iboratdir:

– byudjet davlat qo‘lida milliy daromadni bir qismini jamlash va ijtimoiy ehtiyojlar va alohida davlat-hududiy tuzilmalar uchun undan foydalanish bilan bog‘liq qayta taqsimlash munosabatlarining alohida iqtisodiy shakli hisoblanadi;

– byudjet yordamida milliy daromadning bir qismi va ayrim holatlarda milliy boylik xalq xo‘jaligining tarmoqlari, mamlakat hududlari, ijtimoiy faoliyat sohalari o‘rtasida qayta taqsimlanadi;

– qiymatni byudjet orqali qayta taqsimlash nisbati moliyaning boshqa bo‘g‘inlariga nisbatan yirik miqdorni tashkil qiladi va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va jamiyat rivojlanishining har qaysi tarixiy bosqichlarida uni rivojlanishi oldida turgan vazifalari orqali aniqlanadi.

Demak, byudjet iqtisodiy mohiyati nuqtai nazaridan mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida ko‘rib o‘tiladigan bo‘lsa, davlatning moliyaviy asosini, qonuniy o‘rnatilishi nuqtai nazaridan esa davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida ko‘rib o‘tiladi.

Davlat byudjeti mamlakat moliya tizimining asosi bo‘lishi bilan bir qatorda davlat moliyasining markaziy bo‘g‘inini tashkil etadi. Davlat byudjetining iqtisodiy tuzilishi va mazmuni bevosita davlatning funktsiya va majburiyatlaridan kelib chiqadi. Chunki davlat jamiyatni boshqarish uchun o‘z oldiga bir nechta vazifalarni qo‘yadiki, u vazifalarni moliyaviy mablag‘lar bilan ta‘minlashda byudjet mablag‘lari xizmat qiladi. Boshqa iqtisodiy kategoriyalar kabi davlat byudjeti ham tizimli ravishda uluksiz shakllanib turuvchi kategoriyalardan biridir.

Davlat byudjeti ham tarixiy kategoriya hisoblanadi. Chunki, uning shakllanishi, davlatchilik munosabatlarining paydo bo‘lishi bilan obyektiv ravishda bog‘langan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida ilk davlat byudjeti munosabatlariga to‘xtalib, ayrim iqtisodchilar, Turkiston Respublikasining davlat byudjetini xon xazinasidan davlat xazinasining

ajratilishi jarayoniga bog'laydilar¹⁰. Bunday bog'liqlikning asosi shu bilan izohlanadiki, davlat byudjeti birinchidan davlatning asosiy moliyaviy rejasini ifodalaydi, ikkinchidan, asosiy markazlashtirilgan pul fondi sifatida har bir jamiyatda shakllantirilgan byudjet fondi o'sha jamiyatda yashovchi aholining moliyaviy manfaatlarini o'zida ifodalaydi, uchinchidan, uning daromad qismini shakllanishi mamlakatda yaratilgan milliy daromadning bir qismini soliqlar yoki boshqa instrumentlar vositasida uzluksiz markazlashtirish va ushbu markazlashgan fondlardan davlatning jamiyatdagi asosiy funksiyalarini bajarishlari uchun sarflanadigan mablag'larning sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Davlat byudjeti mamlakat moliya tizimining bosh bo'g'ini sifatida umumdavlat moliyasi bo'g'inining barcha tarkibiy elementlari, ya'ni byudjetdan tashqari jamg'armalar, davlat krediti va davlat korxonalari moliyasi bilan, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi bo'g'inining tarkibiy elementlari bilan byudjet daromadlarini soliqlar orqali shakllantirish va noishlab chiqarish tarmog'ini mablag' bilan ta'minlash orqali bog'liq bo'ladi.

Yuqoridagi 1.6-chizmada davlat byudjetining asosiy o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha sifat belgilari ifodalangan bo'lib, unda e'tirof etilishicha, davlat byudjeti davlat moliya tizimining yetakchi bo'g'inini tashkil etadi. Chunki, davlat byudjeti orqali yalpi ichki mahsulotning sezilarli qismi qayta taqsimlanadi, qolaversa, pul fondi sifatida boshqa fondlarga nisbatan yirik miqdordagi moliyaviy resurslarni qayta taqsimlaydi.

¹⁰ X.Qurbonov va b. Davlat byudjeti: O'quv uslubiy majmua. T., 2013.



- moliya tizimining yetakchi bo'g'ini sifatida asosiy markazlashtirilgan pul fondi hisoblanadi va boshqa fondlardan farqli ravishda davlat byudjeti orqali YaIMning sezilarli qismi qayta taqsimlanadi;
- milliy iqtisodiyotni muvozanatli rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish vositasi bo'lib hisoblanadi



- moliyaviy munosabatlarning alohida tizimi sifatida imperativ xususiyatga ega bo'lgan moliyaviy munosabatlarni o'zida ifodalaydi;
- YaIM va MDni sohalar, tarmoqlar va hududlar o'rtasida taqsimlash vositasi hisoblanadi



- davlatning moliya yiliga mo'ljallangan asosiy moliyaviy rejasi hisoblanadi;
- davlat tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni moliyaviy ta'minlashning asosiy manbai hisoblanadi

1.6-chizma. Davlat byudjetining o'ziga xos xususiyatlari

Shuningdek, davlat byudjeti davlatning asosiy moliyaviy rejasi hisoblanadi. Ushbu xususiyati bilan davlat byudjetining istiqboldagi prognoz ko'rsatkichlari davlatning istiqboldagi iqtisodiy siyosatining falsafasi, mazmun va mohiyatini o'zida ifodalaydi.

***Tayanch so'z va iboralar** Byudjet, davlat byudjeti, byudjet munosabatlari, pul fondi, moliyaviy reja, huquqiy kategoriya.*

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar

1. Davlat byudjetining iqtisodiy, moddiy, shakl va huquqiy kategoriya sifatidagi mohiyatlarining bir-biridan farqli xususiyatlarini aytib bering.
2. Davlat byudjetining byudjet tizimidagi ahamiyati nimadan iborat?
3. Davlat byudjeti funksiyalari orqali mamlakatda yaratilgan YalMni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonini tushuntirib bering.
4. Davlat byudjetining umumiy moliyaviy munosabatlar tarkibidagi ahamiyati qanday?
5. “Davlat byudjeti” fani qaysi iqtisodiy fanlar bilan bog‘liq?

II BOB. BYUDJET TUZILISHI VA BYUDJET TIZIMI

2.1. Byudjet tuzilishi va tizimi to'g'risida tushuncha. Jahonda mavjud byudjet qurilishi modellari, ularning xususiyatlari

Byudjet tuzilishi deganda byudjet tizimi tarkibida uni tashkil etuvchi elementlar (byudjet turlari, bo'g'inlari)ni ajratish va ular o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash imkoniyatini beradigan tashkiliy-huquqiy tuzilishi tushuniladi. Sodda qilib aytadigan bo'lsak, byudjet tuzilishi byudjet tizimi qurilishi hamda byudjet jarayonini tashkil etishning asosiy tamoyillarini anglatadi.

Byudjet tuzilishi davlatning (ma'muriy-hududiy) tuzilishi bilan belgilanadi. Mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishi byudjet tizimlari bo'g'inlari sonini belgilaydi, har bir darajadagi davlat hokimiyati organiga tegishli byudjet konstitutsiyaviy yo'l bilan birlashtirilgan bo'ladi. Mamlakatlarning davlat tuzilishidagi, hokimiyat turli darajalarining byudjet huquqlaridagi farqlar turli shakldagi va modeldagi byudjet tizimlarini mavjudligini belgilaydi. Davlatning byudjet tuzilishi turli darajadagi byudjetlarning turlarini, har bir byudjet bo'g'inining tayinlanishini, turli pog'onadagi byudjetlar o'rtasida daromad va xarajatlarning taqsimlanishini, ularning amal qilish tamoyillarini, markaziy hukumat va mahalliy hokimiyat organlarining byudjet tizimini boshqarishdagi vakolatlarini belgilab beruvchi yuridik me'yorlarga asoslanadi. Bundan shu fikr kelib chiqadiki, "byudjet tuzilishi" tushunchasi mazmun jihatidan "byudjet tizimi"dan kengroq tushunchani anglatadi. Byudjet tizimi esa mamlakatda amal qiluvchi barcha darajadaga byudjetlar yig'indisini bildiradi.

Demak, byudjet tuzilishi mamlakatning davlat byudjeti va byudjet tizimini, uning bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil qilish shakllarini, byudjet tasnifini, byudjet tizimiga kiradigan barcha darajadagi byudjetlar faoliyatining huquqiy asoslarini, byudjetlar tarkibi va tuzilmasini, byudjet mablag'larini shakllantirish va sarflashdagi

tartib-qoidalar va boshqalarni belgilab beradi. Rus iqtisodchilari tomonidan ham aynan har bir mamlakat o'zining davlat tuzilishi hamda ma'muriy-hududiy bo'linishi bilan belgilanadigan byudjet qurilishiga ega bo'lishini ta'kidlaganlar¹¹.

Demak, byudjet tuzilishining qanday bo'lishi mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishiga, amalda bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga va hukumat organlarining vakolatlari taqsimotiga bog'liq bo'ladi. Markaziy hukumat bilan mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmalari (shtatlar, provinsiyalar, oblast (viloyat)lar, o'lkalar kabi) o'rtasida hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishiga ko'ra barcha davlatlar unitar va federativ (federativ davlatlarda davlat qurilishining ikki shakli – federativ va konfederativ davlat qurilishi mavjud) davlatlarga bo'linadi.

Unitar (yagona) davlat – bu tarkibidagi ma'muriy-hududiy birliklar (tuzilmalar) o'z davlatchiligiga yoki muxtoriyatiga ega bo'lmaydigan davlat tuzilishidir. Mamlakatda yagona konstitutsiya, hamma uchun umumiy bo'lgan huquq tizimi va yagona hokimiyat organlari, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni markazlashtirilgan boshqarish tizimi amal qiladi. Unitar davlatlarda ikki pog'onali byudjet tizimi amal qiladi:

- davlat byudjeti (bu bo'g'in turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi, masalan, markaziy byudjet, respublika byudjeti, hukumat byudjeti kabi);
- mahalliy byudjetlar.

Unitar davlatlarga Qozog'iston, Yaponiya, Shvetsiya, Fransiya, Polsha, O'zbekiston kabi davlatlar kiradi.

Federativ asosda tarkib topgan davlatlarda uch pog'onali byudjet tizimi amal qiladi:

- federal byudjet (turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi, masalan: davlat byudjeti, markaziy byudjet, federal byudjet);
- federatsiya subyekt (a'zo)larining byudjetlari;
- mahalliy (munitsipal) byudjetlar.

¹¹ Бюджетная система Российской Федерации: Учебник / под общ. ред. Ю. С. Долгановой, Н. А. Истоминой. Екатеринбург: Урал. унта, 2019. С. 39.

Federativ davlatlarga Rossiya Federatsiyasi, Germaniya Federativ Respublikasi, AQSh, Kanada, Meksika, Avstriya kabi davlatlar kiradi.

Jahon amaliyotida davlat qurilishining shakllariga mos ravishda bir qancha byudjet tuzilishi modellari amal qiladi:

- markazlashmagan model;
- markazlashgan model;
- aralash model.

Byudjet tuzilishining markazlashmagan modelida markaziy va mahalliy byudjetlar avtonom (mustaqil) bo'lib, ularning har biri o'z xarajatlarini to'liq qoplay oladigan daromad manbalariga ega bo'ladi.

Markazlashgan model barcha darajadagi byudjetlarni yagona davlat byudjetida birlashtirishni nazarda tutadi, bunda markaziy byudjet barcha mahalliy byudjetlar uchun (daromadlilik darajasini) tartibga soluvchi vazifani bajaradi.

Byudjet tuzilishining aralash modeli barcha darajadagi byudjetlarni yagona davlat byudjetida birlashtirishni nazarda tutadi, lekin bunda har bir yuqori turuvchi byudjet quyi byudjetlarning daromadlilik darajasini tartibga solish vazifasini bajargani holda, har bir mahalliy byudjetning ham o'z xarajatlarini qoplashga mo'ljallangan o'z daromad manbalari mavjud bo'ladi.

Federatsiya a'zolarining mavqeidan kelib chiqib byudjet qurilishi modeli ikkiga ajratiladi:

- Simmetrik (federatsiya a'zolarining tengligi kuzatiladi, AQSh, Germaniya);
- Assimetrik (federatsiya a'zolarining 6 xil mavqeyi kuzatiladi, Rossiya).

Byudjet qurilishiga demokratlashtirish va markazlashtirishning ta'siri nuqtai nazaridan ham ikki turi farqlanadi:

- Liberal-demokratik model (Rossiya). Ushbu model mustaqillik tamoyili asosida amalga oshiriladi;

– Ma'muriy-jamoaviy model (sobiq ittifoq mamlakatlari). Ushbu model yagonalik va markazlashtirish tamoyillari asosida amalga oshirilgan.

Mustaqillik darajasiga ko'ra byudjet qurilishi Amerika va G'arbiy-Yevropa tipida bo'lishi mumkin. Amerika tipidagi byudjet qurilishida quyi darajada (ikkinchi va uchinchi darajada)gi byudjetlar avtonomligi bilan, G'arbiy-Yevropa tipidagi modelda esa federal byudjet hududiy taraqqiyotni tartibga keltirishda yuqori darajadagi ishtiroki bilan ajralib turadi.

2.2. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va uning asosiy tamoyillari


Samarali byudjet tizimini shakllantirish byudjetning huquqiy munosabatlarini uyg'unlashtirish, byudjet mablag'larining maqsadi va muddati bo'yicha harakatini shakllantirishning asosiy muammolaridan hisoblanadi¹².

O'zbekistonning byudjet tuzilishi modeli markazlashtirilgan bo'lib, byudjet tizimi ikki darajaga ega. Birinchi darajaga O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti, ikkinchisiga esa – Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar kiradi. Bunda respublika byudjeti byudjet tizimining asosiy darajasi hisoblanadi, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning yig'indisi O'zbekiston byudjet tizimining ikkinchi darajasini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti umumdavlat soliqlari va majburiy to'lovlari hisobiga shakllantiriladi va umumdavlat ahamiyatiga molik tadbirlarni moliyalashtirishga ishlatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 3-moddasiga asosan, byudjet tizimi byudjetlari O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari va byudjet

¹² <https://cyberleninka.ru/article/n/ekonomicheskaya-suschnost-byudzheta>

tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalaridan iborat (2.1-chizma).



2.1-chizma. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining tuzilishi

Keng ma'noda byudjet tizimi – iqtisodiy munosabatlarga asoslangan, davlat qurilishining shakliga mos ravishda tuzilgan, huquq normalari bilan tartibga solinadigan markaziy va mahalliy byudjetlar yig'indisidan, shuningdek, har bir byudjet bo'g'iniga tegishli bo'lgan soliq va yig'imlar yig'indisidan, xarajat vakolatlari hamda byudjetlararo transfertlar yig'indisidan iboratdir. Tor ma'noda byudjet tizimi mamlakatda amal qiluvchi barcha darajadagi byudjetlar yig'indisidir.

Biz yuqorida hokimiyatning markaziy va ma'muriy-hududiy birliklar o'rtasida taqsimlanishi darajasiga ko'ra barcha davlatlar unitar, federativ va konfederativ davlatlarga bo'linishini, ularning xususiyatlarini ta'kidlab o'tdik. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi unitar davlatdir.


Unitar davlat sifatida O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi ikki bo'g'indan – respublika byudjeti va mahalliy byudjetlardan tashkil topadi. Bu byudjetlar mamlakatimizdagi davlat byudjeti amal qilishining tashkiliy shakli bo'lib xizmat qiladi. Davlat byudjeti o'z ichida respublika byudjetini, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetini va keng tarmoqli mahalliy byudjetlarni birlashtiradi. O'zbekiston Respublikasi

Byudjet kodeksining “Byudjet tizimi tushunchasi va tamoyillari” deb nomlangan 2-bobining 6-moddasida byudjet tizimiga quyidagicha ta’rif berilgan:

“Byudjet tizimi barcha darajadagi byudjetlar, davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg’armalari, byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va tashkil etish tamoyillari, ular o’rtasida byudjet jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o’zaro munosabatlar yig’indisini o’zida ifodalaydi. Moliya yili uchun byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko’rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish O’zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so’mda amalga oshiriladi”¹³.

Bugungi kunda davlat byudjetida davlatning byudjetdan tashqari maqsadli fondlari ham konsolidatsiyalashadi (jamlanadi), ular davlat byudjeti bilan birgalikda jamlanma byudjetni (konsolidatsiyalashgan byudjet) tashkil qiladi.

O’zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 5-bob 34-36-moddalariga ko’ra, Davlat byudjeti quyidagi darajadagi byudjetlardan iborat (2.2-chizma).



2.2-chizma. O’zbekiston Respublikasining byudjet darajalari byudjetlari

¹³ O’zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2013y ., 52-l-son. 6-modda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti tuzilmasiga Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va shaharlarining byudjetlari kiradi.

Viloyatlar mahalliy byudjetlari tuzilmasiga viloyat byudjeti, tegishli viloyatlar tumanlari va shaharlarining byudjetlari kiradi.

Toshkent shahar mahalliy byudjeti tuzilmasiga shahar byudjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarning byudjetlari kiradi.

Respublika byudjeti byudjet tizimining markaziy bo‘g‘ini hamda davlat byudjetining umumdavlat ahamiyatidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining “Byudjet tizimi tushunchasi va tamoyillari” deb nomlangan 2-bobining 7-moddasiga asosan, byudjet tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- byudjet tizimining yagonaligi;
- byudjet tizimining O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi;
- byudjet tizimi byudjetlarining balanslilik va o‘zaro bog‘liqligi;
- byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini prognoz qilish va xarajatlarini rejalashtirish;
- byudjet tizimi byudjetlari mablag‘laridan foydalanishning aniq yo‘naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati;
- byudjet tizimi byudjetlarining mustaqilligi;
- byudjet tizimi byudjetlari mablag‘laridan foydalanishning natijadorligi;
- kassaning yagonaligi;
- byudjet jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi;
- ochiqlik.

Byudjet tizimining yagonaligi tamoyili

Byudjet hujjatlari va byudjet hisobotlarining shakllari, byudjet tasnifi yagona bo‘lishi hamda byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari

va xarajatlarini shakllantirish hamda ijro etish, byudjet hisobini yuritish va byudjet hisobotini tuzishning yagona tartibini nazarda tutishi lozim.

Byudjet tizimining O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi tamoyili. Byudjet tizimi O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiq bo'lishi lozim.

Byudjet tizimi byudjetlarining balansiligi va o'zaro bog'liqligi tamoyili.

Byudjet tizimi byudjetlarida nazarda tutilgan xarajatlar hajmi ularning daromadlari va taqchillikni qoplash manbalari yig'indisining hajmiga muvofiq bo'lishi kerak.

Byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va ijro etishda byudjetlarning mablag'lari mazkur byudjetlarning balansiligini ta'minlash uchun ular o'rtasida qayta taqsimlanishi mumkin.

Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini prognoz qilish va xarajatlarini rejalashtirish tamoyili.

Byudjet tizimi byudjetlarini tuzishda byudjet tasnifiga muvofiq, daromadlar ularning aniq manbalari bo'yicha prognoz qilinadi, xarajatlar esa yo'nalishlar bo'yicha rejalashtiriladi.

Byudjet tizimi byudjetlari mablag'laridan foydalanishning aniq yo'naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati tamoyili.

Byudjet tizimi byudjetlarining mablag'lari muayyan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarga ushbu mablag'lardan belgilangan maqsadlarni moliyalashtirishda foydalanish uchun ajratiladi.

Byudjet tizimi byudjetlarining mustaqilligi tamoyili.

Byudjet tizimi byudjetlari mustaqildir.

Byudjet tizimi byudjetlari mablag'laridan foydalanishning natijadorligi tamoyili.

Byudjet jarayoni ishtirokchilari byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va ijro etishda o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida byudjet tizimi

byudjetlarining belgilangan hajmdagi mablag'laridan foydalangan holda natijaga erishish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Kassaning yagonaligi tamoyili.

Byudjet tizimi byudjetlarining barcha daromadlari Yagona g'azna hisobvarag'iga kiritiladi va ularning xarajatlarini to'lash ushbu hisobvaraqdan amalga oshiriladi.

Byudjet jarayoni ishtirokchilarining **javobgarligi tamoyili** byudjet jarayonining har bir ishtirokchisi byudjet jarayonining har bir bosqichida o'z harakatlari uchun javobgar bo'lishidan iboratdir.

Ochiqlik tamoyili.

– Davlat byudjetini va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini ko'rib chiqish hamda qabul qilish tartib-taomillarining jamiyat va ommaviy axborot vositalari uchun ochiqligini;

– tasdiqlangan Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari to'g'risidagi axborotning ommaviy axborot vositalarida va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb-saytida e'lon qilinishini (chop etilishini);


– Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari ijrosining borishi to'g'risidagi axborot ommaviy axborot vositalarida chop etilishini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirilishi va yangilab borilishini anglatadi.

2.3. O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti

Mamlakat byudjet tizimida konsolidatsiyalashgan byudjet muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 7-8-bob 45-49-moddalari bevosita O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti va uning tarkibiy tuzilishiga bag'ishlangan.

O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti tarkibiga quyidagilardan tashkil topadi (2.3-chizma):



2.3-chizma. O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti

O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan moliya yili yakunlari bo'yicha tahliliy maqsadlar uchun hamda byudjet tizimi byudjetlarining (byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari bundan mustasno) barcha tushumlari va xarajatlarini hamda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larini, ular o'rtasidagi transfertlarni hisobga olmagan holda hisobga olib borish maqsadida tuziladi. Xuddi shunday, Rossiya amaliyotida Federal byudjet va byudjet tizimidagi boshqa byudjet bo'g'inlari (ushbu byudjet bo'g'inlari o'rtasidagi byudjetlararo transfertlarsiz va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar byudjetlarisiz) jamlanmasi Rossiya Federatsiyasi konsolidatsiyalashgan byudjetni tashkil etadi¹⁴.

O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti tarkibiga kiritiladigan davlat maqsadli jamg'armalarining ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlanadi.

¹⁴ Бюджетная система Российской Федерации: учебник / под общ. ред. Ю. С. Долгановой, Н. А. Истоминой. Екатеринбург: Урал. ун-та, 2019. С. 39.

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi ham konsolidatsiyalashgan byudjetning tarkibiy qismi hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi moliyaviy muassasadir va u ustuvor investitsiya loyihalarini hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlashga, mamlakatni muttasil, barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishilishiga, shuningdek samarali tarkibiy va investitsiya siyosati amalga oshirilishiga doir loyihalarni moliyalashtirish uchun mablag'larni jamlaydi.

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini boshqarish Kengashi O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining yuqori boshqaruv organi bo'lib, uning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining ijro etuvchi direksiyasi O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining ijro etuvchi organi va mablag'larini taqsimlovchidir.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining ijro etuvchi direksiyasi O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga:

- har yili 1-iyulgacha O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining kelgusi yil uchun daromadlari va xarajatlari loyahasini;

- yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunigacha O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotni taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining daromadlari quyidagilardan shakllanadi¹⁵:

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-I-son. 48-modda.

– asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va Davlat byudjeti parametrlarini tasdiqlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari bilan strategik resurslarga belgilanadigan chegara narxidan jahon narxining oshishi natijasida tushadigan tushumlar;

– O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining aktivlarini boshqarishdan, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘larining bo‘sh turgan qoldiqlarini joylashtirishdan olinadigan daromadlar;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

– O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining mablag‘lari o‘zining O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan hisobvaraqlarida chet el valyutasida shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining hisobvaraqlariga tushadigan milliy valyutadagi mablag‘larning O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mablag‘lar tushgan sanadagi almashuv kursi bo‘yicha chet el valyutasiga konvertatsiyasini amalga oshirib, ularni keyinchalik mazkur jamg‘armaning valyuta hisobvarag‘iga kiritadi.

O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining mablag‘laridan quyidagi yo‘nalishlarda foydalaniladi:

O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining mablag‘laridan:

– rivojlanish davlat dasturlariga kiritilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish;

– yangi sanoat ishlab chiqarishlarini bundan buyon joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va rekonstruksiya qilish loyihalarini moliyalashtirish uchun imtiyozli kreditlar berish;

– yangidan tashkil etilayotgan moliyaviy institutlarning hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlaridagi chet el investitsiyalari ishtirokidagi strategik ahamiyatga molik korxonalarning ustav kapitaliga investitsiya kiritish;

– davlat tomonidan tashqi mablag‘larni jalb qilish bo‘yicha xalqaro moliya institutlari va chet ellik kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to‘lash;

– O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash dasturlari doirasida tijorat banklari uchun chet el valyutasida ochiladigan kredit liniyalari orqali investitsiya loyihalarini jadal moliyalashtirish va amalga oshirish;

– grant asosida yoki foizsiz kreditlar berish yo‘li bilan ayrim loyihalarning dastlabki yoki uzil-kesil texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishni moliyalashtirish;

– tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq yangi zamonaviy xorijiy texnologiyalar, texnika va asbob-uskunalar, strategik ahamiyatga molik boshqa tovarlar xarid qilish uchun imtiyozli kreditlar berish;

– ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik milliy davlat dasturlarini hamda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirishga doir loyihalarni grant asosida moliyalashtirish;

– qarz oluvchi korxonalarning investitsiya dasturlarini (biznes-rejalarini), shu jumladan ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta jihozlash, ishlab chiqarish quvvatlarining ishlatilishini ko‘paytirish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va uni eksport qilish hajmlarini oshirish, qo‘shilgan qiymat o‘shirishni ta‘minlashga imkon beradigan investitsiya dasturlarini (biznes-rejalarini) tijorat banklari bilan birgalikda moliyalashtirish;

– O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining ijro etuvchi devonini saqlab turish hamda uni boshqarish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash uchun foydalaniladi.

Tayanch so‘z va iboralar *Byudjet tuzilishi, byudjet tizimi, byudjet tizimi tamoyillari, konsolidatsiyalashgan byudjet, byudjet tizimi byudjetlari.*

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar:

1. Byudjet tizimi va tuzilishi bir-biridan qanday farqlanadi?
2. Byudjet tuzilishi xalqaro modellari turlariga to‘xtalib o‘ting.
3. Byudjet tizimi qaysi tamoyillar asosida boshqariladi?
4. Byudjet tizimi byudjetlari tushunchasi nimani anglatadi?
5. O‘zbekiston Respublikasi Konsolidatsiyalashgan byudjet tarkibini izohlang.

III BOB. DAVLAT BYUDJETNING HUQUQIY ASOSLARI

3.1. Davlat byudjeti qonunchiligi va byudjet huquqi

Byudjet munosabatlarini tartibga solishda mamlakatning byudjet qonunchiligi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning asosiy sababini byudjet huquqi normalarini uning manbalari bo'lgan turli normativ-huquqiy hujjatlar orqali mustahkamlanishi bilan izohlash mumkin. Byudjet huquqining dastlabki normalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qayd etilgan bo'lib, uning tegishli normalari byudjet tuzilishi va davlat byudjet tizimi asoslarini (122-modda), shuningdek, vakillik va ijroya organlarining byudjetni tartibga solish sohasidagi vakolatini mustahkamlab beradi (78, 100-moddalar).

Ushbu konstitutsiyaviy normalarni rivojlantirishda byudjet munosabatlarini tartibga soluvchi ko'p sonli normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular orasida, avvalambor, "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonunni ko'rsatib o'tish mumkin edi. Ushbu qonun byudjet huquqi manbalari ichida alohida o'rin egallab, maxsus belgilangan qonunchilik hujjati sifatida umumiy huquqiy asoslarni mustahkamlab bergan. O'zbekiston Respublikasining byudjet munosabatlarini tartibga soluvchi barcha me'yoriy hujjatlar ular asosida tuzilishi kerak. Qonun, xususan, davlat byudjetini tuzish tamoyillari va tuzilmasini, uni tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish tartibini belgilab bergan. Shuningdek, unda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish va xarajatlarini amalga oshirish, hisob-kitoblar va hisobot tartibi hamda davlat byudjeti mablag'lari bilan operatsiyalarni amalga oshirishni nazorat etish tamoyillari mustahkamlangan. Ushbu qonun 2014-yil 1-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining amalda qo'llanila boshlashi munosabati bilan o'z kuchini yo'qotdi.

Byudjet huquqining maxsus manbalari qatoriga O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustda qabul qilingan "Davlat

byudjetining G‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi qonuni ham kirgan. Ushbu qonun davlat byudjetining g‘azna ijrosi tushunchasini va uning asosiy tamoyillarini, maxsus vakolatli moliyaviy organ va uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, tuman va shaharlardagi bo‘linmalarining vazifalarini belgilab bergan. Mazkur normativ hujjat davlat byudjetining barcha daromadlarini yagona g‘azna hisobvarag‘iga kiritish va davlat byudjetining xarajatlarini shu hisobvaraqdan to‘lashning, G‘aznachilikning boshqa organlar va tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatining qonuniy asoslarini o‘rnatar edi. Ushbu qonun ham 2014-yil 1-yanvarda o‘z kuchini yo‘qotgan.

Bugungi kunda byudjet munosabatlarini tartibga solishda qo‘llaniladigan asosiy hujjat O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi hisoblanadi. U yuqorida keltirilgan ikki qonunni o‘z ichiga olgan bo‘lib, byudjet jarayonini tartibga solish masalalarini qamrab olgan.

Shuningdek, byudjet huquqining manbalariga umumiy xususiyatdagi ayrim qonunchilik hujjatlari, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasining “Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonunlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi “Moliya Vazirligi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomasi ham kiradi.

Byudjet qonunchiligini belgilashda byudjet huquqi muhim ahamiyat kasb etadi. Moliya huquqiga oid adabiyotlarda byudjet huquqi predmetini tashkil etuvchi, o‘zining mazmuni va maqsad yo‘nalishlari bilan yagona bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar, ya‘ni quyidagilarni belgilash yoki tartibga solish bilan bog‘liq munosabatlar yoki normalar blokining aniq turlariga birlashadi:

- byudjet tuzilishi va davlat byudjeti tizimi;
- byudjet tizimi daromadlar va xarajatlar tuzilmasi, ularni byudjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida taqsimlash tartibi;
- davlat va uning subyektlari (ma‘muriy-hududiy tuzilmalar) vakolatlari (byudjet huquqlari);

– byudjet jarayonini tashkil etish, ya'ni byudjetni shakllantirish tartibi hamda uning ijrosi to'g'risidagi hisobot;

– byudjet nazorati.

Byudjet huquqi moliya huquqining tarkibiy qismi sifatida mamlakatimiz byudjet qonunchiligining tarkibiy qismi sifatida keng rivojlanib bormoqda. Natijada esa byudjet munosabatlarini huquqiy tartibga solishning predmeti aniqlanib, uning tarkibiy tuzilishi va subyektlari yangilanib bormoqda.

Davlat tomonidan byudjet munosabatlarining olib borilishi unda ishtirok etuvchi subyektlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini tartibga solishni talab etadi. Byudjet huquqining vazifasi ana shulardan iborat. Byudjet huquqi me'yorlari orqali davlat tomonidan byudjet tizimi harakatga keltiriladi va undan foydalaniladi.


Davlat va mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoridagi markazlashtirilgan pul jamg'armalariga mablag'larni yig'ish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar byudjet huquqi me'yorlari bilan tartibga solinadi.

Byudjet tizimi tuzilishini takomillashtirish, bu sohadagi vazifalarni taqsimlash, byudjet jarayoni davomida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solish bevosita byudjet huquqining predmetini tashkil etadi. Byudjet munosabatlarining mazmuni davlat va mahalliy pul jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va undan foydalanishga qaratilgan ekan, bu munosabatlar davlatning bevosita ishtiroki va ta'siri ostida vujudga keladi.

Byudjet huquqi me'yorlari yordamida byudjet munosabatlarining asosiy tamoyillari va shakllari, markazlashgan pul jamg'armalariga mablag'larni to'plash usullari, bu jamg'armalarni tashkil qiluvchi mablag'larning turlari, ularni undirish tartibi, markazlashgan pul mablag'laridan foydalanish tartibga solinadi.

Demak, byudjet huquqi predmeti deganda davlatning o'z funksiya va vazifalarini bajarish maqsadida markazlashgan pul jamg'armalarning

tashkil qilinishi, taqsimlanishi va undan foydalanilishi jarayonida yuzaga keluvchi ijtimoiy munosabatlar tushuniladi (3.1-chizma).



3.1-chizma. Byudjet huquqi predmeti doirasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar


Demak, byudjet huquqi – davlat va mahalliy hokimiyat organlarining o'z oldiga qo'ygan vazifalarini bajarishlari uchun zarur bo'lgan markazlashtirilgan pul jamg'armalarining tashkil topishi, taqsimlanishi va foydalanilishi jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi me'yorlar yig'indisidan iborat.

Ular moliyaviy-huquqiy munosabatlarning bir turi sifatida uziga xos xususiyatlarga ega. Shuningdek, byudjet huquqiy munosabatlari boshqa moliyaviy-huquqiy munosabatlardan farq qiladigan ayrim xususiyatlarga ham ega.

Byudjet huquqiy munosabatlari davlat moliyaviy faoliyatining alohida sohasida, xususan, davlat byudjeti mablag'larini tashkil etish va taqsimlash sohasida yuzaga keladi, o'zgaradi va bekor bo'ladi. Byudjet

huquqiy munosabatlarining ushbu xususiyati, o'z navbatida, mazkur munosabatlarning boshqa maxsus xususiyatlarida, masalan, subyekt tarkibi va ularning vaqt bo'yicha harakatida o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Byudjet huquqiy munosabatlarining har qanday subyekt uchun quyidagi belgilardan biri xosdir (3.2-chizma):



3.2-chizma. Byudjet huquqiy munosabatlarining subyektiga xos bo'lgan belgilar

Ushbu belgilar byudjet huquqi subyektlari doirasi cheklanganligi bilan qayd etiladi. Chunki faqat davlat pul mablag'larining markazlashtirilgan jamg'armasini tashkil etish, taqsimlash va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarda yuridik majburiyat va huquqlar berilgan moliya huquqining subyektlari qatnashishi mumkin.

3.2. Byudjet munosabatlarini tartibga soluvchi qonuniy-huquqiy hujjatlar

Mamlakatimizda byudjet tizimining byudjetlari, Davlat byudjeti faoliyati va byudjetlararo munosabatlar asosini quyidagi qonunlar va qonun osti hujjatlari tashkil etadi:

– 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;

– “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentyabrdagi 913-XII-sonli qonuni (2017-yilda so‘nggi o‘zgartirish kiritilgan);

– O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qonuni;

– O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonuni;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishdagi mas’uliyatini oshirish to‘g‘risida” PQ–3042-sonli qarori;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi “Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5075-sonli Farmoni;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5147-sonli Farmoni;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-sonli Farmoni;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi “Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ–4389-sonli qarori;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrdagi “Byudjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta‘minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 414-sonli qarori;

– O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrda qabul qilingan Byudjet kodeksi;

– Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Parlamenti tomonidan ma‘qullangan yangi tahrirdagi Soliq kodeksi va boshqalar.

Bugungi kunda, Hukumatimiz tomonidan mahalliy byudjetlarga tushumlar miqdorini ko'paytirish hamda soliq yig'iluvchanligi darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2017-yil 7-iyundagi "Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5075-son va 2017-yil 18-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 5116-sonli Farmonlari, shuningdek Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-iyundagi "Mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish zaxiralarini aniqlash ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 445-sonli qarorini qabul qilinganligi bunga yaqqol misol bo'ladi.

Byudjet sohasidagi yana bir me'yoriy hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustda qabul qilingan "Byudjet ma'lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-son qarori bo'lib, unga muvofiq 2019-yildan boshlab byudjet mablag'larini taqsimlashda fuqarolar ishtirokining tuman (shahar)lar byudjetlari qo'shimcha manbalarining kamida 10 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirishni nazarda tutadigan mexanizmi joriy etildi.

3.3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – byudjet munosabatlarining huquqiy asosi sifatida

Yuqorida keltirilgan qonunlar va qonun osti hujjatlarining asosiylariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishini, ma'muriy-hududiy tuzilmalarning o'z pul mablag'lari jamg'armalarini – ularga o'z funksiyalari va vazifalarini

bajarish uchun zarur bo'lgan byudjetlarni shakllantirish huquqlarini belgilaydi:

1) Davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi (4-bo'lim, XVI-XVII boblar): O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat (68-modda); suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi (70-modda); O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida tuzilgan shartnomalar hamda bitimlar bilan tartibga solinadi (75-modda).

Yuqorida keltirilgan hududlarning (shaharchalar, qishloqlar va ovullar bundan mustasno) ma'muriyatlariga ular o'zlariga yuklangan funksiyalar va vazifalarni bajarishlari uchun pul mablag'lari jamg'armasi – mahalliy byudjetlarni shakllantirish huquqi berilgan.

2) Mahalliy davlat hokimiyati asoslari (5-bo'lim, XXI bob): mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagilar kiradi: qonuniyligni, huquqiy-tartibotni va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash; hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish; mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish; mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish; atrof-muhitni muhofaza qilish; fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash; normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

3) O'zbekiston Respublikasining moliya va pul-kredit tizimi (5-bo'lim, XXV bob): O'zbekistonning davlat byudjeti Respublika byudjetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan iborat (122-modda). O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli (123-modda).

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 100-moddasiga muvofiq mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga, shu jumladan, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish kiritilgan.

3.4. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, uning mazmuni, tarkibi, byudjet munosabatlarini tartibga solishdagi ahamiyati

Mamlakat iqtisodiyotining yetarli darajada rivojlanishi unga mos holda davlat moliya tizimi va uning asosiy bo'g'ini hisoblangan byudjet tizimi ham o'ziga xos rivojlanish xususiyatlarining mavjudligi O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksini qabul qilishni va amalda qo'llashni talab etdi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi 2014-yil 1-yanvardan amalda qo'llanila boshladi. Byudjet kodeksi 9 ta bo'lim, 28 bob va 192 moddadan tashkil topgan. Mazkur bo'liml, bob va moddalar o'z nomlaridan kelib chiqib mazmun mohiyatiga ega ularni quyidagicha tavsiflash mumkin. Misol uchun, 3-modda ushbu Kodeksda qo'llaniladigan asosiy tushunchalarning barchasiga ta'riflar berilgan.

So'nggi yillarda barcha MDH davlatlari qatori bizda ham umumdavlat moliyasining markaziy bo'g'inida turgan davlat byudjeti va byudjetdan tashqari davlat jamg'armalarini muvofiqlashtirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakat byudjet tizimi munosabatlari 2014-yilga qadar "Byudjet tizimi to'g'risida"gi va "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi qonunlar hamda shu sohaga tegishli qator normativ – huquqiy hujjatlar bilan tartibga solib kelinmoqda edi. Bu esa alohida me'yorlarning turlicha talqin qilinishiga va ularni amalga oshirishning murakkablashuviga olib kelgan edi.

Takidlash joizki, moliya-byudjet tizimida mazkur normativ hujjatning qabul qilinishi, O'zbekistonni MDH davlatlari orasida Byudjet kodeksi mavjud bo'lgan davlat sifatida e'tirof etish imkonini berdi (3.1-jadval).

**MDH davlatlarida Byudjet kodeksining mavjudligi to'g'risida
ma'lumot**

T / R	MDHga a'zo davlatlar	Byudjet kodeksining mavjudlik holati
1	Armaniston	Mavjud emas
2	Belarus	Mavjud, 16.07.2008-yilda qabul qilingan
3	Moldova	Mavjud emas
4	Ozarbayjon	Mavjud emas, loyiha ustida ishlanmoqda
5	Rossiya	Mavjud, 31.07.1998-yilda qabul qilingan
6	Tojikiston	Mavjud emas
7	Turkmaniston	Mavjud, 14.05.2014-yilda qabul qilingan
8	Ukraina	Mavjud, 21.06.2001-yilda qabul qilingan
9	Qozog'iston	Mavjud, 04.12.2008-yilda qabul qilingan
10	Qirg'iziston	Mavjud, 16.05.2016-yilda qabul qilingan
11	O'zbekiston	Mavjud, 26.12.2013-yilda qabul qilingan

Mamlakatimizda mavjud normativ hujjatni qabul qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad – amalda qo'llanilayotgan me'yorlar, nizolar va byudjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini tizimlashtirish, shuningdek, byudjet jarayonini tartibga soluvchi hamda amaldagi qarama – qarshi va eskirgan me'yorlarni bartaraf qiluvchi yaxlit qonunchilik hujjatini yaratishdan iboratdir.

Shuni ta'kidlash joyizki, mazkur kodeks mamlakatimizning 24 yillik mustaqillik davridagi qonunchilik faoliyatida qabul qilingan 16 – kodeks bo'lib, u moliyaviy munosabatlari tartibga soladigan Bojxona va Soliq kodekslaridan keyin qabul qilingan, moliya sohasiga taalluqli bo'lgan uchinchi kodeksdir.


Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning doimiy muvofiqlashtiruvchi va BMT taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi doimiy vakili Stefan Prisner mamlakatimizda Byudjet kodeksini ishlab chiqish va tasdiqlanishi jarayoniga baho berib, quyidagi 3 ta muhim jihatni alohida ajratib ko'rsatgan, jumladan:

Birinchisi – Byudjet kodeksini qabul qilinishi O‘zbekiston hukumatining qat’iy tarzda davlat moliyasini boshqarish sohasida islohotlar o‘tkazish, shu jumladan rejalashtirishning yangi usullarini joriy etish, shuningdek, byudjet jarayoning ochiq-oshkoraligini ta’minlash bo‘yicha sa’yi – harakatlarning namoyishidir;

Ikkinchidan – hukumat davlat sektorida buxgalteriya hisobi va hisobotining xalqaro standartlarini joriy etishni rejalashtirmoqda;

Uchinchisi – ishlab chiqarilgan hujjat O‘zbekiston Hukumatining donor hamjamiyati, shu jumladan BMT va XVF bilan muvaffaqiyatli hamkorlikning yaqqol misolidir.

O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining asosi va tashkiliy strukturasi quyidagicha ifodalash mumkin (3.3-chizma).



3.3-chizma. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining asosi va tashkiliy strukturasi

Byudjet tashkilotlari aholining farovon yashashi va samarali mehnat qilishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarini yaratuvchi tarmoqlar majmuiga kiradi. Byudjet kodeksida “byudjet tashkiloti” va “byudjetdan mablag‘ oluvchilari”ning huquqiy asosi ko‘rsatilgan.

Byudjet kodeksining 4-moddasida ko‘rsatilishicha, byudjet tashkiloti – bu davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko‘ra tashkil etilgan,

Davlat byudjeti mablagʻlari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilotdir. Byudjet tashkilotini moliyalashtirish shartlari va ularning byudjet hisobini yuritish tartibi byudjet toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Byudjet kodeksining 5-moddasida koʻrsatilishicha, Davlat byudjetidan va davlat maqsadli jamgʻarmalari byudjetlaridan mablagʻlar oladigan yuridik va jismoniy shaxs byudjet mablagʻlari oluvchilaridir. Ular byudjet tashkiloti maqomiga ega boʻla olmaydi. Byudjet tashkilotini moliyalashtirish shartlari va ularning byudjet hisobini yuritish tartibi, byudjet mablagʻi oluvchi Davlat byudjetidan va davlat maqsadli jamgʻarmalari byudjetlari mablagʻlari hisobidan moliyalashtirish shartlari byudjet toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Byudjet kodeksiga kiritilgan yangi normalar kodeksni ishlab chiqish jarayonida oʻrganilgan Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarning byudjet qonunchiligi asosida yaratildi. Kodeksning har bir moddasi milliy iqtisodiyotimizning oʻziga xos jihatlari bilan taqqoslab chiqildi. Byudjet tizimi rivojlanishi davrida amaliyotda oʻzini oqlagan, davlat boshqaruvi tizimi islohoti bilan mutanosib ravishda taraqqiy topib borgan va shakllangan meʼyoriy-huquqiy bazaning asosi saqlab qolinib, jahonda umumeʼtirof etilgan byudjet tizimi tamoyillari, byudjet tasnifi, oʻrta muddatli byudjetni rejalashtirish yoki natijaga yoʻnaltirilgan byudjetlashtirish kabi normalar Kodeksda oʻz aksini topdi. Bundan tashqari, byudjet vakolatlarining kengaytirilishi orqali nafaqat nazorat organlari, balki toʻgʻridan toʻgʻri byudjet mablagʻlarini oluvchilar, byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilar vakolatlari ham batafsil yoritib berildi. Byudjet kodeksi amaldagi meʼyorlarni kengaytirish bilan bir qatorda, davlat tomonidan mablagʻ jalb qilish, byudjet ijrosi ustidan nazorat va byudjet qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlikni aks ettiruvchi yangi moddalar bilan ham ahamiyatlidir. Umuman olganda, byudjet jarayoni bosqichlari, yaʼni Davlat byudjetini tayyorlash, koʻrib chiqish, tasdiqlash hamda ijro etish, ijro ustidan nazorat va hisobot tayyorlashni amalga oshirish funksiyalari belgilandi. Byudjet kodeksining yana bir

muhim jihati shundaki, endi Davlat byudjeti va mahalliy byudjetlarning asosiy ko'rsatkichlari ommaviy axborot vositalari hamda Moliya vazirligining veb-saytida e'lon qilinib, onlayn rejimida savollar va takliflar berish imkoniyati paydo bo'ldi.

Byudjet kodeksi davlat maqsadli jamg'armalarini tartibga solishning yagona tamoyillarini qo'llashni, byudjet jarayoni barcha qatnashchilarining vakolatlarini hamda ularning o'zaro hamkorligi mexanizmini belgilashni, shuningdek byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, mahalliy byudjetlarning daromadlar manbalarini mustahkamlab qo'yishni, barcha darajadagi byudjetlar o'rtasida vakolatlarni taqsimlashni va ularning o'zaro hamkorligini nazarda tutadi. Byudjet kodeksi davlat xaridini amalga oshirish tartibi, moliyaviy nazorat va monitoring, davlat moliyasi tizimida buxgalteriya hisobi va hisobotini ta'minlash mexanizmini belgilaydi.

Byudjet kodeksining qabul qilinishi amaldagi Soliq kodeksi bilan birgalikda davlat moliyasining xalqaro standartlarga mos bo'lgan qonunchilik bazasini shakllantirishga, byudjet sohasidagi huquqiy munosabatlarni tizimlashtirishga, shuningdek byudjet jarayonining barcha bosqichlari va darajalarida yagona huquqiy normalar va yondashuvlar qo'llanilishini, mamlakat byudjet tizimining oshkoraligini va barqarorligini ta'minlashga imkon beradi.

3.5. Soliq kodeksi, uning davlat byudjetini shakllantirishdagi ahamiyati

Byudjet munosabatlarini amalga oshirishda Soliq kodeksi bu munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy me'yoriy hujjatlardan biri sifatida muhim ahamiyatga ega. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmonida soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish hamda bir qator tizimli muammolarni yechish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan edi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbarining 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida yangi tahrirdagi Soliq kodeksida mamlakat taraqqiyotining tayanchi bo'lgan insofli soliq to'lovchilarni rag'batlantirish, yashirin faoliyat yuritayotganlarning qonuniy faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlar yaratish shartligini aytib o'tgan edi. Bunda fuqarolarimiz soliqdan qochish emas, balki uni vaqtida to'lashdan manfaatdor bo'lishi lozimligi qayd etilgandi.

Ana shularni inobatga olgan holda, yangi soliq tizimini yaratishda tenglik, soddalik, aniqlik va samaradorlik kabi asosiy tamoyillarga asoslanildi. Qolaversa, mamlakatimiz tarixida ilk bor kuzatilayotgan ushbu yangilikni tadbirkorlar va biznes vakillari anchadan beri kutayotgan edi. Shu bois, ko'plab ekspertlar soliqlarni hisoblash va to'lash mexanizmini takomillashtirishga, soliq qonunchiligida huquqni qo'llashning barcha tartib-taomillarini aniqlashtirish hamda tartibga solishga qaratilgan normalar loyihadan o'rin olgani, o'z navbatida, ilk bor Soliq kodeksi bilan tasdiqlanayotgan soliq normalari va stavkalarining doimiyligini ta'minlashga xizmat qilishini e'tirof etmoqda.

Darhaqiqat, yangi tahrirdagi Soliq kodeksi havolaki normalar, qonunosti hujjatlarini maksimal darajada kamaytirgan holda, to'g'ridan to'g'ri amal qiladigan hujjat sifatida qabul qilinmoqda. Shu bois, loyihada barcha soliqlar bo'yicha stavkalar (aksiz solig'i, yer solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari) belgilanishi ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, soliq qonunchiligi normalari qo'llanilishini soddalashtirish, undagi ziddiyatlar va tushunmovchiliklarning oldini olish, insofli soliq to'lovchilar manfaatlarini himoya qilish, soliq nazoratining shakl va mexanizmlari, soliq obyektlari, soliq to'lovchilarning hisobini yuritishni ta'minlaydigan AKTni keng joriy etish bilan bog'liq bir qator muhim yangiliklar nazarda tutilmoqda. Jumladan, soliq nazoratining yangi tartibi (kameral tekshiruv, sayyor tekshiruv, soliq auditi) taklif etilmoqda.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksida asosiy o'zgarishlar sifatida soliq islohotlarini amalga oshirishdagi masalalarni keltirishimiz mumkin.

Soliq islohotlarini amalga oshirishda 3 ta masala – soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortishni soddalashtirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishni hal etish vazifalari belgilangan edi. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi ushbu mezonlarga to'liq javob berish maqsadida ushbu uchchala masala doirasida quyidagilarga alohida e'tibor berildi:

Soliq yukini kamaytirish bo'yicha:

- QQS bo'yicha hosil bo'lgan ortiqcha summani, ya'ni "manfiy" qoldiq summasini to'liqligicha qaytarish, asosiy vositalar hamda ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha QQS bir yo'la hisobga olinishi;

- byudjet tashkilotlaridan boshqa barcha tadbirkorlik subyektlari uchun yagona ijtimoiy to'lov 12 foiz (oldin 25 foiz edi) miqdorida belgilanishi;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan soliq summasi o'rtacha 30 foizga kamaytirilishi.

Soliqqa tortishni soddalashtirish bo'yicha:

- yangi tahrirdagi Soliq kodeksining loyihasida amaldagi soliqlar sonining 13 tadan 9 tagacha kamaytirilishi;

- yakka tartibdagi tadbirkorlarga soliqlarni to'lashni tanlash huquqining berilishi. Xususan, ular soliqni qat'iy belgilangan miqdorlarda to'lash yoxud jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risida deklaratsiya asosida to'lashi mumkinligi.

Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha:

- soliq nazorati shakllari 13 tadan 2 taga qisqartirilishi;

- tekshirishlarni tayinlash tartibiga o'zgartirish kiritilishi, tekshirishlar inson omilisiz faqat "Tahlila-tahlil" dasturi asosida 3 ta segmentga bo'lish asosida amalga oshirilishi;

- Davlat soliq xizmati organlari endilikda jarimalarni profilaktik tadbirlar o'tkazgandan keyingina qo'llashi.

Tahlila-tahlil dasturi faoliyat ko'rsatayotgan barcha xo'jalik subyektlarini muayyan mezonlar asosida, xavflilik darajasiga qarab, inson omilisiz, avtomatlashtirilgan holda 3 ta segmentga (yashil yo'lak,

sariq yo‘lak, qizil yo‘lak) ajratadi. Unga binoan, xavflilik darajasi past bo‘lgan (yashil yo‘lakcha) korxonalarga nisbatan soliq tekshiruvlari amalga oshirilmaydi va ushbu korxonalarga yuqori darajadagi soliq xizmatlari ko‘rsatiladi. Xavflilik darajasi o‘rtacha bo‘lgan (sariq yo‘lakcha) korxonalarga nisbatan faqat kameral soliq tekshiruvi amalga oshiriladi va ushbu korxonalarga xato-kamchiliklarini bartaraf etish bo‘yicha hisobotini tuzatish imkoni beriladi hamda ularga moliyaviy va ma‘muriy jarimalar qo‘llanilmaydi. Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash, buxgalteriya hujjatlarini va hisobvara-q-fakturalarini soxtalashtirish holatlari aniqlangan xavflilik darajasi o‘ta yuqori bo‘lgan (qizil yo‘lakcha) korxonalarga nisbatan esa, soliq auditi tekshiruvi tadbirlari amalga oshiriladi. O‘z-o‘zidan aniqki, bunday korxonalar doimiy nazoratda bo‘ladi. Ushbu tadbirlar soliq nazoratini amalga oshirishning shaffofligini ta‘minlab, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiya holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, kiritilayotgan yangiliklarga ko‘ra, ortiqcha undirilgan summalarga har bir o‘tgan kuni uchun soliq organlari tomonidan soliq to‘lovchiga penya to‘lanadi. Xorijiy sayyohlar O‘zbekistonda sotib olingan tovarlarga hisoblangan qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) “Tax free” tamoyili asosida qaytariladi. Mulkni (xizmatlarni) beg‘araz ravishda topshirishda to‘lanadigan QQS bekor qilinmoqda. Davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan korxonalar tomonidan to‘lanayotgan yagona ijtimoiy to‘lov 25 foizdan 12 foizga tushirilmoqda. Soliq organlari tomonidan soliq to‘lovchining bankdagi hisob varaqlari bo‘yicha operatsiyalarni 30 kundan oshmagan muddatga to‘xtatib turish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, soliq solish maqsadida barcha bitimlar va soliq to‘lovchi kirishadigan boshqa iqtisodiy munosabatlar, ularning yuridik jihatdan rasmiylashtirilishi usulidan qat’iy nazar, o‘zining haqiqiy iqtisodiy mazmunidan kelib chiqqan holda hisobga olinishi bo‘yicha yangi me‘yor kiritilmoqda.

Soliq huquqbuzarliklariga yo'l qo'yayotgan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan moliyaviy sanksiyalar qo'llash tartibi qayta ko'rib chiqilmoqda.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi loyihasida soliq nizolarini sudgacha hal qilish tartibi ham aniqlashtirilmoqda. Ya'ni, soliq nizolarini sudgacha muhokama qilishni majburiy o'tkazish tartibini joriy etish ko'zda tutilmoqda.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksini ishlab chiqish jarayonida ekspertlar va mutaxassislar tomonidan 500 dan ortiq taklif va mulohaza bildirildi. Mazkur takliflar qonun tashabbuskorlari bilan ishchi guruhlarida ko'rib chiqilib kodeks loyihasiga 70 dan ortiq tahririy va konseptual o'zgarishlar kiritildi. Jumladan, loyihadagi soliq qarzdorligi kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat berish vakolati Davlat soliq qo'mitasiga taqdim qilinishi taklif etilgan edi. Muhokamalardan so'ng yirik korxonalarning soliq qarzdorligini kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash bo'yicha ruxsat berish vakolati Davlat soliq qo'mitasiga, qolgan soliq to'lovchilar bo'yicha esa, hududiy moliya va soliq organlarining xulosasi asosida Xalq deputatlari viloyat kengashiga berilishi ko'zda tutildi.

Umuman, yangi tahrirdagi Soliq kodeksi to'g'risidagi qonun loyihasini ikkinchi o'qishda tayyorlash jarayonida juda katta hajmli ish bajarildi. Loyiha har taraflama pishiq-puxta holga keltirildi va 2019-yil 9-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

Soliq siyosatida olib borilgan islohotlar 2019-yilning 30-dekabrida yangi tahrirdagi Soliq kodeksining qabul qilinishiga sabab bo'ldi. Uning tarkibi ikki – umumiy va maxsus qismlardan iborat bo'lib, 21 bo'lim, 72-bobdan iborat. Kodeks soliqlar va yig'implarni belgilash, joriy etish va bekor qilishga, hisoblab chiqarish hamda to'lashga doir munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladigan asosiy me'yoriy hujjat sanaladi. Byudjet

daromadlarining katta qismini tashkil etuvchi soliqlar va soliq munosabatlarining oqilona tashkil etilishi ham ishlab chiqilgan Soliq kodeksining mazmuni bilan belgilanadi.

3.6. Mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy byudjetlarni shakllantirishdagi huquq va majburiyatlari

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining iqtisodiy va moliyaviy asoslarini, uning mahalliy byudjetni tuzish va ijro etish hamda uning ijrosi to‘g‘risida hisobot taqdim etish borasidagi munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asosini tashkil qilgan. Ammo Byudjet kodeksining qabul qilinishi bilan qonundagi xalq deputatlari Kengashi va hokimning byudjetga doir huquqlari (12-modda); viloyat, tuman, shahar byudjetining daromadlari va sarf-xarajatlari (13-modda); mahalliy hokimiyat organlarining viloyat, tuman, shahar byudjetidan tashqari fondlarini hosil qilish huquqi (14-modda); xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar Kengashi O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq viloyat, shahar valyuta fondi tashkil etish va ulardan xalq deputatlari Kengashining qarorlariga binoan foydalanish huquqi (15-modda)ga oid moddalari olib tashlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi “Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5075-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash hamda mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish va xarajatlarini maqbullashtirishda ularning manfaatdorligini oshirishni ta’minlaydigan mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlari va majburiyatlarini belgilashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishdagi

mas'uliyatini oshirish to'g'risida" PQ-3042-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimliklariga quyidagilarni ta'minlash yuklatildi:

- o'z hududidagi soliq to'lovchilarni to'liq qamrab olish va soliqlar yig'iluvchanligini oshirish, yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, ishlamayotgan, iqtisodiy nochor korxonalar faoliyatini qayta tiklash orqali mahalliy byudjet daromadlarini ko'paytirish;

- tegishli byudjetlarning tasdiqlangan daromadlari rejasini bajarishni, qonunchilik doirasida xarajatlarni, shu jumladan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirilishini ta'minlash;

- byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi miqdorini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ish haqini oshirish to'g'risidagi farmonlari va boshqa normativ-hujjatlarda belgilangan miqdorlar doirasida oshirish;

- byudjet tashkilotlarida amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan shtat normativlaridan ortiqcha shtat birliklari kiritmaslik.

2017-yilning 1-iyulidan boshlab Toshkent shahri tumanlari byudjetlarining umumiy hajmidan 1 foiz miqdorida tuman hokimliklari zaxira jamg'armalari shakllantirildi. Tuman byudjetlarida belgilangan aylanma kassa mablag'larining chorak yakuni bilan saqlanishi va xarajatlarning qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishini g'aznachilik bo'linmalari ta'minlaydi.

Toshkent shahri hududida byudjetlararo munosabatlarni amalga oshirishda:

- umumta'lim maktablarining ish haqi va yagona ijtimoiy to'lovlar bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirish uchun tuman byudjetiga Toshkent shahrining shahar byudjetidan ajratiladigan maqsadli byudjetlararo transfertlarni kamaytirilishiga yo'l qo'yilmaydi;

- qonun hujjatlariga muvofiq moliya yili mobaynida O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining vakolatiga kiruvchi muayyan xarajatlar Toshkent shahar mahalliy byudjetiga berilganda, ularni

moliyalashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan o'zaro hisob-kitoblar orqali mablag'lar ajratiladi;

- tasdiqlangan daromadlar parametrlari bajarilmasligi natijasida quyi mahalliy byudjetlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan daromadlar bilan xarajatlar o'rtasidagi moliya yili mobaynidagi vaqtinchalik kassa uzilishlari – aylanma kassa mablag'larini jalb qilish va yuqori byudjetdan olinadigan qisqa muddatli foizsiz byudjet ssudalari orqali qoplanadi, bir moliya yilidan ortiq bo'lgan davrdagi kassa uzilishlari – yuqori byudjetdan 2 yilgacha bo'lgan muddatga yillik 2 foizli byudjet ssudalari olish orqali qoplanadi.

Qaror doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisiga, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimlariga quyidagi vakolatlar berildi:

- zarur hollarda mahalliy byudjetlar parametrlariga tasdiqlangan byudjet parametrlari doirasida o'zgartirish kiritish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar va shaharlarning tegishli Xalq deputatlari kengashiga taklif kiritish;

- tegishli byudjetlar har chorak yakunida shakllantiriladigan daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismini mustaqil tasarruf etish;

- mahalliy byudjet xarajatlari, jumladan, belgilangan normativlar doirasida byudjet tashkilotlari va ularning shtat birliklarini optimallashtirish hisobiga moliya yili davomida bo'shab qolgan mablag'larni boshqa zarur xarajatlarga yo'naltirish;

- o'z vazifalarini vijdonan, shuningdek, alohida muhim va mas'uliyatli ishlarni bajarayotgan byudjet tashkilotlari rahbarlari, hokimlik, moliya, g'aznachilik va soliq organlari xodimlarini erishilgan natijalar asosida yiliga bir oylik lavozim ish haqi miqdorida tegishli ravishda tegishli byudjetlarining qo'shimcha mablag'lari hisobidan bir martalik mukofotlash.

Tayanch soʻz va iboralar *Byudjet huquqi, byudjet qonunchiligi, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Byudjet kodeksi, Soliq qonunchiligi.*

Oʻz-oʻzini tekshirish uchun savollar

1. Byudjet huquqi deganda nimani tushunasiz?
2. Oʻzbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining tarkibiy tuzilishini aytib bering.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksining qabul qilinishi byudjet siyosatining qaysi bosqichiga toʻgʻri keladi?
4. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksining oʻziga xos xususiyatlariga toʻxtalib oʻting.
5. Byudjet kodeksining asosini qaysi qonunlar tashkil etadi?
6. Byudjet kodeksining qabul qilinishi byudjet tizimiga qanday taʼsir koʻrsatdi?
7. Mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy byudjetlarni shakllantirishdagi huquq va majburiyatlari qaysi meʼyoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi?

IV BOB. DAVLATNING BYUDJET SIYOSATI

4.1. Davlat byudjeti – davlat iqtisodiy siyosatining quroli sifatida.

Byudjet siyosatining maqsad va vazifalari

Ma'lumki, siyosat deganda hukumat, davlat boshqaruvi hamda xalqaro munosabat masalalari bilan bog'liq bo'lgan faoliyat tushuniladi. Siyosat atamasi qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, qadimda mustaqil shahar va davlatlar ushbu atama bilan yuritilgan¹⁶. Qadimgi yunon faylasufi Aristotelning fikricha, "siyosat – bu davlatni boshqarish san'ati". Davlat tomonidan amalga oshiriladigan siyosat jamiyat hayotining boshqa sohalari bilan ham chambarchas bog'liq bo'lib, quyidagi elementlardan tashkil topadi (4.1-chizma):

Rivojlanishning u yoki bu bosqichida jamiyat hayotini yaxshilash va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan asosiy vazifalar va maqsadlar aniqlanadi va belgilab olinadi

Istiqboldagi va yaqin kelajakdagi vazifalar va maqsadlarga erishish uchun eng qulay, eng yaxshi natija beradigan zarur chora-tadbirlar ishlab chiqiladi

Belgilangan vazifalarni amalga oshiruvchi shaxslar, ijrochi organlar, alohida vakolatli tashkilotlar aniqlanadi, kadrlar tanlanadi va joy-joyiga qo'yiladi

4.1-chizma. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan siyosat elementlari


¹⁶ <https://www.anews.com/p/114614925-politika-echo-cto-takoe-politika-politicheskaya-sfera-zhizni-obshchestva/>

Tarixiy tajribadan ma'lumki, byudjet siyosatining mohiyati davlat tomonidan amalga oshiriladigan funktsiya va vazifalarni bajarish jarayonida talab etiladigan markazlashtirilgan pul fondini shakllantirish hamda byudjet xarajatlarining mazkur yo'nalishda moliyalashtirilishi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, markazlashtirilgan pul fondini shakllantirib, ulardan foydalanish orqali davlat jamiyatdagi iqtisodiy muvozanatni ta'minlashga harakat qiladi. Byudjet siyosati davlat iqtisodiy siyosatining yadrosi hisoblanib, davlat bilan fuqarolik institutlari hamda fuqarolar o'rtasidagi moliyaviy o'zaro munosabatlarni aks ettiradi.

Davlatning byudjet siyosati deganda davlat tomonidan o'z funksiyalarini bajarish uchun talab etiladigan pul mablag'larini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan byudjet munosabatlarini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar yig'indisi tushuniladi.

Byudjet siyosati davlat moliyasi sohasida davlatning maqsad va vazifalarini aniqlash, byudjetga mablag'larini mobilizatsiya qilish mexanizmini ishlab chiqish, byudjet mablag'laridan foydalanish yo'nalishlarini belgilash, davlat moliyasi, soliq va byudjet tizimini boshqarish, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tartibga solishning fiskal vositalari yordamida tashkil etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi va bu davlat tomonidan olib borilayotgan byudjet siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini anglatadi. Belgilangan maqsaddan kelib chiqib byudjet siyosatining strategik yo'nalishlari hamda mo'ljallarini aniqlaydigan vazifalari ishlab chiqiladi. Ushbu vazifalarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

Demak, byudjet siyosati – byudjet munosabatlarini tashkil etish tamoyillarining bajarilishini ta'minlash, davlat va jamiyat oldida turgan maqsad va vazifalarni davlat byudjeti orqali amalga oshirish usullari, chora-tadbirlari va maqsadli faoliyatlari yig'indisidir. Byudjet siyosati davlat va jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida turlicha bo'lishi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasiga qarab o'zgarib turishi mumkin. Byudjet siyosati:



4.2-chizma. **Byudjet siyosatining vazifalari**

- byudjet daromadlari bo'yicha siyosat;
- byudjet xarajatlari bo'yicha siyosat;
- davlat krediti siyosati;
- byudjet taqchilligini boshqarish siyosati;
- byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish siyosati kabilarning uyg'unligi asosida amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, byudjet siyosatiga davlat moliya siyosatining tarkibiy qismi sifatida, umumdavlat moliyaviy resurslarini (manbalarini) shakllantirish va jalb etish, taqsimlash, ulardan maqsadga muvofiq foydalanishga qaratilgan davlatning chora-tadbirlari va asosiy yo'nalishlari yig'indisi deb ta'rif berish ham mumkin.

Byudjet siyosatining asosiy maqsadi jamiyatda yaratiladigan boylik va ne'matlarning jamiyat a'zolari o'rtasida maksimal darajada adolatli taqsimlashni ta'minlashdan iborat bo'lsa, asosiy vazifalari sifatida esa yuqoridagi 4.2-chizmada keltirilgan vazifalarga qo'shimcha sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- davlat byudjetining barqaror daromad bazalarini mustahkamlash;

– iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarining rivojlanishini rag‘batlantirish;

– ilmiy-texnika taraqqiyotining jadallashuviga ta’sir ko‘rsatish;

– mamlakatda kambag‘allik va ijtimoiy tengsizlikka barham berish;

– rivojlanish istiqboli past bo‘lgan hududlarning rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratish;

– bu hududlardagi aholining yashash sharoitlarini yaxshilash va shu yo‘llar bilan siyosiy va ijtimoiy beqarorlikning oldini olish;

– davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlarning sifatli va aholi ijtimoiy muhofazasining manzilli bo‘lishini ta’minlash;

– byudjet siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlovchi maqbul byudjet mexanizmini ishlab chiqish va uning samarali ishlashini ta’minlash va b.

Byudjet siyosati o‘z-o‘zidan yaxshi yoki yomon bo‘lishi mumkin emas. Byudjet siyosatining ahamiyatini baholash uchun jamiyatning ehtiyoji qanchalik qondirilayotganligini, qo‘yilgan maqsadlar va vazifalar qanchalik darajada muvaffaqiyatli amalga oshirilganligini to‘g‘ri belgilash, holis baholash lozim.

4.2. Byudjet siyosatining taktikasi va strategiyasi

Byudjet siyosatining mazmuni ko‘pqirrali bo‘lib, quyidagi muhim bo‘g‘inlarni o‘z ichiga oladi:

1. Byudjet munosabatlarini rivojlantirishning ilmiy asoslangan konsepsiyalarini ishlab chiqish. Bu konsepsiyalar quyidagilarni o‘rganish asosida ishlab chiqiladi:

- iqtisodiy qonunlar talablarini o‘rganish;

- milliy xo‘jalik ahvolini har tomonlama tahlil qilish;

- ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining bundan keyingi rivojlanish istiqbollarini o‘rganish;

- aholining talab va ehtiyojlarini o‘rganish.

2. Istiqbolda va joriy davr mobaynida byudjetdan foydalanishning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish. Bunda iqtisodiy va moliyaviy siyosatda belgilangan maqsadlarga erishish yo'llaridan kelib chiqiladi, xalqaro omillar inobatga olinadi va moliyaviy resurslarni yanada ko'paytirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

3. Qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan amaliy xatti-harakatlar qilish, chora-tadbirlar belgilash, maqbul byudjet mexanizmining dastak va vositalarini ishlab chiqish.

Faqat hozirgi kundagi joriy davrga mo'ljallangan, kundalik ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan siyosat samarasizdir, shuningdek, uzoq davrni mo'ljallab, istiqbolni ko'zlab ishlab chiqilgan konsepsiyalar va yo'nalishlar, ular qanchalik olijanob, jozibali bo'lmasin, davlatning tegishli amaliy xatti-harakatlari, ta'sirchan chora-tadbirlari bilan ta'minlanmasa, inqirozga yuz tutadi, ko'zlangan maqsadlar amalga oshirilmay qoladi.

Davlat oldida turgan va muayyan davrda hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalarning xarakteriga, murakkabligiga va ko'zlangan davrning uzoqligiga qarab, byudjet siyosati:

- byudjet strategiyasi;
- byudjet taktikasidan iborat (4.3-chizma).



4.3-chizma. Ko'zlangan davrning uzoqligiga qarab byudjet siyosati tarkibi

Byudjet strategiyasi – ijtimoiy va iqtisodiy strategiya belgilab bergan uzoq istiqbolga mo'ljallangan va yirik masshtabdagi vazifalarni bajarishga qaratilgan bo'lib, u rivojlanishning asosiy konsepsiyalarini ishlab chiqish, byudjet munosabatlarini tashkil etishning umumiy tamoyillarini ishlab chiqishni, uzoq muddatga mo'ljallangan rivojlanish

istiqbollarini belgilashni ko'zda tutadi. Byudjet strategiyasi uzoq muddatli maqsadlarni tanlash va maqsadli dasturlarni zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, ularni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlariga safarbar qilishni ko'zda tutadi.

Byudjet taktikasi – strategiya belgilab bergan vazifalarni jamiyat rivojlanishining aniq bosqichida va konkret sharoitlarida moliya-byudjet munosabatlarini tashkil etish usullari orqali amalga oshiradi.

Masalan, mustaqillikning dastlabki yillarida byudjet strategiyasining asosiy vazifalaridan biri – byudjetning barqarorligini ta'minlash, ortib borayotgan byudjet defitsitini jilovlash bo'lgan bo'lsa, bu vazifani bajarish uchun ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish davri uchun xos bo'lgan yangi byudjet qonunchiligini ishlab chiqish, mustaqil davlatning yangi soliq tizimini shakllantirish, byudjetning xarajatlar qismi tarkibini qayta ko'rib chiqish, byudjet daromadlari hamda xarajatlarini balanslashtirish kabi chora-tadbirlar belgilandi va ma'lum muvaffaqiyat bilan amalga oshirildi. Bugungi kunda esa byudjet strategiyasi mahalliy byudjetlar mustaqilligini oshirib, ularning daromadlarini mahalliy hududning imkoniyatlaridan foydalangan holda shakllantirish hamda yuqori turuvchi byudjetdan byudjet transfertlarini ajratish amaliyotidan imkon qadar voz kechish kabi vazifalarga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Byudjet siyosatining strategiyasi va taktikasi o'zaro bog'liqdir. Strategik vazifalarni hal qilish uchun taktika qulay shart-sharoit yaratadi. Taktika iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning hal qiluvchi sohalarini, rivojlanishning muhim muammolarini aniqlab, moliya-byudjet munosabatlarini tashkil etish shakllari va usullarini o'z vaqtida o'zgartirish yo'li bilan strategiya belgilab bergan vazifalarni qisqa muddat ichida, eng kam xarajatlar bilan amalda bajaradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son farmoni bilan tasdiqlangan harakatlar strategiyasining "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning

ustuvor yo‘nalishlari” deb nomlangan 3-bo‘limining birinchi bandi mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini saqlab qolish maqsadlariga erishishga qaratilgan strategiyani amalga oshirishda xarajatlarning ijtimoiy yo‘naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta‘minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish¹⁷ taktikasining belgilanganligi bunga yaqqol misoldir.

4.3. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi byudjet siyosatining rivojlanish bosqichlari, maqsad va vazifalari

1991-yil O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng barcha sohalaridagi kabi byudjet tizimida ham o‘zgarishlar yuz berdi.

Mustaqil O‘zbekistonning davlat byudjeti o‘z taraqqiyoti yo‘lida to‘rt bosqichni bosib o‘tmoqda. Bu bosqichlar:

- fiskal bosqich (1991–1995-yillar);
- noinflyasion bosqich (1996–2002-yillar);
- davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish bosqichi (2003–2016-yillar);
- davlat moliyasi tizimini takomillashtirish bosqichi (2017-yildan hozirgi kungacha bo‘lgan davr).

Ushbu bosqichlarning har biriga to‘xtalib o‘tamiz.

Birinchi bosqichda iqtisodiy tanglik sharoitida rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan davlatning byudjetini shakllantirish amalga oshirildi. Davlat byudjeti daromadlarining pasayishiga olib kelgan YalMning keskin kamayib ketishi, shuningdek, daromadlar va xarajatlarning samarasiz tuzilmasi byudjet taqchilligiga sabab bo‘ldi.

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son farmoni.

Birinchi bosqichda quyidagi muammolarni hal qilish masalasi o'rtaga qo'yildi:

- butunlay yangi iqtisodiy tizimning huquqiy negizlarini, xususan yangi byudjet qonunchiligini yaratish;
- ma'muriy-buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini yengish;
- tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish;
- respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlari negizlarini shakllantirish;
- soliq islohotlarini o'tkazish;
- byudjetning xarajatlar qismini qayta tarkiblash;
- byudjet daromadlari va xarajatlari balanslashtirishga erishish.

Bu bosqichda faqat yuqorida ko'rsatilgan vazifalar amalga oshirilmasdan, pul islohotlarini o'tkazish, milliy valyuta – "so'm"ni muomalaga kiritish, pul muomalasini tartibga solish, pul-kredit siyosatini mustahkamlash, byudjetni balanslashtirish vazifalari ham bajarildi.

Belgilangan maqsadlarga erishish uchun byudjet tizimida amalga oshirilgan birinchi darajali chora-tadbirlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- qattiq moliyaviy siyosatni amalga oshirish;
- davlat byudjeti taqchilligini iloji boricha kamaytirish;
- byudjet mablag'larini daromad tushgandan keyingina taqsimlash;
- birinchi darajali, eng zarur umumdavlat ehtiyojlari uchungina byudjetdan mablag' ajratish;
- aholini ijtimoiy himoya qilishning manzilliligini ta'minlash.

Byudjet taraqqiyotining noinflyasion bosqichida balanslashgan byudjetni shakllantirish, soliqqa tortish tizimini yanada takomillashtirish va unifikatsiyalash, byudjet xarajatlari optimallashtirish, xususan, xalq xo'jaligi tarmoqlarini qaytarib olinmaydigan moliyalashtirish amaliyotidan ularni investitsiyalashga o'tish, byudjet qonunchiligini yanada rivojlantirish vazifalarini hal qilish nazarda tutilgan edi. Hukumat bu vazifalarni hal etish uchun investitsion faoliyatni qo'llab-

quvvatlash, xususiy kapital qo'yilmalari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mulkdorlar huquqini ta'minlash siyosati olib borildi. Natijada, davlat byudjetining iqtisodiyotdagi ahamiyati yanada ortdi.

Ushbu bosqichda amalga oshiriladigan asosiy chora-tadbirlar sifatida quyidagilarni keltirib o'tamiz:

- byudjet qonunchiligi shakllanishini davom ettirish;
- byudjetning xarajatlar qismini qayta ishlab chiqish;
- byudjet daromad va xarajatlarini mutanosiblashtirish;
- byudjet xarajatlarini optimallashtirish va b.

Ushbu bosqichda byudjet tashkilotlarini moliyalashtirishning yangi tartibi amalga joriy etildi, balanslashgan byudjetni shakllantirishga erishildi, kapital qo'yilmalar tarkibida chuqur o'zgarishlar kuzatildi va hokazo.

Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish bosqichida davlat moliyasini isloh qilish dasturi ishlab chiqildi. Asosiy chora-tadbirlar esa quyidagilardan iborat bo'ldi:

- byudjet xarajatlarini amalga oshirishda sohalar xususiyatlari hisobga olinib rejalashtirila boshlandi;
- jon boshiga qarab moliyalashtirish tizimi ishlab chiqildi;
- byudjet ijrosiga g'aznachilik tizimi amalda joriy etildi;
- bosqich oxiriga kelib mahalliy byudjetlarning barchasi dotatsiyadan chiqarildi;
- ta'lim va sog'liqni saqlash tizimi xususiyatlaridan kelib chiqib alohida moliyalashtirish boshlandi;
- muhim hisoblangan sanoatning ustuvor sohalariga davlat investitsiyalari jalb qilindi;
- byudjet qonunchiligi yagona mukammallashtirilgan tizimga keltirildi, ya'ni Byudjet kodeksi qabul qilindi.

Davlat moliyasi tizimini takomillashtirish bosqichi davlat moliyasi tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish, byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, byudjetni rejalashtirishning xalqaro e'tirof etilgan usullarini, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini

joriy qilish va fuqarolarni davlat moliyasini boshqarishga jalb qilish orqali byudjet tizimini isloh qilish bosqichi sifatida tasniflanadi. Shu sababli Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat moliyasi tizimini takomillashtirish konsepsiyasi loyihasi ishlab chiqildi.

Ushbu bosqichda 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar Strategiyasi asosida shakllantirilgan byudjet siyosatini takomillashtirish uchun quyidagi asosiy yo'nalishlari belgilab olindi:

1) byudjetni rejalashtirishni takomillashtirish va Davlat byudjeti ijrosi sifatini oshirish, byudjet jarayoniga innovatsion mexanizmlar va yondashuvlarni joriy etish sohasida:

- 2019–2021-yillarga mo'ljallangan Davlat byudjeti loyihasidan boshlab, kelgusi yil uchun yillik byudjetni va keyingi 2 yil uchun byudjet asoslarini tasdiqlashni ko'zda tutadigan o'rta muddatli byudjetni rejalashtirishni joriy etish;

- Byudjetdan ajratiladigan mablag'larning taqsimlashni haqiqatdagi yoki rejalashtirilayotgan natijalar bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liqlikni hamda davlat, tarmoq va hududiy dasturlarni ijrosiga yo'naltirilganini ta'minlovchi byudjetni rejalashtirishning dasturiy-maqсадli uslublariga o'tish orqali byudjet jarayonini "byudjet resurslari (xarajatlari)ni boshqarish"dan "natijalarni boshqarish"ga bosqichma-bosqich yo'naltirish;

- Byudjet jarayoni ishtirokchilarining mustaqilligini oshirish, jumladan mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan quyi turuvchi tashkilotlarning byudjet so'rovini ko'rib chiqish funksiyasini qo'shish hamda har yilgi byudjetdan ajratilgan mablag'larni "o'zlashtirish"dan aniq natijalarga erishish yo'nalishiga o'tkazish orqali vazirliklar – byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning byudjetni shakllantirish bo'yicha vakolatlarini kengaytirish, shuningdek sohalar byudjetlarini tegishli vazirliklar tomonidan Oliy Majlisda himoya qilishni amaliyotga kiritish;

- byudjet so‘rovlarini, byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalarini va xodimlar jadvallarini tuzish hamda taqdim etish jarayonini to‘liq avtomatlashtirish;

- mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlarini, shuningdek, yuqori turuvchi vazirlik va idoralardan moliyaviy hisobdorligi;

- Davlat byudjeti loyihasini Davlat dasturlari va rivojlanish dasturlarining funksional va jamlangan iqtisodiy tasnif shaklida kiritish;

- investitsiyalarga byudjet xarajatlari samaradorligini “Davlat investitsiyalarini boshqarishni baholash” (Public investment management assessment) bo‘yicha baholash tamoyillarini kiritish;

- o‘rta muddatli byudjet qoidalarini belgilash, shu jumladan, davlat qarzining va Davlat byudjeti taqchilligining eng yuqori miqdorlarini belgilash.

2) davlat mablag‘larini konsolidatsiyalash sohasida:

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari ta‘lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish jamg‘armasi, “Toza ichimlik suvi” jamg‘armasi hamda boshqa kam samarali jamg‘armalarni tugatish, tugatilgan jamg‘armalar xarajatlarini investitsiya va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishning dasturiy-maqsadli uslublarini kiritish yo‘li bilan Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan rejalashtirish va amalga oshirish;

- vazirlik va idoralarning davlat bo‘jlaridan, yig‘imlar va soliq bo‘lmagan to‘lovlardan shakllanadigan byudjetdan tashqari jamg‘armalarini, ma‘muriy va moliyaviy sanksiyalarni ularning maqsadga muvofiqligi hamda Davlat byudjetining birligini ta‘minlashi nuqtai nazaridan tanqidiy o‘rganish;

- vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari, shuningdek xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobiga

moliyalashtiriladigan ijtimoiy va infratuzilma loyihalarini O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjetiga kiritish;

3) byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, joylardagi davlat hokimiyati organlarining xududlar soliq salohiyatini kengaytirish va xarajatlarni rejalashtirishdan manfaatdorligini oshirish borasida:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, yagona soliq to'lovi, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlariga belgilanadigan qat'iy belgilangan soliq, benzin, dizel yoqilg'isi va gazni iste'mol qilganlik uchun olinadigan soliq, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i, yuridik shaxslarning yer solig'i, jismoniy shaxslar yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, shuningdek ruda foydali boyliklari bo'lmagan qazilmalar bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlardan tushumlarni to'liq hajmda mahalliy byudjetlarda qoldirish;

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar o'rtasida teng ulushlarda taqsimlash;

- tuman va shaharlar mahalliy byudjetlarining bazaviy yilda aniqlangan qo'shimcha daromad manbalaridan qat'iy nazar, o'rta muddatli byudjetga (kamaytirmasdan) soliq va boshqa majburiy to'lovlardan ajratmalar normalarini biriktirish;

- O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarini, pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlarini, axborot-resurs markazlarini, muzeylar, ko'rgazma zallari, teatrlar, filarmoniya, musiqa ansamblari, davlat boshqaruv organlarining hududiy bo'linmalari, shu jumladan soliq va moliya organlarini, xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish organlari va boshqa muassasalarni moliyalashtirish bo'yicha vakolatni Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga o'tkazish;

- mahalliy byudjetlar xarajatlarini, mahalliy xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlangan, moliyalashtirish manbasi aniq

bo'lgan o'rta muddatli hududlarni rivojlantirish dasturlari asosida amalga oshirish tartibini joriy qilish;

- egasiz va davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulklarning bozor mexanizmlari bo'yicha baholanishini hamda ularning byudjet hisobi yuritilishini ta'minlash; mahalliy boshqaruv organlariga mahalliy byudjetlarning qo'shimcha mablag'larini tijorat banklari depozitlariga qo'yish va lotereyalarni tashkil etish huquqini berish.

4) byudjet ochiqqligini ta'minlash va byudjet jarayoniga fuqarolarni jalb qilish sohasida:

- byudjet jarayonining shaffofligini ta'minlash va "partisipatorli byudjetlashtirishni" (participatory budgeting)" joriy etish yo'li bilan Davlat byudjetini shakllantirishda fuqarolarni faol jalb qilish;

- 2019–2021-yillar Davlat byudjeti loyihasi va soliq-byudjet siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasidan boshlab "Fuqarolar uchun byudjet"ni amaliyotga tatbiq etish;

- barcha foydalanuvchilar uchun oshkoralik, ishonchlilik va ochiqlik darajasini oshirish maqsadida byudjet hisobini davlat sektorida (IPSAS) moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari bilan muvofiqlashtirish;

- PEFA (Davlat xarajatlari va moliyaviy hisobdorlik) va Jahon banki va boshqa xalqaro moliya institutlari va donorlarning PIMA tizimlari bo'yicha 2018-yilda o'tkazilgan baholash yakunlariga asosan o'rta muddatli davrga Davlat moliyasini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish;

- Xalqaro valyuta jamg'armasining umumiy ma'lumot tarqatish tizimining talablariga binoan davlat moliyaviy statistikasini nashr etish;

- 2019-yil oxirigacha Xalqaro byudjet hamkorligining "Byudjetning ochiqqligi indeksi" reyting tizimiga qo'shilish.

5) Davlat byudjetining g'azna ijrosini takomillashtirish sohasida:

- Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlarining moliyalashtirilishi o'rtasidagi muvozanatlashuvni ta'minlash imkonini

beruvchi mexanizm sifatida daromadlarni kassali prognoz qilishning zamonaviy usullarini joriy etish;

- vaqtinchalik bo'sh mablag'larni tijorat banklarida qisqa muddatli depozitlarga joylashtirish;

- yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonida byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilariga bevosita aloqasiz xizmat ko'rsatish mexanizmini joriy etish;

- byudjet tashkilotlarining xorijiy valyutadagi mablag'larini g'aznachilik ijrosi bilan qamrab olish;

- Davlat dasturlarini amalga oshirish doirasida moliyalashtirish nazarda tutilgan obyektlar bo'yicha maqsadli byudjet mablag'larini g'aznachilik kuzatib borishni joriy qilish.

6) davlat pensiya tizimini isloh qilish sohasida:

- O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunini yangi tahrirda ishlab chiqish, bunda pensiyalarni hisoblashning soddalashtirilgan va oshkora mexanizmlarini joriy etish hamda asossiz imtiyozlar va qo'shimcha to'lovlarni taqdim etish amaliyotini to'xtatishni nazarda tutish;

- pensiya ta'minoti sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish, shu jumladan fuqarolarning mehnat stajini 73 elektron tarzda hisobga olish mexanizmlarini ishlab chiqish;

- pensiya ta'minoti tizimining ijtimoiy adolatliligi va samaradorligini oshirish, rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish, xodimning pensiya miqdori va mehnatga bo'lgan hissasi o'rtasidagi bog'liqlikni oshirish;

- ijtimoiy sug'urta tizimida ixtiyoriy ravishda ishtirok etishni rag'batlantirish choralarini qo'llash;

7) davlat qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish sohasida:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bazasi hamda 73 normativ-huquqiy bazasini ishlab chiqish va takomillashtirish;

- davlat qimmatli qog'ozlar bozorining zamonaviy vositalarini Davlat byudjeti defitsitini qoplashning qadsizlanmaydigan manbasi sifatida joriy etish va ulardan foydalanish;

- moliyaviy bozor institutlari va ularning resurslarini davlat qimmatli qog'ozlar bozoriga faol jalb qilish;

- qimmatli qog'ozlar bozorining jozibadorligini va likvidligini oshirish;

- zamonaviy axborot texnologiyalarini keng qo'llash orqali bozor infratuzilmasini takomillashtirish;

- qimmatli qog'ozlar bozori sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish;

8) sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish sohasida:

- "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini Xalqaro sug'urta nazorati assotsiatsiyasining talablarini inobatga olgan holda yangi nashrda qabul qilish;

- sug'urta bozori ishtirokchilari va tartibga soluvchi organ o'rtasida onlayn sug'urta xizmatlarini va 74 elektron ma'lumot almashinuvini ta'minlash uchun zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, biznes jarayonlarni raqamlashtirish va sug'urta tartib-qoidalarini joriy etish;

- qonunchilikda belgilangan eng kam talablarni, sug'urta tashkilotlarining ustav kapitalini, operatsiyalarni kengaytirish va mijozlar bazasini ko'paytirish uchun oshirish;

- tibbiy sug'urtalash tizimini yanada rivojlantirish, shu jumladan majburiy tibbiy sug'urta tizimini bosqichma-bosqich joriy etish; transport egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash tizimini takomillashtirish, ularning haqiqiy xarajatlarini qoplashni hisobga olgan holda sug'urta badali miqdorini oshirish.

4.4. Mamlakatni moliyaviy sog'lomlashtirish, iqtisodiyotning rivojlanishini rag'batlantirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash hamda mamlakatni madaniy jihatdan yuksaltirishga qaratilgan byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari

Mamlakatda byudjet siyosatining qanday yuritilishi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka bevosita bog'liq, shu bilan birgalikda uning o'zgarishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan byudjet siyosatining muhim o'zgarishlarini 2016-yildan boshlab byudjet siyosatini yangi bosqichga ko'tarilganligi bilan izohlashimiz mumkin. Buning asosiy sababi, 2005–2016-yillar davomida byudjet ijrosi profitsit bilan bajarilganligi bo'lsa, 2018-yilda esa byudjet holati defitsit bilan kuzatildi. Bunday tendensiyalarning sodir bo'lishi byudjet xarajatlari yo'nalishlarining o'zgarib borayotganligi bilan tavsiflanadi. Xususan, 2018-yilda davlat byudjetida 646,4 mln so'm defitsit kuzatilgan bo'lsa, 2019-yilda ushbu ko'rsatkich 4490,8 mln so'm miqdorida bashorat qilindi. Mazkur defitsitning yuzaga kelishi byudjet xarajatlari miqdorining oshishi va byudjetdan tashqari jamg'armalarning tugatilishi bilan bog'liq desak xato bo'lmaydi. Shuningdek, bunday o'zgarishlarni bevosita quyidagilar bilan ham bog'lashimiz mumkin:

1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli farmoni qabul qilinishi bilan byudjet daromadlarida sodir bo'lgan o'zgarishlar:

- barcha fuqarolar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining yagona stavkasini 12 foiz miqdorida joriy etish, shundan 0,1 foizini shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga yo'naltirish;

- fuqarolarning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlaridan Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga ushlab qolinadigan sug'urta badallarini bekor qilish;

- Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga yuridik shaxslar (davlat ulushi bo'lgan) hamda ularning tarkibiy tuzilmalari uchun yagona ijtimoiy to'lovni 25 foiz miqdorida belgilash, shuningdek, boshqa yuridik shaxslar (xususiy biznes subyektlari) uchun ushbu to'lov stavkasini 15 foizdan 12 foizgacha pasaytirish;

- davlat maqsadli jamg'armalariga yuridik shaxslarning oboroti (tushumi)dan undiriladigan majburiy ajratmalarni bekor qilish;

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasini 14 foizdan 12 foizgacha, tijorat banklari uchun – 22 foizdan 20 foizgacha pasaytirish;

- dividendlar va foizlar ko'rinishidagi foyda solig'i stavkasini 10 foizdan 5 foizgacha pasaytirish.

Yuqoridagi farmon bilan amalga oshirilgan islohotlar byudjet daromadlarini optimallashtirishni nazarda tutadi. Shuningdek, mazkur o'zgarishlardan ko'zlangan maqsad mamlakatda xufyona iqtisodiyotning ulushini kamaytirish va bu orqali soliq to'lovchilar sonini oshirishdan iborat.

2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda gi "O'zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020–2021-yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ–4086-sonli qarori qabul qilinishi bilan byudjet siyosatida quyidagi o'zgarishlar yuz berdi:

- 2018-yilning dekabriga qadar Byudjetdan tashqari jamg'armalar shaklida faoliyat olib borgan, 2019-yildan boshlab tugatilgan ba'zi fondlar byudjet xarajatlarining oshishiga o'zining munosib ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Xususan, byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasini, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasini, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish jamg'armasi tugatildi. Ushbu o'zgarishlar

natijasida byudjet mablag'lariga bo'lgan talab yanada ortishi yuzaga keladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi xarajatlarini O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi tasarrufiga o'tkazilishi bilan byudjetni mablag'lari hisobidan moliyalashtirish zaruriyati oshishi yuzaga keldi. Fikrimizcha, yuqorida qayd etib o'tilgan ikkita hujjatning qabul qilinishi bilan byudjet xarajatlariga bo'lgan talabning ortishi yuzaga kelmoqda. Binobarin, byudjetdan tashqari jamg'armalarning daromad (moliyaviy aylanmadan majburiy ajratma)lari bekor qilinishi bilan ushbu jamg'armalar xarajatlarini moliyalashtirish byudjet mablag'lariga to'g'ri keladi.

Birinchidan, yo'l jamg'armasi byudjetdan moliyalashtiriluvchi davlat qo'mitasiga o'tkazilishi munosabati bilan izohlanadi.

Ikkinchidan, pensiya jamg'armasining xarajatlari 2019-yilda byudjet subsidiyalari hisobidan 4,7 trln so'm miqdorida moliyalashtirilishi ko'zda tutildi. Demak, 2019-yilda rejalashtirilgan byudjet defitsiti byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi uchun berilgan byudjet subsidiyasining 95 foizini tashkil etgan.

Byudjetning ijtimoiy sohada olib borayotgan siyosatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, mamlakatimizda davlat byudjeti mablag'larida ijtimoiy soha xarajatlari ulushi 2017-yilgacha 55-59 foizgacha yetgan bo'lsa, so'nggi uch yil davomida bu ko'rsatkich nisbatan kamaygan. Masalan, 2017-yilda mazkur ko'rsatkich jami byudjet xarajatlariga nisbatan 55,2 foiz miqdorida ijro etilgan bo'lsa, 2019-yilga kelib esa 46,9 foiz miqdorida rejalashtirilganligini ko'rish mumkin. Garchi jami byudjet xarajatlariga nisbatan ushbu ko'rsatkich ulushi kamaygan bo'lsada, absolyut miqdorda o'sishiga erishilgan. Boshqacha aytganda, ijtimoiy soha xarajatlari miqdori 27,2 trln so'mdan 50,3 trln so'mgacha oshgan. Bu esa ushbu xarajatlar hajmining 2017–2019-yillar davomida 2,17 barobarga ortganligini ko'rsatadi (4.1-jadval).

Ijtimoiy soha xarajatlari dinamikasi¹⁸

(mlrd so'mda)

	Xarajatlar	2017-yil		2018-yil		2019-yil	
		Ijro	Jamiga nisbatan foizda	Ijro	Jamiga nisbatan foizda	Reja	Jamiga nisbatan foizda
I	Davlat byudjet xarajatlari – jami	49 343,7	100	79736,1	100	107118,4	100
I	Ijtimoiy soha xarajatlari	27223,3	55,2	42658,9	53,5	50334,1	46,9
	shundan:						
I.1	Maorif	15979,6	32,4	20631,9	25,9	28394,3	26,5
I.2	Sog'liqni saqlash	7330,0	14,9	9585,8	12,0	12078,0	11,3
I.3	Madaniyat va sport	750,2	1,5	1345,5	1,7	1690,1	1,6
I.4	Fan	275,5	0,6	441,1	0,6	801,0	0,7

O'z navbatida, byudjet xarajatlarning umumiy hajmi 5,1 barobarga ortgan. Ta'kidlash lozimki, byudjet xarajatlari oshayotgan bir paytda ijtimoiy soha xarajatlari parallel o'zgarmasdan qolmoqda. Bu o'z navbatida, ijtimoiy soha xarajatlarini ta'minlashda xususiy sektor ulushini yoki boshqa soha xarajatlarini oshayotganligini anglatadi.

Umuman olganda, 2016-yilgacha bo'lgan davrda o'zgarish uyg'unlik bilan bir maromda bo'lganligini, 2017-yildan boshlab barcha sohalarida keskin burilishlar yuzaga kelganligini qayd etish lozim. Shuningdek, madaniyat va sport sohasi uchun xarajatlar 2015-yilga kelib, o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi yuqori bo'lmagan.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan hisoblandi

Maorif sohasiga byudjet xarajatlarini rivojlanish tendensiyasiga e'tibor qaratsak, sezilarli tarzda o'sish yuzaga kelganligini qayd etish lozim. Barqaror tendensiyaga ega soha sifatida ham ta'kidlash mumkin. Sababi, o'zgarish trendiga e'tibor berish lozimki, ta'lim sohasida 2017-yilgacha bo'lgan davrda o'sish yuqori bo'lmagan bo'lsada, 2017-2019-yillarda o'tgan yilga nisbatan o'sish holatlari oshganligini ko'rish mumkin. Ushbu o'zgarishlar ta'lim tizimi pedagog xodimlarining ish haqlari oshirilishi bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabrda "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini taqdiqlash to'g'risida"gi 275-sonli qaroriga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-avgustdagi 680-sonli va 2019-yil 19-fevraldagi 146-sonli qarorlariga binoan kitirilgan o'zgartirishlar byudjet xarajatlarini oshirishda ma'lum omil bo'lib xizmat qildi. Unga ko'ra, xalq ta'limi xodimlari ish haqlari o'rtacha 20 foiz atrofida oshdi. Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 1-avgustdagi "Respublika oliy ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi 164-sonli qaroriga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-avgustdagi 662-sonli qarori bilan professor-o'qituvchilarning ish haqlari 2 barobarga oshirildi. Natijada, ta'lim sohasining byudjet xarajatlarida sezilarli o'zgarishlar yuzaga kelishiga shart-sharoit yaratildi. Fikrimizcha, 2016–2019-yillarda byudjet siyosatida yuzaga kelgan sezilarli o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli farmoni bilan qabul qilingan Harakatlar strategiyasi ustuvor yo'nalishlari bilan bevosita bog'liq. Shu boisdan, byudjet xarajatlarini rivojlanish tendensiyalarida asrimizning dastlabki 15-yilidagi o'zgarishlarga nisbatan keskin rivojlanish davri bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Shuningdek, ijtimoiy soha xarajatlarida byudjet mablag'larining oshishi bilan byudjetdan tashqari moliyaviy

resurslarning ulushini ham oshirishni nazarda tutuvchi me'yoriy-hujjatlarning qabul qilinayotganligi alohida e'tiborga molik.

So'nggi yillarda byudjet siyosatining amalga oshirilishida o'ziga xos o'zgarishlar kuzatilayotganligidan dalolat beruvchi yana bir hodisa sifatida mamlakatimiz tajribasida qo'llanilmagan amaliyotlaridan biri sanalgan byudjet xarajatlarini moliyalashtirishda yevroobligatsiyalarning chiqarilishini keltirib o'tishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-iyuldagi "Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3877-sonli qarori bilan suveren (yevro) obligatsiyalarni chiqarish va joylashtirish bo'yicha ishlarni tashkil etish nazarda tutildi. Mazkur qarorda belgilangan ishlarni amalga oshirish natijasida 1,0 mlrd so'm miqdoridagi yevroobligatsiyalar muomalaga chiqarildi. Shundan, 500 mlrd so'm qisqa (5 yil) muddatli va 500 mlrd so'm uzoq (10 yil) muddatli obligatsiyalar London fond birjasiga joylashtirildi.

Ushbu amaliyotning amalga oshirilishi byudjet siyosatidagi yangi bosqichni o'zida aks ettiradi. Mazkur jarayonlarni davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-apreldagi "O'zbekiston Respublikasining ilk suveren xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'lardan samarali foydalanish to'g'risida"gi PQ-4258-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, yevroobligatsiyalardan tushgan mablag'lar O'zbekiston iqtisodiyotida joylashtirilishi belgilab berildi. Jumladan, quyidagi tartib nazarda tutildi:

- 889,2 million AQSh dollarini auktsion savdolari o'tkazish orqali tijorat banklari depozitlariga joylashtirildi;

- Byudjetga soliqsiz daromadlarning ulushini ko'paytirish orqali xarajatlarni amalga oshirishda o'ziga xos shart-sharoit yaratdi. Bu albatta soliq yukini ham optimallashtirishga, shuningdek, moliyalashtirishning barqarorligini ta'minlashga imkon beradi. London fond birjasi orqali jalb etilgan mablag'lar uchun investorlarga

to'lanadigan foiz stavkalari mos ravishda 4,75 va 5,375 foiz ekanligini inobatga olsak, har bir depozitdan 0,5 foiz yillik byudjet daromadlari shakllanishi yuzaga kelmoqda. Bu esa, o'rtacha yillik jami 4,5 mln AQSh dollari soliqsiz byudjet daromadlari kelib tushayotganligini anglatadi. 20 million AQSh dollarini "Agrobank" ATBga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan subordinar qarz sifatida kredit liniyasi ochildi.

Subordinar qarz shaklida byudjet mablag'lari hisobidan banklarda kredit liniyalarini ochish va uning bazasida byudjet siyosatini optimallashtirish alohida e'tiborga loyiq. Mazkur mablag'lardan byudjet daromadlari yillik o'rtacha 1,17 mln AQSh dollari hajmida shakllanishiga imkon yaratiladi. 3. 89,9 million AQSh dollarini "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" davlat korxonasiga, istisno tariqasida, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan quyidagi shartlarga muvofiq xorijiy valyutada byudjet ssudasi sifatida ajratish belgilandi. O'zbekiston Respublikasi "Byudjet kodeksi"ning 157-159-moddalariga ko'ra, rezident-yuridik shaxslarga byudjet ssudalari berilishi mumkin. Byudjet ssudalari qaytarishlilik, to'lovlilik va maqsadlilik asosida berilishi alohida ko'rsatib o'tilgan. Bizningcha, "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" davlat korxonasiga berilgan byudjet mablag'larini aynan qanday maqsadlarda ishlatilishi va uning hisob-kitoblari tegishli tartibda belgilanishi lozim bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, byudjet siyosatining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

- byudjetning solikli daromadlarini shakllantirishda soliq yukining kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda;
- byudjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy ajratmalar bekor bo'lishi bilan byudjetdan tashqari jamg'armalarning xarajatlari byudjet subsidiyalari hisobiga qoplanmoqda;
- byudjetning soliqsiz daromadlari hajmi sezilarli darajada oshib borishi kuzatilmoqda;

– byudjetga xorijiy mablag‘larni jalb qilish tendensiyasi yangi bosqichga ko‘tarilmoqda.

4.5. Byudjet siyosatini olib borishda davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha Strategiyaning ahamiyati

Davlat byudjetini ishlab chiqishda O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar davlat moliyasini isloh qilishda quyidagilarni o‘z ichiga oluvchi yangicha yondashuvlarni qabul qilishni talab etmoqda¹⁹:

– byudjet tizimiga zamonaviy xalqaro standartlar va byudjet tizimini boshqarish usullarini joriy etish bilan byudjet tizimi barqarorligini oshirish;

– byudjet mablag‘larini sifatli rejalashtirish va samarali foydalanishga qaratilgan byudjet siyosatini yuritish;

– byudjetnomani tayyorlash jarayonida strategik yondashuvni mustahkamlash,

– byudjet tizimi barqarorligini mustahkamlash choralarini ko‘rish, fiskal risklarni oldini olish;

– byudjet tizimi shaffofligi va ochiqqligini ta‘minlash;

– byudjet boshqaruvida mahalliy hokimliklarning rolini mustahkamlash orqali byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

– byudjet sirkulyarlari va materiallarini takomillashtirish bilan byudjet jarayonini xalqaro amaliyot darajasiga yetkazish;

– byudjetni rejalashtirishda dasturiy-maqsdali byudjetlashtirish usulini bosqichma-bosqich joriy etish.

Moliya vazirligi tomonidan Xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda 2019–2023-yillarda Davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha Strategiya ishlab chiqilib, asosan fiskal siyosatni jahon standartlariga moslashtirish hamda o‘zida moliya

¹⁹ Byudjetnoma 2020-yil. 2021–2022-yillarga byudjet mo‘ljallari. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. https://www.mf.uz/media/file_uz/state-budget/sharh/byudjetnoma_2020.pdf

tizimidagi amalga oshirilayotgan barcha strategik dasturlarni qamrab olgan yagona normativ hujjat hisoblanadi.

Strategiyaning tarkibiy qismlari quyidagi oltita asosiy maqsadni belgilaydi:

- byudjet ustuvorligini o'rnatish va davlatning barcha darajalarida javobgarlikni kuchaytirish orqali byudjet jarayonidagi davlat rolini qayta ko'rib chiqish;

- byudjet mablag'lari qamrovi, taqqoslanishi va yaxlitligini oshirish orqali davlat moliyasi to'g'risida oshkora va to'liq ma'lumot bilan ta'minlash;

- yillik byudjetni mustahkamlash va davlat byudjetini o'rta muddatli byudjet bazasini rivojlantirish va byudjetlashtirishga o'tish, natijalarga yo'naltirilgan, risklarni boshqarish, shuningdek, davlat aktivlari va majburiyatlarini boshqarish orqali byudjet-soliq siyosatiga strategik yondashuvni ishlab chiqish;

- fiskal risklarni aniqlash, tahlil qilish va boshqarishni takomillashtirish orqali risklar, aktivlar va majburiyatlarni boshqarish;

- byudjet hisoboti standartlarini birlashtirish orqali fiskal javobgarlik va hisobdorlikni kuchaytirish, ichki nazorat va audit funksiyalarini rivojlantirish va davlatni moliyaviy jarayonining tashqi nazoratini kuchaytirish, fuqarolarning byudjet jarayonida ishtirok etishini ta'minlash;

- makroiqtisodiy prognozlar uchun aniq javobgarlik, davlat xaridlari shaffofligini oshirish va Parlamentning rolini kuchaytirish orqali institutsional salohiyat va qonunchilik bazasini mustahkamlash.

2020-yildan boshlab byudjet siyosatida yangi tushuncha – "Umumiy fiskal balans" ko'rsatkichi qo'llanila boshlandi. Ushbu ko'rsatkich O'zbekiston Respublikasi Konsolidatsiyalashgan byudjet balansini va tashqi qarz hisobidan Davlat dasturlarini amalga oshirish uchun Davlat byudjetidan qoplanadigan xarajatlarni o'z ichiga oladi²⁰. Shu bilan birga davlat qarzining asosiy qismini qoplash Davlat byudjeti xarajatlari emas balki moliyaviy jarayon (ya'ni, davlat

²⁰ Fuqarolar uchun byudjet: 2020 loyiha. T., 2019.

majburiyatini kamayishi) hisoblanib, xarajatlarni 2 marta aks ettirmaslik maqsadida xarajatlarda ko'rsatilmayapti. Natijada 2020-yilda umumiy fiskal balans parametrlari YaIMga nisbatan 2,7 foiz defitsit bilan rejalashtirilmoqda. 2021–2022- yillarda esa defitsit miqdori tegishincha 2,1 va 1,5 foizga kamayishi prognoz qilingan bo'lib, bu makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, inflyasiya ko'rsatkichiga fiskal omillarni salbiy ta'sirini bartaraf etadi. Umumiy fiskal defitsitni kamaytirilishi Davlat moliya tizimini barqarorligini ta'minlash, so'nggi yillarda yuritilgan protsiklik fiskal siyosatni o'rta muddatli davrda makroiqtisodiy barqarorlikga (ya'ni, inflyasiya, milliy valyuta kursi, joriy to'lov balansiga) salbiy ta'sirini oldini olish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2020-yil uchun ishlab chiqilgan Byudjetnomada respublikamizda byudjet siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilangan²¹:

1. 2020-yildan boshlab, Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari O'zbekiston Respublikasi qonuni shaklida tasdiqlandi. Qonunning ustunligi shundaki, Oliy Majlis palatalari vazirlik va idoralar bo'yicha taqsimlangan ajratmalarni tasdiqlashdi, ularga byudjetdan aniq belgilangan holda ajratilgan mablag'larni sarflash huquqini beradi. Bu esa vazirliklarning tegishli tarmoqni rivojlantirish bo'yicha vakolatlarini kengaytiradi hamda ularning Parlament oldidagi mablag'larni samarali ishlatilishi ustidan javobgarligini oshiradi.

Byudjet mablag'larini taqsimlovchilarini byudjetlariga kiritiladigan o'zgarishlar Oliy Majlis tomonidan ko'rib chiqiladi, shu bilan bir qatorda byudjet intizomi mustahkamlanadi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilari o'rtasida byudjetga 10 foizgacha o'zgartirish kiritish huquqiga ega.

²¹ Byudjetnoma 2020-yil. 2021–2022-yillarga byudjet mo'ljallari. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. https://www.mf.uz/media/file_uz/state-budget/sharh/byudjetnoma_2020.pdf

Birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilar uchun tasdiqlangan Parlament ajratmalariga 10 foiz va undan ortiq miqdorda tuzatishlar kiritish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadi (ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqalar va boshqa xarajatlarning indeksatsiya mablag'larini qayta taqsimlash bundan mustasno).

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining umumiy xarajatlarini 3 foizidan yuqori miqdorlarda kamaytirish yoki ko'paytirish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan Vazirlar Mahkamasi taklifiga binoan amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda.

2. 2020-yildan o'rta muddatli byudjetlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha oldingi yillardagi ishlar davom ettiriladi.

Xususan:

- Fiskal siyosatni strategik yondashuv asosida ishlab chiqish orqali yillik byudjetlashtirish tizimi kuchaytiriladi. Bunda, byudjetni shakllantirishda, ya'ni makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni va byudjet daromadlarini sifatli prognoz qilishda "pastdan-yuqoriga" qoidasiga amal qilinadi.

- Byudjetning chegaraviy miqdorlari tizimini joriy etish orqali byudjet jarayoni boshida vazirlik va idoralarga kelgusi yilgi byudjetlarini shakllantirish uchun belgilab beriladigan byudjetning chegaralangan limitlari belgilanadi.

- Parlament tomonidan byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratmalarni taqsimlash tizimini joriy qilinishi sababli vazirliklar va boshqa muassasalarning byudjet jarayonidagi sonini guruhlash taklif etiladi. Buning uchun Vazirlar Mahkamasi tomonidan tegishli idoralar bilan kelishilgan holda vazirlik va idoralarni tarmoq bo'yicha bo'ysunuvi va ish faoliyatidan kelib chiqib, birinchi va ikkinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilar kesimida guruhlash hisobida Byudjet taqsimlovchilari sonini maqbullashtirish taklif etiladi. Masalan,

ilgari byudjetdan 300 taga yaqin byudjet taqsimlovchilari bo'lgan bo'lsa, (jahon tajribasini inobatga olib) ularning sonini 56 tagacha guruhlash amalga oshiriladi.

– Bundan tashqari, xalqaro tajribalarni o'rgangan holda byudjet kalendariga o'zgartirish kiritish taklif etilmoqda. Bunga asosan byudjet jarayoni may oyida Iqtisodiyot va sanoat vazirligi tomonidan taqdim etilgan kelgusi uch yillik uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dastlabki prognoziga asosan Davlat byudjeti daromadlar prognozi ishlab chiqilib, davlat qarzi strategiyasiga asosan byudjetning chegaralangan imkoniyatlari hisoblab chiqiladi.

Moliya vazirligi tegishli vazirliklar bilan birgalikda byudjet xarajatlarining ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, kelgusi uch yillik muddatga mo'ljallangan Fiskal strategiyani ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga 1-iyungacha kiritadi hamda 15-iyunga qadar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Moliya vazirligi 15-iyunda birinchi darajali byudjet taqsimlovchilarga byudjetni chegaraviy miqdorini (Бюджетный потолок) yetkazadi. Birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilari o'zi bo'ysunuvidagi byudjet tashkilotlar hamda ikkinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilar limitlarini taqsimlab, "UzASBO" axborot dasturida byudjet loyihasini shakllantiradilar hamda 15-iyulga qadar Moliya vazirligiga taqdim etadilar. Bunda birinchi darajali byudjet taqsimlovchilar byudjet mablag'larini quyi byudjet tashkilotlar bo'yicha to'g'ri taqsimlash uchun mas'ul hisoblanadi.

Moliya vazirligi birinchi darajali byudjet taqsimlovchilarining byudjet so'rovlari va yangilangan makroiqtisodiy prognozlarga asosan byudjet parametrlarini shakllantiradi hamda 15-sentyabrga qadar Vazirlar Mahkamasiga kelgusi yil uchun byudjet Qonuni loyihasini va Byudjetnomani taqdim qiladi.

2020-yildan boshlab, Davlat byudjeti xarajatlari oldingi yillardan farqli o'laroq sohalar va tarmoqlar kesimida emas balki xalqaro tajribaga

muvofig xarajatlarning funksional ko'rinishda joriy etiladi, buni quyidagi jadvalda ko'rishingiz mumkin.

4.2-jadval

2020-yil uchun Davlat byudjet xarajatlarining vazifa jihatidan tasnifi²²

mlrd so'm

No	Ko'rsatkichlar	Jami xarajatlar miqdori
	Xarajat turlari	131104,5
1	Ta'lim	35489,2
2	Sog'liqni saqlash	14884,9
3	Ijtimoiy himoya	18030,7
4	Iqtisodiy maqsadlar	17885,4
5	Umumiy ahamiyatdagi davlat xizmatlari	14566,6
6	Uy-joy va kommunal xizmatlar	3119,0
7	Dam olish, madaniyat, sport va din	2893,6
8	Jamoat tartibi va xavfsizligi	1821,2
9	Atrof-muhitni muhofaza qilish	269,1
10	Boshqalar	22145,0

3. Kelgusi yildan boshlab, byudjet tuzish jarayoni, vazirlik va idoralar tomonidan amalga oshiriladigan byudjet buyurtmalarini shakllantirish va byudjet mo'ljallarini tasdiqlashda avtomatlashtirilgan tizim yaratish, bunda "O'zASBO" va "DMBAT" dasturiy majmualarini integratsiyalashtirish orqali amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda.

Taqdim etilgan byudjet mo'ljallarini, byudjet taqisimlovchilari tomonidan byudjetni taqsimlash va tasdiqlash avtomatlashtirilgan tizim orqali amalga oshiriladi.

4. Quyidagilarni ko'zda tutuvchi byudjetlararo munosabatlarning yangi tizimini joriy etish taklif qilinmoqda:

²² Byudjetnoma 2020-yil. 2021-2022-yillarga byudjet mo'ljallari. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. https://www.mf.uz/media/file_uz/state-budget/sharh/byudjetnoma_2020.pdf

– Respublika byudjeti xarajatlari hamda byudjetlararo transfertlar hajmi – Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi;

– Mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarning byudjetlari – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. Birinchi bosqichda, ya‘ni Oliy Majlis palatalari tomonidan 2020-yil byudjetini tasdiqlashda, mahalliy byudjetning daromad va xarajatlarining umumiy hajmlari ma‘lumot uchun qabul qilinadi.

– Byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag‘lari hajmi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan mahalliy byudjet parametrlari tasdiqlangan holda, joylardagi mahalliy hokimiyat organlari tomonidan belgilanadi;

– Mahalliy byudjetning xarajatlar bo‘yicha majburiyatlarining bajarilmaslik xavfini tug‘dirmaydigan hamda joylardagi mahalliy hokimiyat organlarining faoliyati bilan bog‘liq soliq va majburiy to‘lovlar bo‘yicha xarajatlari bo‘yicha vakolatlar mahalliy byudjetlarga taqsimlanadi va birlashtiriladi.

Tuman va shaharlar byudjetlariga jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan yer solig‘i, jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan mulk solig‘i, jismoniy shaxslar tomonidan olinadigan daromad solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlar to‘liq hajmda kiritiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetiga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga quyidagi tushumlar to‘liq hajmda kiritiladi:

– yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i, yuridik shaxslarning yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan), benzin, dizel va siqilgan gaz mahsulotining chakana savdosi uchun aksiz solig‘i, davlat bojlari (patent uchun boj va davlat tomonidan litsenziya berish uchun bojdin tashqari), Davlat byudjetiga o‘tkaziladigan jarima va yig‘imlar (bojxona yig‘imlaridan tashqari), davlat foydasiga o‘tkazilgan tovar va moddiy aktivlar,

qonunchilikda belgilangan, davlat mulkini xususiylashtirishdan va ijaraga berishdan olingan daromadlar, transport vositasi sotib olinganligi uchun yig'im;

- qo'shilgan qiymat solig'i (yirik soliq to'lovchilardan tashqari) va foyda solig'i (yirik soliq to'lovchilardan, norezidentlardan tashqari) bo'yicha daromadlarning prognozdan oshirib bajarilgan qismining 100 foizi;

- foyda solig'idan Toshkent viloyatida 34 foiz, Toshkent shahrida 5 foiz va boshqa hududlarda esa 100 foiz tushumlar mahalliy byudjetlar ixtiyorida qoldiriladi. Ushbu tushumlarning prognozdan orttirib bajarilgan qismi esa to'lig'icha hududlarga qoldiriladi;

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan Navoiy viloyatida 70 foiz, Toshkent viloyatida 34 foiz, Toshkent shahrida 5 foiz va boshqa hududlarda esa 100 foiz tushumlar mahalliy byudjetlar ixtiyorida qoldiriladi. Shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha ham prognozdan orttirib bajarilgan qismi to'liq mahalliy byudjetlarda qoldiriladi;

- abonentlar sonidan kelib chiqqan holda mobil aloqa xizmati uchun aksiz solig'i va aholi sonidan kelib chiqqan holda va pivo mahsulotini hisobga olgan holda alkogol mahsulotlari uchun aksiz solig'i. Bunda abonentlar va aholi soni 2019-yil 1-iyul holatiga qarab qabul qilinadi.

2020-yilda respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida xarajat vakolatlari bo'yicha quyidagi byudjet siyosati amalga oshiriladi:

- umumiy o'rta ta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalarining birinchi va ikkinchi guruh bo'yicha xarajatlari O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti mablag'lari hisobidan, to'rtinchi guruh bo'yicha xarajatlar tuman va shaharlarning tegishli byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi;

- ba'zi xarajatlar bo'yicha vakolatlarni yuqori byudjetlardan quyi byudjetlarga o'tkazish. Jumladan, umumfoydalanishdagi avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilish xarajatlari;

- Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki

yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari hamda Qarshi magistral kanalining ekspluatatsiya boshqarmasi va issiqlik energiyasini ishlab chiqaruvchilarga aholiga ko‘rsatilgan issiqlik ta‘minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari;

- ko‘p xonadonli uylarga tutash hududlarni obodonlashtirish va Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi tashkiliy tizimiga kiruvchi issiqlik quvvati tashkilotlarining qozonxonalari va issiqlik quvvati tizimlarini kapital ta‘miri O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan amalga oshiriladi;

- bundan tashqari, tajriba tariqasida Toshkent shahridagi umumta‘lim va maktabgacha ta‘lim muassasalarini loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), kapital ta‘mirlash va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar Toshkent shahri shahar byudjeti hisobidan amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda;

- joylardagi mahalliy hokimiyat organlari tashabbusi bilan o‘tkaziladigan tadbirlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlari, shahar va tumanlar byudjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan moliyalashtiriladi.

Xalq ta‘limi vazirligi va Maktabgacha ta‘lim vazirligi tomonidan respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan umumiy o‘rta ta‘lim maktablari va maktabgacha ta‘lim muassasalarining birinchi va ikkinchi guruh bo‘yicha xarajatlarini moliyalashtirish tizimiga o‘tishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- tizimdagi muassasalarni moliyalashtirishda Respublika bo‘yicha yagona yondashuv amal qiladi, ajratilgan mablag‘larning maqsadli ishlatilishi ustidan nazorat kuchayadi;

- tegishli vazirlik tomonidan Respublika maktablari va maktabgacha ta‘lim muassasalarida kadrlar siyosatini boshqarish imkonini bo‘ladi;

- ish haqi va ish haqiga nisbatan ajratmalar o'z vaqtida moliyalashtiriladi nazorat Xalq ta'limi vazirligi va Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan avtomatlashtirilgan tizimda amalga oshiriladi va buning natijasida ish haqi hisob-kitoblaridagi xatoliklar bartaraf etiladi;

- moliya va g'aznachilik organlarining transfert o'tkazmalari bilan bog'liq operatsion funksiyalari qisqaradi;

- Xalq ta'limi vazirligi va Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan mablag'lar yetishmovchiligi yuzaga kelganda limitlarni bir tumandan ikkinchisiga ma'lum bir qoidalar asosida tezkor o'tkazish imkoni yuzaga keladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlari mustaqilligini oshirish va kelgusi yillardan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlarini tuzish jarayonini mustaqilligini ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan 2020-yildan boshlab byudjetlararo transfertlar tizimiga ham bir qator o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Joriy yilda O'zbekiston Respublikasi byudjetidan mahalliy byudjetlarga tuman va shahar byudjetidan moliyalashtiriluvchi maktabgacha ta'lim, umum ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarida ishlovchi xodimlarning ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni moliyalashtirish uchun ijtimoiy transfertlar ajratilmoqda va ushbu transfertlar maktabgacha ta'lim, umum ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarida ishlovchi xodimlarning ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlariga mutanosib ravishda ajritiladi, ya'ni yil yakuni bo'yicha ma'lum bir sababga ko'ra moliyalashtirilmagan xarajatlarga teng ulushlarda ijtimoiy transfertlar summalari ham kamaytirilishi ko'zda tutilgan.

2020-yildan boshlab esa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlari daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi

salbiy farqni qoplash uchun tartibga soluvchi transfertlar ajratiladi va ushbu transfertlar miqdorlarini kamaytirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Tayanch so'z va iboralar *Byudjet siyosati, byudjet siyosati strategiyasi, byudjet siyosati taktikasi, byudjet siyosatining maqsadi, byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari.*

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Byudjet siyosati deganda nima tushunasiz?
2. Byudjet daromadlari bo'yicha siyosatning mohiyati nimadan iborat?
3. Byudjet xarajatlari bo'yicha siyosatning mohiyati nimadan iborat?
4. Byudjet siyosati bosqichlarining bir-biridan farqli jihatlari nimadan iborat?
5. Byudjet taqchilligini bartaraf etish bo'yicha byudjet siyosatida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni aytib o'ting.
6. Byudjet tuzish jarayoni, vazirlik va idoralar tomonidan amalga oshiriladigan byudjet buyurtmanomalarini shakllantirish va byudjet mo'ljallarini tasdiqlashda qanday o'zgarishlar bo'lishi kutilmoqda?
7. Umumiy fiskal balans nima?

V BOB. DAVLAT BYUDJETINI BOSHQARISH


5.1. Davlat byudjetini boshqarish to'g'risida tushuncha

Umumiy holatda "boshqaruv" atamasi ma'lum bir obyektning rivojlantirish maqsadida unga ongli ravishda ta'sir ko'rsatish jarayonini anglatadi. Byudjet tizimi doirasida markazlashtirilgan pul fondlarini qayta taqsimlash har doim ma'lum bir maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu jarayon esa shakllangan boshqaruv tizimini tashkil etishni talab etadi. Ushbu fikrlardan kelib chiqib, boshqaruv subyekting boshqaruv obyektiga maqsadli (ongli) yo'naltirilgan ta'siri boshqaruv deyiladi. Boshqaruv ma'lum bir ijobiy natijaga erishish uchun, uslublar va tamoyillar yig'indisi orqali biror obyektga maqsadga muvofiq ta'sir etishdir. Inson faoliyatining barcha sohalariga, shu jumladan davlat byudjeti sohasiga ham boshqaruv jarayoni taalluqlidir.

O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida davlat moliyasi va uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan davlat byudjetini boshqarish alohida ahamiyatga ega. Davlat byudjeti davlatning qator ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik va boshqa funksiyalarini amalga oshirishning moddiy-moliyaviy asosini tashkil etgan holda mamlakat moliya tizimining barcha bo'g'inlari bilan byudjet-moliya qonunchiligi bilan tartibga solinadigan muayyan munosabatlarga kirishadi. Davlat byudjeti iqtisodiyot va ijtimoiy soha taraqqiyotini samarali tartibga soluvchi majmua bo'lib, u davlatga zarur bo'lgan moliyaviy resurslar hajmini aks ettiradi, mamlakatda soliq siyosatini belgilaydi, milliy daromad va yalpi ichki mahsulot qayta taqsimlanishining aniq yo'nalishlarini qayd etadi, mablag'larni xarajat qilish orqali davlat ijtimoiy va iqtisodiy siyosatini amalga oshiradi va strategik taraqqiyotni ta'minlab turadi. Davlat byudjetini boshqarishning maqsadi mamlakatda byudjet profitsitini ta'minlash orqali davlat va jamiyat a'zolarining iqtisodiy manfaatlari mushtarakligida namoyon bo'ladigan byudjet barqarorligi va mustaqilligini ta'minlashdan iborat.

Davlat byudjetini boshqarish quyidagilarni nazarda tutadi:

– Byudjet tizimining asosiy tamoyillariga amal qilgan holda byudjet munosabatlarini boshqarish;



5.1-chizma. **Davlat byudjetini boshqarish tizimi**

– Barcha darajadagi byudjetlarni shakllantirish, ko'rib chiqish, qabul qilish, ijro etish jarayonlarini boshqarish;


– Byudjet jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar, organlar va byudjet mablag‘larini oluvchilar faoliyatini boshqarish (5.1-chizma).

Davlat byudjetini boshqarish tushunchasi subyektiv tushuncha. Byudjet tizimini boshqarish alohida vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi, ularning vakolatlari O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, tegishli boshqaruv organlari Nizomlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bilan belgilab berilgan.

Byudjet kodeksida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari va joylardagi davlat hokimiyati organlarining, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining byudjet tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari tegishli moddalarda belgilab berilgan.

Ma‘muriy-hududiy tuzilmalarning byudjet huquqlari joylardagi davlat hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat byudjetini boshqarish ham boshqarish kategoriyasining barcha funksiyalarini bajaradi, ular orqali byudjet tizimini boshqarish oldidagi maqsad va vazifalar amalga oshiriladi. Bu funksiyalar quyidagilardan iborat:



5.2-chizma. **Davlat byudjetini boshqarish funksiyalari**


5.2. Boshqarish obyektlari va subyektlari, ularning guruhlanishi, asosiy vazifalari

Byudjet tizimini umumiy boshqarish mamlakatning oliy hokimiyat va boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. Umumdavlat miqyosida moliyaviy boshqaruv tizimi quyidagi boshqaruv organlaridan tashkil topishi mumkin:

Byudjet tizimini umumiy boshqarish subyektlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
- Mahalliy davlat hokimiyati organlari;
- O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi.


Byudjet tizimini maxsus boshqarish subyektlari sifatida esa quyidagilarni ko'rsatish mumkin (5.3-chizma):



5.3-chizma. Byudjet tizimini maxsus boshqarish subyektlari

Mamlakat Prezidenti byudjet tizimi faoliyatini tartibga soladi, davlat byudjeti to'g'risidagi qonunni imzolaydi.

Ikki palatadan (Senat va Qonunchilik) iborat bo'lgan Oliy majlis soliqlar, yig'imlar, soliqdan tashqari to'lovlarni belgilaydi, Davlat byudjetini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi. Shuningdek, u davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotni ham tasdiqlaydi, moliyaviy qonunlarni (masalan, Byudjet kodeksi, Soliq kodeksi va boshqalar) qabul qiladi. Byudjetni boshqarish borasida Hisob palatasining asosiy vazifalari 5.4-chizmada keltirilgan.



5.4-chizma. Byudjetni boshqarish organi sifatida Hisob palatasining moliyaviy boshqaruvga oid vazifalari

Mamlakatning Markaziy banki moliyaviy siyosat va uning tarkibiy qismi bo'lgan pul-kredit siyosatini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. U G'aznachilik tizimi organlari bilan birgalikda byudjetning kassa ijrosini ta'minlaydi va boshqa kredit institutlari faoliyatini nazorat qiladi.

Byudjet tizimini boshqarishda Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlari ham muhim rol o'ynaydi. Ular yordamida soliqlar, yig'imlar

va boshqa to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi, ularning tegishli byudjet fondlariga to'liq va o'z vaqtida o'tkazilishi ustidan nazorat amalga oshiriladi.

Davlat bojxona qo'mitasi va uning tegishli organlari moliyaviy boshqaruv tizimida o'ziga xos bo'lgan o'ringa ega. Ular bojxona bojarining o'z vaqtida tushishi uchun mas'ul hisoblanadi.

Davlat byudjetini boshqarish obyektlari bo'lib byudjet munosabatlari, byudjetning daromadlar bo'yicha shakllanishi va xarajatlar bo'yicha bajarilishi, byudjetlararo munosabatlar va shu kabi ijtimoiy-iqtisodiy pul munosabatlari hisoblanadi.

5.3. Markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlari vakolatlari, ijroiya hokimiyati organlarining byudjet tizimini boshqarishdagi ishtiroki

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari va joylardagi davlat hokimiyati organlarining, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining byudjet tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari tegishli moddalarda belgilab berilgan. Bunga ko'ra:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va mahalliy hokimiyat vakillik organlari:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini, tumanlar va shaharlar byudjetlarini tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq ko'rib chiqadi va qabul qiladi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va

Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq har chorakda ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;

- mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari:

- tegishli byudjet loyihasini ishlab chiqish va uni ijro etish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi;

- byudjet so'rovi olinishiga qarab tegishli byudjetlarning loyihalarini tuzish to'g'risida qarorlar qabul qiladi, ularni tayyorlash tartibi va muddatlarini belgilaydi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti loyihasini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari loyihalarini tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga ko'rib chiqish va qabul qilish uchun taqdim etadi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining qarorlariga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari parametrlarini tasdiqlaydi;

- Belgilangan tartibda moliya yili mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari parametrlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqadi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlarining

tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga tasdiqlash uchun taqdim etadi;

- Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga tushumlar to'liq va o'z vaqtida tushishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

- byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

- qonun hujjatlarida belgilanadigan alohida soliqlar bo'yicha belgilangan stavkalarga pasaytiruvchi va oshib boruvchi koeffitsiyentlarni kiritish to'g'risida hududlarda faoliyatni amalga oshirish joyining xususiyatlarini inobatga olgan holda qarorlar qabul qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari ko'rsatilgan vakolatlar bilan bir qatorda tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlari va Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining zaxira jamg'armalari mablag'laridan foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari ko'rsatilgan vakolatlar bilan bir qatorda mahalliy byudjetlarning parametrlarini hamda ularning ijrosi haqidagi hisobotlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan ko'rib chiqish hamda tasdiqlash jarayonining ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ham ta'minlaydi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Konstitutsiyada mustahkamlangan mahalliy hokimiyatlarning mustaqilligini moliya sohasida qayta o‘zgartirishlarni va mahalliy byudjetlarning daromad asoslarini mustahkamlash yo‘llarini izlashni talab qildi. Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish, xarajatlarni muvofiqlashtirishning yangi modeliga bo‘lgan zarurat byudjetni qayta o‘zgartirishga olib keldi. Davlat boshqaruv tamoyillari o‘zgarishlari bilan birga hozirgi paytda maqsadlar hamda byudjetni hududiy tartibga solish tamoyillarining o‘zgarishlari bilan bog‘liqdir.

Mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy byudjet daromadlarini shakllanishi va xarajatlarining asosiy yo‘nalishlarini belgilash jarayonidagi roli, ular faoliyatini moliyaviy mustaqilligini ta‘minlovchi asosiy yo‘nalish hisoblanadi.

Qo‘shimcha mahalliy soliqlarning joriy qilinishi va uning yig‘imini ta‘minlash bo‘yicha mahalliy byudjetlar oldida turgan eng muhim muammosi bo‘lib, bu mahalliy byudjetlarni yetarli daromad manbaiga ega emasligi, byudjetlar daromadlarini shakllantirishdagi yuqori byudjetlarga bog‘liqligi hamda barqaror soliq turlarini kamligi hisoblanadi.

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga asosan:

1) Mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining iqtisodiy asosini (II bob) mulk va uni boshqarish huquqlari (7, 8, 9-moddalar): ma‘muriy-hududiy tuzilmalarning davlat mulki (kommunal mulk) va viloyat, tuman, shaharda mavjud bo‘lgan, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qilayotgan o‘zga mulk tashkil etadi.

2) Qonunda mahalliy hokimiyat organlari - xalq deputatlari Kengashlari va hokimning vakolatlari (VI bob), shu jumladan, mahalliy byudjet va uning ijrosiga doir hisobotni, hududni rivojlantirishning

istiqbolga mo'ljallangan dasturlarini, tuman, shaharning bosh rejasi va uni qurish qoidalarini tasdiqlash; amaldagi qonunlarga muvofiq mahalliy soliqlar, yig'imlar, boj miqdorini belgilash, mahalliy byudjetga tushadigan mahalliy soliqlar, yig'imlar va to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berish va boshqa vakolatlari belgilab qo'yilgan.

5.4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining byudjet sohasini boshqarishdagi ishtiroki

Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining byudjet sohasidagi vakolatlari keltirilgan. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi²³:

- Davlat byudjeti hamda soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalarini tayyorlaydi;

- davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari loyihalarini ko'rib chiqadi;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga byudjetnoma loyihasini ko'rib chiqish uchun taqdim etadi;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasiga O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari prognozini har chorakda yetkazadi;

- byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarga ular uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmlarini yetkazadi;

- byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning xarajatlar smetalari va jamlanma xarajatlar smetalari, shtat jadvallarini, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazadi;

- O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining xarajatlari yoyilmasiga moliya yili mobaynida o'zgartirishlar kiritadi;

²³ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 4-bob, 29-30-moddalar. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-I-son.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga belgilangan tartibda Davlat byudjeti, O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari parametrlariga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar taqdim etadi;

- Belgilangan tartibda moliya yili mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining tasdiqlangan parametrlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflarini ko'rib chiqadi;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni ularning manbalari kesimida to'liq va o'z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;

- byudjet tizimi byudjetlarining mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlar, shuningdek, byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag'lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlari shakllarini va ularni taqdim etish tartibini tasdiqlaydi;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risida hisobot taqdim etadi;

- byudjetdan tashqari maxsus hisobvaraqlarda zaxiralar tashkil etadi;

- Davlat byudjetini ijro etish jarayonida unga tushumlarni ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha zaxiralarni aniqlaydi;

- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlarini maqbullashtirishni amalga oshiradi;

- byudjet ssudalarini beradi;

- davlat tomonidan mablag'lar jalb qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining shartnomalari va davlat kafolatlarini ro'yxatdan o'tkazadi;

- davlat qarzining hisobini va monitoringini yuritadi;
- byudjet tizimi byudjetlarining kassa ijrosini yuritadi;
- byudjet tizimi byudjetlarining Yagona g‘azna hisobvarag‘idagi va boshqa bank hisobvaraqlaridagi mablag‘larini boshqaradi;
- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarini ro‘yxatdan o‘tkazadi;
- byudjet tizimi byudjetlarida mablag‘lar nazarda tutilgan yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshirig‘iga ko‘ra to‘lovlarni amalga oshiradi;
- byudjet tizimi byudjetlari ijrosining byudjet hisobini yuritadi va byudjet hisobotini qabul qiladi;
- davlat qarzi bo‘yicha xizmat ko‘rsatadi, O‘zbekiston Respublikasining davlat kafolatlarini bajaradi;
- O‘zbekiston Respublikasiga kelayotgan insonparvarlik yordami hamda texnik ko‘maklashish mablag‘lari hisobini yuritadi;
- prognoz yil uchun Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihalari hamda kelgusi ikki yilga oid byudjet mo‘ljallari, shuningdek, Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga yuborilishidan oldin ularning jamoatchilik muhokamasini ta‘minlaydi;
- byudjet tizimi byudjetlari daromadlari va xarajatlarining balansligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni moliyaviy hamda iqtisodiy ekspertizadan o‘tkazadi;
- o‘z vakolatiga kiradigan masalalarga doir normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.
- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Kodeksning 30-moddasiga binoan hududiy moliya organlarining byudjet sohasidagi vakolatlari quyidagilar:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari

loyihalarini tayyorlaydi hamda ularni tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklariga ko‘rib chiqish uchun kiritadi;

- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni ularning manbalari kesimida to‘liq va o‘z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;

- tegishli byudjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘shimcha zaxiralarni aniqlaydi;

- byudjet tashkilotlariga va byudjet mablag‘lari oluvchilarga ular uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar hajmlarini yetkazadi;

- byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini hamda byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetalarini, shuningdek ularga kiritilgan o‘zgartirishlarni ro‘yxatdan o‘tkazadi;

- belgilangan tartibda tegishli byudjetlar parametrlariga moliya yili mobaynida o‘zgartirishlar kiritadi;

- tegishli byudjetlarning mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- yuqori turuvchi moliya organlariga hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklariga tegishli byudjetning ijrosi to‘g‘risida har choraklik hisobotlarni taqdim etadi;

- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar xarajatlarini maqbullashtirishni amalga oshiradi;

- tegishli byudjetlar ijrosining byudjet hisobini yuritadi va byudjet hisobotini qabul qiladi;

- mahalliy davlat hokimiyati organlarining tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari balansligiga ta’sir ko‘rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarini moliyaviy va iqtisodiy ekspertizadan o‘tkazadi;

- Davlat byudjeti daromadlari prognozini davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlariga har chorakda tegishli ma’muriy-hududiy birliklar bo‘yicha yetkazadi;

- byudjet ssudalarini beradi.

– Hududiy moliya organlari qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Mamlakat moliya organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining soliq-byudjet siyosatiga qat’iy rioya etilishini ta’minlash, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini hamda ijtimoiy sohani barqaror, mutanosib va jadal rivojlantirish, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash, byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan vazifalari, funksiyalari, ish shakllari va uslublarini qayta ko‘rib chiqish maqsadida 2017-yil 18-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2847-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga asosan quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda uning bo‘linmalari faoliyatining ustuvor vazifalari hamda yo‘nalishlari etib belgilandi:

– iqtisodiy o‘sishning barqaror yuqori sur‘atlarini, iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning moliyaviy mutanosibligini ta’minlashda, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini to‘liq va o‘z vaqtida bajarishda, yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda moliya organlarining rolini oshirishga yo‘naltirilgan yagona davlat soliq-byudjet siyosatini amalga oshirish;

– iqtisodiyot va aholiga soliq yukini kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlash, mineral-xomashyo, yer-suv hamda boshqa resurslar va uskunalaridan oqilona foydalanishda soliq hamda boshqa majburiy to‘lovlarning rag‘batlantiruvchi rolini kuchaytirish yo‘li bilan soliq tizimini izchil takomillashtirib borish, soliq ma’muriyatchiligi samaradorligini oshirish, soliqlar hamda boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblash va to‘lash tartibini soddalashtirish, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq yig‘ilishini ta’minlash maqsadida ularning stavkalarini optimallashtirish;

– byudjetlararo munosabatlarni tubdan takomillashtirish, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar

mahalliy byudjetlarining daromad bazasini barcha choralar bilan kengaytirish, viloyatlar va tumanlarni subvensiyadan chiqarib, ularning mutanosibli va o'zini o'zi qoplay olishini ta'minlash, hududlar hokimliklari bilan birgalikda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahrini kompleks va intensiv rivojlantirish asosida Davlat byudjetiga qo'shimcha manbalar jalb etish yuzasidan tizimli ishlarni amalga oshirish, tabiiy va iqtisodiy salohiyatdan yanada to'liq va samarali foydalanish, hududlar iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash;

- moliyaviy resurslarni iqtisodiy taraqqiyotning eng ustuvor yo'nalishlariga, ijtimoiy sohani, ayniqsa qishloq joylarida, jadal rivojlantirishga, maqsadli investitsiya dasturlarini moliyalashtirishga, belgilangan me'yorlarga muvofiq ularni real moliyalashtirish manbalari bilan mustahkamlashga, ushbu asosda kreditorlik va debitorlik qarzlarni kamaytirishga jamlash;

- iqtisodiyot bazaviy tarmoqlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish, qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning samarali usul va mexanizmlarini joriy etish, tovarlar va xizmatlarning ayrim turlariga narx va tariflar belgilash tartibini takomillashtirish hamda to'lov intizomini mustahkamlash;

- byudjet tizimidagi byudjet mablag'laridan maqsadli hamda oqilona foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish, qat'iy iqtisod qilish, ishlab chiqarish va muomala xarajatlarini kamaytirish, nobudgarchilik va talon-tarojlikni, maqsadga nomuvofiq chiqimlarni tugatish yuzasidan vazirliklar, idoralar, xo'jalik subyektlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda keng qamrovli profilaktika ishlarini olib borish;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa valyuta nazorati organlari bilan birgalikda valyuta-moliya siyosatining asosiy tamoyillari va usullarini shakllantirish, davlatning valyuta resurslarini ko'paytirish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

– fuqarolarning pensiya ta’minoti sohasida davlat siyosatining asosiy yo’nalishlarini ishlab chiqish, Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi daromadlari va xarajatlarining mutanosibligini ta’minlash, Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi tomonidan uning zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalar, xususan pensiyalar hamda boshqa tegishli to’lovlarni tayinlash va o’z vaqtida to’lash bo’yicha o’rnatilgan qoidalarining qo’llanilishini muvofiqlashtirish hamda ularni nazorat qilish;

– sug’urta tashkilotlarining sug’urta munosabatlari barcha qatnashchilarining huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlashga qaratilgan faoliyatini nazorat qilish, buxgalterlik hisobi va hisobotining yagona metodologiyasini shakllantirish va amalga oshirish, auditorlik faoliyatini tartibga solish, mamlakatning moliya bozorlarini rivojlantirish bo’yicha davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish va h.k.

5.5. O‘zbekiston Respublikasi G‘aznachiligi, uning byudjet mablag‘larini boshqarishdagi ahamiyati

Shuni ta’kidlash kerakki, 2004-yil 26-avgustda “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi to’g‘risida”gi O‘zR qonunining qabul qilinishi mamlakatimizda G‘aznachilik organlari faoliyatini tartibga solish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi. Byudjet kodeksining qabul qilinishi bilan ushbu Qonun o‘z kuchini yo‘qotib, hozirgi kunga qadar Byudjet kodeksi doirasida G‘aznachilik organlari faoliyati amalga oshirilmoqda. G‘aznachilik bo‘linmalari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo’yicha G‘aznachilik boshqarmalari, tumanlar va shaharlar bo’yicha G‘aznachilik bo‘linmalaridan tashkil topgan²⁴. Ularning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

²⁴ O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 1-bob, 3-moddasi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 52-I-son.

- davlat byudjetining kassa ijrosini amalga oshirish;
- davlat byudjeti mablag‘larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- davlat byudjeti mablag‘larini boshqarish;
- davlat byudjetida mablag‘lari nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshirig‘iga binoan to‘lovlarni amalga oshirish;

- byudjet tashkilotlarining tovar yetkazib berish (ishlar bajarish, xizmat ko‘rsatish) uchun tuzadigan shartnomalarini, shuningdek, buyurtmachilarning davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan kapital qurilish uchun tuzadigan shartnomalarini ro‘yxatga olish;

- davlat byudjeti g‘azna ijrosining buxgalteriya hisobini yuritish;
- davlat byudjeti ijrosining qanday borayotganligi to‘g‘risidagi axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish;

- O‘zbekiston Respublikasi davlat ichki va tashqi qarzlarga xizmat ko‘rsatish, davlat kafolatlarini bajarish kabilar.

G‘aznachilikning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Davlat byudjetining g‘azna ijrosini tadbiq etish bilan byudjet tizimini yanada isloh qilish;

- zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalangan holda byudjet mablag‘larining maqsadli safralanishi ustidan nazoratni kuchaytirish;

- barcha darajalardagi byudjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagi PQ–594-sonli “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori talablaridan kelib chiqqan holda barcha darajalardagi byudjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligiga vazifalar yuklatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi:

Davlat byudjetining kassa ijrosi, jumladan, tushadigan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o‘rtasida taqsimlash, byudjet tashkilotlarining

va byudjet mablag'larini oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi Davlat byudjeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzadilar.

Tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta'minlaydigan yagona g'aznachilik hisob raqamida bo'lgan Davlat byudjeti mablag'larini boshqaradilar.

Yagona g'azna hisobvarag'idagi mablag'larni boshqarishni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjeti daromadlari tushumlari va xarajatlarning qisqa muddatli prognozlarini tuzish yo'li bilan amalga oshiradi.

Yagona g'azna hisobvarag'ida mablag'lar yetishmagan taqdirda, qabul qilingan moliyaviy majburiyatlarni bajarish uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjeti xarajatlarning cheklangan hajmini belgilaydi, uning asosida byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarga xarajatlarni to'lash uchun ruxsatnomalar beradi.

Xarajatlarni to'lash uchun ruxsatnomalar berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining vaqtincha bo'sh turgan mablag'lari mavjud bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tijorat banklarida depozitlarga joylashtirilishi mumkin bo'lgan mablag'larning hajmini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini joylashtirish va ularni tijorat banklarida depozitlarga joylashtirishdan olingan daromadlardan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-avgustdagi 245-sonli qaroriga 1-ilovasida "O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti pul mablag'larini kassali rejalashtirish va boshqarish tartibi to'g'risida Nizom" talablaridan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi Davlat byudjeti daromadlari tushumlari va xarajatlarning qisqa muddatli prognozlarini tuzish yo'li bilan amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha G'aznachilik boshqarmalari, tumanlar va shaharlar bo'yicha G'aznachilik bo'linmalari YaG'Hdagi Davlat byudjeti pul mablag'larini kassali rejalashtirish va boshqarishni Davlat byudjeti daromadlari tushumi va xarajatlarning har oylik prognozlarini tuzish yo'li bilan amalga oshiradilar.

Tayanch so'z va iboralar *Byudjet tizimini boshqarish, boshqarish subyektlari, markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlari, ijroiya hokimiyati organlari, O'zR Moliya Vazirligi.*

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Byudjet tizimini boshqarish nima?
2. Byudjet tizimini boshqarish subyektlariga qaysi organlar kiradi?
3. Byudjet tizimini boshqarish organlarining umumiy va xususiy vazifalarini aytib o'ting.
4. O'zR Moliya Vazirligining byudjet tizimini boshqarishdagi vakolatlari qaysi me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi?
5. O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligining byudjet tizimini boshqarishga oid asosiy vazifalari nimadan iborat?

VI BOB. BYUDJETLARARO MUNOSABATLAR

6.1. Byudjetlararo munosabatlar to'g'risida tushuncha

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 20-bobi byudjetlararo munosabatlarni o'z ichiga olgan bo'lib, Kodeksning 132-moddasida byudjetlararo munosabatlarga quyidagicha ta'rif berilgan: "Byudjetlararo munosabatlar O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari, Toshkent shahrining shahar byudjeti, tumanlar, shaharlar byudjetlari, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari o'rtasidagi ushbu Kodeks bilan tegishli byudjetlarga birlashtirilgan xarajatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tegishli byudjetlarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga doir munosabatlardir"²⁵.

Byudjetlararo munosabatlar deganda, byudjet jarayoni davomida davlat va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida yuzaga keluvchi iqtisodiy-huquqiy munosabatlar majmui tushuniladi²⁶.

Byudjetlararo munosabatlar – davlat hokimiyati organlari, subyektlar va mahalliy boshqaruv organlarining byudjet vakolatlarini berkitish va ajratish, qonunga rioya etish, qonunchilik va ijro etuvchi organlarning byudjet va byudjet jarayonini tuzish, tasdiqlash va ijro etish sohasidagi munosabatlar yig'indisini anglatadi²⁷.

Byudjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mohiyatini quyidagilar bilan izohlash mumkin (6.1-chizma):

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 20-bob, 132-modd. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-1-son.

²⁶ Sirojiddinova Z.X. Byudjetlararo munosabatlar. O'quv qo'llanma. T.: infoCOM.UZ, 2010. 156 b.

²⁷ <https://cyberleninka.ru/article/n/ekonomicheskaya-suschnost-byudzheta>.

- byudjetlararo munosabatlar keng qamrovli byudjet siyosatini markaziy va hududiy darajada amalga oshirish jarayonining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi;

- byudjetlararo munosabatlar byudjet siyosatining boshqa yo'nalishlariga qaraganda birlamchi ahamiyatga ega;


- byudjetlararo munosabatlar – nafaqat boshqaruvning turli darajalaridagi hokimiyat organlari o'rtasidagi munosabatni, balki mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmalari subyektlari o'rtasida markaz orqali shakllangan va davlat hokimiyatiga uning aniq funksiyalarini hududiy darajada bajarish, jamiyat taraqqiyoti uchun normal sharoitlarni yaratish maqsadida berilgan barcha pul mablag'larining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi jarayonidagi munosabatlarni anglatadi;

- hududlardan, joylardan markaziy hokimiyatga mablag'lar tushib turishining ta'minlanishi o'z navbatida ularga davlat boshqaruvi bo'yicha aniq vazifalar va majburiyatlarning bajarilishini talab qilib olish huquqini ham beradi, bu holat respublika davlat hokimiyatining o'z hududlari manfaatida yagona va samarali boshqaruvni ta'minlaydi. Shu bilan birga, respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga mablag'larni ajratilishi mamlakatni markazdan boshqarishda mahalliy byudjetlar zimmasidagi majburiyatlarning bajarilishi uchun dastak yaratadi hamda hududlarda ma'lum mahalliylik kayfiyatlari yuzaga kelishining obyektiv asoslarini bartaraf etadi;

- beshinchidan, byudjetlararo munosabatlar - bu mutlaqo teng ahamiyatli tarzda quyidan yuqoriga va yuqoridan quyiga harakatlanuvchi moliyaviy oqimlardir. Ushbu munosabatlarsiz turli darajadagi byudjetlarni muvaffaqiyatli shakllantirib bo'lmaz edi. Shu sababli ushbu moliyaviy oqimlar mahalliy byudjetlarni shakllantiruvchi ta'sirchan omil hisoblanadi.

Demak, yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib ta'kidlashimiz mumkinki, byudjetlararo munosabatlar deganda, byudjet jarayoni

davomida davlat va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida yuzaga keluvchi iqtisodiy-huquqiy munosabatlar majmui tushuniladi.



6.1-chizma. Byudjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mohiyati

Byudjetlararo munosabatlar davlat boshqaruvi tizimida vertikal yoki gorizontal bo'yicha paydo bo'ladi va amal qiladi hamda hokimiyat har bir darajasining faoliyat maqsadlaridan kelib chiqib, ularning moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda tartibga solinadi.

Byudjetlararo munosabatlar quyidagi tamoyillarga asoslanadi²⁸:

1. Vaqtinchalik qisqa muddatli (moliya yilidan kam bo'lmagan muddatga) yoki byudjet tizimining darajalari bo'yicha daromadlarni tartibga solishning uzoq muddatli me'yorlari bo'yicha doimiy asosda chegaralash va birlashtirish.

2. Byudjet xarajatlarini byudjet tizimining darajalari bo'yicha taqsimlash va birlashtirish.

3. Byudjetlarning o'zaro munosabatlarida byudjet huquqlarining tengligi.

Byudjet huquqlarining tengligi quyidagilarni nazarda tutadi: davlat va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarga moliyaviy xarajatlar me'yorlarini, hududiy byudjetlarga moliyaviy yordam me'yorlarini hisob-kitob qilishning yagona uslublaridan foydalanishni.

Byudjetlararo munosabatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

➤ alohida ijtimoiy va iqtisodiy funksiyalarni bajarish uchun javobgarlikni byudjet tizimining byudjetlari o'rtasida taqsimlash va huquqiy jihatdan birlashtirishni;

➤ byudjet tizimining har bir darajasiga birlashtirilgan vakolatlarni amalga oshirishni ta'minlaydigan xarajatlar hajmini belgilashni;


➤ byudjetning barcha darajalarida daromadlar manbasini belgilash va huquqiy birlashtirishni;

➤ hududlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning barcha shakllarini.

Byudjetlararo munosabatlarning maqsadi yagona iqtisodiy makonni yaratish, hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida yagona minimal standartlarni ta'minlash, teng ijtimoiy himoyani ta'minlash va fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini kafolatlash, ya'ni butun mamlakat hududida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning qulay sharoitlarini ta'minlashdan iborat.

²⁸ Sirojiddinova Z.X. Byudjetlararo munosabatlar. O'quv qo'llanma. T.: infoCOM.UZ, 2010. 5 b.

Ushbu maqsadlarga erishishni byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish usullarini jamlovchi mexanizm ta'minlaydi (6.2-chizma).



6.2-chizma. Byudjetlararo munosabatlar mexanizmi

So'nggi yillarda byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirishda mahalliy hokimliklarning vakolatlarni oshirish, mahalliy byudjetlarning xarajat majburiyatlarini aniqlashtirish hamda mahalliy soliqlarni belgilash masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Bunda hukumatimiz tomonidan rivojlangan davlatlar amaliyoti o'rganilib, mamlakatimizda byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish maqsadida quyidagi yo'nalishdagi masalalarni amalga oshirish belgilandi:

Birinchidan, mamlakatimiz byudjet tizimida qo'llanilayotgan respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida daromadlarning turlari bo'yicha ajratmalar miqdori hududlar bo'yicha bir xil bo'lishi lozimligi.

Ikkinchidan, daromadlarni respublika byudjeti hamda mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlashda yer qa'ridan foydalanganlik uchun hamda qo'shilgan qiymat solig'ini respublika byudjetida qoldirish maqsadga muvofiqligi. Bunda:

- yerosti foydali qazilma boyliklari hamda boshqa tabiiy zaxiralar hududlar bo'yicha teng taqsimlanmaganligi hamda tabiiy resurslardan respublikaning barcha fuqarolari foydalanish huquqini tengligi;

- qo'shilgan qiymat solig'i doimiy xarakterga ega bo'lmaganligi hamda asosan yirik soliq to'lovchilardan tushishini inobatga olib, uning biron bir sabab bilan ma'lum bir davrda tushmay qolishi mahalliy byudjetning daromadlariga keskin ta'sir etib, xarajatlarning to'xtab qolishiga sabab bo'lishi;

- soliq tushumlarini respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlashda mahalliy byudjetlarning barqarorligini ta'minlash maqsadida soliqlarni teng taqsimlashdan tashqari iqtisodiy samaradorlik mezoni (soliq solish bazasiga hamda soliq yig'uvchanlikka ta'sir ko'rsatish imkoniyati)ni ham hisobga olish zarur.

Uchinchidan, ayrim mahalliy soliq turlari (mol-mulk solig'i, yer solig'i va boshqalar) bo'yicha stavkalar miqdorini belgilashni mahalliy davlat hokimiyat organlari vakolatiga berilishi maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, hududlardagi byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlarda ishlovchi xodimlar mehnatiga to'lanadigan ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar miqdorlari bir-biridan farq qilmasligini (alohida iqlim sharoitiga yoki uzoqligi bilan bog'liq holda farq qilishi mumkin) ta'minlash talab etiladi.

Beshinchidan, jahon tajribasida hududlarda investitsion xarajatlarni amalga oshirishda mahalliy byudjetlarga ichki qarzlarni jalb qilishga ruxsat berish amaliyoti joriy etilgan. Biroq bunday holatda mahalliy byudjetlarning qarz olish chegaraviy miqdorlarini qonun bilan belgilash lozimligi.

Oltinchidan, maqsadli transfertlarni mahalliy byudjet xarajatlarining aniq yo'nalishlari bo'yicha belgilash amaliyotiga o'tish.

6.2. Byudjet darajalari o'rtasida daromadlar va xarajatlarning taqsimlanishi

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari balanslashtirilgan daromadlar va xarajatlarga ega bo'lishi lozim. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi²⁹. Shu bois mahalliy byudjetlar ularga birlashtirilgan xarajatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan miqdorda daromadlarga ega bo'lmagan holatda, ularga o'zlaridan bir pog'ona yuqori turuvchi byudjetdan moliyaviy resurslar ajratiladi.

Byudjet kodeksining 133-moddasiga asosan daromadlarni kompensatsiya qilish yoki xarajatlarni qoplash Davlat byudjetini ijro etish jarayonida, ya'ni qonun hujjatlari qabul qilinganligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlarining prognozi aniqlashtirilganligi, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning bo'ysunuvi o'zgarganda xarajatlar bir byudjetdan boshqa byudjetga o'tkazilganligi, kapital qo'yimlar limitlari byudjetlar darajalari o'rtasida qayta taqsimlanganligi nazarda tutilgan, quyi turuvchi byudjetlarning daromadlarini va (yoki) xarajatlarini kamaytirishga yoxud ko'paytirishga olib keladigan hollarda o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mablag'larni ajratish yoki olib qo'yish orqali majburiy tartibda amalga oshiriladi³⁰.

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 20-bob, 142-moddasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-I-son.

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 20-bob, 133-138-moddalari. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-I-son.

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining tumanlar va shaharlar byudjetlari bilan, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining tumanlar va shaharlar byudjetlari bilan, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining bir-biri bilan, shuningdek, boshqa ma'muriy-hududiy birlikning tumanlari va shaharlari byudjetlari bilan, tumanlar va shaharlar byudjetlari o'rtasida o'zaro munosabatlarga kirishishga yo'l qo'yilmaydi.

Mahalliy byudjetlarni mustahkamlash maqsadida 2020-yildan boshlab mahalliy byudjetlarning barqarorligini ta'minlash maqsadida quyidagilar mahalliy byudjetga to'liq hajmda kiritilishi belgilandi³¹:

- yagona soliq to'lovidan tushumlar;

- abonentlar sonidan kelib chiqib mobil aloqa xizmati uchun aksiz solig'i va aholi sonidan kelib chiqib pivo mahsulotini hisobga olgan holda alkogol mahsulotlari uchun aksiz solig'i. Hozirgi davrda mobil aloqa xizmatlari va alkogol mahsulotlar uchun aksiz solig'i ishlab chiqarish korxonalari (mobil aloqa operatorlari) joylashgan hududdagi mahalliy byudjetga tushadi. Natijada, alkogolli mahsulotlar respublikaning barcha hududlarida sotilib, aksiz solig'i faqat alkogol mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar joylashgan hudud byudjetiga to'lanadi. Alkogol mahsulotlari va mobil aloqa xizmatlariga aksiz solig'ini mahalliy byudjetlar o'rtasida tegishli hudud aholisi (abonentlar) sonidan kelib chiqib taqsimlash taklif etiladi.

Xarajatlarni moliyalashtirish esa quyidagicha taqsimlanishi rejalashtirildi:

- umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalarining ish haqi va yagona ijtimoiy to'lovdan ajratmalar – respublika byudjetidan;

³¹ Fuqarolar uchun byudjet: 2020 loyiha. T., 2019.

- boshqa xarajatlari – tuman va shahar byudjetlaridan;
- tajriba tariqasida Toshkent shahridagi umumta'lim, maktabgacha ta'lim va tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash bo'yicha investitsiya xarajatlari – Toshkent shahar byudjetidan;
- tuman va shahar davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlarini saqlab turish, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tayinlangan ijtimoiy nafaqalarni to'lash
- tumanlar va shaharlar byudjetlaridan.

6.1-jadval

**Samarqand viloyatining viloyat mahalliy byudjetining
daromadlarining 2020-yildagi asosiy prognoz ko'rsatkichlari³²**

ming so'mda

T/R	Daromad turlari	Jami
	JAMI	1 267 246 470,0
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	149 375 200,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	737 787 950,0
3	Aksiz solig'i, jami	65 224 780,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	<i>- yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i</i>	<i>65 224 780,0</i>
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	24 102 130,0
5	Yuridik shaxslar yer solig'i	28 189 700,0
6	Davlat boji	119 000 000,0
7	Jarimalar	80 000 000,0
8	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	5 600 000,0
9	Yig'imlar	57 966 710,0

Byudjetlararo munosabatlar haqida to'liq tushunchaga ega bo'lish maqsadida Samarqand viloyati bo'yicha byudjetlararo transfertlarni ko'rib o'tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Viloyatning 2020-

³² <https://regulation.gov.uz/oz/document/11149>

yil uchun viloyat byudjeti daromadlar prognoz ko'rsatkichlari 1-jadvalga muvofiq tasdiqlanishi rejalashtirilgan (6.1-jadvalga qaralsin).

Viloyatning viloyat byudjetidan 2020-yilgi hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlarini esa 6.2-jadvalga muvofiq tasdiqlanishi rejalashtirilgan.

6.2-jadval

2020-yil uchun Samarqand viloyatining viloyat byudjetidan hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan byudjet ajratmalarining cheklangan miqdorlari³³

ming so'mda

№	Ko'rsatkichlar	miqdori
	Xarajatlar miqdori, Jami	1 589 087 727,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 056 681 735,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	26 360 400,0
	Tuman va shahar mahalliy byudjetlariga transfertlar	506 045 592,0
1	Xalq ta'limi boshqarmasi	114 558 303,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	114 558 303,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
2	Maktabgacha ta'lim boshqarmasi	3 174 669,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	3 174 669,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
3	O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim boshqarmasi	1 030 811,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 030 811,0

³³ <https://regulation.gov.uz/uz/document/11149>

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
4	Sog'liqni saqlash boshqarmasi	395 832 590,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	395 832 590,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
5	Madaniyat boshqarmasi	36 881 068,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	36 881 068,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
6	Jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi	40 547 787,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	40 547 787,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
7	Yo'l harakati ekspluatatsiya va montaj bo'limlari	3 254 619,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	3 254 619,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
8	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqarmasi	3 559 683,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	3 559 683,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
9	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi	2 418 935,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 418 935,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
10	O'simliklar karantini hududiy inspeksiyasi	918 898,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	918 898,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
11	"O'zagrokimyohimoya" hududiy aksiyadorlik	1 227 813,0

	jamiyati	
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 227 813,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
12	Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi nasos stansiyalar va energetika boshqarmasi	126 872 440,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	126 872 440,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
13	Transport boshqarmasi	2 451 467,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 451 467,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
14	Avtomobil yo'llar hududiy boshqarmasi	122 869 265,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	122 869 265,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
15	Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish boshqarmasi	28 637 863,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	28 637 863,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
16	Moliya bosh boshqarmasi	564 040 517,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	57 994 925,0
	Tuman va shahar mahalliy byudjetlariga transfertlar	506 045 592,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
17	Viloyat G'aznachilik boshqarmasi	7 583 662,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	7 583 662,0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
18	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hududiy boshqarmasi	1 041 958,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 041 958,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
19	Yer resurslari va davlat kadastri boshqarmasi	1 198 125,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 198 125,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
20	Turizmni rivojlantirish boshqarmasi	1 160 797,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 160 797,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
21	O'rmon xo'jalik boshqarmasi	8 465 339,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	8 465 339,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
22	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi	7 162 589,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	7 162 589,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
23	Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi viloyat hududiy boshqarmasi	1 038 097,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 038 097,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
24	Qimmatli qogozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazining hududiy boshqarmasi	190 682,0
	<i>shu jumladan:</i>	

	joriy xarajatlar	190 682,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
25	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi	1 195 344,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 195 344,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
26	Bandlik va mehnat munosabatlari bosh boshqarmasi	1 295 418,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 295 418,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
27	Qurilish bosh boshqarmasi	2 226 341,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 226 341,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
28	Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi	5 926 205,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	5 926 205,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
29	Adliya boshqarmasi	3 008 534,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	3 008 534,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
30	Iqtisodiyot va hududlarni kompleks rivojlantirish bosh boshqarmasi	33 755 315,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	7 394 915,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	26 360 400,0
31	Viloyat hokimligi	54 721 320,0
	<i>shu jumladan:</i>	

	joriy xarajatlar	54 721 320,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
32	Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining hududiy boshqarmasi	5 155 335,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	5 155 335,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
33	Saylov komissisiyalari	34 601,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	34 601,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
34	Davlat arxivi boshqarmasi	2 331 485,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 331 485,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
35	"Nuroni" jamg'armasi viloyat bo'limi	584 607,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	584 607,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
36	Boshqa tashkilotlar	2 735 245,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 735 245,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	

O'zbekiston Respublikasining "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, 2020-yilgi Samarqand viloyati mahalliy byudjetiga O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi

byudjetlararo transfert 321,8 mlrd so'm miqdorida tasdiqlanishi ham taklif etilmoqda³⁴.

Quyidagi soliq turlari va boshqa to'lovlar viloyatning viloyat byudjeti hamda shahar va tumanlar byudjetlari o'rtasida taqsimlanadi:

- yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;
- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i;
- yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i;
- ayrim tovarlarning chakana savdosiga beriladigan huquq uchun undiriladigan yig'imlar;
- qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig'imlar (bojxona yig'imlaridan tashqari);
- avtotransport vositalarini xarid qilganlik uchun ularni ichki ishlar organlarida ro'yxatdan o'tkazish chog'ida avtotransport egalari (foydalanuvchilari) tomonidan to'lanadigan yig'imlar.

Shu bilan birga, qonunga muvofiq viloyat mahalliy byudjetiga ajratma qilingan 100 foiz miqdordagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tushumlarning (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadlari bo'yicha deklaratsiyaga asosan to'lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'idan tashqari) hamda foyda solig'idan tushumlarning (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq yirik soliq to'lovchilar, O'zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to'lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to'lanadigan foyda solig'idan tashqari) shahar va tumanlar o'rtasida taqsimlanishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

³⁴ <https://regulation.gov.uz/oz/document/11149>

Viloyatning viloyat byudjetiga quyidagi soliq turlari va boshqa to'lovlar to'lig'icha o'tkaziladi:

- elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat bojlari (patent boji va litsenziya berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);
- qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulk, mahalliy davlat hokimiyati organlarining aktivlari bo'yicha ajratmalar va dividendlar.

Quyidagi soliq turlari shahar va tumanlar byudjetiga to'liqligicha o'tkazib beriladi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;
- jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadlari bo'yicha deklaratsiyaga asosan to'lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i;
- qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, bundan sement xomashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;
- aylanmadan soliq;
- qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini ijaraga berish va xususiylashtirishdan tushadigan daromadlar.

Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig'idan tushumlar tegishli ravishda 2019-yil 1-iyul holatiga ko'ra shahar va tumanlar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o'tkazib beriladi.

Taklif etilayotgan me'yoriy hujjatlarda viloyat mahalliy byudjetining xarajatlarida quyidagi o'zgartirishlar kiritilishi hamda moliyalashtirish tartibi quyidagicha belgilanishi qayd etilgan:

– Umumta'lim maktablari hamda maktabgacha ta'lim muassasalarining birinchi va ikkinchi guruh xarajatlari respublika byudjetidan, to'rtinchi guruh xarajatlari tegishincha shahar va tumanlar byudjetlaridan moliyalashtiriladi;

1) Quyidagi xarajatlar viloyatning viloyat byudjetidan moliyalashtirishga o'tkaziladi:

– Issiqlik energiyasini ishlab chiqaruvchilarga aholiga berilgan issiqlik ta'minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo'llash natijasida yuzaga keladigan zararlarining o'rnini qoplash bo'yicha xarajatlar;

– viloyat irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi;

– umum foydalanishdagi avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilish xarajatlari;

– davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari;

2) Shahar va tumanlar byudjetidan:

– fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tayinlanadigan ijtimoiy nafaqalarni to'lash xarajatlari;

– davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati shahar va tumanlar markazlarini saqlash xarajatlari.

Shahar va tumanlar byudjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorlarini 2020-yil uchun viloyat kesimida tasdiqlash 6.3-jadval asosida amalga oshirish taklif etilmoqda.

**Umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy
byudjetlariga ajratmalar me'yori³⁵**

foiz hisobida

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	Yagona soliq to'lovi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Aksiz solig'i: - benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasidan soliq	Yuridik shaxslarning mol- mulkiga solinadigan soliq	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	Yuridik shaxslar yer solig'i	Yig'imalar	Ijara to'lovlari
1	Samarqand shahri	15	100	15	100	12	11	100	11	9	100
2	Kattaqo'rg'on shahri	50	100	50	100	100	100	100	100	100	100
3	Oqdaryo tumani	50	100	40	100	100	100	100	100	100	100
4	Bulung'ur tumani	50	100	50	100	100	100	100	100	100	100
5	Jomboy tumani	50	100	30	100	50	100	100	100	100	100
6	Ishtixon tumani	50	100	50	100	100	100	100	100	100	100
7	Kattaqo'rg'on tumani	50	100	50	100	100	100	100	100	50	100
8	Qo'shra-bot tumani	50	100	50	100	100	100	100	100	100	100
9	Narpay tumani	50	100	50	100	100	100	100	100	100	100
10	Payariq tumani	50	100	50	100	100	100	100	100	100	100
11	Pastdarg'o	30	100	50	100	100	100	100	100	100	100

³⁵ <https://regulation.gov.uz/oz/document/11149>

	m tumani										
12	Paxtachi tumani	50	100	50	100	100	100	100	100	100	100
13	Samarqand tumani	20	100	25	100	30	20	100	20	20	100
14	Nurobod tumani	50	100	50	100	100	100	100	100	100	100
15	Urgut tumani	50	100	50	100	100	100	100	100	100	100
16	Tayloq tumani	50	100	50	100	90	100	100	100	100	100

Bunda, ajratma meyorlari bo'yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarining taqsimotini o'rnatilgan tartibda viloyat G'aznachilik boshqarmasi va uning bo'linmalari tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

2020-yil uchun shahar va tumanlar byudjetlari daromadlar va xarajatlar prognoz ko'rsatkichlari 6.4-jadvalga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinishi belgilanmoqda.

6.4-jadval

Shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarining 2020-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi³⁶

ming so'mda

T/r	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
	JAMI	1 447 535 530,0	1 953 577 942,0
1	Samarqand shahri	244 658 390,0	263 095 440,0
2	Kattaqo'rg'on shahri	48 006 970,0	76 541 648,0
3	Oqdaryo tumani	68 205 160,0	85 505 274,0
4	Bulung'ur tumani	74 370 100,0	97 899 640,0
5	Jomboy tumani	69 918 640,0	85 340 959,0
6	Ishtixon tumani	79 501 500,0	122 258 519,0
7	Kattaqo'rg'on tumani	89 700 140,0	134 003 426,0
8	Qo'shrabot tumani	54 711 860,0	89 658 024,0
9	Narpay tumani	66 032 800,0	112 138 041,0

³⁶ <https://regulation.gov.uz/oz/document/11149>

10	Payariq tumani	84 502 650,0	141 861 811,0
11	Pastdarg'om tumani	136 986 030,0	172 471 122,0
12	Paxtachi tumani	59 614 480,0	94 992 229,0
13	Samarqand tumani	91 144 730,0	103 967 931,0
14	Nurobod tumani	63 467 840,0	93 591 793,0
15	Urgut tumani	134 246 970,0	182 950 602,0
16	Tayloq tumani	82 467 270,0	97 301 483,0

Shahar va tumanlar byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari ham rejalashtirilgan (6.5-jadval).

6.5-jadval

Shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarining 2020-yilgi yuqori byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari³⁷

ming so'mda

T/r	Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori
	JAMI	506 042 412,0
	<i>shundan</i>	
1	Samarqand shahri	18 437 050,0
2	Kattaqo'rg'on shahri	28 534 678,0
3	Oqdaryo tumani	17 300 114,0
4	Bulung'ur tumani	23 529 540,0
5	Jomboy tumani	15 422 319,0
6	Ishtixon tumani	42 757 019,0
7	Kattaqo'rg'on tumani	44 303 286,0
8	Qo'shrabot tumani	34 946 164,0
9	Narpay tumani	46 105 241,0
10	Payariq tumani	57 359 161,0
11	Pastdarg'om tumani	35 485 092,0

³⁷ <https://regulation.gov.uz/oz/document/11149>

12	Paxtachi tumani	35 377 749,0
13	Samarqand tumani	12 823 201,0
14	Nurobod tumani	30 123 953,0
15	Urgut tumani	48 703 632,0
16	Tayloq tumani	14 834 213,0

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini shahar va tumanlar mahalliy byudjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat'iy nazar kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi taklif etilmoqda.

Viloyatning viloyat byudjeti, shahar va tumanlar byudjetlarining qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risidagi qarorlar tegishli ravishda viloyat hamda shahar va tumanlar Kengashlari tomonidan viloyat, shahar va tumanlar hokimliklarining takliflariga asosan birinchi navbatda ijtimoiy soha muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirish maqsadida qabul qilinadi.

Shahar va tumanlar hokimliklari shahar va tumanlar byudjetlari qo'shimcha manbalarining kamida 10 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltiradi.

Viloyat, shahar va tumanlar hokimlari favqulodda vaziyatlarda va shunga o'xshash kechiktirib bo'lmaydigan choralar ko'rilishi talab etiladigan hollarda ishlatilgan mablag'lar to'g'risida Xalq deputatlari viloyat, shahar, tumanlar Kengashlariga hisobot berish sharti bilan qo'shimcha manbalarni yo'naltirish bo'yicha qarorlar qabul qiladi.

Choraklar yakuni bo'yicha yuqoridagi jadvalda keltirilgan daromadlarning prognoz ko'rsatkichlari mahalliy hokimiyatlarning faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag'larning tushish ehtimoli bo'lmasa, viloyat hokimligi Vazirlar Mahkamasiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko'rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan

murojaat qiladi hamda bu taklif Vazirlar Mahkamasi tomonidan Qonunda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

Shuningdek, shahar va tumanlar hokimliklari ham viloyat hokimliklariga xuddi shu tartibda murojaat etishlari belgilab qo'yilishi taklif etilmoqda.

Viloyat, shahar va tumanlar hokimliklari tashabbusi bilan amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag'lar tegishliligi bo'yicha ushbu mahalliy byudjetlarning ijrosi davomida shakllangan qo'shimcha manba hisobidan amalga oshirilishi qat'iy belgilab qo'yilsin.

Viloyat, shahar va tumanlar hokimliklari:

- tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirishi;


- qo'shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurish, rekonstruksiya va ta'mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro'yxati, shuningdek, qurilish-ta'mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar tegishli ravishda viloyat, shahar va tumanlar hokimliklari tomonidan majburiy tartibda o'z rasmiy veb-saytlarida joylashtirib borilishi;

- mahalliy byudjetlarning qo'shimcha daromadlarini 10 foizidan kam bo'lmagan miqdorlarda jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirishni, veb-saytlariga ularning natijalarini joylashtirishi taklif etilmoqda.

6.3. Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish va boshqarishda mahalliy byudjetlar rioya qilishi lozim bo'lgan cheklanishlar

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 20-bob 132-moddasiga asosan byudjet jarayonida byudjet tizimining quyidagi

byudjetlari o'rtasida o'zaro munosabatlariga yo'l qo'yilmaydi (6.3-chizma):



6.3-chizma. Byudjet jarayonida byudjet tizimining byudjetlari o'rtasida yo'l qo'yilmaydigan o'zaro munosabatlar³⁸

Byudjet kodeksining 142-moddasiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga qo'llaniladigan cheklovlar quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari balanslashtirilgan daromadlar va xarajatlarga ega bo'lishi lozim. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini qabul qilish va ijro etishda:

– mablag'lar jalb qilishni amalga oshirishga, yuqori turuvchi byudjetlardan byudjet ssudalari olish bundan mustasno;

³⁸ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 20-bob, 132-moddasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-I-son.

– tasdiqlangan byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan ortiq xarajatlarni amalga oshirishga;

– tegishli byudjetlar mablag‘lari hisobidan boshqa yuridik va jismoniy shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar va kafilliklar berishga;

– yuridik va jismoniy shaxslarga byudjet ssudalari va kredit liniyalari berishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bundan tashqari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining xarajatlari yoyilmasiga o‘zgartirishlar kiritish tartibiga nisbatan ham ma‘lum bir cheklovlar qo‘llaniladi. Xususan, bir hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan byudjet mablag‘larini boshqa hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchiga o‘tkazish ajratiladigan byudjet mablag‘larining cheklangan miqdorining:

➤ 10 va undan ortiq foiz miqdorda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan;

➤ 10 foizdan kam miqdorda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan amalga oshiriladi.

Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchi tasarrufidagi bir byudjet tashkiloti va byudjet mablag‘lari oluvchidan boshqa byudjet tashkiloti va byudjet mablag‘lari oluvchi uchun byudjetdan ajratiladigan mablag‘larni o‘tkazish hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar so‘roviga ko‘ra tegishli hududiy moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bir hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan byudjet mablag‘larni boshqa hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchiga o‘tkazish ajratiladigan byudjet mablag‘larining cheklangan miqdorining:

10 foiz va undan ortiq miqdorda xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari tomonidan;

10 foizdan kam miqdorda tumanlar va shaharlar hokimliklari tomonidan amalga oshiriladi.

Tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtiri-ladigan hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchi tasarrufidagi bir byudjet tashkiloti va byudjet mablag'lari oluvchidan boshqa byudjet tashkiloti va byudjet mablag'lari oluvchi uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'larni o'tkazish hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilar so'roviga ko'ra tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi.

6.4. Byudjetlararo munosabatlarning zarurligi

Byudjetlararo munosabatlarning ahamiyati shundaki, u mintaqalarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida yagona minimal standartlarni ta'minlashga xizmat qiladi. Byudjet mablag'lari bilan minimal darajada ta'minlanganlik deganda, davlat hokimiyati organlari yoki mahalliy o'zini - o'zi boshqarish organlari tomonidan tegishli byudjetlarning mablag'lari hisobidan aholi jon boshi hisobiga ko'rsatiladigan davlat xizmatlari yoki munitsipal xizmatlarning yo'l qo'yiladigan minimal pul qiymati tushuniladi.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bir xil emasligi va bu ularning moliyaviy ta'minlanganlik darajasida aks etishi tufayli, hududlar doirasida aholi jon boshiga nisbatan daromadlar darajasi, iste'mol darajasi, tovarlar, ishlar va xizmatlar qiymati farqlanadi.

Shu bilan bir vaqtda, mamlakatning o'z byudjetini shakllantirish huquqiga ega bo'lgan har bir ma'muriy-hududiy birligi, o'z daromadlar bazasi hajmidan qat'iy nazar, o'z hududida yashaydigan aholi uchun davlat tomonidan kafolatlanadigan ijtimoiy xizmatlarning muayyan minimumini ta'minlashi shart.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotida bunday xizmatlarning hajmi va tuzilishi davlatning minimal ijtimoiy standartlari bilan belgilanadi. Mazkur standartlar zahirida byudjetlarning loyihalarini ishlab chiqishda va hududlarga ko'rsatiladigan moliyaviy yordam miqdorlarini aniqlashda foydalaniladigan minimal (ham natura holida, ham pulda ifodalangan) ijtimoiy va moliyaviy me'yorlar hamda normativlar yotadi. Ular ta'lim, tibbiyot, turar joy, maishiy, ijtimoiy-madaniy xizmatlar kabi muhim ijtimoiy xizmatlar bilan aholining zaruriy minimal ta'minlanganlik darajasini aks ettiradi.

Mamlakatimizda mahalliy byudjetlarning daromad bazasini oshirish hisobiga hududlarni kompleks rivojlantirish, mahalliy byudjetlarga tushumlar miqdorini ko'paytirish hamda soliq yig'iluvchanligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda byudjetlararo munosabatlarni tartibga solishdagi asosiy maqsad hududlarning daromad bazasini mustahkamlash va tumanlarda byudjetdan olinayotgan subvensiya ulushini kamaytirish bo'yicha qabul qilingan dasturlarning ijrosini ta'minlashdir. Ta'kidlash joizki, davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan qator farmon va qarorlar mazkur yo'nalishdagi ishlarni nafaqat huquqiy jihatdan mustahkamlayapti, balki, uni yanada rivojlantirishga ham xizmat qilayapti. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi "Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-iyundagi "Mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish zaxiralarini aniqlash ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 445-sonli qarori bu borada dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

2018-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Samarqand viloyatining bir qator tumanlari byudjetdan beriladigan subvensiya hisobidan qoplangan³⁹.

³⁹ Samarqand viloyat hokimligi Moliya Bosh boshqarmasi ma'lumotlari.

Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, bunday qaramlikdan qutulishning yo’li – ishlab chiqarish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakati, xizmat ko’rsatish sohalarini jadal rivojlantirib, byudjet daromadlarining asosi hisoblangan soliq tushumlarini ko’paytirishdan iborat. Tumanlarni subvensiyadan chiqarish asosan sanoat korxonalari, xizmat ko’rsatish va servis sohasi, qishloq xo’jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash, yangi korxonalarni tashkil etish bo’yicha loyihalarning bajarilishi hisobidan byudjetga qo’shimcha daromadlar kiritish orqali amalga oshiriladi.

Barcha hududlarda bo’lgani singari Samarqand viloyati tumanlarini ham bosqichma-bosqich subvensiyadan chiqarish bo’yicha yuqoridagi farmon va qarorlardan kelib chiqqan holda hududiy dasturlar qabul qilingan bo’lib, ular izchillik bilan hayotga tadbiiq etilmoqda. 2018-yildagi holatga nazar tashlaydigan bo’lsak, viloyatning 9 ta tumani viloyat byudjetidan subvensiya olishi rejalashtirilgan. Shundan jami xarajatdagi subvensiya ulushi Nurobod tumanida 12 foiz, Tayloqda 34 foiz, Narpayda 37 foiz, Qo’shrabotda 50 foiz, Bulung’urda 51 foiz, Kattaqo’rg’onda 54 foiz, Paxtachida 55 foiz, Payariqda 57 foiz va Ishtixonon tumanida 59 foizni tashkil etadi⁴⁰.

Tumanlarning byudjet mablag’lariga qaramligini bartaraf etish maqsadida 2018-yilda Samarqand viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga asosan viloyatning 5 ta tumani, 2018-yilda Nurobod, 2019-yilda Qo’shrabot va Tayloq, 2020-yilda Bulung’ur va 2021-yilga kelib, Narpay tumanlari subvensiyadan chiqarilishi, qolgan 4 ta hudud, ya’ni Payariq, Ishtixon, Paxtachi va Kattaqo’rg’on tumanlarining xarajatdagi subvensiya ulushi o’rtacha 56 foizdan 25 foizgacha tushirilishi nazarda tutilgan.

Samarqand viloyati tuman va shaharlarida subvension holatni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ilgari surilgan:

⁴⁰ Samarqand viloyat hokimligi Moliya Bosh boshqarmasi ma’lumotlari.

– hududlarda yangi korxonalarni tashkil etish va hamda boshqaruvning ilg'or shakllarini joriy etish orqali hududlar iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish lozim. Zero, mazkur bosqichni samarali amalga oshirmasdan turib subvensiyadan qutulish haqida gapirib bo'lmaydi. Shu bois, har bir tumanning shart-sharoitini inobatga olgan holda eng so'nggi texnologiyalarga asoslangan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mahalliy hokimiyatlarning birlamchi vazifasiga aylanishi kerak;

– hududlar byudjeti daromadlarini oshirishning ichki zaxiralarini topish, bu borada zarur chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish masalasi ham dolzarb ahamiyatga egadir. Ta'kidlash kerakki, o'rganishlar jarayonida bu borada hududlarda hali qilinishi kerak bo'lgan ishlar bisyor ekanligi ma'lum bo'lib qoldi;

– soliq solinadigan subyektlarni soliqqa tortish tizimini tubdan takomillashtirishga ham alohida e'tibor qaratishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Bunda asosan bir qator mahalliy soliqlar samaradorligi va mahalliy byudjet daromadlari tushumi pastligini hisobga olgan holda, zarur islohotlarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda;

– tumanlar byudjetining o'z-o'zini ta'minlash darajasini oshirishda Samarqand viloyati ijroiya organlari va hokimligining ishtirokini yanada faollashtirish talab etiladi. Mazkur yo'nalishda viloyat ijroiya organlari va hokimligi faol ish olib borib, soliq solinadigan subyektlarni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, investitsiya kiritish sharti bilan ishga tushirilgan korxonalarni inventarizatsiyadan o'tkazishni jadallashtirish va samarasiz faoliyat yuritayotgan korxonalarni salohiyatli tadbirkorlarga topshirish kabi kechiktirib bo'lmaz vazifalarni bekamu ko'st bajarishi lozim;

– byudjet ijrosi va byudjet daromadlarini oshirish borasidagi ishlarni samarali yo'lga qo'yish uchun, eng avvalo, tumanlar miqyosida soliq, moliya va kadastr xizmatlari va boshqa idoralar o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish darkor. Ya'ni mazkur jahhada,

avvalo, zamon talabidan kelib chiqib, elektron hukumat doirasida tuman darajasidagi barcha ijrochi va vakillik organlari miqyosida yagona axborot bazasi yaratilsa, maqsadga muvofiq bo'lur edi. Bu bir tomondan soliqlarni yashirishga qarshi kurashish samaradorligini oshirsa, boshqa tomondan barcha bitimlarning shaffof bo'lishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, tumanlar mahalliy byudjetining daromadlarni oshirish uchun ichki zaxiralarni topish bo'yicha esa ham ma'lum bir chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim deb topildi:

Birinchidan, byudjet daromadlarini kengaytirish uchun yer uchastkalari hamda uy-joy fondi egalaridan soliq to'lovchilarni qamrab olish maqsadida tumanning soliq, moliya va kadastr xizmatlari o'rtasidagi amaldagi mavjud o'zaro hamkorlikni tubdan qayta ko'rib chiqish kerak.

Ikkinchidan, soddalashtirilgan soliq tizimi doirasida faoliyat yurituvchi va imtiyozlarga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlardan daromad solig'i tushmayotganligini hisobga olib, bu amaliyotni qayta ko'rib chiqish zarur. Qolaversa, bir qator subvensiyadagi tumanlarda kuzatilgan amaliyot – ushbu tumanlarda faoliyat yuritayotgan o'nlab korxonalarning soliqlarni Toshkent shahrida to'layotganligiga guvoh bo'ldik. Qolaversa, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasining ushbu tumanlarda investitsion dasturlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Hozirda shu e'tibor yetarli emasligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Uchinchidan esa aksariyat tumanlarni subvensiya holatidan olib chiqishdagi muammolar mahalliy byudjet hisobidan ijtimoiy sohani moliyalashtirishda mablag' taqchilligi bilan bog'liq bo'lib turibdi. Ushbu masalani har bir tumanning o'ziga xosligini hisobga olgan holda qat'iy belgilangan ulushlarda subsidiya berish orqali bartaraf etish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi "Davlat Byudjeti to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, mahalliy byudjetlarning mustaqilligini oshirish va quyi byudjetlarning yuqori byudjetga qaramlilikini pasaytirish bo'yicha quyidagilarni joriy etish ko'zda tutadi⁴¹:

1. O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar hajmi – Oliy Majlis tomonidan;

2. Mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan Byudjet taqsimlovchilarning byudjetlari – Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanishi.

Birinchi bosqichda, ya'ni Oliy Majlis palatalari tomonidan 2020-yil byudjetini tasdiqlashda, mahalliy byudjetning daromad va xarajatlarining umumiy hajmlarini ham ma'lumot uchun qabul qilish ko'zda tutilmoqda.

Byudjet mablag'lari taqsimlovchilarga mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari hajmi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan mahalliy byudjet parametrlari tasdiqlangan holda, joylardagi mahalliy hokimiyat organlari tomonidan belgilanadi.

Tuman va shaharlar byudjetlariga jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan yer solig'i, jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan mulk solig'i, jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlar to'liq hajmda qoldiriladi.

⁴¹ O'zbekiston Respublikasining "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonuni loyihasi va 2020-yil uchun Byudjetmoma bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining Xulosasi. T., 2019.

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetiga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga quyidagi tushumlar to'liq hajmda qoldiriladi:

a) yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i, yuridik shaxslarning yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stansiyalar tomonidan to'lanadigan), benzin, dizel va siqilgan gaz mahsulotining chakana savdosi uchun aksiz solig'i, davlat bojlari (patent uchun boj va davlat tomonidan litsenziya berish uchun bojdand tashqari), Davlat byudjetiga o'tkaziladigan jarima va yig'imglar (bojxona yig'imglaridan tashqari), davlat foydasiga o'tkazilgan tovar va moddiy aktivlar, qonunchilikda belgilangan, davlat mulkini xususiy lashtirishdan va ijaraga berishdan olingan daromadlar, transport vositasi sotib olinganligi uchun yig'im.

b) qo'shilgan qiymat solig'i va yuridik shaxslarning foyda solig'i bo'yicha rejadand orttirib bajarilgan qismining 50 foizi.

d) Toshkent shahrini hisobga olmagan holda jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha tushumlarning 50 foizi, Toshkent shahri bo'yicha esa jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha tushumlarning 10 foizi hamda daromad rejasidan orttirib bajarilgan qismining 50 foizi.

e) abonentlar sonidan kelib chiqqan holda mobil aloqa xizmati uchun aksiz solig'i, va aholi sonidan kelib chiqqan holda va pivo mahsulotini hisobga olgan holda alkogol mahsulotlari uchun aksiz solig'i.

Joriy yilda O'zbekiston Respublikasi byudjetidan mahalliy byudjetlarga tuman va shahar byudjetidan moliyalashtiriluvchi maktabgacha ta'lim, umum ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarida ishlovchi xodimlarning ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni moliyalashtirish uchun ijtimoiy transfertlar ajratilmoqda va ushbu transfertlar umumta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarida ishlovchi

xodimlarning ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlariga mutanosib ravishda ajratilgan. Yil yakuni bo'yicha moliyalashtirilmagan xarajatlarga teng ulushlarda ijtimoiy transfertlar summalari ham kamaytirilishi ko'zda tutilgan.

2020-yildan boshlab esa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlari daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi salbiy farqni qoplash uchun tartibga soluvchi transfertlar ajratish va ushbu transfertlar miqdorlarini kamaytirilishiga yo'l qo'yilmaslik tartibini joriy etish nazarda tutilmoqda.

Hududardagi daromad va xarajatlar o'rtasida manfiy farqni qoplashga yo'naltiriladigan O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi transfertlar 10 551,9 mlrd so'm miqdorida belgilanib o'tgan joriy yilgi rejaga nisbatan 135,9 foizga oshgan hamda transfert oluvchi hududlar soni 7 tadan 13 taga ko'paygan⁴².

Byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish va mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, mahalliy byudjetning daromadlar bazasini mustahkamlash va soliq solinadigan bazani kengaytirish bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati organlarining manfaatdorligi yetarli darajada emas.

Bugungi kunda byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, mahalliy byudjetlarning mustaqilligini oshirish va quyi byudjetlarning yuqori byudjetga qaramliligini pasaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi taklifiga asosan quyidagilar ko'zda tutilmoqda:

⁴² O'zbekiston Respublikasining "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonuni loyihasi va 2020-yil uchun Byudjetnoma bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining Xulosasi. T.: - 2019.

– viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari huzuridagi hududiy moliya boshqarmalari bazasida byudjet departamentlarini tashkil etish yo‘li bilan mahalliy davlat hokimiyati organlariga tumanlar (shaharlar) byudjetlarini mustaqil ravishda tasdiqlash va ijro etish vakolatini berish, bunda vazirlik va idoralar hududiy bo‘linmalarining tegishli vazirlik va idoralar byudjetlari bilan chambarchas bog‘liqligini nazarda tutish (gorizontal va vertikal rejalashtirish);

– yuqori byudjetdan quyi byudjetga bosqichma-bosqich mahalliy ahamiyatga molik xarajatlarni moliyalashtirish vakolatini berish;

– 2020-yilning oxirigacha maqsadli transfertlar ajratilishi qoidalari va metodikasini takomillashtirish;

– 2021-yildan boshlab mahalliy byudjetga qoldiriladigan soliqlar bo‘yicha ajratmalar normativlarini birxillashtirish va o‘rnatilgan normativlarni daromadlarning baza yilidagi ijrosi natijasidan qat’iy nazar 3 yilga biriktirish (pasaytirish huquqisiz);

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Byudjet ma’lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 22-avgustdagi PQ–3917-sonli qaroriga asosan 2019-yildan boshlab mahalliy byudjet qo‘shimcha manbalarining kamida o‘n foizini Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar va shaharlarning xalq deputatlari Kengashi bilan kelishilgan holda, shuningdek “Ochiq byudjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirish.

Mahalliy hokimiyat organlari ixtiyorida qoldirilgan qo‘shimcha daromad manbalarining sarflanishi yuzasidan Hisob palatasi tomonidan 2018-yilda o‘tkazilgan o‘rganish natijalariga ko‘ra qo‘shimcha daromadlar hisobidan samarasiz sarflangan xarajatlar, xarid qilingan

tovar-moddiy boyliklar kamomadi, qurilish-ta'mirlash ishlari hisobotlariga qo'shib yozishlar kabi jami 50,0 mlrd so'mlik xato va kamchiliklar aniqlangan.

6.5. Byudjetlararo transfertlarning shakllari: subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar, dotatsiyalar, byudjet ssudasi, o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mablag'lar


Byudjet tizimi byudjetlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda byudjetlararo munosabatlar shakllari muhim ahamiyat kasb etadi. 2014-yil 1-yanvardan boshlab "byudjetlararo munosabatlar" so'zlari o'rniga "byudjetlararo transfertlar" tushunchasi qo'llanila boshlandi. Kodeksga asosan byudjetlararo transfertlarning bir nechta shakllari mavjud. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 3-moddasida byudjetlararo transfertlarga O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga, davlat maqsadli jamg'armalariga hamda buning aksicha o'tkaziladigan, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga hamda buning aksicha o'tkaziladigan mablag'lar sifatida ta'rif berilgan⁴³.

Byudjetlararo transfertlar quyidagi shakllarda amalga oshiriladi (6.4-chizma):

Byudjetlararo transfertlarning hajmlari avvalo joriy moliya yilida turli darajadagi byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'zgarishiga sabab bo'luvchi qonun hujjatlari qabul qilinganda, shuningdek, tegishli barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushishidan hamda

⁴³ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 1-bob, 3-moddasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-I-son.

byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning o‘zlashtirilishidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.



6.4-chizma. Byudjetlararo transfertlar shakllari

Yuqori turuvchi moliya organi tashabbusi bilan yuqori turuvchi byudjet quyi turuvchi byudjet oldidagi byudjetlararo transfertning bir shakli bo‘yicha majburiyatlari quyi turuvchi byudjetning yuqori turuvchi byudjet oldidagi byudjetlararo transfertning boshqa shakli bo‘yicha majburiyatlarini kamaytirish evaziga hisobga olinishi mumkin.

Byudjetlararo transfertlarning har bir turiga to‘xtalib o‘tamiz.

Subvensiya – yuqori byudjetdan pastki byudjetga aniq manzil va aniq sohaga yo‘naltirilib, qaytarib bermaslik sharti bilan beriladigan moliyaviy yordam.

Hududlarni subvensiyadan chiqarishda an‘anaviy va noan‘anaviy usullardan foydalaniladi. An‘anaviy usulda belgilangan qonunlar asosida soliq va to‘lovlarni yig‘ish orqali olingan qarz miqdori qoplanadi va natijada 25-30 foizgacha ichki resurslarni to‘plash mumkin.

Subvensiyalar asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda belgilangan xarajatlarni amalga oshirish uchun ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga beriladigan subvensiyalarning miqdorlari asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda belgilanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga beriladigan subvensiyalarning miqdorlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan belgilanadi.

Foydalanilmagan subvensiyalar joriy moliya yili oxirida tegishli yuqori turuvchi byudjetga qaytarilishi kerak.

Quyida keltirilgan jadvalda O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga ajratiladigan subvensiyalar hajmi aks ettirilgan (6.6-jadval).

So'nggi ikki yil davomida yuqori byudjetdan quyi byudjetlarga ajratiladigan byudjetlararo munosabat shakllari sifatida tartibga soluvchi transfertlardan foydalanilmoqda. 2020-yilda O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi transfertlar miqdori 10648,1 mlrd so'm miqdorida ajratishi rejalashtirilgan⁴⁴.

⁴⁴ Fuqarolar uchun byudjet: 2020 loyiha. Toshkent – 2019.

6.6-jadval

**O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan mahalliy
byudjetlarga ajratiladigan subvensiyalar hajmi⁴⁵**

Hudud- lar nomi	2012 y.		2013 y.		2014 y.		2015 y.		2016 y.		2017 y.	
	mln so'm	%	mln so'm	%	mln so'm	%	mln so'm	%	mln so'm	%	mln so'm	%
Qoraqal- pog'isto n												
respub- likasi	385540 ,3	12, 1	454 825,4	12, 3	495357 ,5	16, 7	50635 9,2	20,0	475415 7	19, 8		
Andijon	470 748,3	14, 9	543 093,2	14, 6	-	-						
Jizzax	257 088,2	8,2	314 023,2	8,4	372025 ,0	12, 7	36722 9,1	14,7	404531 0	16, 8	2289 91,9	16, 4
Naman- gan	467 240,2	14, 8	531 158,7	14, 4	508364 ,9	17, 4	59739 3,3	23,7	656235 2	27, 3	5422 75,5	38, 8
Samar- qand	655 721,8	20, 8	771 504,9	20, 8	642249 ,6	21, 9	24999 9,1	9,8				
Surxon- daryo	475 855,5	15	556 230,6	15	618393 ,6	21, 1	64506 1,4	25,6	688639 1	28, 7	5329 82,1	38, 1
Sir- daryo	132746 ,5	4,2	152 497,0	4,1	159553 ,3	5,4	15571 2,4	6,2	178035 6	7,4	9283 6,4	6,6
Xorazm	308498 ,5	9,8	364 094,4	9,9	133169 ,6	4,5						
Jami	315343 9,3	100	3687427, 4	100	292911 3,5	100	252175 4,5	100	240285 6,6	100	1397 085,9	100

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrda "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RBQ-589-son qonuniga ko'ra O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan viloyatlar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari quyidagicha belgilangan (6.7-jadval):

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

**O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan viloyatlar
mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo
transfertlar miqdorlari**

mlrd so‘m

T/r	Hududlar nomi	Summa
1	Andijon viloyati	616,2
2	Jizzax viloyati	448,2
3	Qashqadaryo viloyati	758,1
4	Namangan viloyati	977,7
5	Samarqand viloyati	321,8
6	Surxondaryo viloyati	839,1
7	Sirdaryo viloyati	343,9
8	Farg‘ona viloyati	351,9
9	Xorazm viloyati	457,0
	Jami	5113,9

O‘tkazib beriladigan daromadlar

Tegishli ma’muriy-hududiy birliklar hududida shakllantiriladigan va yuqori turuvchi byudjetga o‘tkaziladigan daromadlar ular qaysi ma’muriy-hududiy birlikda shakllantirilgan bo‘lsa, o‘sha ma’muriy-hududiy birlik byudjetiga o‘tkazib berilishi mumkin.

O‘tkazib beriladigan daromadlarning umumiy hajmi:

✓ O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan quyi turuvchi byudjetlarga – asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va Davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda;

✓ Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan quyi turuvchi byudjetlarga tushumlari o'tkazib beriladigan xo'jalik yurituvchi subyektlarning hamda ular tomonidan to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning turlari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan birgalikda tasdiqlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan tumanlar va shaharlar byudjetlariga tushumlari o'tkazib beriladigan xo'jalik yurituvchi subyektlarning hamda ular tomonidan to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning turlari ro'yxati Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari bilan birgalikda tasdiqlanadi.

Yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga o'tkazib beriladigan daromadlarning summasi tegishli quyi turuvchi byudjetga tushishi lozim bo'lgan daromadlar hisobga olingan holda belgilanadi.

O'tkazib beriladigan daromadlarni o'tkazish ular bo'yicha haqiqatda tushgan tushumlar doirasida, biroq ularning tasdiqlangan hajmidan ortiq bo'lmagan miqdorda amalga oshiriladi.

Dotatsiya

Yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga dotatsiya quyi turuvchi byudjet xarajatlarining rejalashtirilgan hajmi subvensiyalar va o'tkazib beriladigan daromadlar hisobga olingan holda mazkur byudjet daromadlarining prognoz qilingan hajmidan oshib ketgan taqdirda ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan davlat maqsadli jamg'armalarining byudjetlariga dotatsiya jamg'armalar xarajatlarining rejalashtirilgan hajmi yil boshidagi qoldiq hisobga

olingan holda jamg'armalar daromadlarining prognoz qilingan hajmidan oshib ketgan taqdirda ajratilishi mumkin.

Dotatsiyaning miqdori:

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan quyi turuvchi byudjetlarga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga ajratilganda – asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda;

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga ajratilganda – Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan belgilanadi.

Byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblar

Byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblar moliya yili mobaynida byudjetlar parametrlari o'zgarganda yuqori va quyi turuvchi byudjetlar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro pul munosabatlaridir.

Byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblar quyidagi munosabati bilan yuzaga keladi:

- qonun hujjatlari qabul qilinganligi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlarining prognozi aniqlash-tirilganligi;
- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning bo'ysunuvi o'zgarganda xarajatlar bir byudjetdan boshqa byudjetga o'tkazilganligi;
- kapital qo'yilmalar limitlari byudjetlar darajalari o'rtasida qayta taqsimlanganligi.

Byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblarga kiritilishi lozim bo'lgan summa yuqori turuvchi moliya organi tomonidan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan byudjetlararo transfertlar O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining shaxsiy g'azna hisobvarag'idan Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga o'tkaziladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan byudjetlararo transfertlar ularning shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan tumanlar, shaharlar byudjetlarining shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga o'tkaziladi.

Davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlaridan byudjetlararo transfertlar ularning shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga o'tkaziladi.

Byudjetlararo transfertlarni o'tkazish g'azna memorial orderlari asosida amalga oshiriladi.

Byudjetlararo transfertlar bo'yicha hisob-kitoblar joriy moliya yilida qo'shimcha vaqt davri hisobga olingan holda tugallanishi kerak.

Byudjet ssudasi shaklidagi byudjetlararo transfert


Byudjet ssudasi - qaytarish sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalariga, rezident-yuridik shaxsga ajratiladigan pul mablag'laridir.

Byudjet ssudasini ajratish byudjet ssudasini berayotgan moliya organi va byudjet ssudasini oluvchi moliya organi (davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organ) o'rtasida byudjet ssudasi berish to'g'risidagi shartnoma bilan rasmiylashtiriladi. Byudjet ssudalarini

berishning majburiy sharti ulardan belgilangan maqsadda foydalanish, shuningdek joriy moliya yili mobaynida ularni o'z vaqtida qoplashdan iboratdir.

Byudjet ssudasi shaklidagi byudjetlararo transfert (byudjet ssudasi) byudjet manbalarining to'liq safarbar qilinishi tegishli byudjetlarda nazarda tutilgan xarajatlar qoplanishini ta'minlamagan taqdirda, qaytarish sharti bilan va foizsiz beriladi.

Byudjet ssudasining muddatlari quyidagi 6.5-chizmada keltirilgan:



6.5-chizma. Byudjet ssudasi muddatlari

Rejali byudjet ssudasi daromadlarning prognoz qilingan tushumlari, nazarda tutilgan subvensiya, o'tkazib beriladigan daromadlarning summasi, aylanma kassa mablag'laridan va yil boshidagi erkin qoldiqlardan vaqtinchalik mablag' jalb qilish, dotatsiya tasdiqlangan tegishli byudjetlarda nazarda tutilgan ayrim choraklardagi xarajatlar qoplanishini ta'minlamagan hollarda beriladi.

Byudjet ssudasi:

– O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti mablag'lari hisobidan – Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetiga,

viloyatlarning viloyat byudjetlariga, Toshkent shahrining shahar byudjetiga, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga;

– Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari, Toshkent shahrining shahar byudjeti mablag'lari hisobidan – tumanlar va shaharlar byudjetlariga ularning daromadlari hamda xarajatlari o'rtasidagi rejali yoki kutilayotgan vaqtinchalik kassa uzilishini qoplash uchun beriladi.

Byudjet ssudalarini berishning majburiy sharti ulardan belgilangan maqsadda foydalanish, shuningdek, joriy moliya yili mobaynida ularni o'z vaqtida qoplashdan iboratdir.

Byudjet ssudasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli hokimliklarning, davlat maqsadli jamg'armasini taqsimlovchi organ rahbarining byudjet ssudasiga bo'lgan ehtiyojni asoslovchi hisob-kitoblar ilova qilingan yozma so'rovi asosida beriladi. Byudjet ssudasi berish to'g'risidagi yozma so'rovni ko'rib chiqishda moliya organi qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborot va hisob-kitoblarni so'rab olish huquqiga ega.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli hokimliklarning, davlat maqsadli jamg'armasini taqsimlovchi organ rahbarining yozma so'rovini ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha byudjet ssudasini berish to'g'risidagi qaror:

– O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan — O'zbekiston Respublikasi moliya vaziri tomonidan;

– Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari, Toshkent shahrining shahar byudjetidan — tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi moliya vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari boshliqlari tomonidan besh ish kuni ichida qabul qilinadi.

Byudjet ssudasini ajratish byudjet ssudasini berayotgan moliya organi va byudjet ssudasini oluvchi moliya organi (davlat maqsadli

jamg'armalarini taqsimlovchi organ) o'rtasida byudjet ssudasi berish to'g'risidagi shartnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Byudjet ssudasini qaytarish muddatlarini uzaytirish byudjet ssudasini oluvchida uni belgilangan muddatlarda o'z vaqtida to'lash imkoniyatini istisno etadigan moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga kelgan hollarda amalga oshiriladi.

Byudjet ssudasini qaytarish muddatlarini uzaytirish byudjet ssudasini berish uchun ushbu moddada belgilangan tartibda va shartlar asosida amalga oshiriladi.

Byudjet ssudasini oluvchi tegishli moliya organiga byudjet ssudasini to'lash muddatlarini uzaytirish to'g'risidagi yozma so'rov bilan to'lash muddati tugashidan kamida besh ish kuni oldin murojaat etadi.

Byudjet ssudasini to'lash byudjet ssudasini berish to'g'risidagi shartnomada belgilangan muddatlarda:

- mablag'larni o'tkazish;

- quyi turuvchi byudjetlarga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazilishi kerak bo'lgan subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar, byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblar va dotatsiyalar evaziga o'zaro hisobga olish;

- ish haqini to'lash, ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar, stipendiyalar, pensiyalar, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam, kompensatsiya to'lovlari va nafaqalar to'lash xarajatlari qoplanganidan so'ng quyi turuvchi byudjetlarning va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridan mablag'larni so'zsiz undirib olish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tayanch so'z va iboralar *Byudjetlararo munosabatlar, subvensiya, subsidiya, dotatsiya, byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblar, o'tkazib beriladigan daromadlar.*

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar:

1. Byudjetlararo munosabatlar mohiyatini izohlang.
2. Byudjetlararo munosabatlar shakllarining bir-biridan farqini tushuntirib bera olasizmi?
3. So‘nggi bir necha yil davomida uzluksiz ravishda byudjet dotatsiyasi berilayotgan hududlardan qaysilarini bilasiz?
4. Byudjetdan subvensiya berishda e‘tiborga olinadigan ko‘rsatkichlarga to‘xtalib o‘ting.
5. Byudjetlararo munosabatlarda tartibga soluvchi soliqlarning ahamiyati qanday?

VII BOB. BYUDJET TASNIFI

7.1. Byudjet tasnifining zarurligi, mohiyati va ahamiyati. Byudjet tasnifining asosiy tamoyillari

Byudjet tizimidagi byudjetlarni tuzish va ijro etish bo'yicha asosiy metodologik hujjat bo'lib byudjet tasnifi xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi 3-bob, 18-23-moddalari byudjet tasnifiga bag'ishlangan. Kodeksga muvofiq, byudjet tasnifi byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va xarajatlari, shuningdek, Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalarini guruhlashdan iborat bo'lib, byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish va ijro etishni tizimlashtirish uchun foydalaniladi⁴⁶.

Byudjet tasnifi deganda byudjet daromadlari, xarajatlari va ushbu byudjetlarning taqchiligini moliyalashtirish manbalarini guruhlash va tasniflash obyektlariga tegishli kodlarni belgilash tushuniladi. Rossiya Federatsiyasida byudjet tasnifi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Byudjet daromadlari tasnifi;
- Byudjet xarajatlari tasnifi;
- Byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi;
- Ommaviy-huquqiy tuzilmalar (davlat boshqaruvi sektori) operatsiyalarining tasnifi⁴⁷.

Demak, byudjet tasnifi – byudjet tizimining barcha darajalaridagi byudjetlari daromadlari va xarajatlarini, shuningdek, ushbu byudjetlarning taqchilliklarini moliyalashtirish manbalari va davlat qarzi turlarini bir xil belgi bo'yicha qonunga muvofiq guruhlash bo'lib, undan byudjetlarni tuzish va ijro etishda tasnif obyektlariga guruh kodlarini


⁴⁶ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 18-modda. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-I-son.

⁴⁷ Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii: uchebnik / pod obm. red. Yu. S. Dolganovovoy, N. A. Istominoy. – Yekaterinburg: Izdvo Ural. unta, 2019. – s.109.

berish orqali foydalaniladi. Tasnif barcha darajadagi byudjetlar ko'rsatkichlarining qiyosiyligini, ularni iqtisodiy va statistik tahlil qilish imkoniyatini ta'minlaydi.

Byudjet tasnifi xalqaro tasnif tizimlariga muvofiq ishlab chiqiladi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Byudjet tasnifi byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tasnifini, byudjet tizimi byudjetlari xarajatlarining tasnifini, davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifini o'z ichiga oladi (7.1-chizma):



7.1-chizma. Byudjet tasnifi

Byudjet tasnifi quyidagi asosiy tamoyillar doirasida amalga oshiriladi:

- to'liqlik;
- yagonalik;
- o'zaro muvofiqlik.

Rossiya Federatsiyasi byudjet amaliyotiga nazar tashlasak, byudjet tasnifida kodlar belgilashda quyidagi tamoyillarga rioya qilinishi belgilangan⁴⁸:

- yagonalik tamoyili;
- barqarorlik (izchillik) tamoyili;
- ochiqlik tamoyili.

⁴⁸ Бюджетная система Российской Федерации: учебник / под общ. ред. Ю. С. Долгановой, Н. А. Истоминой. Екатеринбург: Урал. унта, 2019. С.110.

Byudjet tasnifining to'liqlik tamoyili byudjet jarayonining barcha ishtirokchilari qamrab olinishini nazarda tutadi.

Byudjet tasnifining yagonalik tamoyili byudjet jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan yagona byudjet tasnifi qo'llanilishini anglatadi.

Byudjet tasnifining o'zaro muvofiqligi tamoyili byudjet tasnifining kodlari bir vaqtning o'zida byudjet jarayonining turli xil operatsiyalarini hisobga olish uchun qo'llanilmasligini anglatadi.

Byudjet tasnifining ahamiyati shu bilan belgilanadiki, undan:

- davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etishda;

- byudjet mablag'larining ajratilishi va ulardan foydalanilishini nazorat qilishda;

- turli darajadagi byudjetlarning ko'rsatkichlarini bir-biri bilan taqqoslashda;

- barcha darajada jamlangan byudjet tizimini tuzishda foydalaniladi.

1999-yilga qadar mamlakatimiz byudjet amaliyotida asosan sobiq Ittifoqda qo'llanilgan tasnifdan foydalanib kelindi. Mazkur tasnif byudjet daromadlari va xarajatlarining bo'limlar, boblar va moddalarga bo'linib, umumlashgan funksional va iqtisodiy tasnif belgilariga ega edi. Bu tasnifning batafsil bayoni xalqaro standartlarga muvofiq hisobotlar taqdim etish yoki milliy hisoblar tizimiga mos kelishi jihatidan talabga javob bermas edi. Yangi tasnifni amalga kiritish bilan bu kamchilikka barham berildi va yangi tasnif 2000-yil byudjetini ishlab chiqish va ijro etishda ilk bor qo'llanildi. Yangi tasnif byudjet daromadlari va xarajatlari ijrosini tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Byudjet tasnifi:

- davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish maqsadida byudjet ma'lumotlarini bir tizimga solish uchun foydalaniladi;

- mamlakat byudjet ma'lumotlarini xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma'lumotlari bilan qiyoslash imkonini beradi.

Soliq bazalarining kengayishi, soliq tizimiga o'zgartirishlar kiritilishi, yangi soliq turlarining joriy etilishi yoki amaldagi soliqlarning bekor qilinishi, shuningdek, davlat oldidagi vazifalarning o'zgarishi bilan byudjet xarajatlari tarkibining o'zgarishi amaldagi byudjet tasnifiga tegishli o'zgartirishlar kiritilishini taqozo etadi. Shu sababli byudjet amaliyoti taraqqiyotining ma'lum bosqichlariga kelib, mavjud byudjet tasnifnomasiga o'zgartirishlar kiritib turiladi. Byudjet tasnifi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Byudjet ko'rsatkichlarining milliy tasniflash tizimini ishlab chiqishda xalqaro tasniflash tamoyillariga rioya qilinishi kerak.

7.2. Byudjet tasnifining turlari: byudjet daromadlari tasnifi, uning turlari

Byudjet tasnifi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek uning taqchilligini moliyalashtirish manbalari guruhlanishi bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Davlat byudjeti daromadlarining tasnifi;
- Davlat byudjeti xarajatlarining vazifa jihatidan, tashkiliy va iqtisodiy tasnifi;
- Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi.

Byudjet tasnifi Davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish maqsadida byudjet ma'lumotlarini tizimga solish uchun foydalaniladi va u byudjet ma'lumotlari xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma'lumotlari bilan qiyoslanishini ta'minlaydi. Byudjet amaliyotida yuqorida keltirilgan tasniflardan birgalikda, ya'ni aralash tasniflardan foydalaniladi. Xususan, respublika va mahalliy byudjetlarni

tuzish, ijro etish, ijrosi yuzasidan hisobotlarni to'plash va nazorat qilishda funksional va iqtisodiy tasnifdan aralash tarzda shaxmat usulida foydalaniladi. Masalan, mahalliy byudjetdan funksional tasnif bo'yicha xalq ta'limiga ajratilgan mablag'larning iqtisodiy tasnif bo'yicha ish haqi, kommunal xizmatlar, joriy remont kabilarga ishlatilish darajasi tahlil qilinadi.

Davlat byudjeti daromadlarining tasnifi (keyingi o'rinlarda daromadlar tasnifi deb yuritiladi) barcha darajadagi byudjetlar daromadlari, davlat maqsadli jamg'armalari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari daromadlarining guruhlanishidan iborat.

Yigirma bir koddan iborat bo'lgan daromadlar tasnifi tuzilmasi to'rt qismli ko'rinishga ega:

- mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifi;
- daromadlar turi;
- hududiy tasnif.

Daromadlar tasnifi tuzilmasi quyidagi ko'rinishga ega:

Mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifi				Daromadlar turi			Tashkiliy tasnif	Hududiy tasnif	
x	xxx	X	x	x	xxx	xxx	xxx	xx	xxx

Davlat moliyasini boshqarishning Axborot tizimi (keyingi o'rinlarda DMBAT deb yuritiladi) tatbiq etilguniga qadar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotni tuzishda faqatgina «Daromadlar turi» kodi qo'llaniladi.

Mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifi (1-6 kodlar) byudjetga tushayotgan daromadlarni tegishli mablag'lar manbasi va byudjetlar darajalariga (tegishli byudjet darajasiga, davlat maqsadli

jamg'armasi turiga va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari daromadlari turiga) mansubligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi.

7 ta raqamli daromadlar turi (7-13 kodlar) quyidagilardan iborat:

- bo'lim;
- paragraf;
- daromad turi.

Bo'lim daromadlarni ularning olish manbalari bo'yicha guruhlanishini bildiradi:

3 100 000 "Soliqlar";

3 200 000 "Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar";

3 300 000 "Grantlar";

3 400 000 "Boshqa daromadlar";

3 500 000 "Aktiv va majburiyatlarga tranzaksiyalar bo'yicha tushumlar".

Paragraf soliq yoki boshqa turdagi daromadlarni soliqqa tortish bazasi bo'yicha daromadlarning guruhlanishini bildiradi.

"Soliqlar" (3 100 000) quyidagi paragraflarni o'z ichiga oladi:

3 110 000 "Daromad, foyda va kapital o'sishiga soliqlar";

3 130 000 "Mol-mulkka solinadigan soliq";

3 140 000 "Tovarlar va xizmatlarga soliqlar";

3 150 000 "Xalqaro savdo va operatsiyalarga soliqlar";

3 160 000 "Boshqa soliqlar";

"Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar" (3 200 000) 3 210 000 "Ijtimoiy ta'minotga ajratmalar/badallar" paragrafini o'z ichiga oladi.

«Grantlar» (3 300 000) quyidagi paragraflarni o'z ichiga oladi:

3 310 000 "Xorijiy davlatlar hukumatlaridan";

3 320 000 "Xalqaro tashkilotlardan";

3 330 000 "Davlat boshqaruvi sektorining boshqa birliklaridan".

"Boshqa daromadlar" (3 400 000) quyidagi paragraflarni o'z ichiga oladi:

3 410 000 “Mol-mulkdan daromadlar”;

3 420 000 “Tovarlar va xizmatlar sotilishi”;

3 430 000 “Jarimalar, penyalar va neustoykalar”;

3 440 000 “Ixtiyoriy transfertlar, grantlar bundan mustasno”;

3 450 000 “Aniqlab bo‘lmaydigan va boshqa daromadlar”.

“Aktiv va majburiyatlarga tranzaksiyalar bo‘yicha tushumlar” (3 500 000) quyidagi paragraflarni o‘z ichiga oladi:

3 510 000 “Tranzaksiyalardan aktivlarga tushadigan tushumlar”;

3 520 000 “Majburiyatlarga tranzaksiyalar bo‘yicha tushumlar”.

Tegishli byudjetning daromadlar ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar daromadlar tasnifining mumkin bo‘lgan barcha elementlarini qo‘llagan holda shakllantiriladi.

Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari o‘rtasidagi byudjet darajalari bo‘yicha tushumlarning taqsimlanishi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Tashkiliy tasnif (14-16 kodlar) byudjetga tushayotgan daromadlarni ularni boshqaruvchi tegishli tashkilotlarga (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va sh.k.) tegishli ekanligini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zaro hisob-kitoblar bo‘yicha yuqori (quyi) byudjetning quyi (yuqori) byudjet oldidagi majburiyatining qaytarilishi hisobiga quyi byudjetlarga dotatsiya, subvensiya, byudjet ssudalari va mablag‘lari kelib tushganda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga biriktirilgan koddan foydalaniladi.

Hududiy tasnif (17-21 kodlar) tushayotgan daromadlarni mazkur daromadlarni to‘layotgan tegishli hududlarga mansub ekanligini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi.

7.3. Byudjet xarajatlari tasnifi, uning guruhlanishi. Byudjet tizimi byudjetlari mablag‘larining manbalari va darajalari tasnifi; vazifa jihatidan tasnif; tashkiliy tasnif; iqtisodiy tasnif; hududiy tasnif

Byudjet tizimi byudjetlari xarajatlarining tasnifi byudjet tizimi byudjetlari xarajatlarini kodlashdan iborat bo‘ladi va ularning yo‘nalishini aks ettiradi⁴⁹.

Byudjet tizimi byudjetlari xarajatlari tasnifining tuzilmasi quyidagilardan iborat:

–byudjet tizimi byudjetlari mablag‘larining manbalari va darajalari tasnifi;

–vazifa jihatidan tasnif;

–dasturiy tasnif;

–tashkiliy tasnif;

–iqtisodiy tasnif;

–hududiy tasnif.

Byudjet tizimi byudjetlari mablag‘larining manbalari va darajalari tasnifi amalga oshirilayotgan xarajatlarning tegishli mablag‘lar manbalari va byudjetlar darajalariga mansubligini aniqlash uchun qo‘llaniladi.

Xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi davlat funksiyalarini bajarish uchun mablag‘lar yo‘nalishini aks ettiruvchi xarajatlarni guruhlashdir. Vazifa jihatdan tasnif ikki darajadan iborat:

Vazifa jihatdan tasnifning birinchi darajasi (bo‘limlar) davlatning asosiy vazifasini bajarish uchun moliyaviy resurslarning yo‘nalishini aks ettiradi. Kichik bo‘limlar vazifa jihatdan tasnifning ikkinchi darajasi hisoblanib, davlat vazifalarining bajarilishida byudjet mablag‘larining bo‘limlar doirasidagi yo‘nalishini aniqlashtiradi.

⁴⁹ O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 22-modda. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 52-I-son

Vazifa jihatdan tasnifning kichik bo'limlarining tuzilishi davlatning asosiy vazifalarini aniqlashtirish tamoyiliga asosan qurilgan.

Vazifa jihatdan tasnifning kodi 7 ta raqamdan iborat bo'lib, shundan 4 ta raqam - bo'lim, 3 ta raqam esa - kichik bo'limdir.

Vazifa jihatdan tasnifning bo'limlari va kichik bo'limlari yagona bo'lib, byudjet jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetini tuzishda, tasdiqlashda va ijro qilishda foydalaniladi.

Xarajatlarning dasturiy tasnifi davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarini bajarish uchun mablag'lar yo'nalishini aks ettiruvchi xarajatlarni guruhlashdan iboratdir.

Xarajatlarning tashkiliy tasnifi byudjet tizimi byudjetlarining mablag'larini taqsimlovchilar bo'yicha kodlashdan iborat bo'ladi.

Xarajatlarning iqtisodiy tasnifi xarajatlarni iqtisodiy yo'nalishiga ko'ra kodlashdan iborat bo'ladi.

Hududiy tasnif byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning tegishli ma'muriy-hududiy birlikka mansubligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi.

Byudjet tizimi byudjetlarining iqtisodiy belgilar bo'yicha xarajatlari quyidagi xarajatlar guruhlarini o'z ichiga oladi:

- birinchi guruh – ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar, kompensatsiya to'lovlari va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam;

- ikkinchi guruh – ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar;

- uchinchi guruh – kapital qo'yilmalar (rivojlanish davlat dasturlarida nazarda tutilgan aniq yo'naltirilgan ro'yxatlarga muvofiq);

- to'rtinchi guruh – boshqa xarajatlar.

Xarajatlar guruhlari bo'yicha aniq moddalar byudjet tasnifiga muvofiq belgilanadi.

Iqtisodiy tasnifning tuzilmasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Toifa	Modda va kichik modda	Element
Xx	Xx	xxx

Iqtisodiy tasnif toifalar, moddalar va kichik moddalar kodlarini o‘z ichiga olgan 7 raqamdan iborat.

toifa – 2 ta raqam;

modda – 1 ta raqam;

kichik modda – 1 ta raqam;

element – 3 ta raqam.

7.4. Byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi

Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi taqchillikni moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalari bo‘yicha guruhlashdan iborat (50 va 51-bo‘limlar).

Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirishning ichki manbalarini tasniflash O‘zbekiston Respublikasi hukumati, respublika ijroiya organlari tomonidan mamlakatning moliya bozoridan jalb qilinayotgan qarz mablag‘larini guruhlashdan iborat.

Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi ularni moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalari bo‘yicha guruhlanishidan iborat.

Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi quyidagilardan tashkil topadi

➤ bo‘lim;

➤ paragraf.

Bo‘lim – davlat byudjeti taqchilligini uni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha guruhlanishidan iborat.

Paragraf – davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish turlari bo‘yicha guruhlashdan iborat.

50-bo‘lim “Moliyalashtirishning ichki manbalari” quyidagi paragraflardan tashkil topgan:

“Davlat qimmatli qog‘ozlarini joylashtirishdan tushgan mablag‘lar”;

502 “Markaziy bank kreditlari”;

503 “Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lar”;

504 “O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjeti mablag‘larining qoldig‘i”;

505 “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining qoldig‘i”;

506 “Ish bilan ta‘minlashga ko‘maklashuvchi davlat jamg‘armasi mablag‘larining qoldig‘i”;

507 “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi mablag‘larining qoldig‘i”;

508 O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasining maxsus hisobvarag‘i mablag‘lari;

509 “Boshqa ichki manbalardan jalb qilinadigan mablag‘lar”.

51-bo‘lim “Moliyalashtirishning tashqi manbalari” quyidagi paragraflardan tashkil topgan:

511 “Davlat qimmatli qog‘ozlarini joylashtirishdan tushgan mablag‘lar”;

512 “Xalqaro moliyaviy institutlar, tashkilotlar kreditlari”;

513 “Xorijiy davlatlar kreditlari”;

514 “Boshqa tashqi manbalardan jalb qilinadigan mablag‘lar”.

Tayanch so‘z va iboralar *Byudjet tasnifi, daromadlar tasnifi, xarajatlar tasnifi, byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tasnif, byudjet tasnifi tamoyillari.*

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar

1. Byudjet tasnifining iqtisodiy mohiyati nimadan iborat?
2. Byudjet daromadlari tasnifining o‘ziga xos xususiyatlarini aytib o‘ting.
3. Byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbalarini aytib o‘ting.
4. Byudjet xarajatlarining iqtisodiy tasnifi necha guruhdan iborat?
5. Xarajatlarning funksional, tashkiliy va hududiy tasnifini farqlab bering.


VIII BOB. DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARI TIZIMI

8.1. Byudjet daromadlarining iqtisodiy mazmuni va manbalari

Byudjet daromadlari davlatning markazlashtirilgan moliyaviy resurslari bir qismi sifatida davlatning funksiyalarini bajarish uchun zarur ahamiyatga ega. Ular pul mablag‘lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni o‘zida ifodalaydi va turli darajadagi hokimiyat organlarining ixtiyoriga kelib tushadi.

Qayd etilganlarni inobatga olgan holda, unga byudjet daromadlarining ma’no-mazmunini ifodalovchi quyidagicha ta’rif berish mumkin: pul mablag‘lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni o‘zida ifoda etadigan, hokimiyat organlarining turli darajalari ixtiyoriga kelib tushadigan, davlatning funksiyalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan davlat markazlashtirilgan moliyaviy resurslarining bir qismi byudjet daromadlari deyiladi.

Mamlakatlarning davlat tuzilishiga bog‘liq ravishda byudjet daromadlari quyidagicha farqlanadi (8.1-chizma):



8.1-chizma. Davlat tuzilishiga bog‘liq ravishda byudjet daromadlari turlari

Federativ tuzilishga ega bo'lgan davlatlarda byudjet daromadlarining chizmada keltirilgan daromad turlari federatsiya a'zolari byudjetlarining daromadlari bilan to'ldiriladi⁵⁰.

Byudjet daromadlari davlatning daromadlariga nisbatan tor bo'lgan tushunchadir. Chunki davlat daromadlari hokimiyat barcha darajalari byudjetlarining moliyaviy mablag'lari bilan birgalikda yana o'zining tarkibiga davlat nobyudjet fondlari va barcha davlat sektoriga tegishli bo'lgan boshqa resurslarni ham qamrab oladi.

Byudjet daromadlarining asosiy moddiy manbai milliy daromaddir. Agar davlatning moliyaviy ehtiyojlarini qondirish uchun milliy daromad yetarli bo'lmasa, davlat bunday ehtiyojni qondirishga milliy boylikni jalb etishi mumkin. Bu yerda milliy boylik deyilganda ma'lum bir davrda jamiyatning ixtiyorida bo'lgan, hozirgi va o'tgan avlodning mehnatlari evaziga yaratilgan moddiy ne'matlar hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan tabiiy resurslar majmui nazarda tutilayapti.

Milliy daromadni davlat tomonidan davlatlashtirish (davlat ixtiyoriga o'tkazish) turli metodlar yordamida amalga oshiriladi. Soliqlar, davlat krediti va pul emissiyasi davlat hokimiyat organlari tomonidan milliy daromadni qayta taqsimlash va byudjet daromadlarini shakllantirish uchun foydalanilayotgan metodlarning asosiylari bo'lib hisoblanadi. Bu metodlar o'rtasidagi nisbat mamlakatlar va davrlar bo'yicha turlicha bo'lib, mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa qaramaqarshiliklarning o'tkirlik darajasi, davlatning moliyaviy siyosati va moliyaviy ahvoli bilan belgilanadi.

Milliy daromadni qayta taqsimlashning asosiy metodi soliqlar hisoblanadi. Ular yordamida byudjet daromadlarining asosiy salmog'i ta'minlanadi. Turli mamlakatlar markaziy byudjetlarining daromadlarida soliq tushumlari qariyb 90%ni tashkil etadi. Federatsiya a'zolari va

⁵⁰ Бюджетная система Российской Федерации. Учебник / под общ. ред. Ю. С. Долгановой, Н. А. Истоминой. Екатеринбург: Урал. унта, 2019. С.109.

mahalliy byudjetlar daromadlarida soliqlarning salmog'i nisbatan pastroqdir. Bu byudjetlar biriktirilgan (tegishli byudjetlarning o'z daromadlari) va tartibga keltiruvchi (byudjet tizimining yuqori bo'g'inidan quyi bo'g'iniga beriladigan daromadlar) daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

O'zining moliyaviy ahamiyatiga ko'ra davlat kreditlari byudjet daromadlarining navbatdagisi hisoblanadi. Kelgusi yil uchun byudjet tuzilayotgan paytda byudjet defitsiti mavjud bo'lsa (vujudga kelsa), davlat ana shu metoddan foydalanadi. Davlat mamlakatda moliyaviy ahvolning murakkablashuvi va byudjet defitsiti hajmining oshishiga muvofiq ravishda davlat kreditiga murojaat qiladi. Bunday kreditlarni olishning ikki yo'li mavjud:

1) davlat nomidan qimmatli qog'ozlarni chiqarish yo'li bilan jismoniy va yuridik shaxslardan davlat qarzlarini olish;

2) markaziy bank va boshqa kredit tashkilotlaridan olingan kreditlar.

Davlat kredit operatsiyalari hajmining oshishi davlat qarzining oshishiga olib keladi. O'z navbatida, davlat qarzlari soliqlar bilan chambarchas bog'liq. Uni uzish (qaytarish) va u bo'yicha foizlarni to'lash, asosan, soliq to'lovlari yoki davlatning yangi kredit operatsiyalari hisobidan amalga oshiriladi.

Favqulodda holatlarda, soliq to'lovlari va davlat kreditlarini olish murakkablashganda davlat qog'oz pullar emissiyasiga murojaat qiladi. Bu byudjet daromadlarini to'ldirishning eng noqulay metodidir. Chunki bu metodning qo'llanilishi tegishli tartibda tovar bilan ta'minlanmagan pul massasining o'sishiga va inflyasion jarayonlarning kuchayishiga, pirovardida esa, og'ir ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Byudjet daromadlari mamlakat yalpi ichki (milliy) mahsulotini taqsimlash va qayta taqsimlash umumiy jarayonining elementlaridan biri bo'lib, oraliq (tranzit) xususiyatga ega. Ular yuridik va jismoniy

shaxslarga tegishli bo'lgan daromadlar va jamg'armalarning bir qismini byudjetga o'tkazilishi natijasida vujudga keladi⁵¹. Byudjet daromadlarining moddiy-buyumlashgan mazmunini davlatning ixtiyoriga borib tushgan pul mablag'lari tashkil etadi. Bu moliyaviy (byudjet) kategoriyaning namoyon bo'lish shakli byudjetga borib tushuvchi turli soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va ajratmalardan iborat.

Byudjet daromadlarini shakllantirish jarayoni tamoyillari

1. Subyektlarning xatti-harakati va intilishiga bog'liq bo'lmagan holda vujudga kelgan daromadlarning to'liq yoki qisman byudjetga olinishi

2. Byudjet mexanizmining rag'batlantiruvchi ta'sirini ta'minlash

3. Subyektlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishiga rioya etish (sharoit yaratish) rag'batlantiruvchi ta'sirini ta'minlash

4. Ishlab chiqarishni kengaytirish va boshqa maqsadlar uchun korxonaning rejalashtirilgan ehtiyojidan ortgan summalarni byudjetga olish

5. Byudjet daromadlarini shakllantirishda ulushli ishtirok etish

8.2-chizma. Byudjet daromadlarini shakllantirish jarayoni tamoyillari

Miqdoriy jihatdan byudjetning daromadlari yaratilgan (ishlab chiqarilgan) yalpi ichki (milliy) mahsulotda (milliy daromadda) davlatning ulushini ko'rsatadi. Ularning absolyut hajmi va salmog'i mamlakatning yalpi ichki (milliy) mahsuloti (milliy daromadi)ning

⁵¹ Malikov T.S., Haydarov N.H. Davlat byudjeti. T.: Iqtisod-Moliya, 2007. 30 b.

umumiy hajmi, u yoki bu davrda davlatning oldida turgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqa vazifalar bilan belgilanadi. Ana shularga muvofiq ravishda byudjetda mablag'larni konsentratsiya qilish (to'plash, yig'ish) miqdori va ularni undirishning shakl va metodlari aniqlanadi.

Byudjet daromadlarini shakllantirish jarayoni quyidagi tamoyillarga asoslanishi maqsadga muvofiqdir (8.2-chizma):

Byudjet daromadlarining asosiy qismi soliqlar yordamida byudjetga undirilishi tufayli ularga nisbatan bu jarayonda qo'llaniladigan tamoyillar 8.3-chizmada keltirilgan. Ana shu tamoyillarning mazmuniga to'xtalib o'tamiz.

1-2 tamoyillar

- soliqlarning byudjetga olinishi mamlakat milliy boyligi manbalarining tugashiga olib kelmasligi kerak
- soliqlar ularni to'lovchilar o'rtasida teng (adolatli) taqsimlanmog'i lozim

3-4 tamoyillar

- soliqlarning ishlab chiqaruvchilar aylanma fondlari hajmiga ta'sir ko'rsatmasligi
- soliqlarning sof daromadga nisbatan hisoblanishi

5-6 tamoyillar

- davlat uchun soliqlarning undirilishi iloji boricha arzonroq bo'lishi lozim
- soliqlarning undirish jarayoni xususiy sektorni siqib chiqarmasligi kerak

8.3-chizma. Byudjet daromadlarini soliqlar orqali shakllantirishda qo'llaniladigan tamoyillar

Birinchi tamoyilning ma'nosi shundan iboratki, ma'lum bir xarajatlarni amalga oshirmasdan turib olingan barcha daromadlar subyektlarning ixtiyoriga qoldirilmasdan davlatning ixtiyoriga o'tishi kerak. Bu tamoyilning ta'siri ostiga subyektlar ma'muriyatining noto'g'ri, noqonuniy harakati (masalan, davlat standartlarini buzish va boshqalar) natijasida olingan daromadlar ham kiritilmog'i lozim.

Ikkinchi tamoyilga asosan subyektlar ixtiyoridan mablag'larning byudjetga olinishi ularning samarali faoliyat ko'rsatishini rag'batlantirishi kerak. Bu yerda qo'yilgan vazifa faqatgina byudjet daromadlarini miqdoriy jihatdan ta'minlash emas, balki shu orqali korxonada faoliyat ko'rsatayotgan mehnat jamoalarining manfaatlariga, ular faoliyatining sifat ko'rsatkichlariga to'lovlarning ta'sirchanligini kuchaytirishdir.

Uchinchi tamoyilning ma'nosi shundan iboratki, subyektlarga tegishli bo'lgan mablag'lar bir qismining byudjetga olinishi ularning mustaqil rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Bu chegaradan oshib ketish subyektlarning mustaqilligini yo'qotishga, kasodga uchrash hollarining vujudga kelishiga, ichki rezervlarni qidirib topishga va ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarini ta'minlashga intilishning susayishiga, xufyona iqtisodiyotning rivojlanishiga olib keladi.

To'rtinchi tamoyil byudjet daromadlarini davlat korxonalarining mablag'lari hisobidan tashkil etishda qo'llanilishi mumkin. U davlat korxonalarining moliyaviy holatini tartibga soladi va bir vaqtning o'zida ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishda davlatning manfaatlarini ta'minlaydi.

Beshinchi tamoyil aholi mablag'lari hisobidan byudjet daromadlarini shakllantirishda qo'llanilib, uning natijasida aholi daromadlarining bir qismi ular olgan daromadlarining darajasiga bog'liq ravishda byudjetga o'tkaziladi.

Birinchi tamoyilning ma'nosi shundan iboratki, ma'lum bir xarajatlarni amalga oshirmasdan turib olingan barcha daromadlar subyektlarning ixtiyoriga qoldirilmasdan davlatning ixtiyoriga o'tishi kerak. Bu tamoyilning ta'siri ostiga subyektlar ma'muriyatining noto'g'ri, noqonuniy harakati (masalan, davlat standartlarini buzish va boshqalar) natijasida olingan daromadlar ham kiritilmog'i lozim.

Ikkinchi tamoyilga asosan subyektlar ixtiyoridan mablag'larning byudjetga olinishi ularning samarali faoliyat ko'rsatishini rag'batlantirishi kerak. Bu yerda qo'yilgan vazifa faqatgina byudjet daromadlarini miqdoriy jihatdan ta'minlash emas, balki shu orqali korxonada faoliyat ko'rsatayotgan mehnat jamoalarining manfaatlariga, ular faoliyatining sifat ko'rsatkichlariga to'lovlarning ta'sirchanligini kuchaytirishdir.


Uchinchi tamoyilning ma'nosi shundan iboratki, subyektlarga tegishli bo'lgan mablag'lar bir qismining byudjetga olinishi ularning mustaqil rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Bu chegaradan oshib ketish subyektlarning mustaqilligini yo'qotishga, kasodga uchrash hollarining vujudga kelishiga, ichki rezervlarni qidirib topishga va ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarini ta'minlashga intilishning susayishiga, xufyona iqtisodiyotning rivojlanishiga olib keladi.

To'rtinchi tamoyil byudjet daromadlarini davlat korxonalarining mablag'lari hisobidan tashkil etishda qo'llanilishi mumkin. U davlat korxonalarining moliyaviy holatini tartibga soladi va bir vaqtning o'zida ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishda davlatning manfaatlarini ta'minlaydi.

Beshinchi tamoyil aholi mablag'lari hisobidan byudjet daromadlarini shakllantirishda qo'llanilib, uning natijasida aholi daromadlarining bir qismi ular olgan daromadlarining darajasiga bog'liq ravishda byudjetga o'tkaziladi.

8.2. Byudjet daromadlarining shakllanish manbalari

Umumiy holatda byudjet daromadlari o'zlarining manbalariga ko'ra quyidagi uch guruhga bo'linadi (8.4-chizma):



8.4-chizma. Byudjet daromadlari

Byudjetning solikli daromadlari tarkibi mamlakat soliq qonunchiligiga muvofiq umumdavlat soliqlari va yig'implari, mahalliy soliqlar va yig'implar, bojxona bojlari, boj yig'implari va boshqa boj to'lovlari, davlat boji, penya va jarimalardan iborat.

Byudjetning soliqsiz (soliq bo'lmagan) daromadlari tarkibiga esa quyidagilar kiradi:

- davlat mulkini foydalanishdan olingan daromadlar (soliqlar va yig'implar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan soliq va yig'implardan so'ng);

- byudjet tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan haqli (to'lovli) xizmatlardan kelgan daromadlar (soliqlar va yig'implar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan soliq va yig'implardan so'ng);

- fuqarolik-huquqiy, ma'muriy va jinoiy choralarni qo'llash natijasida olingan mablag'lar, jumladan, jarimalar, konfiskatsiyalar,

kompensatsiyalar va davlat subyektlariga yetkazilgan zararlarni tiklash bo'yicha olingan mablag'lar va majburiy undirilgan boshqa mablag'lar;

- moliyaviy yordam ko'rinishidagi daromadlar (byudjet ssudalari va byudjet kreditlaridan tashqari);

- boshqa soliqsiz daromadlar.

Byudjet daromadlarining tarkibiga tushumlarning quyidagi ko'rinishlari hisobga olinishi mumkin:

- davlat mulkini vaqtinchalik foydalanishga berish natijasida ijara haqi yoki boshqa ko'rinishda olinadigan mablag'lar;

- kredit muassasalaridagi hisob varaqlarida byudjet mablag'larining qoldig'i bo'yicha foizlar ko'rinishida olinadigan mablag'lar;

- davlat mulkiga tegishli bo'lgan mol-mulkni garovga yoki ishonchli boshqaruvga berishdan olinadigan mablag'lar;

- qaytarish va haq olish asosida boshqa byudjetlarga, xorijiy davlatlarga yoki boshqa yuridik shaxslarga berilgan byudjet mablag'laridan foydalanganlik uchun haq;

- davlatga qisman tegishli bo'lgan xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalining hissasiga yoki aksiyalar bo'yicha dividendlarga to'g'ri keladigan foyda ko'rinishidagi daromadlar;

- davlat unitar korxonalari foydasining bir qismi (soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan soliq va yig'imlardan so'ng);

- davlatga tegishli bo'lgan mol-mulkdan foydalanish natijasida olinadigan qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa daromadlar.

Davlat tomonidan xorijiy davlatlarga, ularning yuridik shaxslariga va xalqaro tashkilotlarga taqdim etilayotgan kreditlar deyilganda ular bo'yicha xorijiy davlatlar, ularning yuridik shaxslari va xalqaro tashkilotlarning kreditor sifatida davlat oldida vujudga kelgan qarz majburiyatlari tushuniladi.

Xorijiy davlatlarning qarz majburiyatlari ularning boshqa davlat oldidagi qarzlari shakllantiradi. Odatda, byudjet to'g'risidagi qonunda bu qarzlarga tegishli bo'lgan quyidagilar tasdiqlanishi kerak:

- xorijiy davlatlarning qarzlari bo'yicha qaytarilish (uzilish) summalari va foizlarning to'lovi;

- moliyaviy yilning oxiridagi xorijiy mamlakatlar qarzlarning miqdori;

- xorijiy davlatlarga taqdim etiladigan davlat kreditlarining maksimal hajmi;

- moliyaviy yilda ularning oluvchilari, maqsadlari va kreditlashtirish miqdorlari ko'rsatilgan holda kreditlar ro'yxatidan iborat bo'lgan xorijiy davlatlarga davlat kreditlarini taqdim etish dasturi.

Byudjet daromadlari tarkibida tiklanmaydigan tarzda o'tkaziladigan pul mablag'lari ham muhim ahamiyatga ega. Daromadlarning bu turi byudjet tizimida boshqa darajada turgan byudjetdan dotatsiyalar, subvensiyalar va subsidiyalar yoki mablag'larni qaytarilmaslik va tiklamaslikning boshqa shakllarida olinadigan moliyaviy yordamdir. Bunday moliyaviy yordamlar mablag'larni oluvchi byudjetning daromadlarida o'z ifodasini topishi kerak. Jismoniy va yuridik shaxslardan, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar hukumatlaridan qaytarilmaydigan yoki tiklanmaydigan shaklda o'tkazilayotgan mablag'lar ham byudjetning shunday daromadlari tarkibiga kiradi.

8.3. Davlat byudjeti daromadlari tarkibi, tuzilishi va dinamikasi

Byudjet daromadlari yuqorida ta'kidlaganimizdek o'zining manbalari, ijtimoiy-iqtisodiy xarakteri, mulkchilik shakli, soliq va to'lovlarning turi, mablag'larning tushish shakli, ularni byudjetga undirish metodlari va hokazolarga muvofiq tasniflanishi mumkin.

Byudjet daromadlarini ularning manbalariga ko'ra mazmunini oldingi paragrafda ko'rib o'tdik.

Yuridik nuqtai-nazardan, byudjet daromadlari uch guruhga ajratilishi mumkin:

- davlat byudjeti daromadlari;
- respublika byudjeti daromadlari;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar daromadlari.

Davlat byudjeti daromadlariga Byudjet kodeksiga muvofiq quyidagilar kiritiladi⁵²:

- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar;
- davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar;
- meros, hadya huquqi bo‘yicha davlat mulkiga o‘tgan pul mablag‘lari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushadigan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- rezident-yuridik shaxslarga berilgan byudjet ssudalarini va chet davlatlarga ajratilgan kreditlarni to‘lash hisobidan to‘lovlar;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar.

Hozirgi kunda respublika byudjetining daromadlari quyidagi tartibda klassifikatsiya qilinmoqda (8.1-jadval):

- Bevosita soliqlar. Ularning tarkibiga yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq va jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan qat’iy soliq kiradi.
- Bilvosita soliqlar. Bu soliqlarning tarkibi qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i va bojxona bojlaridan iborat.
- Resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i. Bu guruhga yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq kiradi.
- Boshqa daromadlar va soliq bo‘lmagan boshqa tushumlar.

⁵² O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 9-bob, 50-modda. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 52-l-son.

**2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti
daromadlari progozi⁵³**

mlrd so'm

T/r	Ko'rsatkichlar	Summa
	O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti daromadlari	98 186,1
1	Bevosita soliqlar	25 187,2
1.1	Foyda solig'i	19 839,0
1.2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	5 348,2
2	Bilvosita soliqlar	52 165,6
2.1	Qo'shilgan qiymat solig'i	42 992,4
2.2	Aksiz solig'i	6 461,2
2.3	Bojxona boji	2 712,0
3	Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	15 340,2
3.1	yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	15 340,2
4	Boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan boshqa tushumlar	5 493,1

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi qonunida soliqlarning tuman, shahar, viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahar byudjetlariga taqsimlanishi ko'rsatib o'tilgan. Unga asosan, quyidagi soliq turlari tumanlar va shaharlar byudjetlariga to'liq o'tkaziladi⁵⁴:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

⁵³ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-589-son qonuni, 4-ilova.

⁵⁴ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-589-son qonuni, 19-modda.

– jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadlari bo'yicha deklaratsiyaga asosan to'lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i;

– suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

– qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, bundan sement xomashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno.

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetiga, viloyatlar viloyat byudjetlariga va Toshkent shahri shahar byudjetiga quyidagilar to'liq o'tkaziladi:

– yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

– yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i;

– elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

– yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i;

– aylanmadan soliq;

– qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat bojlari (patent boji va litsenziya berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

– qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

– ayrim tovarlarning chakana savdosiga beriladigan huquq uchun undiriladigan yig'imlar;

– qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig'imlar (bojxona yig'imlaridan tashqari);

– avtotransport vositalarini xarid qilganlik uchun ularni ichki ishlar organlarida ro'yxatdan o'tkazish chog'ida avtotransport egalari (foydalanuvchilari) tomonidan to'lanadigan yig'imlar;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulk, mahalliy davlat hokimiyati organlarining aktivlari bo'yicha ajratmalar va dividendlar;

- qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini ijaraga berish va xususiylashtirishdan tushadigan daromadlar;

- mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig'idan tushumlar tegishli ravishda 2019-yil 1-iyul holatiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisining respublika aholisidagi ulushiga muvofiq.

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetiga, viloyatlar viloyat byudjetlariga va Toshkent shahri shahar byudjetiga quyidagi ulushlarda:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tushumlarning (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadlari bo'yicha deklaratsiyaga asosan to'lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'idan tashqari) Navoiy viloyatida 70 foiz, Toshkent viloyatida 34 foiz, Toshkent shahrida 5 foiz, Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foiz;

- foyda solig'idan tushumlarning (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq yirik soliq to'lovchilar, O'zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to'lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to'lanadigan foyda solig'idan tashqari) Toshkent viloyatida 34 foiz, Toshkent shahrida 5 foiz, Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foiz;

- qo'shilgan qiymat solig'idan tushumlarning Qoraqalpog'iston Respublikasida 100 foizi o'tkaziladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari:

- tegishli darajadagi mahalliy byudjetlarga ajratiladigan soliqlar va boshqa turdagi daromadlar hamda byudjetlararo transfertlarni taqsimlashga;

- daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olinadigan mablag‘larning bir qismini tumanlar va shaharlar byudjetlariga hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berishga haqli.

Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari:

- ijara berilgan joyning yoki yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilayotgan joyning xususiyatlarini, shuningdek ko‘rsatilayotgan xizmat turining mavsumiyligini hisobga olgan holda ijara to‘lovi bo‘yicha eng kam stavkalarga hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqning qat’iy belgilangan miqdorlariga nisbatan qo‘llaniladigan 0,7 dan 1,3 gacha pasayib boruvchi yoki o‘sib boruvchi koeffitsiyentlarni kiritishga;

- tumanlar va shaharlarning ommaviy dam olish va turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha ijara to‘lovi bo‘yicha eng kam stavkalarga hamda jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqning yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan miqdorlariga nisbatan qo‘llaniladigan o‘sib boruvchi koeffitsiyentlarni kiritishga haqli.

Agar qonun hujjatlarida mahalliy byudjetlarga tushadigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, bu turdagi daromadlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetiga, viloyatlar viloyat byudjetlariga va Toshkent shahri shahar byudjetiga o‘tkaziladi.

Davlat unitar korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo'lgan jamiyatlar tomonidan 2020-yilning 1-iyuliga qadar 2019-yil yakunlari bo'yicha o'z sof foydasining 50 foizidan kam bo'lmagan miqdorda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga tegishli ravishda ajratmalar va davlat ulushi bo'yicha dividendlar hisoblanadi hamda 2020-yilning 1-sentyabridan kechiktirmasdan tegishli darajadagi byudjetlarga o'tkaziladi.

8.2-jadval

2020-yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar hamda Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari progozi⁵⁵

mlrd so'm

T/r	Hududlar nomi	Daromadlar
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 833,3
2	Andijon viloyati	2 187,4
3	Buxoro viloyati	2 142,3
4	Jizzax viloyati	1 050,8
5	Qashqadaryo viloyati	2 935,7
6	Navoiy viloyati	1 353,6
7	Namangan viloyati	2 016,5
8	Samarqand viloyati	2 714,8
9	Surxondaryo viloyati	1 741,6
10	Sirdaryo viloyati	751,1
11	Toshkent viloyati	2 582,9
12	Farg'ona viloyati	3 005,6
13	Xorazm viloyati	1 402,2
14	Toshkent shahri	3 556,1
	Jami	30 273,9

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-589-son qonuni. 6-ilova.

2020-yil uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar hamda Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari prognozi 8.2-jadvalda keltirilgan.

Byudjet daromadlari ijtimoiy-iqtisodiy belgisiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linishi mumkin:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlardan olinadigan daromadlar;
- aholidan tushumlar.

Mulkchilik shakliga ko‘ra byudjet daromadlari quyidagi ko‘rinishlarni olishi mumkin:

- nodavlat sektordan olinadigan daromadlar;
- davlat xo‘jaliklaridan olinadigan daromadlar;
- aholidan olinadigan mablag‘lar.

Byudjet daromadlarining yuqorida sanab o‘tilgan har bir guruhlar daromadlarning manbalari, to‘lovlarning turlari va hokazolar bo‘yicha kichik guruhlarga bo‘linishi ham mumkin. Masalan, davlat xo‘jaliklaridan olinadigan daromadlarga davlat korxona va tashkilotlarining to‘lovlari, davlat mulkini sotishdan olinadigan daromadlar, davlat tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlardan olinadigan daromadlar kiradi. Aholidan byudjetga kelib tushadigan mablag‘lar esa soliqlar va boshqa ixtiyoriy to‘lovlardan iborat bo‘lishi mumkin.

O‘z navbatida, har bir kichik guruhlarga birlashtirilgan byudjet daromadlari tushumlarning alohida turidan iborat. Masalan, davlat korxonalari tomonidan byudjetga o‘tkaziladigan daromadlarning tarkibiga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksizlar, daromad (foyda) solig‘i va boshqalar kiradi. Shuningdek, davlat mulkidan olinadigan daromadlar tarkibi bojxona daromadlaridan, egasiz va musodara qilingan mol-mulkni, talab qilib olinmagan yuklar va pochta jo‘natmalarini, meros huquqi bo‘yicha davlatga o‘tgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan tushumlardan iborat. Davlat tashkilotlari va muassasalari

tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlarga davlat avtomobil inspeksiyalari tomonidan undiriladigan yig'imlar, tovar belgilarini qayd etganlik uchun yig'imlar, o'lchov asboblari davlat tekshiruvidan o'tkazilganligi uchun haq, sud va arbitraj organlari hamda notarial idoralari tomonidan aholiga ko'rsatilgan xizmatlar uchun olinadigan haq va boshqalar kiradi.

Bundan tashqari, byudjetlarning barcha daromatlari u yoki bu byudjetlarga birlashtirilishiga qarab ikki guruhga bo'linishi mumkin:

- 1) byudjetning o'z daromatlari;
- 2) byudjetning tartibga keltiruvchi daromatlari.

Mamlakat soliq qonunchiligiga muvofiq ravishda doimiy asosda tegishli byudjetga to'liq yoki qisman birlashtirilgan daromadlar byudjetning o'z daromatlari deyiladi. Ularga tegishli byudjetlarga birlashtirilgan solikli va nosolikli daromadlar kiradi.

8.3-jadval

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan viloyatlar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

mlrd so'm

T /r	Hududlar nomi	Summa
1	Andijon viloyati	616,2
2	Jizzax viloyati	448,2
3	Qashqadaryo viloyati	758,1
4	Namangan viloyati	977,7
5	Samarqand viloyati	321,8
6	Surxondaryo viloyati	839,1
7	Sirdaryo viloyati	343,9
8	Farg'ona viloyati	351,9
9	Xorazm viloyati	457,0
	Jami	5 113,9

Navbatdagi moliyaviy yil (yoki uzoq muddatli davr asosida, odatda 3 yildan kam bo'lmagan holda) uchun boshqa darajadagi byudjetlarga ajratmalar normativi o'rnatiladigan soliqlar va boshqa to'lovlar byudjetning tartibga keltiruvchi daromadlari deyiladi. 2020-yil uchun respublika byudjetidan viloyatlar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi daromadlar 8.3-jadvalda keltirilgan.

Byudjet daromadlarining deyarli barchasi sarflanish nuqtai-nazaridan oldindan mo'ljallangan maqsadlarga ega emas. Ular umumiy fondga tushiriladi va odatdagi moliyalashtirish tartibida foydalaniladi. Byudjet daromadlarining faqat ba'zi birlarigina oldindan belgilangan maqsadlar uchun mo'ljallangan. Ularning tarkibiga ijtimoiy sug'urta badallarini kiritish mumkin.

Soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va majburiy ajratmalar alohida shakllari va turlarining yig'indisi byudjet daromadlarining yagona tizimini shakllantiradi. Turli subyektlardan kelib tushadigan byudjet daromadlari umumdavlat ehtiyojlarini ta'minlab, bir-biri bilan o'zaro bog'langandir.

Byudjet daromadlarining tarkibi va uning tuzilmasi doimiy bo'lmagan, ular mamlakat taraqqiyoti va davlatning oldidagi vazifalarning o'zgarishiga muvofiq ravishda o'zgarib boradi.

2019-yilda Davlat byudjeti daromadlari 102627,6 mlrd so'm yoki YaIMga nisbatan 24,2 foiz miqdorida prognoz qilindi⁵⁶. To'g'ri soliqlardan tushumlar 29125,5 mlrd so'm (umumiy daromaddagi ulushi 28,4 foiz), jumladan foyda solig'i bo'yicha 15980,0 mlrd so'm (15,5 foiz), yagona soliq to'lovi bo'yicha 1192,1 mlrd so'm (1,2 foiz), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha 11367,4 mlrd so'm (11,1 foiz), qat'iy belgilangan soliq bo'yicha 586,0 mlrd so'm (0,5 foiz) miqdorida tushishi prognoz qilingan.

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020–2021-yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ–4086-sonli qarori.

Bilvosita soliqlar bo'yicha tushumlar 47029,8 mlrd so'mni yoki Davlat byudjeti daromadlarining 45,8 foizini tashkil etadi. Jumladan, byudjetga qo'shilgan qiymat solig'idan 35993,5 mlrd so'm (umumiy daromadlardagi ulushi 35,1 foiz), aksiz solig'idan 9017,5 mlrd so'm (8,8 foiz), bojxona bojlaridan 2018,8 mlrd so'm (1,9 foiz) tushishi kutilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, davlat byudjetiga tushishi prognoz qilingan resurs to'lovlari va mulk solig'i jami 16906,0 mlrd so'mni tashkil etgan (umumiy daromadlardagi ulushi 16,5 foiz). Uning tarkibiga kiritilgan mol-mulk solig'i miqdori 1851,1 mlrd so'mni (1,8 foiz), yer solig'i 1834,3 mlrd so'm (1,7 foiz), yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq 12952,1 mlrd so'm (12,6 foiz), suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq 268,5 mlrd so'mni (0,3 foiz) tashkil etishi belgilangan.

8.4-jadval

Davlat byudjeti daromadlari qismining ijrosi⁵⁷

foizda

Ko'rsatkichlar	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y. (prognoz)
1.To'g'ri soliqlar	23,4	24,1	24,0	23,3	19,8	28,4
2.Egri soliqlar	53,1	52,6	51,5	52,6	52,2	45,8
3.Resurs to'lovlari va mol- mulk solig'i	13,6	13,2	12,9	13,8	16,0	16,5
4.Boshqa daromadlar	9,9	10,1	11,6	7,5	10,1	9,2
5.Yuqori daromaddan olinadigan soliq				2,8	1,9	0,1

⁵⁷ O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Yuqori daromaddan olinadigan soliq tushumi 130,0 mlrd so'm miqdorida (0,1 foiz) prognoz qilinmoqda. Davlat byudjeti daromadlari tarkibida boshqa daromadlar va boshqa soliqsiz tushumlar miqdori 9436,3 mlrd so'm miqdorida prognoz qilindi (9,2 foiz).

Quyida keltirilgan 8.4-jadvalda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining 2014–2019-yillar davomida daromadlar bo'yicha ijrosi o'z aksini topgan:

Jadval ma'lumotlaridan shunisi ma'lum bo'ldiki, tahlil qilinayotgan davr mobaynida byudjet daromadlari tarkibida umumiy holatda to'g'ri soliqlar hamda resurs to'lovlari va mol-mulk solig'ining ulushi oshib borgan. Ammo egri soliqlar va byudjetning boshqa daromadlari ulushi kamayish tendensiyasiga ega. Shunisi diqqatga molikki, 2017-yildan boshlab byudjet daromadlari tarkibida yuqori daromaddan olinadigan soliq turi kiritilgan va uning ulushi so'nggi uch yil davomida kamayib borgan.

8.4. Byudjet daromadlarining shakllanishida soliqlarning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari

Byudjet daromadlarini shakllantirishda soliqlar hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan mablag'lar bir qismining davlat ixtiyoriga majburiy va qaytarilmaydigan tarzda o'tkazuvchi to'lovlarga soliqlar deyiladi. Ular mamlakat milliy daromadining bir qismi bo'lib, byudjet tizimining barcha bo'g'inlari bo'ylab jalb qilinadi, qonunga asosan oldindan belgilangan miqdorda va muddatlarda davlatning ixtiyoriga borib tushuvchi yuridik va jismoniy shaxslarning majburiy to'lovlaridan iboratdir. Soliqlar hisobidan davlatning funksiyalari va vazifalarini bajarish uchun moliyaviy asos yaratiladi. Soliqlarsiz davlat faoliyat ko'rsata olmaydi. Chunki ular bozor munosabatlari va xususiy mulkchilik hukmronligi sharoitida daromadlarni byudjetga jalb qilishning asosiy metodi hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida aholi keng qatlamlari daromadlarining 40% gachasi soliqlar orqali davlatning ixtiyoriga o'tmoqda. Mamlakatlar yalpi ichki (milliy) mahsuloti va milliy daromadida soliqlar salmog'i ortib, uning darajasi o'rtacha 18% dan 30-50% gacha yetib bordi.

Soliqlar yalpi ichki mahsulot va uning tarkibiy qismi bo'lgan milliy daromadni qayta taqsimlashda ishtirok etib, yagona takror ishlab chiqarish jarayonining bir qismi, ishlab chiqarish munosabatlarining o'ziga xos shakli hisoblanadi. Bular soliqlarning ijtimoiy mazmunini shakllantiradi. Soliqlar jamiyatdagi taqsimlash munosabatlarining tarkibiy qismi sifatida ishlab chiqarish qonuniyatlarini o'zida ifoda etadi.

Ijtimoiy mazmundan tashqari soliqlar moddiy asosga (mazmunga) ham egadir, ya'ni ular jamiyatning davlat tomonidan mobilizatsiya (jalb) qilinadigan pul mablag'larining real summasini ham ifodalaydi. Milliy daromadni qayta taqsimlashda soliqlar davlat hokimiyat organlarini pul shaklidagi yangi qiymatning bir qismi bilan ta'minlaydi. Majburiy ravishda va soliqlar shaklida mamlakatning butun aholisidan o'zlashtirilgan milliy daromadning bu bir qismi davlatning markazlashtirilgan moliyaviy resurslari fondiga aylanadi. O'ziga xos tarzda majburiy chetlashtirishdan iborat bo'lgan bu jarayon ekvivalent almashuvsiz qiymatning bir tomonlama (soliq to'lovchidan davlatga) harakatini ifodalaydi.

Davlatning soliqli daromadlari ishlab chiqarish jarayonida (mehnat, kapital va tabiiy resurslar ishtirokida) yaratilgan yangi qiymat hisobidan shakllantiriladi. Ular davlatning mulkiga aylanadi hamda harbiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar uchun foydalaniladi.

Ishlab chiqarish munosabatlarining alohida sohasi (tarkibiy qismi) sifatida soliqlar qat'iy ichki xususiyatlari, rivojlanish qonuniyatlari va namoyon bo'lishning farqlanuvchi shakllariga ega bo'lgan o'ziga xos tarzda iqtisodiy kategoriyadir. Soliqlar milliy daromad qiymati bir

qismining umumdavlat ehtiyojlari foydasiga olinishi jarayonida namoyon bo'ladigan va real mavjud bo'lgan pul munosabatlarini ifodalaydi. Bu soliq munosabatlari moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida doimiy ravishda o'zgarishda bo'ladi.

Bir vaqtning o'zida soliqlar faqat iqtisodiy kategoriya bo'lib qolmasdan, balki moliyaviy kategoriya hamdir. Ular moliyaviy munosabatlarga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarni ifoda etadi, o'zining farqlanuvchi belgilari va xususiyatlariga, o'z harakat shakliga, ya'ni moliyaviy munosabatlarning barcha to'plamidan ajratib turadigan funksiyalariga ega.

Soliqlarning funksiyalari ularning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ichki mazmunini ochib beradi. Hozirgi sharoitda soliqlar ikki funktsiyani bajaradi:

- 1) Fiskal funksiya;
- 2) Tartibga solish (rag'batlantirish) funksiyasi.

Bu funksiyalarning har biri soliqlarning moliyaviy kategoriya sifatida alohida tomonlarini namoyon etadi.

Soliqlarning fiskal funksiyasi ularning asosiy funksiyasi bo'lib, bu barcha davlatlar uchun xarakterlidir. Bu funksiya yordamida davlat pul fondlari, ya'ni davlatning faoliyat ko'rsatishi uchun moddiy asos yaratiladi. Xuddi shu funksiyaning o'zi milliy daromad qiymatining bir qismini jamiyatning eng kam ta'minlangan ijtimoiy qatlamlari foydasiga qayta taqsimlash uchun real imkoniyatni vujudga keltiradi.

Jamiyat rivojlanishi iqtisodiy darajasining oshib borishiga muvofiq ravishda soliqlar fiskal funksiyasining ahamiyati ham o'sib boradi. Insoniyat taraqqiyotining XX asri va XXI asrining boshlari soliqlarni undirish hisobidan davlat daromadlarining juda katta o'sishi bilan xarakterlanadiki, bu narsa, o'z navbatida, davlat funksiyalarining kengayishi va hokimiyat tepasida bo'lgan ayrim ijtimoiy guruhlar tomonidan ma'lum bir siyosatning hayotga tatbiq etilishi bilan

bog'liqdir. Keyingi yillarda davlat iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlarga, mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va boshqaruv apparatini saqlashga katta miqdordagi moliyaviy mablag'larni sarflamoqda.

Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan so'ng dunyoning rivojlangan mamlakatlarida solikli daromadlar o'sishining yuqori sur'atlari xos bo'lib, bu narsa faqatgina iqtisodiyotning tiklanishi bilan emas, balki o'tgan asrning 60–70-yillarida G'arbning juda ko'p mamlakatlarida takror ishlab chiqarish sharoitlarining yomonlashuvi bilan ham izohlanadi. XX asr 80-yillarining o'rtalarida soliq tushumlari sekinlashdi va ularning milliy daromaddagi salmog'i barqarorlashdi. Ammo, shunday bo'lishiga qaramasdan, milliy daromadni qayta taqsimlashda davlat salmog'ining yuqoriligi hamon saqlanib qolmoqda.

Soliqlarning fiskal funksiyasi iqtisodiy munosabatlarga davlatning aralashuvi uchun obyektiv shart-sharoitni yaratadi, ya'ni u tartibga solish funksiyasini taqozo etadi.

Tartibga solish (rag'batlantirish) funksiyasi qayta taqsimlash jarayonlarining faol ishtirokchisi sifatida soliqlarning takror ishlab chiqarishga uning sur'atlarini rag'batlantirib yoki to'sqinlik qilib, kapitalning jamg'arilishini kuchaytirib yoki susaytirib, aholining to'lovga qobiliyatli talabini kengaytirib yoki qisqartirib keskin ta'sir ko'rsatishi mumkinligini anglatadi. Milliy daromadni mobilizatsiya qilishning soliq metodini davlat tomonidan kengaytirilishi orqali soliqlarning ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilari bilan doimiy ravishda to'qnash kelishiga sabab bo'lib, bu narsa unga mamlakat iqtisodiyotiga va takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlariga ta'sir ko'rsatish uchun real imkoniyat yaratadi.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi ishlab chiqarish jarayoniga davlatning aralashuvi uchun ehtiyojni vujudga keltiradi. Bu narsa solikli tartibga solishni (rag'batlantirishni) yangi pog'onaga ko'tardi. Daromadlarni soliqqa

tortishning kengayishi bilan korxonalarning foydasi va aholining daromadlari asosiy soliq obyektlariga, jismoniy va yuridik shaxslar esa, asosiy soliq subyektlariga aylanadi.

Soliqlar jami talab darajasi va uning tuzilmasiga ta'sir ko'rsatadi. Ular, bir vaqtning o'zida, talabning bozor mexanizmi orqali ishlab chiqarishning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi yoki uning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Soliqlarning miqdori (hajmi) mehnatga haq to'lashning darajasini aniqlashga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Chunki ular soliq to'lovlarining tarkibiga kiritiladi. Tadbirkorlar uchun ishlab chiqarish quvvatlarini realizatsiya qilish yoki ulardan foydalanish jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan mahsulotlar va xizmatlar bahosi bilan ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi nisbat ham soliqlarga bog'liq.

Byudjetlarning solikli daromadlar qismini tahlil qiladigan bo'lsak, ayni vaqtda yangi qabul qilingan Soliq kodeksiga muvofiq mamlakatimizda amalda bo'lgan soliq turlari 2020-yilda 12 tadan 9 tagacha kamaytirildi. Bular:

- 1) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 2) aksiz solig'i;
- 3) foyda solig'i;
- 4) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 5) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig'i;
- 8) yer solig'i;
- 9) ijtimoiy soliq.

Davlatning xo'jalik subyektlari faoliyatiga aralashuvi faqat qonun yo'li bilan, ya'ni soliqlar orqali bo'ladi. Soliqlarning vazifalari ham, xususan aholini ijtimoiy muhofaza qilish va ishlab chiqarishda,

sanoatda, qishloq xo'jaligida, savdo, xizmat ko'rsatish sohalarida bozor iqtisodiyoti infratuzilimsini tashkil qilish kiradi.

Soliqlar-ijtimoiy ishlab chiqarish, uning tarkibiy tuzilishiga va o'sish dinamikasiga, joylashishiga, ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga iqtisodiy ta'sir ko'rsatuvchi mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Soliqlar vositasida byudjet va iqtisodiyot tarmoqlarini, asosan, tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish yoki aksincha, cheklab qo'yish va iqtisodiyotning u yoki bu tarmog'i rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Soliqlar davlat mahalliy byudjetlar daromadlarining asosiy qismini tashkil etib, byudjetning xarajatlar qismi orqali iqtisodiyotga moliyaviy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

Soliqlar doimiy ravishda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishiga davlat tomonidan ta'sir o'tkazishining muhim vositasi sifatida qo'llaniladi, uning jamiyat hayotiga ta'sirining shakl va usullari o'zgarib boradi. Shunisi xarakterliki, O'zbekistonda soliqlarning milliy daromadni qayta taqsimlashdagi rolining yuqori ekanligi hamda bu holatning asosiy sabablari umumijtimoiy xarajatlarning va davlatning iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish roli ekanligi kuzatilmoqda. Endi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish tushumlarining alohida sohalar bo'yicha to'planish salmog'i ham oshib bormoqda. Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish turli soliqlarning alohida sohalar bo'yicha o'zgarish dinamikasini kuzatish, jumladan, yuridik va jismoniy shaxslar daromadiga soliqlarni tushishi, unda soliqlarni byudjet daromadlaridagi salmog'i yillar bo'yicha o'sish tendensiyasiga ega. Mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish bilan izohlanadi. Chunki asosiy e'tibor, jamiyat a'zolarining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga va xalq maorifi, tibbiy xizmat, madaniyat va sport kabi ijtimoiy

sohalarni o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirishga qaratilganligidan dalolat beradi.

8.5. Davlat byudjeti daromadlarining shakllanishida xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholidan undiriladigan daromadlarning tutgan o'rni

Oldingi savolimizda davlat byudjetining daromadlari mamlakat YalMni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonining asosiy elementlaridan biri ekanligini, ular yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan daromadlar va jamg'armalarning bir qismini byudjetga o'tkazilishi natijasida vujudga kelishini aytib o'tgan edik.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat o'zining barcha vazifalarini, turli ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larning asosiy qismini xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholidan undiriladigan daromadlar (asosan soliqlar) orqali shakllantiradi. Jumladan, soliqlar respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantiradi, davlat ijtimoiy dasturlari uchun moliyaviy negiz yaratadi, soliq to'lovchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini boshqaradi, ularning tabiiy resurslardan unumli foydalanishga bo'lgan intilishini rag'batlantiradi, narx belgilashga ta'sir ko'rsatadi, aholining turmush darajasini tartibga solib turadi.

Mamlakatimizda 2019-yilda ham aholi turmush darajasini yuksaltirish, ularga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, aholi real daromadlarini oshirish borasida muayyan vazifalar belgilab berilgan. Soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan byudjet-soliq siyosati soliq stavkalarini pasaytirish kabi chora-tadbirlar bilan ahamiyatlidir.

Bugungi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholidan undiriladigan soliqlar ularni undirish metodlari, to'lovchilarning tarkibi,

to'lash muddatlari va boshqa xususiyatlariga farqlanishlar bo'lishiga qaramasdan byudjet daromadlari o'zining yaxlitligi bilan farqlanmoqda.

Quyidagi jadvalda davlat byudjeti daromadlari ijrosi keltirib o'tilgan (8.5-jadval).

8.5-jadval

Davlat byudjeti daromadlari qismining ijrosi⁵⁸

foizda

Ko'rsatkichlar	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y. (prognoz)
Daromadlar-jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
1.To'g'ri soliqlar	23,4	24,1	24,0	23,3	19,8	28,4
Yuridik shaxslar foydasiga solinadigan soliq	3,5	3,2	2,9	2,9	4,4	15,5
2.Egri soliqlar	53,1	52,6	51,5	52,6	52,2	45,8
QQS	29,7	29,7	28,9	30,0	35,2	35,1
Aksizlar	15,6	15,4	15,2	15,0	12,3	8,8
3.Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	13,6	13,2	12,9	13,8	16,0	16,5
4.Boshqa daromadlar	9,9	10,1	11,6	7,5	10,1	9,2
5.Yuqori daromaddan olinadigan soliq				2,8	1,9	0,1

To'g'ri soliqlar bevosita soliq to'lovchilarning daromadidan to'langanligi uchun soliq stavkalarining pasaytirilishi ularning daromadini ko'p qismini o'zida qoldirib, investitsiya faolligini

⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma'lumotlari asosida tuzildi.

kengaytirish imkonini yaratadi, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi va aksincha, ushbu soliq stavkalarining oshirilishi soliq to'lovchilarning moliyaviy imkoniyatlari kamayishiga, xarid qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Demak, to'g'ri soliqlar iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir.

Jahon amaliyotida davlat byudjeti daromadlari tarkibida to'g'ri va egri soliqlarning nisbatiga qarab, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasiga baho beriladi. Rivojlangan davlatlar byudjeti tarkibida egri soliqlarniig salmog'i past darajada bo'lib, to'g'ri soliqlarning ulushi yuqori va aksincha, rivojlanayotgan davlatlarda byudjet daromadlari tarkibida egri soliqlar salmoqli qismini tashkil qiladi. Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan kelib chiqib, egri soliqlarning hozirgi vaqtda davlat byudjeti daromadlarining asosiy qismini shakllantirayotgan soliqlar sifatida etirof etish mumkin. Bu esa mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanish jarayonida ekanligini bildiradi.

Egri soliqlarning byudjet daromadlarining shakllantirishdagi ahamiyatini inobatga olib, uni tahlil etish va o'rganish muhimdir. Tahlil etilayotgan davrda egri soliqlarning davlat byudjeti daromadlaridagi hissassi yuqoriligini va tebranish xususiyatiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, 2014-yilda uning ulushi 53,1% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2016-yilda esa 51,5 %ni va 2019-yilda esa (prognoz) 45,8 % ni tashkil etgan.

Egri soliqlar mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarni chetga chiqib ketishini chegaralaydi, muomaladagi pul massasini jilovlab turadi, inflyasiyani oldini olishga yordam beradi. Biroq mehnat bilan band bo'lgan aholining real daromadini pasaytiradi.

Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i yer, mol-mulk, suv va boshqa tabiiy boyliklardan samarali foydalanishni taminlovchi amaliy

instrument bo'lgan holda bozor iqtisodiyoti sharoitida tabiiy resurslardan samarali foydalanish va kelajak avlod uchun ham imkoniyat yaratish borasida muhim ahamiyatga ega. Ushbu soliqlarning boshqa soliqlardan farqli jihati soliq to'lovchilarning faoliyat natijalariga bog'liq emas, yani u qayta tiklanmaydigan yer, suv va tabiiy zaxiralaridan foydalanganlik uchun o'ziga xos to'lovdir. Bunda asosiy etibor barcha soliq to'lovchilarga teng sharoitlar yaratish, tabiiy va suv boylıklariga nisbatan oqilona munosabatini rag'batlantirishga qaratilgandir. Ammo resurs to'lovlari va mol-mulk solig'ining Davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi so'nggi 3 yilda oshib, 2014–2019-yillarda uning salmog'i 13,6 va 16,5 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.

Davlat byudjeti daromadlari tarkibida boshqa daromadlar doimiy fiskal xususiyatga ega emas va ularning qat'iy belgilangan stavkasi ham yo'q. Boshqa daromadlar davlatning iqtisodiy faoliyati natijasida yuzaga keladi va ular tarkibiga qonun hujjatlarida belgilangan normativlar bo'yicha davlat moliyaviy va boshqa aktivlarini joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar, qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari, rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan byudjet ssudalarini qaytarish hisobiga berilgan to'lovlar, davlat bojlari kiradi. Shuningdek, ushbu toifaga mansub daromadlar qatoriga fuqarolik-huquqiy, ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralarining qo'llanilishi natijasida olingan mablag'lar, shu jumladan jarimalar, musodara qilingan mol-mulk, tovon puli va majburiy tartibda olib qo'yilgan boshqa mablag'lar ham kiradi.

Tayanch so'z va iboralar: *Byudjet daromadlari, ichki va tashqi manbalar, soliqlar, soliqsiz to'lovlar, bevosita va bilvosita soliqlar, bojxona boji, davlat boji.*

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Byudjet daromadlari nima?
2. Byudjet daromadlarining shakllanishida soliqlarning ahamiyati qanday?
3. Byudjet daromadlari yuridik nuqtai-nazardan qanday guruhlarga ajratiladi?
4. Byudjet daromadlari manbalariga ko'ra qanday turlarga ajratiladi?
5. O'zining ijtimoiy-iqtisodiy belgisiga ko'ra byudjet daromadlarining turlarini aytib o'ting.
6. Byudjet daromadlari tarkibida tushumlarning o'rmini aytib o'ting.
7. Bevosita soliqlarning iqtisodiy mohiyati nimadan iborat?
8. Bilvosita soliqlarning o'ziga xos xususiyati nimada?
9. Mahalliy soliqlar nima?
10. Xo'jalik yurituvchi subyektlardan undiriladigan qanday soliqlarni bilasiz?
11. Byudjet daromadlari tarkibida soliqlarning ulushi qancha?

IX BOB. DAVLAT BYUDJETI XARAJATLARI TIZIMI

9.1. Davlat byudjeti xarajatlarining davlatning funksiyalari bilan bog'liqligi. Byudjet xarajatlarining iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmun-mohiyati

Davlat byudjetiga ta'rif berganimizda unga davlat o'z funksiya va vazifalarini bajarishi uchun ahamiyati nuqtai nazaridan yondashgan edik. Shu sababli dastlab davlatning funksiyalariga to'xtalib o'tamiz.

Davlat funksiyalari davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'lib, uning ijtimoiy-siyosiy mohiyati, mazmuni, asosiy maqsadlari va vazifalari, jamiyatdagi o'rni va ahamiyati bilan belgilanadi.

Davlat faoliyatining yo'nalishlariga qarab davlatning ichki va tashqi funksiyalari farqlanadi. Davlatning ichki funksiyalariga odatda quyidagilar kiradi: jamoat tartibini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini qo'riqlash funksiyasi, iqtisodiy funksiya, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va aholining farovonligini ta'minlash funksiyasi, madaniy-tarbiyaviy funksiya va b. Davlatning tashqi funksiyalari quyidagilardir: mudofaa funksiyasi, xalqaro hamkorlikni ta'minlash funksiyasi, shuningdek tinchlik va osoyishtalikni saqlash funksiyasi.


Faoliyat sohalariga qarab davlatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ijtimoiy va boshqa funksiyalari farqlanadi. Davlatning huquq ijodkorligi, huquqni qo'llash, nazorat va huquqni muhofaza qilish faoliyati davlat funksiyalarini amalga oshirishning asosiy shakllaridir⁵⁹.

Aynan davlatning o'z funksiyalari hamda vazifalarini bajarishi bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan chiqimlarga byudjet xarajatlari deyiladi. Bu chiqimlar davlatning markazlashtirilgan pul fondlari mablag'larini turli yo'nalishlar bo'yicha foydalanish jarayonida vujudga

⁵⁹ Konstitutsiyaviy huquq. Ensiklopedik lug'at. Mas'ul muharrir va mualliflar jamoasining rahbari B. Mustafoyev - Toshkent: «O'zbekiston nashriyoti», 2006-yil. - 584 bet.

keladigan iqtisodiy munosabatlarini ifodalaydi. Byudjet xarajatlari davlatning funksiyalari turlariga muvofiq ravishda guruhlanib, shakllantirilgan markazlashtirilgan pul fondi mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Byudjet xarajatlari umumiy moliyaviy kategoriya sifatida byudjetning ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, unga tegishli bo‘lgan umumiy xususiyatlar, ya‘ni ular taqsimlash xarakteriga ega, ifodalanishning pul shakli xos, pul fondlarining amal qilishi bilan bog‘langan va davlat tomonidan tashkil qilinadi. Shu bilan bir paytda byudjet xarajatlari bir butunning o‘ziga xos qismi bo‘lganligi uchun ular davlatning markazlashtirilgan pul fondlari mablag‘laridan foydalanish va tegishli fondlarni shakllantirish bilan bog‘liqdir. Bu taqsimlash munosabatlarining moddiy-buyumlashgan shakli turli sohalarga yo‘naltirilayotgan byudjet mablag‘larining harakatidan iborat.



9.1-chizma. Byudjet xarajatlarining turli xil bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar

Byudjet xarajatlarining iqtisodiy mohiyati uning turli-tuman ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. Xarajatlarning har bir turi esa o‘zining

miqdor va sifat xarakteriga ega. Xarajatlarning sifat xakteri voqelikning iqtisodiy tabiatini ifodalab, byudjet xarajatlarining mo'ljallanganligini ko'rsatsa, miqdor xakteri esa ularning o'lchamini o'zida namoyon etadi.

Byudjet xarajatlari turli xilligi bilan ajralib turadi va bu esa, o'z navbatida, quyidagi omillarga bog'liq (9.1-chizma):

Bu omillarning qo'shilishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida har qanday davlat byudjet xarajatlarining ma'lum bir tizimini vujudga keltiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjetning xarajatlari uning daromadlari bilan uzviy bog'langandir. Bunday o'zaro bog'liqlik xarajatlarning miqdoriy jihatdan daromadlarga muvofiq kelishi va ularning bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatishi orqali ifodalanadi. Bir tomondan, aksariyat hollarda, byudjet xarajatlarining hajmi byudjet daromadlarining hajmi bilan cheklanadi. O'z navbatida, byudjet daromadlarining hajmi esa davlatning iqtisodiy imkoniyatlari bilan aniqlanadi. Shuning uchun ham bu yerda byudjet xarajatlarining shunday hajmini va milliy xo'jalikda pul fondlarini shakllantirishda byudjet mablag'laridan foydalanishning shunday muddatlarini o'rnatish kerakki, ular minimal xarajatlar qilib maksimal samaraga erishish orqali davlat oldidagi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlasin. Boshqa tomondan esa, ishlab chiqarishning o'sishiga ijobiy ta'sir qilish, ilmiy-texnika taraqqiyotini tezlashtirish va milliy xo'jalikdagi proporsiyalarni optimallashtirish orqali byudjetning xarajatlari uning daromadlari darajasining ortishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Byudjet xarajatlari hajmining yildan-yilga ortib borishi ularni milliy xo'jalikning samaradorligi nuqtai-nazaridan baholashni juda dolzarb muammoga aylantirib qo'yadi. Bunda milliy xo'jalikning yakuniy natijasini baholab, faqat unga tegishli bo'lgan daromadlarning

qo'shimcha ravishda o'sganligiga e'tibor berish bilan cheklanish maqsadga muvofiq emas. Bu yerda, bir vaqtning o'zida, jamiyatning ijtimoiy taraqqiyot darajasi, ijtimoiy muammolarning qay darajada hal etilganligi ham nazardan chetda qolmasligi kerak. Albatta, milliy xo'jalikning yakuniy natijasi byudjet xarajatlarining umumiy hajmiga, ularning tarkibiy tuzilishiga, byudjet mablag'laridan to'g'ri, iqtisod qilib va samarali foydalanishga bevosita bog'liq. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda byudjet xarajatlarining ilmiy asoslangan holda rejalashtirilishiga, byudjet assignovaniyalaridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratning butun tizimiga alohida e'tibor berish lozim.

9.2. Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlanishi: joriy va kapital xarajatlar

Mamlakat moliya tizimi va jamiyatning iqtisodiy hayotida byudjet xarajatlarining roli hamda ahamiyatini aniqlash uchun ularni ma'lum belgilarga ko'ra turlarga ajratish lozim. Nazariya va amaliyotda byudjet xarajatlarini turlarga ajratishning bir necha belgilari mavjud. Ular o'zlarining iqtisodiy mazmuni, funktsionalligi, ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli, ishlab chiqarish tarmoqlari va faoliyat turlari yoki idoraviy bo'linishi, ijtimoiy mo'ljallanganligi bo'yicha hududiy turkumlanishi, ma'lum maqsadlari va yuridik nuqtai-nazardan yoki davlat boshqaruvi darajasiga ko'ra alohida guruhlarga ajratilishi mumkin.

Eng avvalo, o'zining iqtisodiy mazmuniga ko'ra byudjet xarajatlari kapital va joriy xarajatlarga bo'linadi. Bu xarajatlar kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoniga ularning qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ifoda etadi.

Byudjetning kapital xarajatlari innovatsion va investitsion faoliyatga yo'naltirilgan xarajatlardir. Bu xarajatlarning tarkibiga:

–tasdiqlangan investitsion dasturga muvofiq harakatdagi yoki yangidan tashkil etilayotgan yuridik shaxslarga investitsiyalar uchun mo'ljallangan xarajatlar;

–yuridik shaxslarga investitsion maqsadlar uchun byudjet kreditlari sifatida beriladigan mablag'lar;

–kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan kapital ta'mirlashni amalga oshirish xarajatlari va shu bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar;

–amalga oshirilishi davlat mulkiga tegishli bo'lgan mulkni oshirish yoki uni yangidan yaratishga olib keladigan xarajatlar;

–byudjet xarajatlarining iqtisodiy turkumlanishiga muvofiq byudjetning kapital xarajatlari tarkibiga kiritiladigan boshqa xarajatlar kiradi.

2020-yil uchun respublika byudjetidan ajratiladigan joriy va kapital xarajatlar miqdori 9.1-jadvalda keltirilgan.

9.1-jadval

**2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining respublika
byudjetidan moliyalashtiriladigan joriy va kapital xarajatlar
miqdori**

<i>mln so'm</i>		
T/r	Ko'rsatkichlar	Summa
	Respublika byudjetidan ajratiladigan mablag'lar, Jami	100 830 566,4
	<i>shu jumladan:</i>	
1	joriy xarajatlar	74 026 964,6
2	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	12 441 609,1
3	davlat maqsadli jamg'armalariga transfertlar	9 248 082,8
4	O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi transfertlar	5 113 909,9

Davlat hokimiyat organlari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, byudjet tashkilotlarining joriy faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan byudjet xarajatlari, boshqa byudjetlar va iqtisodiyot alohida tarmoqlariga dotatsiya, subsidiya va subvensiya shaklida ko'rsatiladigan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar va byudjet xarajatlarining turkumlanishiga muvofiq kapital xarajatlarning tarkibiga kiritilmagan boshqa xarajatlar byudjetning joriy xarajatlari deyiladi.

Byudjetning joriy xarajatlari tarkibi quyidagilardan iborat:

- davlat iste'moli xarajatlari (iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmani, milliy xo'jalikning davlat darموqlarini saqlash, fuqarolik va harbiy xarakterdagi tovarlar va xizmatlarni sotib olish, davlat muassasalarining joriy xarajatlari);

- hokimiyatning quyi organlari, davlat korxonalari va xususiy korxonalarga joriy subsidiyalar;

- transfert to'lovlari;

- davlat qarzlar bo'yicha foizlarni to'lash va boshqa xarajatlar.

Bu xarajatlar oddiy byudjetda yoki joriy xarajatlar va daromadlar byudjetida aks etgan chiqimlarga mos keladi.

Takror ishlab chiqarishdagi roliga ko'ra, byudjet xarajatlari milliy iqtisodiyotga qilinadigan xarajatlar va ijtimoiy soha hamda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlariga bo'linadi. Bu xarajatlarga, eng avvalo, davlat korxonalari va davlat ulushi bor bo'lgan korxonalarining ustav kapitalini shakllantirish, ularni yanada kengaytirish va rivojlantirish, davlat moddiy zaxiralarini yaratish xarajatlari kiradi. Byudjetning ijtimoiy soha hamda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari ham ijtimoiy jihatdan zarur bo'lgan xarajatlardir. Bu xarajatlar iste'mol fondlarini shakllantirish bilan bog'liq. Ularning bir qismi jamiyat a'zolarining individual ehtiyojlarini, boshqa bir qismi esa butun jamiyatning ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan. Bu yerda

byudjet xarajatlari ijtimoiy iste'mol fondlari (mamlakatning mudofaa fondi, ilmiy tadqiqotlar fondi va boshqalarni) shakllantirishni to'liq, shaxsiy iste'mol fondlarini esa qisman (nomarkazlashtirilgan moliyaviy resurslar bilan birgalikda) ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda, byudjet mablag'larining katta qismi shaxsiy iste'mol fondlarining ijtimoiy iste'mol fondlariga (maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot, aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar bahosi o'rtasidagi farqlarni qoplash, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar fondlari va boshqalar) tegishli bo'lgan qismini shakllantirishda keng foydalaniladi.

9.3. Davlat byudjeti xarajatlarining funksional tayinlanishiga ko'ra guruhlanishi

Davlat byudjeti xarajatlarining funksional jihatdan turlarga ajratilishi ijtimoiy faoliyat sohalariga pul mablag'larining yo'naltirilganligini o'zida namoyon etadi. Bunda byudjet xarajatlari quyidagi yirik guruhlariga bo'linishi mumkin:

- davlat boshqaruvi va mahalliy o'z-o'zini boshqarish;
- sud hokimiyati;
- xalqaro faoliyat;
- milliy mudofaa;
- huquqni muhofaza qilish va davlat xavfsizligini ta'minlash;
- fundamental tadqiqotlar va ilmiy-texnika taraqqiyotini ta'minlash;
- sanoat, energetika va qurilish;
- qishloq xo'jaligi va baliqchilik;
- atrof-muhitni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish, gidrometeorologiya, xaritashunoslik va geodeziya;
- transport, yo'l xo'jaligi, aloqa va informatika;
- uy-joy kommunal xo'jaligi;
- maorif;

- sogʻliqni saqlash va jismoniy tarbiya;
- madaniyat, sanʼat va kinematografiya;
- ommaviy axborot vositalari;
- davlat qarzigʻa xizmat qilish;
- boshqa darajadagi byudjetlarga moliyaviy yordam;
- maqsadli byudjet fondlari;
- davlat zaxiralari va rezervlarini toʻldirish;
- ijtimoiy siyosat va boshqa xarajatlar.

Byudjet xarajatlarining yuqoridagi tartibda tasniflanishi ijtimoiy hayotning turli jabhalarida davlatning rolini koʻrsatadi.

Byudjet xarajatlarining tarmoq belgisi boʻyicha guruhlariga ajratishning asosiga milliy iqtisodiyotning umumeʼtirof etilgan tarmoqlarga boʻlinishi qabul qilingan. Shunga muvofiq ravishda byudjet xarajatlari sanoat, qishloq xoʻjaligi, qurilish, transport, aloqa, maorif, sogʻliqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy sugʻurta va ijtimoiy taʼminot, davlat boshqaruvi, mudofaa va h. k. xarajatlariga boʻlinishi mumkin. Byudjet xarajatlari milliy iqtisodiyot tarmoqlarining pul fondlarini shakllantirishda mustahkam moliyaviy asosni yaratish bilan birgalikda, xarajatlarning tarmoqlararo boʻlinishi moliyaviy resurslarni taqsimlashdagi nisbatlarni aniqlashga ham imkon beradi, milliy xoʻjalikning tarmoq tarkibiy tuzilishini kerakli yoʻnalishda oʻzgartiradi. Masalan, hozirgi paytda mamlakatimizda yaratilgan milliy daromadning hajmi byudjet mablagʻlarining katta qismini ijtimoiy soha va aholini bevosita ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashga yoʻnaltirish imkonini bermogʻda (2019-yilda jami byudjet xarajatlarining 54,2 foizi). Bir vaqtning oʻzida iqtisodiyot ustuvor tarmoqlarining (mashinasozlik, qishloq xoʻjaligi, elektroenergetika va boshqalar) katta masshtablarda byudjetdan moliyalashtirilishi ham taʼminlamoqda.

Idoraviy belgisiga koʻra, byudjet xarajatlarining tasniflanishi byudjet ajratmalarini oluvchi vazirlik, boshqa davlat muassasasi yoki

yuridik shaxsning ajratib olinishiga imkon beradi. Byudjet xarajatlarining ana shunday tasniflanishi natijasida boshqaruv tizimining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar tuzilmasidagi o'zgarishlar o'z vaqtida ko'rsatiladi. 2020-yil uchun tasdiqlangan byudjet xarajatlari tarkibida byudjetning oshkoraligini ta'minlash maqsadida respublika byudjetidan har bir vazirlik, idora va davlat qo'mitasi bo'yicha byudjet xarajatlarining alohida tasdiqlanganligini ko'rishimiz mumkin (9.2-jadval).

9.2-jadval

**2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining respublika
byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag'larini
taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan
miqdorlari⁶⁰**

mln so'm

T/ r	Ko'rsatkichlar	Summa
	Respublika byudjetidan ajratiladigan mablag'lar, Jami	100 830 566,4
1	O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi	18 616 652,2
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	17 267 180,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	1 283 265,9
	Respublika maqsadli kitob jamg'armasiga transfertlar	66 206,3
2	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi	5 178 570,5
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	3 667 720,5

⁶⁰ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-589-son qonuni. 5-ilova.

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	1 510 850,0
3	O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	3 314 709,3
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 869 049,3
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	445 660,0
4	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi	3 070 202,4
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 923 830,5
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	1 146 371,9
5	O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi	746 516,2
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	569 908,7
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	176 607,5
6	O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi	893 535,9
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	438 126,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	455 409,9
7	O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi	604 557,8
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	584 557,8
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	20 000,0

8	O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi	1 457 430,6
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	98 443,3
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	1 358 987,3
9	O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi	535 749,6
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	393 854,3
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	21 895,3
	Uzum yetishtiruvchilar va vino tayyorlovchilarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga transfertlar	40 000,0
	Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasiga transfertlar	80 000,0
10	O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi	2 682 003,5
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 702 170,5
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	979 833,0
11	O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi	41 059,5
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	41 059,5
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
12	O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi	2 668 331,5
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	682 483,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	1 985 848,5

13	O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi	19 916,2
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	7 096,8
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	12 819,4
14	O'zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi	2 284 205,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 284 205,0
	shundan:	
	geologiya qidiruv ishlariga subsidiyalar	1 500 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
15	O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya davlat kadastri bo'yicha davlat qo'mitasi	98 113,8
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	95 630,8
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	2 483,0
16	O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi	235 138,6
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	215 138,6
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	20 000,0
17	O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi	14 432,1
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	14 432,1
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	

	qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
18	O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi	42 188,9
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	41 118,9
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	1 070,0
19	O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi	188 245,1
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	168 941,3
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	19 303,8
20	O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi	9 446,2
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	9 446,2
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
21	O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi	16 367,1
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	16 367,1
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
22	O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi	3 478,7
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	3 478,7
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
23	O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	8 422,0

	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	8 422,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
24	O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi	408 182,6
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	8 182,6
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
	Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga transfertlar	150 000,0
	Jamoat ishlari jamg'armasiga transfertlar	250 000,0
25	O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi	151 260,1
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	151 260,1
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
26	O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi	98 551,8
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	5 953,3
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	92 598,5
27	O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi	421 426,5
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	277 426,5
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	144 000,0
28	O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi	65 590,4
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	65 590,4
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	

	qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
29	O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	95 034,9
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	95 034,9
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
30	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi	130 378,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	130 378,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
31	O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi	224 590,6
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	74 590,6
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
	Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasiga transfertlar	150 000,0
32	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi	27 588 744,1
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	13 260 189,3
	<i>shu jumladan:</i>	
	ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorlarini va ayrim xizmatlarning tariflarini oshirish bilan bog'liq xarajatlar	3 214 078,3
	byudjet tashkilotlarining xodimlariga homiladorlik va tug'ish nafaqalarini to'lash bilan bog'liq xarajatlar	331 097,3
	byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'yicha ijtimoiy xarajatlar	3 429 223,3
	davlat qarziga xizmat ko'rsatishning foiz xarajatlari	2 145

	117,8
uy-joy qurish dasturlarini moliyalashtirish	1 905 000,0
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlariga muvofiq hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha xarajatlar	1 400 000,0
issiqlik va ichimlik suv ta'minoti xizmatlari uchun aholiga nol darajali stavkani qo'llash natijasida hosil bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha summasini qaytarish	264 159,1
fermer xo'jaliklari tomonidan iste'mol qilinadigan elektr energiyasi qiymatini qoplash uchun subsidiyalar	444 595,0
advokatlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatilganligi uchun haq to'lash xarajatlari	21 982,4
bolali oilalarga nafaqa, bolani parvarish qilish nafaqasi va moddiy yordam to'lash bo'yicha Xalq banki bo'linmalari (filiallari) xizmatlariga haq to'lash xarajatlari	12 292,2
Moliya vazirligi va uning tuzilmasidagi tashkilotlarning joriy xarajatlari va boshqalar	92 643,9
obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	1 214 644,9
<i>shu jumladan:</i>	
investitsiya dasturlarining taqsimlanmagan mablag'lari	206 218,9
"Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari xarajatlari	500 000,0
Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish dasturi	303 426,0
xalqaro moliyaviy institutlar ishtirokida amalga oshiriladigan loyihalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining ulushi	205 000,0
byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga transfertlar	8 000 000,0
O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va	5 113 909,9

	Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi transfertlar	
33	O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi	1 038 509,6
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 038 509,6
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
34	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi	1 480 696,8
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 245 820,3
	shundan, Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasi	731 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	43 000,0
	"El-yurt umidi" jamg'armasiga transfertlar	57 074,9
	davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo'yicha markazlashtirilgan jamg'armasiga transfertlar	134 801,6
35	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi	742 577,9
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	612 577,9
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	130 000,0
36	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati	20 962,8
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	20 962,8
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
37	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik	115 155,8

	palatasi	
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	115 155,8
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
38	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)	3 943,6
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	3 943,6
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
39	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi	734 184,7
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	688 184,7
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	46 000,0
40	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi	448 920,4
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	384 920,4
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	64 000,0
41	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi	3 766,4
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	3 766,4
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
42	O'zbekiston Respublikasi Sudyalari Oliy kengashi	18 709,7
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	18 709,7
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
43	O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi	4 315,0
	<i>shu jumladan:</i>	

	joriy xarajatlar	4 315,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
44	O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi	420 216,5
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	395 316,5
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	24 900,0
45	O'zbekiston Milliy axborot agentligi	11 695,7
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	11 695,7
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
46	«O'zarxiv» agentligi	8 627,9
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	8 627,9
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
47	O'zbekiston Respublikasi Innovatsion sog'liqni saqlash milliy palatasi	2 437,9
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 437,9
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
48	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi	9 669,1
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	9 669,1
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
49	Gidrometeorologiya xizmati markazi	73 862,7
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	63 274,1
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	10 588,6

	qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
50	Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi	7 530,2
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	7 530,2
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
51	«Nuroni» Uzbekiston faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash jamg'armasi	1 743,4
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 743,4
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
52	O'zbekiston yoshlar ittifoqi	372 052,5
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	172 052,5
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
	«Yoshlar — kelajagimiz» jamg'armasiga transfertlar	200 000,0
53	O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi	121 518,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 518,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
	Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondiga transfertlar	120 000,0
54	O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi	120 000,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	120 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
55	O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi	218 352,6
	<i>shu jumladan:</i>	

	joriy xarajatlar	187 446,9
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	30 905,7
56	Boshqa tashkilotlar	22 938 085,5
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	21 737 519,6
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	1 200 565,9

Byudjet xarajatlarining hududiy belgisiga ko'ra ham turlarga ajratish mumkin. Bu esa xarajatlar markazlashuvining turli darajalarini o'zida aks ettiradi. Shu munosabat bilan, davlat boshqaruvi darajasi va yuridik nuqtai-nazardan byudjet xarajatlari uch guruhga kiruvchi xarajatlardan tarkib topadi:

- Davlat byudjeti xarajatlari;
- Respublika byudjeti xarajatlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning xarajatlari.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 5-bo'lim (Byudjet tizimi byudjetlarining xarajatlari) 13-bobi (Davlat byudjeti xarajatlari)da keltirilgan moddalarda davlat byudjeti, respublika va mahalliy byudjetning xarajat qismi keltirilgan. Unga asosan davlat byudjeti xarajatlari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
- nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
- iqtisodiyot xarajatlari;
- markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;

–davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari;

–sudlarni saqlab turish xarajatlari;

–fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;

–boshqa xarajatlar.

Davlat byudjetining xarajat qismi tarkibida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining tumanlar va shaharlar byudjetlarining zaxira jamg'armalari hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan:

– maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim, kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash muassasalari, bolalar uylari, ta'lim muassasalarini axborot-uslubiy jihatdan ta'minlash muassasalari, vazirliklar va idoralar tasarrufidagi ta'lim muassasalari, boshqa yordamchi muassasalarni saqlab turish, shuningdek, qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta'lim tizimi tadbirlarining xarajatlari;

– respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi, OITSga qarshi kurashish respublika markazi, Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati, karantin va o'ta xavfli infeksiyalar profilaktikasi, ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlarining klinikalari, qon quyish xizmati va sud-tibbiyot ekspertizasi respublika muassasalari, respublika vazirliklari va idoralari tasarrufidagi boshqa davolash-profilaktika

muassasalari hamda yordamchi tashkilotlarni saqlab turish, shuningdek, qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan xizmatlar haqini to'lash xarajatlari;

- qonun hujjatlariga muvofiq ayrim toifadagi fuqarolarga tibbiy xizmatlar ko'rsatilganligi uchun respublika ixtisoslashtirilgan markazlari xarajatlarining o'rnini qoplash (subsidiyalar);

- qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog'lig'ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;

- respublika vazirliklari va idoralari tasarrufidagi madaniyat, jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, tele- va radiodasturlar yaratish hamda ularni tarqatishga doir xizmatlar ta'minoti va ularga haq to'lash, hukumatning alohida qarorlariga ko'ra ommaviy axborot vositalarini saqlab turish, kino- va videomahsulotlar yaratish, madaniy meros obyektlarida restavratsiya ishlarini bajarish, tasdiqlangan kalendar rejalarga muvofiq madaniyat va sportni rivojlantirish bo'yicha qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan maqsadli tadbirlar xarajatlari;

- fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsiya ishlarining davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida grantlar bo'yicha amalga oshiriladigan ilmiy-texnik loyihalar, noyob ilmiy obyektlarni va fanga xizmat ko'rsatuvchi muassasalarni saqlab turish, ilmiy loyihalar ekspertizasini o'tkazish hamda qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti hisobidan amalga oshiriladigan fanga doir alohida tadbirlar xarajatlari;

- davlat arxivlarini saqlab turish xarajatlari;

- respublika vazirliklari va idoralari tasarrufidagi urush hamda mehnat faxriylari uchun pansionatlar va sanatoriylarni, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalarini saqlab turish, shuningdek, qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan

moliyalashtirilishi nazarda tutilgan, aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

- davlat mukofotlari, davlat pul mukofotlari bilan taqdirlanganligi munosabati bilan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofotlari va mukofotlarini to'lash xarajatlari;

- bolalikdan nogironlarga va bola tug'ilganda beriladigan nafaqalarni, qonun hujjatlarida ayrim toifadagi shaxslarga belgilangan kompensatsiyalarni to'lash uchun vakolatli organga mablag'lar ajratish xarajatlari;

- Chernobil AES halokati oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslarni va radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ayrim toifadagi shaxslarga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va kompensatsiyalarni to'lash xarajatlari jamoat ishlarini moliyalashtirish;

2) davlat grantlari, subsidiyalar va ijtimoiy buyurtma shaklida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

3) iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:

- agrosanoat majmui va oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanishi sohasidagi respublika nazorat organlarining xarajatlari, suv va o'rmon xo'jaligi xarajatlari, qishloq xo'jaligi ekinlari zararkunandalariga qarshi kurashish muassasalarining xizmatlariga va ularni saqlab turishga haq to'lash xarajatlari;

- hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

- qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan to'lanadigan yagona yer solig'i bo'yicha tushumlarga muvofiq byudjetdan ajratiladigan mablag'lar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ

holatini yaxshilash jamg'armasining har yili tasdiqlanadigan asosiy parametrlari doirasida byudjetdan ajratiladigan maqsadli mablag'lar;

– qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan standartlashtirish va sertifikatlashtirish, topografiya-geodeziya, kartografiya va kadastr, shuningdek geologiya qidiruv ishlari, davlat shaharsozlik kadastrini yuritish xarajatlari, chegaradosh davlatlarga haq evaziga yerdan foydalanish to'lovi, gidrometeorologiya xizmati muassasalarini saqlab turish xarajatlari;

– atrof muhit va landshaftning muhofaza qilinishini, biologik xilmaxillikning himoya qilinishini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar;

– "Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish" jamg'armasi orqali ichimlik suvi bilan ta'minlash tizimini rivojlantirish bilan bog'liq xarajatlar.

4) respublika vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari buyurtmachi bo'lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;

5) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari, shu jumladan:

–O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarini;

–O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasini;

–O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini;

–O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini;

–O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini;

– O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) kotibiyatini;

– qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti mablag'laridan saqlab turilishi nazarda tutilgan davlat boshqaruvi organlarini;

- O'zbekiston Respublikasining chet ellardagi muassasalarini saqlab turish xarajatlari;

- adliya va prokuratura organlarini.

- 6) sudlarni saqlab turish xarajatlari;

- 7) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasini shakllantirish xarajatlari;

- 8) boshqa xarajatlar:

- siyosiy partiyalarga ularning ustavida belgilangan faoliyatini moliyalashtirish uchun ajratiladigan mablag'lar;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qo'shilgan qiymat solig'ining o'rnini qoplash;

- O'zbekiston Respublikasi ishtirokchi bo'lgan xalqaro tashkilotlarga a'zolik badallarini to'lash va ularni moliyalashtirishda ishtirok etish xarajatlari;

- davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish va O'zbekiston Respublikasining kafolatlangan majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq xarajatlar;

- davlat buyurtmasi bo'yicha statistika ishlariga haq to'lash;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining saylovlar va referendumlarga tayyorgarlik ko'rish hamda ularni o'tkazish bo'yicha xarajatlari, shu jumladan okrug va uchastka saylov komissiyalarini, siyosiy partiyalarni moliyalashtirish;

- xo'jalik jamiyatlaridagi davlat ulushini boshqarish bo'yicha davlat ishonchli vakillarining xizmatlariga haq to'lash;

- davlat zaxiralari va strategik zaxiralarni vujudga keltirish, saqlab va yangilab turish bilan bog'liq xarajatlar;

- mudofaaga, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashga, bojxona organlariga ajratiladigan mablag'lar, shu jumladan harbiy xizmatni, ichki ishlar organlarida, bojxona organlarida xizmatni o'tagan shaxslar hamda ularning oilalariga pensiyalar va nafaqalar uchun xarajatlar,

shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq faoliyati O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan muassasalar, tashkilotlar va idoralarga ajratiladigan mablag'lar;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa xarajatlar.
- O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan:
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar dotatsiyalar va maqsadli ijtimoiy transfertlar;
- davlat maqsadli jamg'armalariga byudjet ssudalari va dotatsiyalar;
- yuridik shaxslarga byudjet ssudalari va kredit liniyalari hamda chet davlatlarga kreditlar belgilangan tartibda ajratilishi mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan:

- umumiy o'rta ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim, pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, boshqa yordamchi va uslubiy ta'lim muassasalarini saqlab turish xarajatlari;

- bolalar uylari, davlat bolalar shaharchalarini saqlab turish, qonun hujjatlarida Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta'lim tizimidagi yordamchi xizmatlar va maqsadli tadbirlar xarajatlari;

- Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi filialini, ko'p tarmoqli va ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarini, ixtisoslashtirilgan kasalxonalar va dispanserlarni, tug'ruqxonalar va akusherlik majmualarini, tibbiy tashxis qo'yish va davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlarini, qon quyish xizmati va sud-tibbiyot ekspertizasi

muassasalarini, Salomatlik va tibbiyot statistikasi instituti filialini, hududiy sog'liqni saqlashni boshqarish organlari tasarrufidagi boshqa davolash-profilaktika muassasalari va yordamchi tashkilotlarni, tibbiy-mehnat ekspert komissiyalarini saqlab turish, shuningdek qonun hujjatlarida Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan xizmatlarga haq to'lash xarajatlari;

- qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog'lig'ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;

- hududiy madaniyat, jismoniy tarbiya va sportni boshqarish organlari tasarrufidagi madaniyat, jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, shuningdek, madaniyat va sportni rivojlantirishga doir maqsadli tadbirlarni amalga oshirish xarajatlari;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tasarrufidagi arxivlarni saqlab turish xarajatlari;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tasarrufidagi qariyalar va nogironlarning internat-uyllari, pansionatlari va sanatoriylari, nogironlarni reabilitatsiya qilish markazlarini, boshqa muassasalarni saqlab turish xarajatlari, shuningdek, aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

- shahar yo'lovchilar transporti tashuvchilarining yo'lovchilarni va bagajni cheklangan tariflar bo'yicha tashish, shuningdek alohida toifadagi fuqarolarni imtiyozli tashish xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq zararlarning o'rnini qoplash xarajatlari;

- kam ta'minlangan oilalarga to'lanadigan ijtimoiy nafaqalar, moddiy yordam hamda tabiiy ofatlardan jabrlangan oilalarga moddiy yordam.

2) iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:

– qishloq xo‘jaligi tashkilotlarini saqlab turish, shu jumladan hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashuvchi muassasalar xizmatlariga haq to‘lash, yerlarni rekultivatsiya qilish ishlarini bajarish, shuningdek suv xo‘jaligi tashkilotlarini saqlab turish;

– uy-joy-kommunal xo‘jaligi obyektlarida ta‘mirlash ishlarini olib borish;

– suv yo‘llarining ayrim texnik uchastkalarini saqlab turish;

– aholi punktlarini obodonlashtirish;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o‘rmon xo‘jaligini, o‘simliklar karantinini saqlab turish xarajatlari;

3) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari buyurtmachi bo‘lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;

4) mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, shu jumladan:

–Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesini;

–Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari va idoralari, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, ularning boshqarmalari va bo‘limlarini hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi-ning respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan davlat boshqaruvi organlarining boshqa hududiy bo‘linmalarini saqlab turish xarajatlari;

5) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg‘armalarini shakllantirish xarajatlari;

6) davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash xarajatlari;

6) harbiy-ma'muriy sektorga yuklatilgan tadbirlarni va vazifalarni amalga oshirish va hal qilish xarajatlari.

7) Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari.

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga byudjet ssudalari, dotatsiyalar, subvensiyalar o'tkazib beriladigan daromadlar va maqsadli ijtimoiy transfertlar ajratilishi mumkin.

Tumanlar va shaharlar byudjetlaridan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan:

- tumanlar (shaharlar) xalq ta'limi bo'limlari va maktabgacha ta'lim bo'limlarini, shuningdek ular tasarrufidagi maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini saqlab turish hamda qonun hujjatlarida tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta'lim tizimidagi tadbirlar xarajatlari;

- tuman tibbiyot birlashmalari, tuman markaziy poliklinikalari va koykasiz dispanserlar, tumanlar (shaharlar) tibbiyot birlashmalari tasarrufidagi davolash-profilaktika muassasalari, oilaviy poliklinikalar, qishloq vrachlik punktlarini saqlab turish xarajatlari;

- qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog'lig'ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;

- tumanlar (shaharlar) madaniyat bo‘limlari tasarrufidagi madaniyat muassasalarini, tumanlar (shaharlar) jismoniy tarbiya va sport bo‘limlari tasarrufidagi jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, shuningdek, madaniyatni, jismoniy tarbiya va sportni, bolalar musiqa va san’at maktablarini rivojlantirishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

- uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish, Chernobil AES halokati oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslarni va radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o‘tagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari;

2) iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:

- tumanlar va shaharlar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limlari, laboratoriyalarni, irrigatsiya tizimlarining havza boshqarmalari huzuridagi tumanlar (Quvasoy shahri) irrigatsiya bo‘limlarini saqlab turish;

- shaharlar va boshqa aholi punktlaridagi ko‘chalarni, shuningdek xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarini ta‘mirlash;

- uy-joy-kommunal xo‘jaligi obyektlarida ta‘mirlash ishlarini olib borish;

- aholi punktlarini obodonlashtirish xarajatlari;

3) tuman va shahar hokimliklarini hamda ularning bo‘limlarini, shuningdek tumanlar va shaharlar byudjetlari mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan davlat boshqaruvi organlarining boshqa hududiy bo‘linmalarini saqlab turish xarajatlari;

4) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;

5) tumanlar va shaharlar byudjetlarining zaxira jamg‘armalarini shakllantirish xarajatlari;

6) boshqa xarajatlar, shu jumladan qonun hujjatlarida tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ayrim tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari.

Byudjet xarajatlarining tarkibi va uning tuzilmasi davlatning tabiatiga, u tomonidan bajarilayotgan funksiyalarga, milliy xo'jalikning ehtiyojlariga bog'liq hamda byudjet mexanizmi orqali ishlab chiqarish va iste'molning ba'zi bir omillariga davlatning ta'sirchanligini ta'minlash kabilar bilan belgilanadi.

9.4. Davlat byudjetining ijtimoiy sohalarni saqlash va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari

Byudjet xarajatlarini ijtimoiy mo'ljallanganligi bo'yicha guruhlariga ajratilishi davlatning toifasi va u tomonidan amalga oshiriladigan funksiyalariga bevosita bog'liq. Shundan kelib chiqib, byudjetning barcha xarajatlarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

- ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
- milliy xo'jalikka (iqtisodiyotga) xarajatlar;
- harbiy (mudofaa) xarajatlar(i);
- boshqaruv xarajatlari;
- rivojlanayotgan mamlakatlarga subsidiyalar va kreditlar taqdim etish xarajatlari.

Ushbu xarajat turlari orasida eng asosiysi ijtimoiy sohalarni saqlash va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari hisoblanib, bu guruh xarajatlar byudjetning jami xarajatlari tarkibidagi ulushining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari o'z tarkibiga maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy ta'minot (nafaqa, moddiy yordam va kompensatsiya to'lovlari), aholini ish bilan ta'minlash, yoshlar va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash xarajatlari hamda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" davlat dasturlarini moliyalashtirish bilan bog'liq xarajatlarni oladi. Ushbu guruh xarajatlari davlatning ijtimoiy funksiyasini o'zida aks ettirib, davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosat mazmunidan kelib chiqib farqlanishi mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim va sog'liqni saqlashning tekinligi hamon ustuvorligicha qolmoqda. Umumiy ta'limni tekin va kasbiy ta'limni tanlov asosida olish kafolatlanganligicha qolmoqda. Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishga katta e'tibor berilmoqda. Ish haqining eng kam darajasini oshirish, ishsizlik bo'yicha berilishi lozim bo'lgan nafaqalarning miqdorini ko'paytirish, maktab yoshigacha bo'lgan bolalar, maktab o'quvchilari, studentlarning ovqatlanish xarajatlarini kompensatsiya qilish, byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqini tartibga solish bo'yicha choralar ko'rilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi tegishli Farmoni bilan tasdiqlangan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining to'rtinchi yo'nalishi ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor masalalariga bag'ishlangan. Ushbu yo'nalish aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoyalash va salomatligini asrab-avaylash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiyalarni hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiyasi, gaz bilan ta'minlashni yaxshilash, uning muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini ko'tarish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish kabi vazifalarni o'z ichiga olgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda ijtimoiy sohani byudjet mablag'lari hisobiga moliyalashtirish masalasi bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. Prezidentimiz Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasida "O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining g'oyat muhim yo'nalishi bo'lgan ijtimoiy sohani isloh qilish

bo'yicha qabul qilingan dasturlar ijrosi ham bosqichma-bosqich ta'minlanmoqda".

9.3-jadval

Ijtimoiy soha xarajatlari dinamikasi⁶¹

(mlrd so'mda)

	Xarajat-lar	2017 yil			2018 yil			2019 yil
		reja	ijro	ijro, %	reja	ijro	Ijro, %	reja
1	Davlat byudjet xarajatlari - jami	46 943,1	49 343,7	105,1	62 170,00	79736 ,1	128,3	10711 8,4
1	Ijtimoiy soha xarajatlari	24 028,2	27223,3	113,3	35034,0	42658 ,9	121,8	50334, 1
	shundan:							
1.1.	Maorif	16 386,1	15979,6	97,5	19 504,3	20631 ,9	105,8	28394, 3
1.2.	Sog'liqni saqlash	6 882,9	7330,0	106,5	9 562,0	9585, 8	100,2	12078, 0
1.3.	Madaniyat va sport	481,1	750,2	155,9	1 165,4	1345, 5	115,5	1690,1
1.4	Fan	278,1	275,5	99,1	389,3	441,1	113,3	801,0

Barchamizga ma'lumki, ijtimoiy soha xarajatlarini asosan ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport hamda fan xarajatlari tashkil etadi. Ularni moliyalashtirishni esa davlat byudjetisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunday ekan, "Biz mamlakatimiz byudjet tizimini qayta ko'rib

⁶¹ () zhekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan hisoblandi.

chiqishimiz, byudjet daromadlari va xarajatlari xalqimiz uchun ochiq va oshkora bo'lishini ta'minlashimiz zarur"⁶².

So'nggi yillarda byudjet xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha xarajatlari katta ulushga ega (60 foizga yaqin).

Quyidagi 9.3-jadvalda davlat byudjeti xarajatlarining 2017-2018-yillardagi ijrosi keltirilgan. Ushbu xarajatlar 105,12 foizga, jumladan, ijtimoiy soha xarajatlari 100,02 foizga bajarilgan. Ijtimoiy soha xarajatlarini alohida-alohida olib ko'radigan bo'lsak, ta'lim xarajatlari 97,5 foizga, sog'liqni saqlash xarajatlari 102,14 foizga, madaniyat va sport xarajatlari 155,95 foizga va fan xarajatlari 99,1 foizga ijro etilgan.

2017–2019-yillar davomida ijtimoiy soha uchun rejalashtirilgan mablag'lar miqdoridagi o'zgarishlarga e'tibor bersak, byudjetning jami rejalashtirilgan xarajatlari summasi 2019-yilda 2017-yilgiga nisbatan 2,28 barobarga, jami ijtimoiy soha xarajatlari miqdori esa 2,09 barobarga ko'paygan. Ushbu xarajatlar tarkibida, ta'lim xarajatlari miqdori 1,73 barobarga, sog'liqni saqlash xarajatlari miqdori 1,65 barobarga, fan xarajatlari miqdori 2,88 barobarga hamda madaniyat va sport xarajatlari miqdori esa 3,51 barobarga oshgan. 2018-yilda rejalashtirilgan xarajatlar ortig'i bilan moliyalashtirilganligiga ham guvoh bo'ldik.

9.5. Davlat byudjetining iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlari

Milliy xo'jalikka (iqtisodiyotga) byudjetdan xarajatlarning amalga oshirilishi davlatning hamon xo'jalik yurituvchi asosiy subyektlardan biri ekanligidan darak beradi. Aynan bu xarajatlar katta masshtablarda yangi sanoat korxonalarini qurish, zamonaviy industrial asosda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish, transport, aloqa va iqtisodiyot boshqa tarmoqlarining texnikaviy qayta qurollanishini ta'minlashga

⁶² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi: ustuvor vazifalar, reja va loyihalar. <http://uza.uz/oz>

imkon yaratadi. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda byudjetning bu xarajatlari orasida iqtisodiyotga xarajatlar va markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari alohida o'rinni egallaydi.

Hozirgi sharoitda takror ishlab chiqarish jarayonlariga va ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga byudjetning ma'lum maqsadlarga yo'naltirilgan ta'sirchanligi kuchaymoqda. Byudjet xarajatlari iqtisodiyotning rivojlanishini rag'batlantiradi. Shuning uchun ham jahonning ko'pgina mamlakatlaridagi (masalan, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvan va boshqa mamlakatlarda) "iqtisodiy mo'jiza" aynan davlatning moliyaviy qo'llab-quvvatlashi natijasida sodir bo'ldi.

Byudjetning milliy xo'jalikka (iqtisodiyotga) yo'naltirilgan xarajatlari tarkibi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari, iqtisodiy va ijtimoiy infrastruktura, qishloq xo'jaligini va iqtisodiyotning davlat tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash, milliy xo'jalikning ayrim tarmoqlari va mamlakat mintaqalarida bandlikni ta'minlash, eksportni rag'batlantirish xarajatlaridan iborat.

Keyingi yillarda davlat kapital qo'yilmalarining hajmi keskin oshmoqda. Ayniqsa, taraqqiyot mintaqalariga berilayotgan subsidiyalar miqdori ko'paymoqda. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish maqsadida uning ayrim tarmoqlarida davlat kafolati ostida davlat subsidiyalari yoki imtiyozli bank kreditlari ko'rinishida tanlanma yordam ko'rsatilmoqda.

Byudjetdan katta miqdordagi mablag'lar iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi tarmog'iga taqdim etilmoqda. Bu tarmoq ustuvor ravishda qo'llab-quvvatlanishi lozim bo'lgan tarmoq hisoblanadi. Qishloq xo'jaligiga beriladigan subsidiyalar ikki ko'rinishda taqdim etilmoqda:

- 1) qishloq xo'jaligi mahsulotlariga kafolatlangan baholarni qo'llab-quvvatlash;
- 2) ishlab chiqarish maqsadlari – qishloq xo'jaligi mashinalari, mineral o'g'itlar sotib olish va omborxonalar qurish uchun.

Milliy mahsulotlarni eksport qiluvchi firmalar faoliyatiga byudjetdan yordamning ko'rsatilishi ham jahon bozorlaridagi shiddatli raqobat sharoitida ularning ahvolini ancha yengillashtiradi.

Byudjet xarajatlari orqali iqtisodiyotga davlatning aralashuvi iqtisodiy o'sishning nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishini rag'batlantiribgina qolmasdan, balki uning siklik tebranishini ham yumshatadi (sekinlashtiradi).

9.6. Davlat byudjetining davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari

Davlatning boshqaruv faoliyati o'z maqsadlari va funksiyalarini murakkab tuzilishga ega bo'lgan va turli yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi o'z (davlat) apparati orqali ta'minlashida namoyon bo'ladi. Uning bir qismi qonunlarni ishlab chiqish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ijro etish bilan shug'ullanadi, ya'ni funksional ko'rinishdagi davlat boshqaruvi bilan bog'liq, boshqa qismi davlatning ichki (huquq-tartibot) va xalqaro barqarorligi va xavfsizligini, uning jahon hamjamiyati bilan o'zaro munosabatlarini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyatiga bo'linishi tamoyiliga asoslanadi va ikki daraja – markaziy va mahalliy darajalardan tashkil topadi.

Hukumatning markaziy organlari umumdavlat ahamiyatiga molik masalalarni, mahalliyarlari esa hududiy muammolarni hal qiladi.

Davlat byudjeti xarajatlarining funksional tasnifiga binoan boshqarish xarajatlari quyidagi bo'limlarda guruhlashtirilgan:

1. Sud, prokuratura organlari va adliyaning boshqa muassasalarini saqlash xarajatlari.
2. Davlat hukumat organlarini saqlash xarajatlari.
3. Davlat boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari.

4. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari.

5. Referendum va saylovlar o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar.

Sud, prokuratura organlari va adliyaning boshqa muassasalarini saqlash xarajatlari o'zida quyidagilarni saqlash uchun xarajatlarni mujassamlashtiradi: O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi; viloyat, shahar va xalq sudlari; O'zbekiston Respublikasi va mahalliy organlarning Oliy xo'jalik sudi; O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri prokuraturasi; FHAQQ bo'limlari va boshqa xarajatlar.

Davlat hukumat organlarini saqlash xarajatlariga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti apparatini, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Saylov komissiyasi apparatini, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi apparatini saqlash, xalq deputatlari faoliyatini ta'minlash va boshqa xarajatlar kiradi.

Davlat boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari o'zida quyidagilarni saqlash uchun xarajatlarni mujassamlashtiradi: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparatini; Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi apparatini; Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari apparatini; vazirliklarning markaziy apparati, davlat qo'mitalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasarrufidagi qo'mitalar va boshqa idoralarni; O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va boshqa idoralarning mahalliy organlarini; MDH mamlakatlari hukumatlari huzuridagi O'zbekiston Respublikasining doimiy vakolatxonasini; hokimliklarni; Qoraqalpog'iston Respublikasi vakolatxonalari; hokimliklarning bo'limlari va boshqarmalarini; chet elda joylashgan respublika

vakolatxonalari, konsulliklari, agentliklari va boshqa diplomatik muassasalarini; markazlashgan buxgalteriyalar va boshqa xarajatlari.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari o'zida quyidagilarni saqlash uchun xarajatlarni mujassamlashtiradi: "Mahalla posboni" guruhlar boshliqlarini; shaharchalar, qishloqlar, ovullarda fuqarolar kengashi apparatini; shaharlarda mahalla fuqarolar kengashi apparatini.

Mudofaa kompleksi va huquq-tartibot organlari xarajatlari o'zida quyidagilarni saqlash uchun xarajatlarni mujassamlashtiradi: Mudofaa vazirligini; Milliy xavfsizlik xizmatini; O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasini qo'riqlash qo'mitasini; favqulodda vaziyatlar bo'yicha organlarni; Ichki ishlar vazirligini; Davlat bojxona qo'mitasini; Soliq va bojxona organlari akademiyalarini; balog'at yoshiga yetmaganlar ishlari bo'yicha inspeksiya va boshqa xarajatlarni.

Mahalliy byudjetlardan shu yo'nalishdagi quyidagi xarajatlar moliyalashtiriladi: yo'l-patrul xizmati bo'linmalari; uchastka militsiya inspektorlari; professional yong'in xavfsizligi bo'linmalari; mudofaa ishlari bo'yicha boshqarmalar; qutqaruv xizmati; markazlashtirilgan buxgalteriyalar; ma'muriy tartibda qamoqqa olingan shaxslarni saqlaydigan maxsus joy; manzillar bo'yicha ma'lumotlar beruvchi byurolar; balog'at yoshiga yetmaganlarning qonunbuzarliklarini profilaktika qilish bo'lim va bo'linmalari; balog'atga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam berish markazlari va boshqa xarajatlar.

Shunday qilib, davlatning boshqaruvga xarajatlari fuqarolarning hayoti, sog'lig'i, huquqlari va erkinligini, fuqarolar, jamiyat va davlatning mulki va manfaatlarini noqonuniy tajovuzdan himoyalovchi davlat hokimiyati organlarining faoliyatini tashkil etish va ta'minlashga yo'naltirilgandir.

Davlat apparatini tegishli ravishda moliyalashtirmasdan boshqaruv faoliyatini amalga oshirib bo'lmaydi. Bu moddiy-texnika bazasini

yaratish va saqlashni, mutaxassis-xodimlar va xizmat ko'rsatuvchi personalni ishga yollashni, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining joriy faoliyatini moliyalashtirishni nazarda tutadi.

Boshqaruv apparatini saqlash xarajatlari hajmini aniqlab beruvchi asosiy hujjatlar – shtatlar jadvali va xarajatlar smetasi. Shtatlar jadvalida tarkibiy bo'linmalar; rahbar, ularning muovirlari va mutaxassislar lavozimlarining nomlari davlat lavozimlari reestriga binoan; har bir lavozim bo'yicha shtat birliklarining soni, lavozim okladlarining sxemalari, ustamalar (belgili muddat xizmat qilgani uchun, sirlik uchun va boshqalar) va lavozimli okladlar bo'yicha bir oylik ish haqi fondi davlat xizmatchilarining mehnatga haq to'lash fondida moddiy rag'batlantirish va belgili muddat xizmat qilgani uchun ustamalarga xarajatlar alohida ulushga ega. O'zbekiston Respublikasi byudjeti loyihasiga boshqaruvga xarajatlarning jamlanma hisob-kitoblari tahlili taqdim etilgan hujjatlari va materiallari asosida tegishli respublika, viloyat, shahar, tuman ma'muriy bo'linmalari tomonidan to'g'ridan to'g'ri hisoblash usuli va me'yorlash usulida tayyorlanadi. Ajratmalar mablag'larga ehtiyoj, shuningdek bir ma'muriy yoki shtat birligiga tasdiqlangan tariflar va me'yorlar asosida hisoblanadi.

Davlat xizmatchilarining mehnatiga haq to'lash boshqaruvga xarajatlarning asosiy qismini tashkil etadi. Bu asosiy oklad, ish haqiga ustamalar, shtatdan tashqari xodimlarga haq to'lash va xodimlarga boshqa pul to'lovlaridir.

Xodimlarning bir yillik asosiy okladlarini to'lashga xarajatlar bir oylik o'rtacha ish haqi stavkasini 12 oyga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. O'rtacha ish haqi stavkasi bir oylik ish haqi fondi va shtat birligi soni yordamida hisoblanadi.

Davlat xizmatchilarining lavozim okladlarini to'lashga yo'naltirilayotgan mehnatga haq to'lash fondidan ortiqcha bo'lgan summa quyidagilarni to'lashga yo'naltiriladi (bir yilga hisoblanadi):

- kvalifikatsion razryad uchun har oylik ustama;
- alohida sharoitda davlat xizmati uchun har oylik ustama;
- belgili xizmat muddatini ado etganligi sababli har oylik ustama.

Mehnatga haq to‘lashni hisoblash mehnatga haq to‘lash fondiga barcha turdagi majburiy hisoblashlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Boshqaruv xarajatlari tarkibidagi moddiy xarajatlarning asosiy qismini ta‘minot predmetlari va sarf-xarajat materiallari tashkil etadi.

Shu bilan birga boshqaruv xarajatlariga boshqaruv apparati xodimlarining xizmat safarlariga xarajatlar, transport, kommunal va aloqa xizmatlari uchun to‘lov; uskuna, inventar, inshoot, binoni joriy ta‘mirlash xarajatlarini to‘lash va boshqa joriy xarajatlar kiradi.

O‘zbekistonda davlat byudjetining boshqaruvga xarajatlari taxminan 3 foizni tashkil etadi va bu ko‘rsatkich shu sohani moliyalashtirish standartlariga muvofiqdir.

Boshqaruv xarajatlariga byudjetdan mablag‘ ajratish tegishli tasdiqlangan smeta asosida olib boriladi. Bu smeta muassasaning umumiy xarajatlarini ifodalovchi mablag‘larining qaysi maqsadlarga va ularning kvartallarga taqsimlanishini ko‘rsatuvchi asosiy hujjatdir.

Mamlakatimizda boshqaruv organlari ishchi xodimlarini saqlash uchun davlat byudjetidan va byudjetdan tashqari hamda boshqa manbaalardan mablag‘ ajratiladi.

2018-yilda davlat hokimiyati boshqaruv, adliya, prokuratura va sud organlari ta‘minotiga 1 304,8 mlrd so‘m (shundan sud organlarini saqlash uchun 94,0 mlrd so‘m) yoki 2017-yilning mos davriga nisbatan 56,1 foizga ko‘p mablag‘ yo‘naltirildi, ushbu mablag‘lar Davlat byudjeti jami xarajatlarining 4,0 foizni tashkil etdi⁶³.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmon va qarorlari bilan 2018-yilda davlat hokimiyati boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimliklari, prokuratura va sud organlarining vazifalari

⁶³ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti ma‘lumotlari asosida hisoblandi

tahlil qililib, ularning tuzilmalari yangidan tasdiqlandi, qo'shimcha boshqaruv xodimlari soni 4 478 taga oshirilib davlat byudjetidan qo'shimcha 98,1 mlrd so'm mablag' ajratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi davlat xizmatlari agentligi (boshqaruv xodimlari soni 219 ta), Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (boshqaruv xodimlari soni 96 ta), Jismoniy tarbiya va sport vazirligi (boshqaruv xodimlari soni 55 ta), Innovatsion rivojlantirish vazirligi (boshqaruv xodimlari soni 82 ta), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati huzuridagi Media-markaz (boshqaruv xodimlari soni 18 ta), Adliya vazirligi tuman (shahar) bo'limlari (619 ta), Bosh Prokuratura huzuridagi Agroinspeksiya (1795 ta), Qurilish vazirligi (47 ta) va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondiga Xalqaro Press klub va Strategiya markazi faoliyati yangidan tashkil etilib, Respublika byudjetidan joriy yilning I yarim yilligi davomida yangidan tashkil etilgan tashkilotlarni saqlab turish xarajatlari uchun (shundan yangidan kiritilgan boshqaruv xodimlari shtat birliklari soni 2931 ta) 72,2 mlrd so'm mablag' ajratilishi ta'minlandi.

Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasiga (boshqaruv xodimlari soni 249 ta), Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasiga (boshqaruv xodimlari soni 936 ta), Xotin-qizlar qo'mitasiga (boshqaruv xodimlari soni 335 ta), Din ishlari qo'mitasiga (boshqaruv xodimlari soni 27 ta) va boshqa davlat organlariga qo'shimcha shtat birliklari kiritilib, ularning tashkiliy tuzilmalari qaytadan ko'rib chiqildi.

Mazkur tashkilotlarning qo'shimcha kiritilgan (boshqaruv xodimlari soni 1547 ta) shtat birliklarini saqlash xarajatlari uchun Davlat byudjetidan joriy yilning I yarim yilligi davomida 25,9 mlrd so'm mablag' ajratilishi ta'minlandi.

Hisobot davrida NNT va boshqa fuqarolik jamiyatlari institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlariga davlat byudjetidan rejalashtirilgan 12,7 mlrd so'm mablag' o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirildi.

Shu bilan birga siyosiy partiyalarni ustav faoliyatini moliyalashtirish uchun ajratilgan, davlat byudjeti mablag'lari hajmi joriy yilning I yarim yilligi davomida 31,1 mlrd so'm rejalashtirilib, to'liq moliyalashtirildi, bu ko'rsatkich 2017-yilning mos davriga nisbatan 15,0 foizga ko'pdir (9.4-jadval).

9.4-jadval

**Siyosiy partiyalarni ustav faoliyatini moliyalashtirish uchun
ajratilgan davlat byudjeti mablag'lari hajmi⁶⁴**

(mln so'm)

Ko'rsatkichlar	2018 yilning birinchi yarim yilligida	Jamiga nisbatan ulushi
Jami ajratilgan mablag'lar <i>shu jumladan:</i>	31137,6	100,0
O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi	11471,7	36,8
"Milliy tiklanish" O'zbekiston demokratik partiyasi	8740,4	28,1
O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi	6282,1	20,2
O'zbekiston Adolat sotsial- demokratik partiyasi	4643,3	14,9

Hisobot davrida fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini moliyalashtirishga davlat byudjeti mablag'lari hisobidan 213,1 mlrd so'm (yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan qariyb 15 foizga ko'p mablag'lar) ajratildi, jumladan:

⁶⁴ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida

– shaharcha, qishloq va ovul fuqarolari yig'inlari Kengashi apparatini saqlash xarajatlariga - 79,3 mlrd so'm;

– shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullar mahallalari fuqarolari yig'inlari Kengashi apparatini saqlash xarajatlariga – 193,7 mlrd so'm.

9.7. Davlat byudjetining mamlakat mudofaa tizimini saqlash va rivojlantirish bilan bog'liq xarajatlari

Mudofaa xarajatlari davlatning mudofaa vazifalarini ta'minlashga yo'naltirilgan. Bu maqsadga ajratiladigan mablag'lar miqdori mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlari, xalqaro va ichki siyosiy ahvol, texnika bilan jihozlanish darajasi, qurolli kuchlar shaxsiy tarkibi turmush sharoitlari va sonini saqlash zaruriyati kabi omillarga bog'liq.

Xarajatlar sistemasini shakllantirishda dastlab umuman Mudofaa vazirligi bo'yicha xarajatlarning umumiy hajmi aniqlanadi, so'ngra harbiy okruglar va harbiy qismlar smetalari tuziladi. Harbiy xarajatlarning asosiy qismi markazlashtirilgan holda, bevosita Mudofaa vazirligi tomonidan moliyalashtiriladi (qurol-aslahalar, harbiy texnika, qo'shinlarni oziq-ovqat bilan ta'minlash va hakoza xarajatlari).

Huquqni muhofaza qilish organlari va davlat xavfsizligini saqlash organlari-fuqarolarning holati, salomatligi, huquq va erkinliklarini, fuqarolar, jamiyat va davlat mulki va manfaatlarini qonunga zid tajovuzlardan himoya qilishga xizmat qiladigan davlat hokimiyati organlari tizimidir.

Mudofaa tizimi har bir davlatlarda mavjud bo'lib, davlatlarning siyosiy daxlsizligi, barqarorligi ta'minlashda muhim ahamiyat aks etadi.

Mudofaa tizimini moliyalashtirish xarajatlari byudjet xarajatlari ichida eng uzun tarixga ega bo'lib, byudjetni shakllantirish zaruriyatlari ham aynan davlatlarning harbiy askarlarni saqlash va harbiy xarajatlar bo'yicha davlatlarning moliyaviy ehtiyojlaridan kelib chiqqan.

Mudofaa xarajatlari quyidagi turkumlarga ajratiladi:

1. Mudofaga qilingan to'g'ri xarajatlar:

–qurollanish va mudofaa tizimini moddiy texnik ta'minlash xarajatlari;

–shaxsiy qurolli kuchlar tarkibini saqlash xarajatlari;

–harbiy obyektlarni qo'rish xarajatlari;

–harbiy tekshiruvlar va tadqiqotlar uchun xarajatlar.

2. Mudofaaga qilingan egri xarajatlar:

–davlat qarzlari bo'yicha to'lovlar eng oldin qarz harbiy xarajatlarni o'sib borishi hisobiga ko'payadi.

–vayronagarchiliklarni qayta tiklash uchun xarajatlar, iqtisodiyotni tinch rivojlanish yo'liga o'tqazish;

–urush qatnashchilariga nafaqa va pensiya to'lash;

–kontributsiya va repatriatsiya to'lash.

3. Yashirin xarajatlar, ya'ni fuqarolar vedomosti smetasi bo'yicha o'tuvchi, harbiy xarakterga ega xarajatlar.

Milliy mudofaa xarajatlari davlatning funksiyalaridan kelib chiqadi. Mudofaa xarajatlarining umumiy miqdori va darajasi quyidagi turli xildagi ichki va tashqi omillarga bog'liq:

–xalqaro vaziyat;

–mamlakat hududining kattaligiga bog'liq bo'lgan chegaralarning uzunligi va xarakteri;

–harbiy ishning zamonaviy taraqqiyoti va armiyaaning texnikaviy jihatdan qurollanganlik ahvoli;

–shaxsiy tarkib turmush darajasini yuqori pog'onaga ko'tarishning va Qurolli Kuchlarda ijtimoiy-madaniy tadbirlarni amalga oshirishning zarurligi;

–mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlari va boshqalar.

Mudofaa xarajatlari obyektiv zarurat bo'lishiga qaramasdan ular noishlab chiqarish xarakteriga ega. Shuning uchun ham davlatlar

tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshira borib, harbiy xarajatlarni qisqartirishga harakat qiladi.

Byudjetda ko'zda tutilgan milliy mudofaa xarajatlarining guruhi, asosan, Mudofaa vazirligi orqali o'tadigan to'g'ri (bevosita) harbiy xarajatlarni o'z ichiga oladi. Bu xarajatlarning tarkibiga armiyani saqlash, qurol-yarog' va harbiy texnika sotib olish, kapital qurilish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari, harbiy xizmatchilarga maosh, pensiya va nafaqalar berish va boshqa xarajatlar kiradi. Bu xarajatlarning barchasi Mudofaa vazirligining maxsus smetasida o'z aksini topadi va respublika byudjetining xarajatlari tarkibiga kiritiladi.

Milliy mudofaa xarajatlarini rejalashtirishning o'ziga xos bo'lgan xususiyati shundan iboratki, bu yerda birinchi navbatda, Mudofaa vazirligi bo'yicha xarajatlarning umumiy hajmi aniqlanadi. Undan so'ng esa harbiy okruglar va harbiy Qismlarning smetalari tuziladi. Bunday tartibga amal qilish harbiy xarajatlarning katta qismini (qurol-yarog', harbiy texnika, yoqilg'i, oziq-ovqat va shunga o'xshashlar) Mudofaa vazirligi orqali moliyalashtirilishi bilan izohlanadi.

To'g'ri (bevosita) harbiy xarajatlarning boshqa bir qismi byudjet xarajatlarining boshqa bo'linmalari bo'yicha moliyalashtiriladi. Masalan, ichki va chegara qo'shinlarini saqlash xarajatlari hamda xavfsizlik organlarining faoliyati huquqni muhofaza qilish faoliyati va davlat xavfsizligini ta'minlash bo'limi orqali moliyalashtiriladi. Bu xarajatlarni rejalashtirish va moliyalashtirish smetali tartibda amalga oshiriladi.

Egri (bilvosita) harbiy xarajatlar byudjetda, asosan, Qurolli Kuchlar faxriylari va ularning oilalariga to'lanadigan pensiya va nafaqalardan iborat. Bu xarajatlar byudjetning ijtimoiy himoya bo'limi bo'yicha moliyalashtiriladi

Harbiy xarajatlar iqtisodiy nuqtai nazardan qaralganda davlatga va o'z navbatida soliq to'lovchi aholiga juda qimmatga tushadi, lekin

shunga qaramasdan dunyodagi barcha mamlakatlarda bu turdagi xarajatni rejalashtirishga majburdirlar. Chunki, davlatda tinchlik bo'lmasa, hech qanday iqtisodiy rivojlanish bo'lmaydi.

Yuqori darajadagi harbiy xarajatlarni rejalashtirish, iqtisodiyotni o'sishiga, birinchi darajadagi ijtimoiy ta'minotning pasayishiga aholining turmush darajasi pasayishi kabi bir qator salbiy oqibatlarga olib keladi.

So'nggi yillarda mamlakatimiz mudofaa sohasini moliyalashtirish bo'yicha bir qator qo'shimcha me'yoriy hujjatlar qabul qilinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018-yil 1-martda 2977-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2018-yil 13-fevraldagi 36-son buyrug'iga ilova sifatida qabul qilingan "Ichki ishlar organlari xodimlariga pensiya va nafaqa tayinlash hamda to'lash tartibi to'g'risidagi Yo'riqnoma"ga asosan, ichki ishlar organlari xodimlari yoki ularning oila a'zolariga pensianing quyidagi turlari tayinlanadi:

- xizmat muddatini o'taganligi bo'yicha pensiyasi (uni olish huquqi mavjud bo'lganda);

- nogironlik pensiyasi;

- boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi.

Ichki ishlar organlari xodimlari yoki ularning oila a'zolariga nafaqaning quyidagi turlari tayinlanadi:

- xizmatdan pensiyaga chiqish munosabati bilan bo'shatilayotgan xodimlarga to'lanadigan nafaqa;

- ichki ishlar organi pensioneri vafot etganligi munosabati bilan dafn etish marosimi uchun uning oila a'zolariga tayinlanadigan nafaqa.

Xizmatdan pensiyaga chiqish munosabati bilan bo'shatilayotgan xodimlarga va ichki ishlar organi pensioneri vafot etganligi munosabati bilan dafn etish marosimi uchun uning oila a'zolariga beriladigan nafaqalar bir marta tayinlanadi.

Ichki ishlar organlari xodimlariga pensiya va nafaqa to'lovlari O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Pensiyalar quyidagi muddatlarda tayinlanadi:

- xizmat muddatini o'taganligi bo'yicha pensiya - xizmatdan bo'shatilgan kundan e'tiboran, ammo pul ta'minoti to'langan kundan ortiq bo'lmagan muddatga qadar;

- nogironlik pensiyasi - TMEK tomonidan nogironlik belgilangan kundan boshlab, agar nogironlik xizmatni o'tash davrida yoki xizmatdan bo'shatilgan kundan boshlab uch oy ichida belgilangan bo'lsa yoki nogironlik ushbu muddatdan so'ng belgilangan bo'lsada, u xizmat vazifalarini bajarish paytida yaranish, kontuziya, mayib bo'lish va kasallanish tufayli kelib chiqqan bo'lsa;

- boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi - mehnatga layoqatsiz oila a'zolariga boquvchisi vafot etgan kundan boshlab, ammo pul ta'minoti yoki pensiya to'langan kundan ortiq bo'lmagan muddatga qadar, otanasi yoki turmush o'rtog'iga, boquvchisini yo'qotganlik oqibatida pensiya olishga huquqi paydo bo'lganda, pensiya tayinlash uchun murojaat etgan kundan boshlab.

Maxsus va harbiy unvonlardan mahrum qilingan shaxslar hamda ularning oila a'zolariga pensiyalar Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limlari tomonidan belgilangan tartibda tayinlanadi.

Pensioner hisoblab chiqilgan umumiy xizmat yili va pensiya miqdoridan norozi bo'lgan taqdirda, uning arizasiga asosan, uning umumiy xizmat yili va pensiya miqdori qayta hisoblab berilishi mumkin.

Pensiya va nafaqa doimiy yashash joyi bo'yicha ichki ishlar organlari moliyaviy ta'minot xizmatlarining pensiya ta'minoti bo'limlari tomonidan to'lanadi.

Pensiya va nafaqa bank plastik kartochkalari yoki omonat hisob raqamlariga o'tkazilgan holatlarda, pensioner pensiya olish joyi bo'yicha

ichki ishlar organlarining moliyaviy ta'minot xizmatlariga ariza bilan murojaat etadi va unga bank plastik kartochkasi yoki omonat hisob raqamining ochilganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma, tijorat banklari va mijoz o'rtasida tuzilgan shartnoma nusxalari ilova qilinadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining pensiya va nafaqa to'lovlari uchun naqd pul mablag'lari Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari va tijorat banklari tomonidan ta'minlanadi.

Pensiya ichki ishlar organlari tomonidan yetkazib berish (topshirish) davri bo'yicha tegishli oyning 27-sanasidan kechiktirilmay amalga oshiriladi.

Dafn marosimi uchun nafaqa to'lovi pensioner vafot etgan kundan boshlab olti oy muddat ichida belgilgan hujjatlarni taqdim qilgan shaxsga to'lanadi.

Xizmatdan pensiyaga chiqish munosabati bilan bo'shatilayotgan xodimlarga bir marta to'lanadigan nafaqa puli tegishli xulosa asosida xodimning oxirgi ish joyidan to'lanadi.

Tugallanmagan oy uchun to'lanishi lozim bo'lgan pensiya miqdori jami pensiya miqdorini shu oyning kalendar kunlar soniga bo'lish hamda hosil bo'lgan summani o'tgan kunlar soniga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Misol uchun:

Pensiya oluvchiga 20-iyundan boshlab 900 000 so'm miqdorida pensiya tayinlandi. Bunda 11 kun uchun, ya'ni 20 – 30-iyun kunlari uchun pensionerga quyidagi miqdorda pensiya to'lanadi:

$$900\,000 \text{ so'm} / 30 \text{ (kun)} \times 11 \text{ (kun)} = 330\,000 \text{ so'm}.$$

Tayinlangan pensiyani to'lash:

- pensioner vafot etganda;
- tayinlangan pensiyaga huquqlar yo'qolganda;
- doimiy yashash uchun O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqib ketganda;

– xorijiy davlatda bo‘lgan davrida pensiya (ijtimoiy nafaqa) olganligi holati aniqlanganda to‘xtatiladi.

Tayinlangan pensiyani to‘lash:

- pensiya to‘lash muddati tamom bo‘lganda;
- pensioner ozodlikdan mahrum etilganda;
- pensiyani to‘lashni to‘xtatib turish to‘g‘risida pensioner tomonidan ariza bilan murojaat qilinganda to‘xtatib turiladi.

Pensiyani to‘lash pensioner yoki uning vasiysi tegishli ichki ishlar organiga shaxsini tasdiqlovchi hujjat taqdim etgan va ariza bilan murojaat qilgan taqdirda qayta tiklanadi.

Pensionerning sud hukmi bo‘yicha ozodlikdan mahrum etish joylarida bo‘lgan vaqti uchun pensiya to‘lanmaydi. Pensioner sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o‘tab, undan ozod bo‘lgandan keyin pensiyani to‘lash ichki ishlar organiga ariza berilgan kundan boshlab tiklanadi.

Pensionerga hisoblab chiqarib qo‘yilgan, lekin uning tomonidan o‘z vaqtida talab qilib olinmagan pensiya puli pensiyani olish maqsadida murojaat etilganidan oldingi o‘n ikki oydan oshmagan davr uchun to‘lanadi.

Ichki ishlar organi moliyaviy ta‘minot xizmatining aybi bilan o‘z vaqtida olinmay qolgan pensiya puli o‘tgan davr uchun muddati cheklanmagan holda to‘lanadi.

Bunda o‘tgan davr uchun to‘lovlar bir yo‘la tegishli oylar uchun hisoblab chiqarib qo‘yilgan va olinmagan pensiyaning summalariga mos miqdorda to‘lanadi.

Pensionerga berilishi kerak bo‘lgan va uning vafoti munosabati bilan olinmay qolgan pensiya summasi meros tarkibiga kiritilmaydi va boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi bilan ta‘minlanadigan shaxslar doirasiga tegishli oila a‘zolariga to‘lanadi. Ota-onalar, eri (xotini), shuningdek, pensioner vafot etgan kunda u bilan birga yashagan oila a‘zolari, agar ular boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha pensiyasi bilan

ta'minlanadiganlar doirasiga kirmagan taqdirda ham ushbu summalarni olish huquqiga ega.

Pensioner vafot etgan oy uchun olingan pensiya summasi oilaning ko'rsatib o'tilgan a'zolariga uning vafotigacha ushbu oyning kunlari uchun to'lanadi.

Oilaning bir necha a'zolari murojaat qilgan taqdirda, ularga berilishi kerak bo'lgan pensiya summasi ular o'rtasida teng taqsimlanadi.

Ko'rsatib o'tilgan summa, uning uchun pensioner vafot etgandan so'ng olti oydan kechikmay murojaat qilingan taqdirda to'lanadi.

Pensiyalardan quyidagi hollarda chegirmalar qilinadi:

– sudning hal qiluv qarorlari, ajrimlari, qarorlari va hukmlari (mulkiy undirishlar borasida), notarial idoralarning ijro varaqalari hamda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq ijrosi sud hal qiluv qarorlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladigan boshqa hal qiluv qarorlari va qarorlar asosida;

– ichki ishlar organlarining qaroriga binoan pensionerga u tomonidan qilingan suiiste'molliklar (qasddan noto'g'ri hujjatlarni taqdim etish, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlangan oila a'zolari tarkibidagi o'zgarishlar haqida ma'lumotlar taqdim etmaganligi) natijasida yoxud hisoblashdagi yoki boshqa texnik xato oqibatida pensiya miqdoridan ortiqcha pullar to'langan taqdirda.

Pensiyalardan yuqorida ko'rsatib o'tilgan hollardan tashqari boshqa hech qanday chegirmalar qilish mumkin emas.

Pensiyadan chegirmalar qilish miqdori pensionerga to'lanishi lozim bo'lgan puldan hisoblab chiqariladi.

Har oylik chegirmalar miqdori pensiyaning 50 foizidan oshishi mumkin emas.

Pensioner ixtiyoriy ravishda aliment to'lash istagini bildirganda, uning arizasida har oylik undiriladigan aliment miqdori (hujjatlarda ko'rsatilgan foizlarda yoki pensiya oluvchi tomonidan belgilangan

summada), undirish muddati va aliment undiruvchi shaxsning manzili, familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatilishi lozim.

Ixtiyoriy ravishda to'lanayotgan aliment miqdori va chegirma qilish muddatiga o'zgartirish kiritish yoki bekor qilish pensionerning arizasiga asosan amalga oshiriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevraldagi 118-son qarori bilan Mudofaa sanoati kompleksini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida nizom tasdiqlandi.

Jamg'arma Mudofaa sanoati davlat qo'mitasida yuridik shaxsni tashkil etmagan holda tuzilmoqda. Uning barcha mablag'lari Qo'mitaning Markaziy bank bo'linmalarida ochiladigan bank hisobraqamlarida jamlanadi. Jamg'arma mablag'lari:

- mudofaa sanoati kompleksining salohiyatini rivojlantirish va oshirish bo'yicha loyihalarni, shuningdek qurol-yarog', harbiy texnikani ishlab chiqish hamda modernizatsiyalash tadbirlarini moliyalashtirishga;

- mudofaa sanoati sohasida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirishga;

- Qo'mita kadrlarini, jumladan, xorijiy ta'lim muassasalarida qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tadbirlariga;

- seminarlar, davra suhbatlari, konferensiyalar, treninglar, Qo'mitaning boshqa tadbirlarini o'tkazishga yo'naltiriladi.

Jamg'armaning Qo'mita raisi rahbarlik qiladigan Kengashi mablag'lardan foydalanish uchun ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi. U Moliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazish uchun Jamg'arma daromadlari va xarajatlari smetasini ham tasdiqlaydi.

Jamg'arma mablag'lari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

1. Davlat byudjetining mudofaa-sanoat kompleksini rivojlantirishga ajratiladigan mablag'lari;

2. Qo'mitaga to'lanadigan vositachilik haqi, jumladan:

– tuzilgan import kontrakt (vositachilik shartnomasi) qiymatining 1%i;

– qurol-yarogʻ, harbiy va maxsus texnika yetkazib berish, harbiy-texnik xizmatlar koʻrsatish boʻyicha;

– mudofaa sanoati kompleksi korxonalari ishlab chiqargan harbiy va ikki xil maqsadda ishlatiladigan mahsulotlarni sotish boʻyicha;

– boʻshaydigan harbiy-texnik mulkni tashqi bozorga sotish boʻyicha tuzilgan kontrakt qiymatining 30%i;

3. Qoʻmita tomonidan tegishli faoliyat sohaslarini litsenziyalashdan tushadigan mablagʻlarning 100%i, shu jumladan qayd etilgan maqsadlar uchun vazirlik va idoralarning xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan byudjet mablagʻlari;

4. Qoʻmita tarkibiga kiradigan tashkilotlarning ajratmalari;

5. Shartnoma (kontrakt) majburiyatlarini buzganligi uchun yuridik shaxslardan maʼmuriy va sud tartibida undiriladigan jarimalar miqdorining 100%i;

6. Jamgʻarma boʻsh mablagʻlarini likvidli moliya vositalarida (depozitlar, qimmatli qogʻozlar, obligatsiyalar va boshqalar) vaqtincha joylashtirishdan olinadigan daromadlar;

7. Taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Bunda Jamgʻarmaning 25%dan ortiq boʻlmagan mablagʻlari Qoʻmita va uning idoraviy mansub tashkilotlari xodimlarini moddiy ragʻbatlantirish va ijtimoiy himoya qilishga yoʻnaltiriladi.

Tayanch soʻz va iboralar *Byudjet xarajatlari, ijtimoiy xarajatlar, xarajatlari, iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlar, veterinariya xarajatlari, tabiatni muhofaza qilish xarajatlari, ekspluatatsion xarajatlar.*

Oʻz-oʻzini tekshirish uchun savollar:

1. Byudjet xarajatlarining iqtisodiy mohiyati nimadan iborat?
2. Byudjetning joriy xarajatlari tarkibini aytib oʻting.

3. Byudjetning kapital xarajatlari tarkibini aytib o'ting.
4. Tarmoq belgisi bo'yicha byudjet xarajatlari qanday turlarga bo'linadi?
5. Takror ishlab chiqarishdagi o'rniga ko'ra byudjet xarajatlari qanday turlarga ega?
6. Byudjetning iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlarining mohiyati nimadan iborat?
7. Ijtimoiy soha xarajatlari tarkibida eng yuqori ulushga ega bo'lgan xarajat turini ayting.

X BOB. DAVLAT BYUDJETI HOLATI

10.1. Davlat byudjetining umumiy holati: balanslilik, profitsit va taqchilik holatlari

Iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning bugungi bosqichida byudjet daromadlari ishlab chiqarishning rivojlanishi, xo'jalik subyektlarining va aholi daromadlarining oshib borishi, soliq bazalarining kengayishi, mulk shakllarining ko'payishi bilan tobora ortib bormoqda. Ammo bu davrda jamiyatning ko'p tomonlama ehtiyojlari ham kamaygani yo'q, aksincha, byudjet tomonidan moliyalashtirilishi obyektiv zaruriyat bo'lgan, mohiyat jihatidan yangi-yangi tadbirlar, loyihalar, yo'nalishlar paydo bo'lmoqda. Ularni to'liq hajmda moliyalashtirish yanada ko'proq mablag'larni taqozo etadi. Lekin daromadlarni muttasil oshirib borish (xususan, soliqlarni oshirish orqali) imkoniyati amaldagi soliq qonunchiligi bilan chegaralangan. Shu bilan birga, soliqlarni asossiz ravishda oshirish iqtisodiy subyektlarning xo'jalik faoliyatiga jiddiy putur yetkazadi, ularning ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi. Bunday sharoitda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlari bilan balanslashgan bo'lishiga har doim ham erishib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi (3-moddasi)da davlat byudjetining holatini belgilab beruvchi tushunchalarga quyidagicha ta'riflar berilgan⁶⁵:

Davlat byudjeti profitsiti – muayyan davrda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti daromadlarining uning xarajatlaridan oshib ketishi;

⁶⁵ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 1-bob, 3-modda. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-I-son.

Davlat byudjeti taqchilligi – muayyan davrda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti xarajatlarining uning daromadlaridan oshib ketishi.

Davlat byudjeti daromadlarining byudjet xarajatlaridan oshish holati yuzaga kelganda, *byudjet profitsiti* paydo bo‘ladi. Byudjet profitsiti, odatda, davlatning qarz majburiyatlarini to‘lashga va likvidli mablag‘larini ko‘paytirishga jalb etiladi.

Davlat byudjeti bilan mamlakat YaIM miqdorining o‘rtasida katta bog‘liqlik mavjud. Agar tovar va xizmatlar bo‘yicha davlat xaridlarini daromadlarga bog‘liq bo‘lmagan doimiy kattalik deb qabul qiladigan bo‘lsak, unda daromadlar miqdori kichik bo‘lganda taqchillik, katta bo‘lganda esa byudjet profitsiti kuzatiladi.

Mustaqillik yillarida davlat byudjet siyosatining eng muhim vazifasi iqtisodiyotni barqarorlashtirish doirasida byudjet taqchilligining oshib borayotgan sur‘atini jilovlashdan iborat bo‘ldi. Bu vazifaning hal etilishi natijasida iqtisodiyotning rag‘batlantiruvchi, o‘ta muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan joriy xarajatlargagina mablag‘larni ajratish yo‘lidan borildi va taqchillik o‘rtasidagi eng maqbul mutanosiblik ta‘minlandi. Islohotlarning 2-bosqichi yakunlariga kelib, byudjet taqchilligini yo‘l qo‘yilgan eng kam darajasi (YaIMning 3-3,5 foizi) doirasida cheklashga erishildi. 2000–2004-yillar davomida byudjet taqchilligi darajasi YaIM ning 1-1,2 foizidan oshmadi. 2005-yildan 2018- yilga qadar davlat byudjeti YaIM ga nisbatan 0,1-1,5 foiz profitsit bilan ijro etib kelindi. Ammo 2018-yilda davlat byudjetida 646,4 mln so‘m defitsit kuzatilgan bo‘lsa, 2019-yilda ushbu ko‘rsatkich 4490,8 mln so‘m miqdorida prognoz qilindi⁶⁶. 2020-yilda konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligi 0,5 foiz bo‘lishi rejalashtirilgan bo‘lib, 2019-yilgi kutilayotgan byudjet taqchilligiga nisbatan (1,3 foiz) kamaygan⁶⁷. Byudjet taqchilligi davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalarning


⁶⁶ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma‘lumotlari asosida hisoblandi.

⁶⁷ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma‘lumotlari asosida hisoblandi.

yil boshiga mablag'lari, ichki g'aznachilik obligatsiyalarini chiqarish, byudjetni qo'llab-quvvatlash uchun beriladigan chet el imtiyozli kreditlari hisobiga qoplanadi.

10.2. Davlat byudjeti taqchilligi tushunchasi, uning shakllari, davlat byudjeti taqchilligini keltirib chiqaruvchi omillar

Agar byudjet balanslashgan bo'lsa, unda soliq tushumlari hajmi davlat xaridlari miqdori bilan muvofiq bo'ladi. Agarda iqtisodiyotda pasayish kuzatilayotgan bo'lsa, unda davlat xaridlari o'zgarmagan holatda byudjetga soliq tushumlari miqdori qisqaradi, natijada esa byudjet taqchilligi yuzaga keladi. Iqtisodiy o'sish fazasida esa aksincha, byudjetga soliq tushumlari miqdori davlat xaridlari miqdoridan oshsa, byudjet profitsiti yuzaga keladi. Byudjet xarajatlari va soliq stavkalarining mavjud darajasida byudjet taqchilligi yoki profitsiti miqdori daromadlar miqdoriga bog'liq bo'ladi.



10.1-chizma. Davlat byudjetini siklik balanslashtirish

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, byudjet xarajatlari byudjet daromadlaridan ortib ketsa, byudjet taqchilligi yuzaga keladi.

Byudjet taqchilligi = Byudjet xarajatlari – Byudjet daromadlari

Sof soliqlar = Soliq tushumlari – ijtimoiy to‘lovlar.

Bunday holatda byudjet taqchilligini quyidagicha ifodalash mumkin:

Byudjet taqchilligi = Davlat ehtiyoji uchun tovar va xizmatlar xaridi –

Sof soliqlar yoki

$$BT = G - T.$$

Demak, byudjet taqchilligi deganda muayyan davrda byudjetning xarajat qismining uning daromad qismidan ortib ketishi tushuniladi. Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida har yilgi taqchillikning va tez o‘rib boruvchi davlat qarzining mavjud bo‘lishi kuzatiladi. O‘tgan asrning 70-yillari boshlariga kelib, byudjet taqchilligining yalpi ichki mahsulotga nisbatan foiz hisobida o‘sgan davlatlar bu ko‘rsatkich pasaygan mamlakatlarga nisbatan ko‘pchilikni tashkil etgan. AQShda ikkinchi jahon urushi yillarigacha byudjet taqchilligi bo‘lmagan, faqat urush yillarida davlat byudjetida taqchillik yuzaga kelgan.

Sobiq Ittifoqda ma‘muriy-buyruqbozlik yillarida davlat byudjeti taqchilligi uzoq vaqtlargacha mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida tan olinmagan. Davlat byudjetini shakllantirishda moliyaviy resurslarga bo‘lgan talabdan kelib chiqqan holda, ularni moliyalashtirish uchun mablag‘lar qidirib topilardi va shu asosda davlatning moliyaviy manfaatlari ta‘minlanardi. Rejali iqtisodiyot ma‘lum davrlargacha hech qanaqa larzalarsiz, bir tekisda ma‘muriy-buyruqbozlik asosida rivojlanib borishi daromadlar va xarajatlar orasida “kasallik” alomatlarini aniq ko‘rsatmadi. Ammo, keyingi davrlarda sobiq Ittifoqda byudjet taqchilligi holati yuzaga chiqib boshladi. Dastlabki yillardagi byudjet taqchilligi jamg‘arma kassalardagi aholi mablag‘lari, hayotni uzoq muddatga sug‘urta qilish badallarining o‘sishi va aholi o‘rtasida davlatning ichki yutuqli zayom obligatsiyalarini chiqarish hisobiga qoplab borildi. Bu turdagi qarzlard oldindan mavjud bo‘lgan resurslarni

qayta taqsimlash bo'lgani uchun moliyaviy-moddiy balansning buzilishiga olib kelmadi, ammo bu jarayon davlat qarzlarining o'sishiga olib keldi. 1986-yilda byudjet taqchilligining juda tez sur'atda o'sib ketishi (45,5 mlrd rubl) Ittifoq moliya tizimining parokandalik holatini boshlab berdi.

Ammo byudjet taqchilligini favqulodda, mustasno bo'lgan hodisa deb qarab bo'lmaydi. O'zining tarixiy va iqtisodiy rivojlanishining u yoki bu bosqichida byudjet taqchilligiga duch kelmagan davlat bo'lmasa kerak. Masalan, AQShda federal byudjet keyingi yarim asr mobaynida faqat 1969-yildagina taqchilliksiz ijro etilgan.

Taqchillikning hajmi:

- milliy valyutada absolyut summada;
- mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmiga nisbatan;
- milliy daromad hajmiga nisbatan;
- byudjet daromadlari va xarajatlariga nisbatan foizlarda aniqlanadi.

Taqchillikning sifat jihatdan quyidagi turlari mavjud:

– taqchillik davlatning markazlashgan kapital qo'yilmalarini iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida oshirish yuzasidan kelib chiqishi mumkin. Bunday holatda u iqtisodiyotdagi krizis holatini bildirmaydi, balki davlatning iqtisodiy konyukturani tartibga solish, jadal rivojlanishni ta'minlash zaruriyatidan kelib chiqadi;


– taqchillik favqulodda holatlar natijasida kelib chiqishi mumkin (urushlar, tabiiy ofatlar va boshq.). Bunday holatlarda odatdagi rezervlar yetarli bo'lmaydi va ortiqcha mablag'larga ehtiyoj tug'iladi;

– taqchillik krizis holatidan kelib chiqadi.

Bunda iqtisodiyot parokandalikka yuz tutadi, moliya-kredit mexanizmlari samarasiz ishlaydi, hukumat mamlakatning moliyaviy barqarorligini amaldagi usullar bilan boshqara va tartibga sola olmaydi. Bunday taqchillik iqtisodiyot uchun xatarli bo'lib, zudlik bilan

iqtisodiyotni barqarorlashtirish, xo'jalikning moliyaviy holatini sog'lomlashtirish bo'yicha aniq choralar ko'rishnigina emas, balki voqelikka mos keluvchi siyosiy qaror qabul qilishni taqozo etadi. Aynan shu turdagi, iqtisodiy rivojlanishni, iqtisodiy tizimning tashkiliy tamoyillarini stixiyali holda qayta qurish mamlakatda (80-yillar) turg'unlik holatini keltirib chiqardi.

Taqchillikning kelib chiqish sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin (10.2-chizma):



10.2-chizma. Taqchillikning kelib chiqish sabablari

Umuman olganda, “funktional moliya” g‘oyasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida byudjet taqchilligi muammolarini hal qilish uchun umuman iqtisodiyotni balanslashtirish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, inflyasiyasiz to‘la bandlikka erishish zarur.

10.3. Davlat byudjeti taqchilligini tartibga solish va boshqarish

Mamlakatimizda byudjet taqchilligini boshqarish masalasi byudjet-soliq siyosatining dolzarb muammolaridan biri hisoblanib, bu muammoni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Xususan, davlat byudjeti mablag'lari hisobidan davlat qarziga xizmat ko'rsatish xarajatlarini hisobga olgan holda 2020-yildagi konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligi 6714,8 mlrd so'mni tashkil etadi. Konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligining 780 mlrd so'mi davlat maqsadli jamg'armalariga to'g'ri kelib, qoplash manbasi sifatida jamg'armalarning 2020-yil boshidagi qoldiqlari belgilangan.

Joriy moliya yili uchun mo'ljallangan Davlat byudjeti taqchilligining tasdiqlangan cheklangan miqdori ortgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga Davlat byudjeti xarajatlarini qisqartirish to'g'risida takliflar kiritadi.

Davlat byudjeti xarajatlarini qisqartirishda xarajatlarning ustuvorligi va ijtimoiy yo'naltirilganligi byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning qabul qilingan yuridik hamda moliyaviy majburiyatlari hisobga olingan holda baholanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek, tumanlar va shaharlar Kengashlari o'z byudjetlarining balansiligi buzilishiga va Davlat byudjeti taqchilligining tasdiqlangan cheklangan miqdori oshishiga olib keladigan tegishli byudjet daromadlarini qisqartirishga yoki xarajatlarini ko'paytirishga qaratilgan biror-bir qaror qabul qilishga haqli emas.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari qabul qilinganidan keyin moliya yili mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq

deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek tumanlar va shaharlar Kengashlarining tegishli byudjet daromadlari qisqarishiga olib keladigan qarorlari tegishli byudjet xarajatlari qisqartirilgan taqdirdagina qabul qilinishi mumkin.

Agar Davlat byudjeti qabul qilinganidan keyin moliya yili mobaynida tegishli byudjetlarning daromadlari va xarajatlari parametrlarini ko'paytirish yoki kamaytirish to'g'risida qarorlar qabul qilinsa, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya organlari tomonidan tegishli darajadagi byudjetlar hajmlariga o'zgartirishlar kiritiladi. Xarajatlarni ko'paytirish yoki qisqartirish barcha darajadagi byudjetlar o'rtasida o'zaro hisob-kitoblar yo'li bilan amalga oshiriladi.

10.1-jadval

**O'zbekiston Respublikasining 2020-yilgi
Konsolidatsiyalashgan byudjetining prognoz ko'rsatkichlari⁶⁸**

mlrd so'm

№	Ko'rsatkichlar	Qonun loyihasi bo'yicha	Hisob palatasi taklifi
I	Konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari	159620,1	159620,1
II	Konsolidatsiyalashgan byudjet xarajatlari	163045,0	180729,0
	Shundan Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan davlat qarzlarini qoplash xarajatlari		3289,9
III	Davlat maqsadli jamg'armalariga transfertlar	9298,1	9298,1
IV	Konsolidatsiyalashgan byudjet saldosi	-3424,9	-6714,8

⁶⁸ O'zbekiston Respublikasining "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni loyihasi va 2020 yil uchun Byudjetnoma bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining XULOSASI. Toshkent – 2019 y.

Taqchillikning 5 934,4 mlrd so‘mi Davlat byudjetiga to‘g‘ri kelib, uni qoplash manbasi sifatida byudjetni qo‘llab quvvatlash uchun chetdan jalb qilingan imtiyozli kreditlar va Davlat g‘azna obligatsiyalarini chiqarish hisobiga jalb qilinadigan mablag‘lar belgilangan.

10.2-jadval

2020-yil uchun prognoz qilingan konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligi va uni qoplash manbalari⁶⁹

trln so‘m

№	Ko‘rsatkichlar	Davlat byudjeti	Davlat maqsadli jamg‘armalari	Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi
1	Daromadlar	129,1	34,7	5,1
1.1	shundan Davlat byudjetidan ajratiladigan transfertlar		9,1	
2	Xarajatlar	135,0	35,5	5,1
	shundan			
2.1	Davlat maqsadli jamg‘armalariga transfertlar	9,3		
2.2	Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan davlat asosiy qarzini qoplash xarajatlari	3,3		
3	Taqchillik (-); profitsit	-5,9	-0,8	0,0
4	Byudjetnomada aks ettirilgan taqchillikni qoplash manbalari	1,4		

⁶⁹ O‘zbekiston Respublikasining “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasi va 2020 yil uchun Byudjetnoma bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining XULOSASI. Toshkent – 2019 y.

4.1	Davlat g'aznachilik obligatsiyalarini chiqarish va joylashtirish		0,8	
4.2	2020-yil boshiga Davlat maqsadli jamg'armalar qoldig'i			
4.3	Chetdan jalb qilingan kreditlar	4,5		

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan berilgan quyidagi taklif va mulohazalar muhim ahamiyatga ega:

- Byudjet siyosatining 2020–2022-yillarga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarida taqchillikni qoplashga yo'naltirish maqsadida joylashtirilishi rejalashtirilayotgan davlat qimmatli qog'ozlari (shu jumladan, ichki g'azna obligatsiyalari) bo'yicha hisob-kitoblar (ularning miqdori, foiz stavkalari, joylashtirish muddatlari va h.k) mavjud bo'lmaganligi sababli Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalari asoslanganligiga aniq baho berib bo'lmaydi.

- Byudjetnomaning "2020–2022-yillarga Davlat qarzi siyosati" bo'limida davlat tashqi qarzi 2019-yil yakunida 15,3 mlrd AQSh dollari (YalMga nisbatan 25,4 foiz), 2020-yil oxirida 20,6 mlrd AQSh dollari (YalMga nisbatan 29,5 foiz) tashkil etishi ta'kidlangan. Asosiy maqsadli makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda davlat tashqi qarzi 2019-yilda 23,2 mlrd AQSh dollari, 2020-yilda 30,5 mlrd AQSh dollari miqdorida belgilangan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 19 va 24-moddalarida byudjet tasnifi Davlat byudjeti taqchilligini ichki va tashqi manbalar bo'yicha guruhlashdan iborat bo'ladigan Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifini o'z ichiga olishi ko'rsatilgan bo'lsada, ushbu tasnif haligacha ishlab chiqilmagan. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Davlat byudjeti

taqchilligini qoplash manbalari tasnifini joriy etish va Qonun loyihasida taqchillikni qoplash manbalarini tasnifga muvofiq aks ettirish maqsadga muvofiq.

10.4. Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalari, ularning gurublanishi, taqchillikni qoplashning ichki va tashqi, inflyasion va noinflyasion manbalari, ularning xususiyatlari

O'zbekiston respublikasi Byudjet kodeksining 22-bob 151-156-moddalarida byudjet holati, shuningdek byudjet taqchilligi kuzatilganda davlat tomonidan mablag' jalb qilish masalalari o'z aksini topgan.

Davlat byudjeti taqchilligi:

- O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti mablag'larining moliya yili boshidagi qoldiqlari;
- davlat tomonidan mablag' jalb qilish;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifi ularni ichki va tashqi manbalar bo'yicha guruhlashdan iborat (10.3-jadval).

10.3-jadval

Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifi

№	Nomi
1	Ichki manbalar
	Davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirishdan tushgan mablag'lar
	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larining qoldig'i
	O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'larining qoldig'i
	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi mablag'larining qoldig'i
	Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari

	Boshqa ichki manbalardan jalb qilinadigan mablag'lar
2	Tashqi manbalar
	Davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirishdan tushgan mablag'lar
	Xalqaro moliyaviy institutlar, tashkilotlar kreditlari
	Xorijiy davlatlar kreditlari
	Boshqa tashqi manbalardan jalb qilinadigan mablag'lar

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kreditlarini Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbasi sifatida jalb qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat tomonidan mablag' jalb qilish ichki va xorijdan mablag' jalb qilishdan iborat.

Davlat tomonidan ichki mablag'ni jalb qilish O'zbekiston Respublikasi rezidentlaridan mablag'larni jalb etish bo'lib, bu mablag'lar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi yoki qarz oluvchi-rezidentlarning kreditlarini (qarzlarini) to'lashga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga keladi.

Chet el manbalaridan (chet davlatlar, xalqaro tashkilotlardan, xalqaro moliya va iqtisodiy institutlardan, chet el hukumatlarining moliya tashkilotlari va O'zbekiston Respublikasining boshqa norezidentlaridan) mablag'larni jalb etish davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish bo'lib, bu mablag' bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi yoki qarz oluvchi-rezidentlarning kreditlarini (qarzlarini) to'lashga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga keladi.

Davlat tomonidan mablag' jalb etish bo'yicha qarorlar belgilangan tartibda qabul qilinadi.

Davlat tomonidan mablag' jalb qilish:

- iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini, shu jumladan rivojlanish davlat dasturlarini moliyalashtirish;
- davlat qarzini qayta moliyalashtirish;

- Davlat byudjeti taqchilligini qoplash uchun amalga oshiriladi.

Davlat qarzining eng yuqori miqdori har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan navbatdagi yil uchun Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining byudjetlari qabul qilinayotganda belgilanadi.

Davlat tomonidan mablag' jalb qilish:

- O'zbekiston Respublikasi tomonidan qarz oluvchi sifatida chet davlatlardan, xalqaro tashkilotlardan, xalqaro moliya va iqtisodiy institutlardan, chet el hukumatlarining moliya tashkilotlaridan hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa rezidentlari va norezidentlaridan jalb qilingan kreditlar (qarzar) bo'yicha;

- O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlari bo'yicha;

- O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqarilgan davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha qarz majburiyatlari tarzida amalga oshirilishi mumkin.

Qarz majburiyatlari qisqa muddatli (bir yilgacha bo'lgan muddatga), o'rta muddatli (bir yildan besh yilgacha muddatga) va uzoq muddatli (besh yil va undan ortiq muddatga) bo'lishi mumkin.

Davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi nomidan jalb qilingan kreditlarni (qarzlarni) qaytadan kreditlashda kredit (qarz) bo'yicha xizmat ko'rsatish yuzasidan ehtimoldagi tavakkalchiliklarni qoplashda foydalanish uchun jalb qilinayotgan kredit (qarz) stavkasining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda O'zbekiston Respublikasi marjasi belgilanishi mumkin. Kredit (qarz) bo'yicha qarzdorlik to'liq to'langan taqdirda kredit (qarz) bo'yicha O'zbekiston Respublikasi marjasining foydalanilmay qolgan summasi O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining daromadiga kiritiladi.

2019-yil oʻrtasida mamlakatimizda byudjet taqchilligi oshib ketgan edi. Shu sababli Moliya vazirligi tomonidan bir qator choralar koʻrildi. Byudjet taqchilligini qoplash uchun Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan uchta yoʻnalishdagi manbaga ruxsat berilgan:

- birinchisi, kreditlar hisobidan.
- ikkinchisi, davlatning qisqa muddatli obligatsiyalarini chiqarish hisobidan.

- uchinchisi, xususiylashtirishdan tushgan mablagʻlar hisobidan.

Moliya vazirligi mana shu uchta instrumentni ishlatib, yil davomida defitsitni kamaytirishga harakat qildilar. Xususan, joriy yilning uchinchi choragida byudjet taqchilligini nisbatan kamaytirish maqsadida qoʻshimcha takliflar tayyorlandi (yaʼni samarasiz xarajatlarni 1,4 trillion soʻmga qisqartirish boʻyicha). Bu degani vazirlik va idoralar tomonidan soʻralgan shuncha miqdordagi xarajatlar qabul qilinmadi. Byudjet taqchilligini kamaytirish boʻyicha ishlar yil oxirigacha davom ettirilishi koʻzda tutilgan. Sababi, byudjet taqchilligi mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligi, narx-navo siyosatiga taʼsiri, raqamlarga bogʻliq. Taqchillik qancha katta boʻlsa, bu makroiqtisodiy vaziyatga jiddiy taʼsir etishi mumkin. Chet el tajribasiga koʻra byudjet taqchilligi 3 foiz atrofida boʻlsa, uni bemalol boshqarish mumkin. Shu sababli Moliya vazirligi tomonidan har xil instrumentlar yordamida taqchillik kamaytirib borilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Oʻzbekiston Respublikasi nomidan davlat qimmatli qogʻozlarini chiqaradi. Davlat qimmatli qogʻozlarini chiqarish va ularning cheklangan hajmi toʻgʻrisidagi qaror belgilangan tartibda qabul qilinadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki:

- Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan emissiya qilingan davlat qimmatli qogʻozlarini joylashtirishda;

- davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha qiymatni, foizlarni va boshqa to‘lovlarni to‘lashda;

- davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirishda fiskal agent sifatida ishtirok etishi mumkin.

Davlat qimmatli qog‘ozlarini chiqarishdan olingan tushumlar:

- Davlat byudjeti taqchilligini qoplash uchun;

- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha chora-tadbirlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan belgilanadigan yirik investitsiya loyihalari va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun yo‘naltiriladi.

Moliyaviy-iqtisodiy ta’limotlar negizida byudjet taqchilligini moliyalashtirishning 2 xil usullari mavjudligi asoslangan:

- taqchillikni moliyalashtirishning emission (inflyasion) manbalari yoki muomalaga yangi pul mablag‘larini chiqarish. Xalqaro amaliyotda bu jarayon “senoraj” deb yuritiladi.

- taqchillikni moliyalashtirishning noemission (noinflyasion) manbalari yoki qarz, kredit, ssuda munosabatlari.

Birinchi usulni qo‘llash zamonaviy jamiyat taraqqiyotida inflyasiyaning kuchayib, pul muomalasi holatini yomonlashtiradi, iqtisodiyotda hamda ijtimoiy munosabatlarda salbiy holatlarning kelib chiqishiga zamin yaratadi.

Ikkinchi usulni qo‘llash esa byudjet taqchilligini qisqartirish imkonini bersada, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda ijobiy samaraga erishib bo‘lmaydi.

10.5. Davlat byudjeti taqchilligi to‘g‘risidagi zamonaviy konsepsiyalar, ularning mazmuni, xususiyatlari va ahamiyati

Davlat byudjeti taqchilligiga taalluqli konsepsiyalar – taqchillik rivojlanishi bilan bog‘liq asosiy tamoyil va an‘analar, shuningdek, ularni tartibga solish, moliyalashtirish manbalari bilan ta‘minlash orqali

ko'rilgan chora-tadbirlardir. Jahonda bu muammoni hal qilish uchun bir qancha konsepsiyalar, g'oyalar, yondashuvlar, mexanizmlar ishlab chiqilgan.

Iqtisodchilar hozirgacha byudjet taqchilligi holatiga ijobiy yoki salbiy ekanligi to'g'risidagi bahs va munozaralarga duch kelmoqdalar. Bu muammoni hal qilish bo'yicha jahonda bir-biriga zid bo'lgan bir qancha konsepsiyalar mavjud.

Doimiy yoki har yili balanslashtiriladigan byudjet g'oyasiga ko'ra, byudjet har yili daromadlar va xarajatlarning tengligi asosida tuzilishi shart. Har yili balanslashtirilgan byudjet konsepsiyasi bo'yicha byudjet tuzishda uning daromatlari va xarajatlari teng bo'lishi shart edi. Lekin har yili byudjetni balanslashtirish iqtisodiy tanglik tebranishini kuchaytiradi. Davlat byudjetni balanslashtirish maqsadida soliq stavkalarini ko'paytiradi, xarajatlarini kamaytiradi yoki ikkala usulni birga qo'llaydi.

Byudjetni balanslashtirish maqsadida hukumat birinchidan, soliq stavkasini oshiradi, davlat xarajatlarini qisqartiradi va uchinchidan ikkalasini uyg'unlikda amalga oshiradi.

Bu tadbirlar iqtisodiyotdagi yalpi talabni rag'batlantirish emas, balki uni qisqartirishga olib kelishi mumkin. Har yili balanslashtirilgan byudjet inflyasiya sur'atlarini tezlashtiradi, iqtisodiy o'sish davrida pul daromatlari ortadi. Har yili balanslashtirilgan byudjet o'tgan asrning 30-yillaridagi «Ulug' depressiya»gacha davlat moliyasini boshqarishda umumjahon miqyosida tan olindi. Yaqin-yaqingacha ushbu yondashuv moliya siyosatining maqsadi hisoblandi. Ammo bu yondashuvni chuqurroq va atroflicha ko'rib chiqadigan bo'lsak, uning iqtisodiyotni barqarorlashtirishga qaratilgan fiskal siyosatining samaradorligini pasaytirib yuborishini ko'rishimiz mumkin. Faraz qilaylik, iqtisodiyot surunkali ishsizlik bilan to'qnash keladi, tabiiyki, aholi daromatlari

bunday vaziyatda, pasayadi. Bunday vaziyatda albatta, davlat byudjetini, balanslashtirish uchun soliq stavkasini oshirish yoki davlat xarajatlarini kamaytirish lozim bo'ladi.

Hozirda ko'pchilik iqtisodchilarning fikrlari bo'yicha, ba'zi bir sabablarga ko'ra, byudjetning ijobiy yoki salbiy qoldiqqa ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bunday muammolarga qaramasdan, ko'pchilik davlatlarda balanslashtirilgan byudjet konsepsiyasining turli shakllari orqali qo'llab-quvvatlash, jumladan, Fransiyada XX asrning 70-80 yillarida namoyish etildi. Fransiyada balanslashtirilgan byudjet konsepsiyasining tamoyili qonunda qayd etilgan, byudjet taqchilligi bo'lishi man etilgan⁷⁰.

Mazkur tamoyil muvaffaqiyatli amalga oshirildi, lekin vaqt o'tishi bilan byudjet taqchilligiga erishish qiyinlasha bordi. Shunda uni to'g'rilash yo'llari qidirila boshlandi, har yili balanslashtirilgan byudjet tuzildi va qabul qilingan yil oxiriga yaqinlashgach, qo'shimcha byudjet tuzildi. Dastlabki qo'shimcha byudjet miqdori katta emas edi, lekin yil o'tgan sari u kattalasha bordi. Shunday qilib, bu mamlakatlarda balanslashtirilgan byudjet hayot tekshiruvidan o'tmadi. 1990-yillarga kelib katta byudjet taqchilligi yuzaga keldi va iqtisodchi olimlarning dolzarb muammolariga aylandi.

Ko'pgina iqtisodchilar davlat moliyasini samarali boshqarish va davlat byudjetini balanslashtirishdan voz kechish zarurligini bildirdi. S.Slixter, V.Katchines kabi iqtisodchilar ko'p harakat qilish va davlat byudjeti taqchilligidan qo'rqish kerak emasligini uqtirdilar. Iqtisodiyotdagi tanazzuldan so'ng, byudjet daromad va xarajatlari balansga ega bo'lishi kerak, deb hisobladilar. Bunday sharoitda davlat byudjetining sikl asosida balanslashtirilishi konsepsiyasi kelib chiqdi.

⁷⁰ Vahobov A., Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma. -T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2008. 260 bet.

Byudjetni doiraviy asosda balanslashtirish g'oyasiga ko'ra, davlatning moliyaviy siyosati imkoni boricha iqtisodiy jarayonlar bilan mos ravishda amalga oshirilishi zarur. Iqtisodiy tanglik va turg'unlik davrida sodir bo'lgan taqchillik iqtisodiy o'sish yillarida yuzaga keladigan taqchillikni qoplashga ishlatiladi. Bu g'oyaning asosiy muammosi shundan iboratki, iqtisodiy o'sish va inqirozlar iqtisodiy doirada bir xil bo'lmashligi mumkin, shuning uchun iqtisodiyotni barqarorlashtirish muammosi byudjetni balanslashtirish muammosiga qarshi chiqadi. Masalan, yirik iqtisodiy inqiroz natijasida yuzaga keladigan byudjet taqchilligini qisqa muddatli iqtisodiy o'sish jarayonida vujudga keladigan byudjet profitsiti yoki ijobiy qoldiq bilan qoplash yetarli bo'lmaydi.

S.Melandning fikricha, davlatning moliya siyosati iloji boricha, iqtisodiy ritm bilan sinxronlashuvi kerak. Tanazzul va depressiya vaqtida yuz beradigan kamomad yuksalish davridagi vujudga keladigan byudjet profitsiti hisobiga qoplanishi kerak⁷¹. Byudjetning "sikl asosida balanslashtirilgan byudjet" nazariyasi, sikl asosida balanslashtirish orqali hukumat sikl siyosatiga qarshi turadi va bir vaqtning o'zida byudjetni balanslashtiradi. Shunda byudjet har yili balansga ega bo'lishi mumkin emas. Uning iqtisodiy sikl davomida balanslashuvi yetarlidir. Bu byudjet taqchilligi to'g'risidagi konsepsiyaning asosi juda sodda, aniq va qiziqarlidir. Hukumat iqtisodiyot rivojlanishining pasayishini oldini olish uchun soliqlarni kamaytiradi, xarajatlarni oshiradi, natijada byudjet taqchilligini hosil qiladi. Kelgusi inflyasion yuksalish davrida soliqni ko'paytiradi va hukumat xarajatlarini qisqartiradi. Shu asosda hosil qilingan ijobiy qoldiq iqtisodiyotdagi holatni pasayish davrida hosil bo'lgan farqni qoplash uchun ishlatilishi mumkin. Ammo bularni amalga oshirish jami talabni yanada pasayishiga olib keladi. Ikkinchi

⁷¹ Vahobov A., Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma. -T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2008. 260 bet.

konsepsiyadagi eng asosiy muammo shundan iboratki, iqtisodiy faoliyatning ko'tarilishi va tanazzul vaqt davomiyligi nuqtai nazaridan farq qiladi. Masalan, tanazzul davri 3 yil, yuksalish davri 2 yil bo'lishi mumkin, unda 3 yilda yuzaga keltirilgan defitsit miqdorini 2 yilda paydo bo'lgan byudjetning "ijobiy saldo"si bilan qoplab bo'lmaydi.

Davlat moliyasini boshqarishda iqtisodiy yuksalish va iqtisodiy dinamika nazariyalarini rivojlanishi bilan kapital jamg'arishni tezlashtiruvchi yangi, ko'proq samara beruvchi vositalar qidirildi. Byudjet siyosatini amalga oshirish va iqtisodiy bilimlar ichida o'z o'rniga ega bo'lgan funksional moliya g'oyasi asosida byudjet emas, balki iqtisodiyot balanslashtirilishi kerak, degan qoida moliyaning dastlabki vazifasi, deb qabul qilingan. Funksional moliya g'oyasi yangi bo'lishiga qaramasdan, iqtisodiyot va byudjet siyosatida muhim o'rinni egallagan. Shu o'rinda iqtisodchi olim R.Linkoln fikrini keltirib o'tish o'rinli bo'ladi: "moliyaning eski qoidasi bo'yicha byudjet balanslashtirilishi kerak edi, yangi qoida bo'yicha esa byudjet iqtisodiyotni balanslashtirishi kerak"⁷². Mazkur nazariyaga ko'ra, byudjetni har yili yoki doiraviy asosda balanslashtirish ikkilamchi masaladir.

Davlat moliyasining birinchi maqsadi – bu noinflyasiyalik to'la bandlikni ta'minlashdir, ya'ni byudjetni emas, balki iqtisodiyotni balanslashtirishdir. Hatto bunga erishish uchun ba'zan davlat qarzlarini o'sishi kutilsa-da, davlat byudjeti taqchilligi muammolari uzoq muddatli inqirozlar va inflyatsiya oldida ikkinchi darajalidir. Shuning uchun davlat byudjeti makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi eng asosiy vositadir.

Mazkur konsepsiya birinchi marta XX asrning 60-70 yillarida GFRda o'z tajribasini namoyish etdi, davlat moliyasini boshqarish

⁷² Vahobov A., Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma. -T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2008. 260 bet.

sohasidagi faoliyati birinchi navbatdagi byudjetni balanslashtirishga emas, balki iqtisodiyotdagi tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ko'rinib turibdiki, byudjet kamomadi to'g'risida har xil qarashlar mavjud. Kimdir har qanday sharoitda uning bo'lmasligini yoqlaydi, kimdir ma'lum iqtisodiy sikl davrida bo'lishi mumkin deb qaraydi. Kimdir bu masalaga birinchi darajali ahamiyat bermaydi, chunki davlat moliyasining asosiy maqsadi davlat byudjetini balanslashtirish emas, balki iqtisodiyotni balanslashtirishdir.

Xorijiy mamlakatlar tajribalari shuni ko'rsatadiki, dunyodagi hech bir mamlakat o'zining iqtisodiy rivojlanish bosqichlarida biror konsepsiyaga qat'iy rioya etmagan, chunki byudjet holati muammosini yechish turlicha yondashuvni talab etadi. Iqtisodiyotni to'liq barqarorlashtirish uchun taqchillikning oldini olish maqsadida davlat xarajatlarini qayta ko'rib chiqish va kamaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xorijiy iqtisodchilardan biri, J.M.Keyns ham iqtisodiy o'sishni dadillashtirish va to'la bandlikni ta'minlash maqsadida taqchillikni moliyalashtirish siyosatini amalga oshirishni taklif qilgan. Byudjet taqchilligi favqulodda holatlar – urushlar, tabiiy ofatlarda doimiy zaxiralar yetarli bo'lmay qolishi va maxsus manbalarga murojaat qilishga majbur bo'lish natijasida ham yuzaga kelishi mumkin. Tabiiyki, bunday holatlarda byudjet taqchilligi paydo bo'ladi.

Shu narsaga alohida e'tibor berish kerakki, byudjet daromadlari darajasi va moliyalashtirish manbalari (soliqlar va qarz evaziga) mamlakatda qabul qilingan ijtimoiy-iqtisodiy model orqali aniqlanadi. Quyida keltirilgan 10.4-jadvalda yirik iqtisodiyotlar bo'yicha so'nggi 5 yil davomida bir nechta guruh bo'yicha o'rtacha miqdorlar asosida aniqlangan ko'rsatkichlar keltirilgan.

tahlillarga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda byudjet xarajatlari jon boshiga to'g'ri keladigan YalMga nisbatan hisoblangan kattalikdan ham yuqori ko'rsatkichga ega. Ayniqsa, Markaziy va Yevropa mamlakatlarida bu ko'rsatkich belgilangan me'yordan ancha farqlangan (yuqori)ligi bilan ko'zga tashlanadi. Sharqiy Osiyo davlatlarida esa bunga teskari jarayon kuzatilgan. Ushbu ko'rsatkichning me'yordan farqlanishi hukumat tomonidan olib boriladigan byudjet modelini o'zgartirishga sabab bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi ilmiy qarashlarni tahlil qilib, biz bugungi kunda ko'pchilik mamlakatlar amaliyotida ustuvor ahamiyat kasb etayotgan funksional moliya g'oyasining bizning mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun afzal ekanligi bo'yicha xulosa qilishimiz mumkin.

Tayanch so'z va iboralar *Byudjet holati, byudjet balansligi, byudjet taqchilligi, byudjet profitsiti.*

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Davlat byudjeti qanday holatda bo'ladi?
2. Davlat byudjetning balansligi, profitsit va taqchillik holatlari bir-biridan qanday farq qiladi?
3. Davlat byudjeti taqchilligi tushunchasini izohlang.
4. Byudjet taqchilligining qanday shakllarini bilasiz?
5. Taqchillikni keltirib chiqaruvchi omillarni sanab bering
6. Taqchillikni tartibga solish va boshqarish haqida tushuncha bering.
7. Taqchillikni moliyalashtirish manbalari, ularning guruhlanishi.
8. Taqchillikni moliyalashtirishning ichki va tashqi, inflyasion va noinflyasion manbalari, ularning xususiyatlari nimadan iborat?
9. Byudjet taqchilligi to'g'risida zamonaviy konsepsiyalarning mazmuni, xususiyatlari va ahamiyatini yoritib bering.

Iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlarda 2012–2016-yillarda byudjet tizimlarining o'rtacha parametrlari, YaIMga nisbatan %da⁷³

	Rivojlanayotgan davlatlar						Rivojlan gan davlatlar
	Rossiya	Shvetsiya	Sharqiy Osiyo	Neft qazib oluvchilar	Boshqalar	Jami	
Daromadlar	33,5	40,1	19,3	35,9	26,9	30,2	40,0
Xarajatlar	35,3	43,0	22,6	38,8	30,8	33,5	41,7
Taqchillik (-)/ profitsit (+)	-1,8	-3,0	-3,3	-2,9	-3,9	-3,3	-1,7
O'rtacha jon boshiga nisbatan hisoblangan YaIMga mos ravishda hisoblangan xarajatlar	36,0	34,9	33,5	38,4	34,2	35,4	38,8
Jon boshiga YaIMning miqdori (XQB) (doll/jon boshiga)	2615 2	1977 4	1165 3	4021 0	1560 9	2308 7	43107

Jadvalda byudjet parametrlari bo'yicha sezilarli farqi bo'lgan mamlakatlarning 5 ta yirik guruhi keltirilgan:

- Rivojlangan;
- Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari;
- Sharqiy Osiyo mamlakatlari;
- Neft qazib oluvchi yetakchi mamlakatlar;
- Boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar va shakllanayotgan bozorlar.

Keltirilgan ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, Vagner qonuniga asosan, rivojlangan mamlakatlar byudjet xarajatlari YaIMga nisbatan yuqori ulushga ega bo'ladi. Iqtisodchilar tomonidan olib borilgan

⁷³ Белев С.Г., Векерле К.В., Гурвич Е.Т., Золотарева А.Б., Могучев Н.С., Соколов И.А., Тищенко Т.В., Филиппова И.Н. Бюджет как инструмент экономического развития / – М.: Издательский дом. Дело. РАНХиГС, 2019. – с.14.


XI BOB. BYUDJET JARAYONI

11.1. Byudjet jarayonining to'g'risida tushuncha. Byudjet jarayoni bosqichlari: byudjet loyihasini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, byudjet ijrosini nazorat qilish, byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash

Mamlakatimizda byudjet jarayonining mazmuni uning davlat va byudjet qurilishi, tegishli vakolatli organlar va yuridik shaxslarning byudjet huquqlari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga asosan, byudjet jarayoni – byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning ijrosini nazorat qilish, byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonidir⁷⁴.

Byudjet jarayoni, odatda, byudjet faoliyatining quyidagi to'rt bosqichini o'z ichiga oladi (11.1-chizma):



11.1-chizma. Byudjet jarayoni bosqichlari

⁷⁴ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 1-bob, 3-moddasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini to'plami, 2013 y., 52-1-son.

Byudjet jarayonining davomiyligi yuqoridagi to'rt bosqichning barchasidan iborat bo'lib, odatda, uch yilga yaqin davom etadi. Buning bir yilga yaqini byudjet loyihasini ishlab chiqish, uni ko'rib chiqish va tasdiqlashga, bir kalendar yili (1-yanvardan 31- dekabrgacha) byudjetni ijro etishga (byudjet yili) va sakkiz oyga yaqini byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlashga va uni tasdiqlashga to'g'ri keladi.

Byudjet jarayonini tashkil etish negizida qonun hujjatlari asosida to'g'ri va o'z vaqtida byudjetni tuzish, tasdiqlash va ijro etish imkonini beradigan bir qator tamoyillar yotadi. Bu borada A.S. Neshitoy tomonidan byudjet jarayonini tashkil etishda quyidagi tamoyillarga rioya qilish kerakligi ta'kidlangan⁷⁵:

- yagonalik va byudjet daromadlari va xarajatlarini qamrab olishning to'liqligi tamoyili;
- rejalashtirilayotgan byudjet daromadlarining realligi va byudjet xarajatlarining ijtimoiy-iqtisodiy asoslanganlik tamoyili;
- byudjet loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlashning ommaviyligi va oshkoraligi;
- byudjet tasnifiga rioya qilish tamoyili;
- byudjetlarning davriyligi;
- keyingi moliya yili byudjetida prezident murojaatnomasida keltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning aks ettirilishi.

Mamlakatimizda byudjet jarayonini tashkil qilishda yuqorida keltirilgan tamoyillar qatorida quyidagi tamoyillarga ham rioya qilinadi:

- yagonalik – yagona huquqiy baza, yagona byudjet tasnifi, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti va hududlar byudjetlarini tuzishda statistik axborot tuzish uchun zarur bo'lgan byudjet hujjatlari shaklining yagonaligi;

⁷⁵ Ковалев Т. М., Барулин С. В. Бюджет и бюджетная политика в Российской Федерации: учеб. пособие. М.: КНОРУС, 2005. с.262-263.

– har bir qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyati organining byudjet jarayonidagi mustaqilligi – o‘z daromad manbalari va ulardan foydalanish yo‘nalishlarini belgilash huquqi bilan ta‘minlanadi;

– balans usuli – jami byudjetlarning daromadlari va xarajatlari o‘rtasida, shuningdek, moddiy va moliyaviy ko‘rsatkichlar o‘rtasida to‘g‘ri nisbatlarni belgilashni nazarda tutadi.

Byudjet jarayonida uning qanday tamoyillari amal qilmasin, ularning barchasi J.Burkxedom tomonidan taklif etilgan quyidagi fikrga asoslanadi: Eng samarali tamoyil sifatida faqatgina joriy tenglik (moslik)ni keltirish mumkin. Byudjet sikli va byudjet jarayoni hukumatning eng zarur muammolarini hal qilishni ta‘minlashi kerak. Bu shuni anglatadiki, asosiy e‘tiborni ularning ma‘lum bir o‘zgarmas ideallikka muvofiqlik darajasiga emas, aksincha ularning qayishqoqligi va moslashuvchanligiga qaratish kerak⁷⁶.

Byudjet jarayonining asosiy vazifalari N.B. yermasov, A. M Godin, V. P. Goreglyad, I. V. Podporinlar tomonidan quyidagicha ifodalangan⁷⁷:

- davlatning moddiy va moliyaviy zaxiralarini aniqlash;
- byudjet daromadlarini maksimal darajada real holatga keltirish;
- byudjet xarajatlarining maksimal aniqligini ta‘minlash;
- maksimal darajada byudjetlarni tenglashtirishga erishish;
- amalga oshirilayotgan iqtisodiy dasturlar bilan byudjetning muvofiqligini ta‘minlash;
- turli darajadagi byudjet bo‘g‘inlari, tarmoqlar va iqtisodiy hududlar o‘rtasida byudjet daromadlarini qayta taqsimlash maqsadida byudjetni tartibga solish;
- Jismoniy va yuridik shaxslarning moliyaviy faoliyati ustidan samarali nazoratni oshirish;
- Byudjetni tuzish va ijro etish jarayonini avtomatlashtirish.

Byudjet jarayoni byudjetni rejalashtirishdan boshlanadi. Byudjetni rejalashtirish davlat moliyaviy siyosati talablariga muvofiqlashtirilgan

⁷⁶ Финансы: учебник / Ю. С. Долганова, Н.Ю. Исакова, Н.А. Истомина [и др.]; под общ. ред. канд. экон. наук, доц. Н.Ю. Исаковой; Мин-во обр. и науки РФ. — Екатеринбург: Издво Урал. унта, 2019. — с. 130.

⁷⁷ Бюджетная система Российской Федерации: учебник / под общ. ред. Ю. С. Долгановой, Н. А. Истоминой. — Екатеринбург: Издво Урал. унта, 2019. — с. 221-222.

moliyaviy rejalashtirishning muhim tarkibiy qismini tashkil qiladi. Bunday rejalashtirishning iqtisodiy vazifasi turli darajadagi byudjetlar va byudjetdan tashqari jamg'armalarni tuzish va ijro etish jarayonida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning umummilliy dasturlari asosida yalpi ichki mahsulot va milliy daromad qiymatini moliya tizimi bo'g'inlari o'rtasida markazlashtirilgan tarzda qayta taqsimlash proporsiyalarini to'g'ri belgilashdan iboratdir.

Byudjet loyihasini tuzish byudjet jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Davlat byudjetining loyihasini tuzish (yaratish, ishlab chiqish) bo'yicha ishlar yangi byudjet yilining boshlanishidan ancha oldin, masalan, GFRda – 6 oy, Yaponiyada – 8 oy, Fransiya – 14 oy, AQShda – 18 oy, O'zbekistonda – 7 oy oldin boshlanadi. Uning loyihasini tuzish ijroiya hokimiyat organlari, odatda, Moliya vazirligi (G'aznachilik) tomonidan amalga oshiriladi. Ba'zi bir mamlakatlarda byudjet loyihasini tuzish davlat ijroiya hokimiyati boshlig'i (rahbari)ning kelgusi yilga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining umumiy yo'nalishlari muammolari bo'yicha chiqishidan (ma'ruzasidan) boshlanadi. Masalan, AQShda prezident amerika xalqiga byudjetnoma bilan murojaat qilib, unda moliya-pul siyosatining asosiy vazifalari, kelgusi byudjet yili va navbatdagi to'rt yil uchun federal byudjet daromad va xarajatlarining hukumat bahosi shakllantiriladi⁷⁸.

Byudjet loyihasini tuzishdan oldin O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan muddatlarda kelgusi moliya yiliga tegishli byudjetlar va davlat maqsadli fondlarini tayyorlash uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, davlat maqsadli fondlarini taqsimlovchi organlarga, hamda byudjetdan ajratiladigan mablag'larni olishga buyurtmalar tuzish uchun respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilarga byudjet so'rovi yuborishi kerak.

⁷⁸ Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. – T: "Sharq", 2010 y., 470-bet.

Byudjet so'rovi – kelgusi davr uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'larni olishga bo'lgan ehtiyojni asoslashni nazarda tutuvchi hujjat⁷⁹.

U o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1)byudjet tashkilotining, byudjet mablag'lari oluvchining va byudjet mablag'larini taqsimlovchining byudjet tizimi byudjetlari mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq faoliyatining miqdor va sifat ko'rsatkichlarini o'z ichiga oluvchi, o'tgan yilda erishilgan natijalar va joriy yilda kutilayotgan natijalar to'g'risidagi tahliliy hisobotni;

2) xarajat majburiyatlarining ularni kiritish (ijro etish) uchun asos bo'ladigan hamda moliyalashtirish manbalari va amal qilish muddatlarini belgilaydigan normative huquqiy hujjatlar, shartnomalar va (yoki) ularning alohida qoidalari ko'rsatilgan reestrini;

3)byudjet mablag'larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturini;

4)byudjet mablag'larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturi bilan uzviy bog'liq holda tuzilgan kelgusi davr uchun byudjet buyurtmasini.

Byudjet so'rovini tuzish tartibi davlat byudjeti bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan, davlat maqsadli jamg'armalari bo'yicha – ularning taqsimlovchi organlari tomonidan belgilanadi.

Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihasini tuzish quyidagilarni nazarda tutadi:

- byudjet so'rovini tuzish tartibini yuborish;
- byudjet so'rovlarini hamda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlarini tayyorlash va taqdim etish;
- byudjet so'rovlarini ko'rib chiqish va jamlash;
- byudjetnomani ishlab chiqish.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili 15-aprelga qadar kelgusi davr uchun byudjet so'rovini tuzish tartibini O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti loyihasini tayyorlash uchun – byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga,


⁷⁹ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 1-bob, 3-modda. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-l-son.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari loyihalarini tayyorlash uchun – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari loyihalarini tayyorlash uchun – davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlarga yuboradi.

Byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan yuborilgan kelgusi davr uchun byudjet so‘rovini tuzish tartibini olgandan so‘ng uch ish kuni ichida tegishli byudjet so‘rovlarini tuzish to‘g‘risida va ularni tayyorlash muddatlarini belgilash haqida qarorlar qabul qilishlari lozim. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari esa mazkur qarorlar qabul qilinganidan so‘ng uch ish kuni ichida kelgusi davr uchun byudjet so‘rovini tuzish tartibini tegishli byudjetlar loyihalarini tayyorlash uchun – tuman va shahar hokimlariga va byudjet so‘rovlarini tuzish uchun – Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag‘lari oluvchilarga yuboradi.

Tuman shahar hokimlari kelgusi davr uchun byudjet so‘rovini tuzish tartibini olgandan so‘ng uch ish kuni ichida tegishli byudjetlar loyihalarini tuzish to‘g‘risida va ularni tayyorlash muddatlarini belgilash haqida qarorlari qabul qilishlari kerak. Tuman shahar hokimlarining moliya bo‘limlari mazkur qarorlar qabul qilinganidan so‘nggi uch ish kuni ichida kelgusi davr uchun byudjet so‘rovini tuzish tartibini tumanlar va shaharlar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlariga va byudjet mablag‘lari oluvchilarga byudjet so‘rovlarini tuzish uchun yuborishi lozim.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan tegishli byudjet so‘rovlarini tuzishni tashkiliy mexanizmini quyidagicha ifodalash mumkin (11.2-chizma):



11.2-chizma. Byudjet so'rovlarinin tuzishni tashkiliy mexanizmi

Tumanlar va shaharlar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlariga va byudjet mablag'lari oluvchilar yuqori moliya organlari tomonidan taqdim etilgan kelgusi davr uchun byudjet so'rovini tuzishning belgilangan talablari (tartibi) asosida byudjet so'rovlarini tuzadilar, hamda mazkur byudjet so'rovlarini belgilangan muddatlarda moliya organlariga taqdim etadilar.

Kelgusi davr uchun byudjet so'rovlari:

- Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan, shuningdek tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan tegishli moliya organlariga – joriy yilning 1-iyunigacha;

- byudjet mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga – joriy yilning 1-iyuligacha;

– davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga – joriy yilning 1-iyuligacha taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralar Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarining prognozi bo'yicha takliflarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarga – joriy yilning 15-iyunigacha taqdim etadi⁸⁰.

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan olingan byudjet so'rovlari asosida kelgusi moliya yili uchun tayyorlangan tumanlar va shaharlar byudjetlarining loyihalari tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga joriy yilning 25-iyunidan kechiktirmay taqdim etilishi kerak.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri moliya boshqarmalari tegishli hududiy byudjet loyahasini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga joriy yilning 1-iyulidan kechiktirmay taqdim etishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga – O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosasi bilan joriy yilning 15-oktyabridan kechiktirmay kiritiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan taqdim etilgan byudjetnoma O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko'rib chiqilib, qabul qilingach, u O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat byudjetining asosiy parametrlarini tasdiqlashga doir Qarori bilan tasdiqlanadi.

O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan taqdim etilgan byudjetnoma O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisining

⁸⁰ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 16-bob, 92-modda. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-I-son.

palatalari tomonidan ko'rib chiqilib, qabul qilingach, u O'zbekiston respublikasi Prezidentining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat byudjetining asosiy parametrlarini tasdiqlashga doir qarori bilan tasdiqlanadi. Byudjetnoma – davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihalari asosida shakllantirilgan hujjatdir.

Byudjetnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga – joriy yilning 15-sentyabriga qadar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga xulosa taqdim etishi uchun – joriy yilning 20-sentyabriga qadar kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari, shuningdek soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalari bo'yicha ikki haftalik muddatda xulosa taqdim etadi⁸¹.

O'zbekiston respublikasi Prezidentining qarori qabul qilingandan so'ng bir haftalik muddatda tegishincha Qoraqalpog'iston respublikasi Jo'qorg'i kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlari tomonidan Qoraqalpog'iston respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlari hamda xarajatlarining hajmlari qabul qilinadi.

11.2. Byudjet jarayoni ishtirokchilari, ularning vakolatlari va vazifalari

Byudjet jarayoni ishtirokchilari deganda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat moliyaviy nazorat organlari, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tushuniladi.

Byudjet mablag'larini taqsimlovchi esa o'z tasarrufida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan mablag' oladigan tashkilotlarga ega bo'lgan yuridik shaxs, shuningdek, O'zbekiston

⁸¹ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 16-bob, 96-modda. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-I-son.

Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag'lari oluvchi hisoblanadi.

Byudjet jarayoni ishtirokchilarining byudjet sohasidagi vakolatlari – byudjet jarayoni ishtirokchilarining byudjet munosabatlari sohasidagi vakolatlaridir.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 4-bobi byudjet sohasidagi vakolatlarga bag'ishlangan⁸². Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

- navbatdagi yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi qonun loyihasini va byudjetnomani ishlab chiqish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi;

- birinchi va ikkinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilar ro'yxatini tasdiqlaydi;

- Davlat byudjeti to'g'risidagi qonun loyihasini va byudjetnomani ko'rib chiqish hamda tegishli xulosa taqdim etish uchun O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi;

- byudjetnomani O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga taqdim etadi;

- Davlat byudjeti to'g'risidagi qonun loyihasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritadi;

- davlat boshqaruvi organlarining Davlat byudjetini va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini ijro etish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi hamda nazorat qiladi;

- Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni har chorakda ko'rib chiqadi;

- o'tgan moliya yili uchun Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tashqi audit o'tkazish hamda baholash uchun O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi;

- Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni

⁸² O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 4-bob, 25-33-moddalar. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-I-son

tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi;

- Ayrim ko'zda tutilgan hollarda moliya yili mobaynida O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan ajratiladigan mablag'larga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqadi;

- O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qonun loyihasini ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritadi;

- O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasi mablag'laridan foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

- birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovlariga O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan ajratiladigan mablag'lar doirasida ikkinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan byudjet mablag'larining cheklangan miqdorlarini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Byudjet jarayoni ishtirokchilaridan biri bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi:

- Davlat byudjeti to'g'risidagi qonun loyihasi va o'rta muddatli davr uchun fiskal strategiya bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xulosa taqdim etadi.

- Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobot bo'yicha tashqi audit va baholashni amalga oshiradi hamda ular yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xulosa taqdim etadi;

- vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda banklarning byudjet tizimi byudjetlari daromadlari va xarajatlari moddalarining maqsadli ijrosini boshlang'ich ma'lumotlar bo'yicha nazorat qilish imkonini

beruvchi axborot tizimlari va resurslariga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi;

- Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari daromad qismining ijrosi yuzasidan monitoring o'tkazadi;

- byudjet tizimi byudjetlari mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining byudjet sohasidagi vakolatlari esa quyidagilardan iborat:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini, tumanlar va shaharlar byudjetlarini tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq ko'rib chiqadi va qabul qiladi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq har chorakda ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;

- mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari:

- tegishli byudjet loyihasini ishlab chiqish va uni ijro etish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi;

– byudjet so‘rovi olinishiga qarab tegishli byudjetlarning loyihalarini tuzish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi, ularni tayyorlash tartibi va muddatlarini belgilaydi;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti loyihasini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari loyihalarini tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga ko‘rib chiqish va qabul qilish uchun taqdim etadi;

– tegishli tartibda moliya yili mobaynida Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari parametrlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi takliflarni ko‘rib chiqadi;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga tasdiqlash uchun taqdim etadi;

– Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

– byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi;

– qonun hujjatlarida belgilanadigan alohida soliqlar bo‘yicha belgilangan stavkalarga pasaytiruvchi va oshib boruvchi koeffitsiyentlarni kiritish to‘g‘risida hududlarning faoliyatni amalga oshirish joyining xususiyatlarini inobatga olgan holda qarorlar qabul qiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari yuqorida ko‘rsatilgan

vakolatlar bilan bir qatorda tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlari va Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining zaxira jamg‘armalari mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari yuqorida ko‘rsatilgan vakolatlar bilan bir qatorda mahalliy byudjetlarning parametrlarini hamda ularning ijrosi haqidagi hisobotlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan ko‘rib chiqish hamda tasdiqlash jarayonining ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ham ta‘minlaydi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Byudjet jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi faoliyatining ahamiyati yuqori darajada. Vazirlikning byudjet sohasidagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

- Davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonun loyihasini va byudjetnomani ishlab chiqadi;

- davlat maqsadli jamg‘armalarining byudjetlari loyihalarini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining daromadlari va xarajatlarini ko‘rib chiqadi;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonun loyihasini va byudjetnomani ko‘rib chiqish uchun taqdim etadi;

- O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasiga Davlat byudjetining daromadlari prognozini har chorakda yetkazadi;

- birinchi va ikkinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ular uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan

mablag'larni taqsimlash, shuningdek navbatdagi yil uchun xarajatlar smetasini tuzish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalarni yuboradi;

- birinchi va ikkinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning xarajatlar smetalarini va jamlanma xarajatlar smetalarini, shtat jadvallari, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazadi;

- tegishli tartibda O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining xarajatlari yoyilmasiga moliya yili mobaynida o'zgartirishlar kiritadi;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tegishli tartibda O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan ajratiladigan mablag'larga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar taqdim etadi;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni ularning manbalari kesimida to'liq va o'z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;

- byudjet tizimi byudjetlarining mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlar, shuningdek byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag'lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlari shakllarini va ularni taqdim etish tartibini tasdiqlaydi;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risida hisobot taqdim etadi;

- byudjetdan tashqari maxsus hisobvaraqlarda zaxiralar tashkil etadi;

- Davlat byudjetini ijro etish jarayonida unga tushumlarni ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha zaxiralarni aniqlaydi;

- byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlarini maqbullashtirishni amalga oshiradi;

- byudjet ssudalarini beradi;

– davlat tomonidan mablag‘lar jalb qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining shartnomalari va davlat kafolatlarini ro‘yxatdan o‘tkazadi;

– davlat qarzining hisobini va monitoringini yuritadi;

– byudjet tizimi byudjetlarining kassa ijrosini yuritadi;

– byudjet tizimi byudjetlarining Yagona g‘azna hisobvarag‘idagi va boshqa bank hisobvaraqlaridagi mablag‘larini boshqaradi;

– byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarini ro‘yxatdan o‘tkazadi;

– byudjet tizimi byudjetlarida mablag‘lar nazarda tutilgan yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshirig‘iga ko‘ra to‘lovlarni amalga oshiradi;

– byudjet tizimi byudjetlari ijrosining byudjet hisobini yuritadi va byudjet hisobotini qabul qiladi;

– davlat qarzi bo‘yicha xizmat ko‘rsatadi, O‘zbekiston Respublikasining davlat kafolatlarini bajaradi;

– O‘zbekiston Respublikasiga kelayotgan insonparvarlik yordami hamda texnik ko‘maklashish mablag‘lari hisobini yuritadi;

– prognoz yil uchun Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihalari hamda kelgusi ikki yilga oid byudjet mo‘ljallari, shuningdek Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga yuborilishidan oldin ularning jamoatchilik muhokamasini ta‘minlaydi;

– byudjet tizimi byudjetlari daromadlari va xarajatlarining balanslilikiga ta‘sir ko‘rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni moliyaviy hamda iqtisodiy ekspertizadan o‘tkazadi;

– o‘z vakolatiga kiradigan masalalarga doir normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Byudjet jarayonida hududiy moliya organlari:

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari loyihalarini tayyorlaydi hamda ularni tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklariga ko‘rib chiqish uchun kiritadi;

– soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni ularning manbalari kesimida to‘liq va o‘z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;

– tegishli byudjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘shimcha zaxiralarni aniqlaydi;

– byudjet tashkilotlariga va byudjet mablag‘lari oluvchilarga ular uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar hajmlarini yetkazadi;

– byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini hamda byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetalarini, shuningdek ularga kiritilgan o‘zgartirishlarni ro‘yxatdan o‘tkazadi;

– tegishli tartibda tegishli byudjetlar parametrlariga moliya yili mobaynida o‘zgartirishlar kiritadi;

– tegishli byudjetlarning mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

– yuqori turuvchi moliya organlariga hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklariga tegishli byudjetning ijrosi to‘g‘risida har choraklik hisobotlarni taqdim etadi;

– byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar xarajatlarini maqbullashtirishni amalga oshiradi;

– tegishli byudjetlar ijrosining byudjet hisobini yuritadi va byudjet hisobotini qabul qiladi;

– mahalliy davlat hokimiyati organlarining tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari balansliligiga ta’sir ko‘rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarini moliyaviy va iqtisodiy ekspertizadan o‘tkazadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari moliya boshqarmalari yuqorida keltirilgan vakolatlar bilan bir qatorda:

– Davlat byudjeti daromadlari prognozini davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlariga har chorakda tegishli ma'muriy-hududiy birliklar bo'yicha yetkazadi;

– byudjet ssudalarini beradi.

Hududiy moliya organlari qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning byudjet sohasidagi vakolatlari ham Byudjet kodeksida keltirilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

– byudjetdan ajratiladigan mablag'larni olish uchun byudjet so'rovlarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi;

– byudjet buyurtmalarini tuzish uchun ko'rsatkichlarni va materiallarni o'z tasarrufidagi tashkilotlarga yetkazadi;

– xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini tuzish uchun o'z tasarrufidagi tashkilotlarga ularning tegishli moliya yiliga byudjetdan ajratiladigan mablag'lari hajmlarini yetkazadi;

– o'z tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini, shuningdek, ularga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazadi;

– tasdiqlangan xarajatlar smetalarini va jamlanma xarajatlar smetalarini, shtat jadvallarini, shuningdek, ularga kiritilgan o'zgartirishlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etadi;

– xarajatlar smetalari va shtat jadvallaridagi o'zgartirishlar to'g'risida o'z tasarrufidagi tashkilotlarni xabardor qiladi;

– o'z tasarrufidagi tashkilotlarda byudjet hisobi yuritilishini tashkil etish va nazorat qilishni ta'minlaydi;

– o'z tasarrufidagi tashkilotlardan moliyaviy hisobotlarni qabul qiladi;

– O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga tegishli davr uchun jamlanma moliyaviy hisobotlar taqdim etadi.

Byudjet mablag'larini taqsimlovchilar qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Byudjet jarayonida byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar:

- byudjet buyurtmasini byudjet mablag'larini taqsimlovchiga, byudjet mablag'larini taqsimlovchi bo'lmaganda esa, tegishli hududiy moliya organiga belgilangan tartibga muvofiq kiritadi;

- xarajatlar smetalarini tasdiqlaydi hamda ularni byudjet mablag'larini taqsimlovchiga, byudjet mablag'larini taqsimlovchi bo'lmaganda esa, tegishli hududiy moliya organiga byudjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida ro'yxatdan o'tkazish uchun kiritadi;

- xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'larni mo'ljallangan maqsadga muvofiq tasarruf etadi;

- byudjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalar tuzadi;

- belgilangan tartibda xarajatlar smetalariga o'zgartirishlar kiritadi;

- tegishli davr uchun moliyaviy hisobotlarni byudjet mablag'larini taqsimlovchiga, byudjet mablag'larini taqsimlovchi bo'lmaganda esa, tegishli hududiy moliya organiga taqdim etadi.

- Byudjet tashkilotlari yuqorida ko'rsatilgan vakolatlar bilan bir qatorda, shuningdek:

- shtat jadvallarini tasdiqlaydi va ularni byudjet mablag'larini taqsimlovchiga, byudjet mablag'larini taqsimlovchi bo'lmaganda esa, tegishli hududiy moliya organiga byudjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida ro'yxatdan o'tkazish uchun kiritadi;

- tegishli tartibda shtat jadvallariga o'zgartirishlar kiritadi;

- muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida tegishli hujjatlarni sudlarga, g'aznachilik bo'linmalariga o'z vaqtida taqdim etadi, shuningdek shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishini ta'minlaydi;

- byudjet hisobini yuritadi va moliyaviy hisobotlarni tuzadi;

– byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalarini shakllantiradi va ulardan foydalanadi.

11.3. Davlat byudjetining ijrosini ta'minlash va byudjetga o'zgartirishlar kiritish tartibi

Ba'zi hollarda Davlat byudjetining ijrosi davomida byudjetdan ajratiladigan mablag'larga o'zgartirishlar kiritish zaruriyati paydo bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda byudjetdan ajratiladigan mablag'larga moliya yili mobaynida o'zgartirishlar kiritish bir byudjet mablag'lari oluvchisi uchun byudjet mablag'larining kamaytirilishi boshqa byudjet mablag'lari oluvchisi uchun byudjet mablag'larining tegishli ravishda ko'paytirilishini nazarda tutgan tartibda birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchi uchun respublika byudjetidan ajratiladigan mablag'larni boshqa birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchiga o'tkazish:

- 10 va undan ortiq foiz miqdorda Oliy Majlis palatalari tomonidan;
- 10 foizdan kam miqdorda Moliya vazirligining taklifi asosida Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonuniga muvofiq Moliya vazirligiga respublika byudjetidan ajratiladigan mablag'lar tarkibida nazarda tutilgan quyidagi mablag'lar birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilar uchun respublika byudjetidan ajratiladigan mablag'larni hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga beriladigan byudjetlararo transfertlarni ko'paytirish orqali Moliya vazirligi tomonidan qayta taqsimlanadi:

- ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorlarini, ayrim xizmatlarning tariflarini va byudjet tashkilotlarining xodimlariga homiladorlik va tug'ish nafaqalarini oshirish bilan bog'liq xarajatlar uchun mablag'lar;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlariga muvofiq hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha xarajatlar uchun mablag'lar;

- “Obod qishloq”, “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirishda obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun qo‘shimcha kapital qo‘yilmalar hamda O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturidagi taqsimlanmagan mablag‘lar.

Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalarni amalga oshirish uchun nazarda tutilgan mablag‘larni joriy xarajatlarga yo‘naltirish taqiqlanadi.

Byudjet mablag‘ini oluvchining so‘roviga binoan, moliya yili uchun unga nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar ayrim moddalar bo‘yicha (kapital qo‘yilmalar moddalari bundan mustasno) boshqa moddalar bo‘yicha byudjetdan ajratiladigan mablag‘lari teng miqdorda kamaytirilgan va mazkur byudjet mablag‘lari oluvchi uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning umumiy hajmi saqlab qolingan holda dastlabki hajmining 10 %ga qadar kamaytirilishi mumkin. Bu holda byudjetdan ajratiladigan mablag‘larga o‘zgartirishlar:

respublika byudjetidan ajratiladigan byudjet mablag‘lariga – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlardan ajratiladigan byudjet mablag‘lariga – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan tartibda tegishli moliya organlari tomonidan kiritiladi.

Davlat byudjetini belgilangan parametrlar doirasida ijro etish alohida ahamiyatga ega. Shu sababli Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i kengesi va mahalliy hokimiyat vakillik organlari, agar muayyan harakatlari byudjet taqchilligining qonun hujjatlarida belgilangan eng yuqori darajasidan oshib ketishiga olib keladigan bo‘lsa, Davlat byudjeti daromadlarini qisqartiruvchi yoki xarajatlarini oshiruvchi biror-bir harakat qilishga haqli emaslar. Shunga mos ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti hamda mahalliy byudjetlar qabul qilinganidan keyin moliya yili mobaynida ayrim turlar bo‘yicha byudjet daromadlarini qisqartirishga olib keluvchi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i kengesi va tegishli mahalliy hokimiyat vakillik organining qarori, agar unda boshqa turlar bo‘yicha daromadlarni ko‘paytirish va (yoki) byudjet xarajatlari tegishli miqdorda qisqartirilishi

kerak bo'lgan moddalar nazarda tutilgan taqdirdagina, qabul qilinishi va amalga kiritilishi mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar qabul qilinganidan keyin moliya yili mobaynida tegishli byudjet xarajatlari qisqartirilishiga va (yoki) daromadlari ko'payishiga olib keluvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i kengesi va mahalliy hokimiyat vakillik organining qarori qabul qilinganda hosil bo'ladigan ortiqcha mablag'lar mazkur qaror qabul qilingan darajadagi byudjetga mablag'larni qayta taqsimlash uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda olib qo'yiladi.

Agar Davlat byudjeti qabul qilinganidan keyin moliya yili davomida Davlat byudjetidan olingan byudjet mablag'larini ko'paytirish (kamaytirish) to'g'risida qaror qabul qilinadigan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri moliya organlari tomonidan tegishli darajadagi byudjetlar hajmiga o'zgarishlar kiritilishi mumkin. Xarajatlarni ko'paytirish yoki ularni qisqartirish byudjetlar o'rtasida o'zaro hisob-kitob qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. O'z navbatida, byudjetlar o'rtasida o'zaro hisob-kitob o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Soliqlar va byudjet to'lovlari intizomini mustahkamlash yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarga tasdiqlangan ko'rsatkichlardan tashqari tushgan qo'shimcha daromadlar aylanma kassa mablag'i me'yori tasdiqlanganidan kam bo'lmagan miqdorda saqlanib qolgan taqdirda qabul qilingan byudjetdagidan tashqari xarajatlarga yo'naltirilishi mumkin. Ushbu masalaga doir tegishli qarorlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi va tegishli hokimlar tomonidan qabul qilinadi.

Byudjet ijrosini ta'minlashda Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshqa moliya organlari Davlat byudjeti va uning tuzilmasiga kiruvchi byudjetlarning qonun hujjatlarida belgilangan ko'rsatkichlar doirasida bajarilishi uchun javobgardir.

Shuning uchun ham Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini boshqarish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Agar yil mobaynida davlat daromadlari ancha qisqargan va Davlat byudjetining oldindan belgilangan taqchilligi qonun hujjatlarida belgilangan chegara miqdoridan oshadigan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetining xarajatlarini alohida moddalar bo'yicha qisqartirish to'g'risida qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga taklif kiritadi.

Turli darajadagi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi vaqtinchalik tafovutni to'g'rilash maqsadida moliya yili davomida ularga tegishli byudjetlardan byudjet ssudalari ajratilishi mumkin. Byudjet ssudalarini berishning eng kech muddati va tartibi O'zbekiston respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi. shuningdek, turli darajadagi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi vaqtinchalik farqni moliya yili davomida aylanma kassa mablag'i me'yori hisobiga uni moliya yili oxirigacha tasdiqlangan hajmga qadar tiklagan holda, byudjet mablag'larining foydalanilmagan qoldiqlari hisobiga va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlatning qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarini chiqarish hisobiga ham qoplash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining xarajatlariga tegishli byudjetlarning tasdiqlangan parametrlariga nisbatan ularning xarajatlarini 10 va undan ortiq foizga ko'paytirishni yoki kamaytirishni nazarda tutadigan o'zgartirishlar kiritish Byudjet kodeksining 144-moddasi talablariga rioya etilgan holda tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari taqdimnomasiga ko'ra tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining xarajatlariga tegishli byudjetlarning

tasdiqlangan parametrlariga nisbatan ularning xarajatlarini 10 foizdan kam ko'paytirish yoki kamaytirishni nazarda tutadigan o'zgartirishlar kiritish tegishincha Qoraqalpog'iston respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari taqdimnomasiga ko'ra tegishincha Qoraqalpog'iston respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining xarajatlariga o'zgartirishlar kiritishga doir qarorlar, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishuvga ko'ra yoki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yozma bildirishlari asosida qabul qilinadi.

Tumanlar va shaharlar byudjetlarining xarajatlari yoyilmasiga bir byudjet tashkiloti va byudjet mablag'lari oluvchi uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'larni kamaytirishni mos ravishda boshqa byudjet tashkiloti va byudjet mablag'lari oluvchi uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'larni ko'paytirishni nazarda tutadigan tumanlar va shaharlar byudjetlarining tasdiqlangan xarajatlar parametrlari doirasida o'zgartirishlar kiritish tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari taqdimnomasiga ko'ra tumanlar va shaharlar hokimlarining qarorlari asosida amalga oshiriladi.

11.4. Byudjet ijrosi yuzasidan hisobotlar tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari tegishli byudjetlar ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotlarni hisobot yilidan keyingi yilning 10-mayidan so'ng tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek, tumanlar va shaharlar kengashlariga taqdim etadi.

Tegishli byudjetlarning ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotlarni taqdim etish muddatlari tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek tumanlar va shaharlar kengashlari tomonidan belgilanadi.

Tegishli byudjetning ijrosi to'g'risidagi yillik hisobot tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek, tumanlar va shaharlar kengashlari qarorlari bilan tasdiqlanadi.

Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobot byudjet ijrosining yakuni (natijalari)ni o'zida ifoda etadi. Shu munosabat bilan respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilar byudjetidan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga shu vazirlik belgilagan muddatlarda taqdim etishi kerak. Shunga mos ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan hamda mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilar byudjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni tegishli moliya organlariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan muddatlarda taqdim etmoqlari lozim.

Tumanlarning, shuningdek, respublika (Qoraqalpog'iston), viloyat bo'ysunuvidagi shaharlarning moliya organlari shahar, tuman byudjetining hisobot davridagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tegishli hokimliklarga hamda yuqori moliya organlariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan muddatlarda taqdim etishi kerak.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri moliya organlari tegishli byudjetlarning hisobot davridagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashiga va tegishli hokimliklarga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga shu vazirlik belgilagan muddatlarda taqdim etmog'i lozim.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimlari byudjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni ko'rib chiqib ma'qullanganidan keyin bu hisobotlarni tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i kengesi va tegishli mahalliy hokimiyat vakillik organlariga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlarning Davlat byudjetiga hisobot davridagi tushumlari to'g'risidagi hisobotni har oyda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda taqdim etishlari shart.

Davlat soliq xizmatining joylardagi soliq organlari soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlarning Davlat byudjetiga hisobot davridagi tushumlari to'g'risidagi hisobotni har oyda tegishli moliya organlariga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda taqdim etib turishlari kerak.

Davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar hisobot davrida davlat maqsadli jamg'armalariga mablag'lar tushumi va ulardan foydalanish to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga shu vazirlik belgilagan muddatlarda taqdim etishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot yilidan keyingi yilning 1-mayidan kechiktirmay taqdim etishi kerak. O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisiga hisobot yilidan keyingi yilning 15-mayidan kechiktirmay taqdim etishi kerak.

Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Shunga mos ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i kengesi va tegishli mahalliy hokimiyat vakillik organlari tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

11.5. Byudjet jarayoni bosqichlarini nazorat qilish, nazoratning asosiy vazifalari

Davlatning eng muhim funksiyalaridan biri – moliya tizimining qonuniyligi va samaradorligini ta'minlash ustidan nazoratni tashkil etish bo'lib hisoblanadi. Bunga erishish uchun davlat moliyaviy nazorati

tashkil etiladi. Davlat moliyaviy nazoratining bir qator turlarini ajratib ko'rsatish mumkin bo'ladi⁸³. Shulardan biri byudjet nazoratidir.

Byudjet nazorati deganda mamlakat byudjet tizimidagi moliyaviy nazorat tushuniladi.

Byudjet jarayonida byudjet loyihasining qay darajada normativ-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilganligini hamda byudjet mablag'laridan qay darajada samarali foydalanilganini tekshirish maqsadida byudjet nazorati olib boriladi. Byudjet nazoratining ahamiyati ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ijtimoiy-siyosiy tangliklar va moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar sharoitida o'sib boradi va yangicha mazmun kasb etadi.

Byudjet nazorati davlat moliyaviy nazoratining muhim qismi bo'lib, byudjet jarayonida amalga oshiriladi. Uning bosh maqsadi – byudjet munosabatlarining barcha ishtirokchilari tomonidan byudjet qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish bo'lib, byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining tashkil topishi, taqsimlanishi va foydalanilishining qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi va samarali ekanligini davlat organlari tomonidan tekshirish tadbirlari tizimi sifatida qaraladi.

Byudjet nazorati qonunbuzarliklarning oldini olish, aniqlash, fosh qilish va bartaraf etish bo'yicha choralarni qo'llashga, davlat byudjetini shakllantirish va xarajatlarni amalga oshirishda yangi imkoniyatlarni topishga, soliq-byudjet intizomini yaxshilashga yo'naltirilib, hukumatning vakolatli organlari tomonidan Hisob palatasi (O'zbekistonning moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi oliy mustaqil organi)ni jalb qilgan holda, moliya va soliq organlari tomonidan (hukumat ijroiya organlarining nazorati) amalga oshiriladi.

Byudjet nazoratining vazifalari quyidagilardan iborat:

– byudjet moddalari hajmi, tarkibi va maqsadlilik bo'yicha to'g'ri tuzilishi va ijro etilishini ta'minlash;

⁸³ Бюджетная система Российской Федерации: учебник / под общ. ред. Ю. С. Долгановой, Н. А. Истоминной. – Екатеринбург: Издво Урал. унта, 2019. – 356 с.

– byudjet mablagʻlari hisobiga xarajatlarni nazarda tutuvchi yoki byudjetning shakllanishi va ijrosiga taʼsir etuvchi davlat organlarining qonun va normativ-huquqiy hujjatlari loyihalari, davlat dasturlari va boshqa hujjatlarning moliyaviy ekspertizasini amalga oshirish;

– buxgalteriya hisobi va hisoboti yuritilishining toʻgʻriligi ustidan nazorat;

– byudjet mablagʻlari va byudjetdan tashqari jamgʻarmalar mablagʻlarining samarali va maqsadli ishlatilishi ustidan nazorat;

– barcha darajadagi byudjetlar va byudjetdan tashqari jamgʻarmalarga tushumlar toʻliq va oʻz vaqtida kelib tushishi ustidan nazorat;

– byudjet jarayonining barcha bosqichlarida byudjet va soliq intizomiga

– rioya qilinishi ustidan nazorat;

– turli darajadagi byudjetlarning daromadlar bazasini oshirish va ularning xarajatlar qismini kamaytirish zaxiralarini aniqlash;

– byudjetlararo munosabatlar mexanizmini amalga oshirish ustidan nazorat;

– byudjet va byudjetdan tashqari jamgʻarmalar mablagʻlari harakatlarining qonuniyligi va oʻz vaqtidaligi ustidan nazorat;

– isrofgarchilik va moliyaviy suiisteʼmollarni aniqlash, soliq imtiyozlari, davlat dotatsiyalari, subvensiyalar, transfertlar va alohida toʻlovchilar yoki hududlarga boshqa turdagi yordamlarni berish boʻyicha noqonuniy qarorlarning oldini olish va aybdor shaxslarga tegishli jazo choralari qoʻllash;

– byudjet-moliya intizomini kuchaytirish maqsadida profilaktika, axborot-tushuntirish ishlari olib borish.

Tayanch soʻz va iboralar *Byudjet jarayoni, byudjet loyihasi, byudjet jarayonining tamoyillari, byudjet soʻrovi, byudjet buyurtmasi, byudjetnoma, tayinlash sertifikat, tasdiqlangan byudjet, byudjet tashkilotlari majburiyatlari, davlat byudjetining gʻazna ijrosi.*

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Byudjet jarayoni necha bosqichdan iborat?
2. Davlat byudjetining ijrosini ta'minlashda qaysi masalalarning hal etilishiga jiddiy e'tibor bermoq lozim?
3. Byudjetning daromadlar va xarajatlar bo'yicha ijrosini izohlab bering.
4. Byudjet loyihasida nimalar ifodalanadi?
5. Byudjet loyihasini qaysi organ tasdiqlaydi?
6. Byudjetni ijro etish deganda nimani tushunasiz?
7. Byudjetni ijro etishning vazifalari nimadan iborat?
8. Byudjet ijrosini ta'minlovchi organlarni aytib o'ting.
9. Byudjetni g'azna ijrosi to'g'risida tushuncha, uni ta'minlovchi organlar, ular faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.
10. Byudjet ijrosi yuzasidan hisobotlarni qaysi organ tuzadi, ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi?
11. Byudjet jarayoni bosqichlarini nazorat qilish deganda nimani tushunasiz?
12. Byudjet nazoratning asosiy vazifalarini aytib o'ting.
13. Byudjet nazorati organlari, ularning huquq va majburiyatlarini izohlab bering.
14. Byudjet mablag'laridan maqsadga muvofiq foydalanishda byudjet nazoratining ahamiyati nimada?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2018.
2. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda
"O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi to'g'risida"gi
O'RQ- 158-II-son qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrda
Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi qonuni;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevralda
"Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish
chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-594-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi. O'zbekiston
Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 52-I-son, 2013.
6. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 2019-yil 30-dekabr.
<https://lex.uz/docs/4674902>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martda
"Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-
tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2847-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston
Respublikasining 2015-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari
prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2270-
sonli qarori (2014-yil 4-dekabr).
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston
Respublikasining 2016-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari
prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2455-
sonli qarori (2015-yil 25-dekabr).
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston
Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari
prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2699-
sonli qarori (2016-yil 26-dekabr).
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston
Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

- prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-3454-sonli qarori (2017-yil 29-dekabr).
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son qarori.
 13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishdagi mas'uliyatini oshirish to'g'risida" PQ-3042-sonli qarori.
 14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martdagi "Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2847-sonli qarori.
 15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi "Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5075-son Farmoni.
 16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5116-sonli Farmoni.
 17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5147-sonli Farmoni.
 18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-iyundagi "Mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish zaxiralarini aniqlash ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 445-sonli qarori.
 19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli Farmoni.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustda qabul qilingan “Byudjet ma’lumotlarining ochiqqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3917-son qarori.
21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining ilk suveren xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag‘lardan samarali foydalanish to‘g‘risida”gi PQ–4258-sonli qarori;
22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020–2021-yillarga byudjet mo‘ljallari to‘g‘risida”gi PQ–4086-sonli qarori.
23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ–4389-sonli qarori.
24. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrda “Byudjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 414-sonli qarori.
25. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-iyundagi “Mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish zaxiralarini aniqlash ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 445-sonli qarori.
26. Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi, 14-dekabr 2016-yil.
27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini 2018-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan murojaatnomasi. 2017-yil 22-dekabr.

28. O'zbekiston Respublikasining "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonuni loyihasi va 2020-yil uchun Byudjetnoma bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining Xulosasi. T., 2019.
29. Бабич А.М., Павлова Л.Н. государственные и муниципальные финансы. Учебник. М.: Yuniti-Dana, 2012.
30. С.Г.Белев, К.В.Векерле, Е.Т.Гурвич, А.Б.Золотарева, Н.С.Могучев, И.А.Соколов, Т.В.Тищенко, И.Н.Филиппова. Бюджет как инструмент экономического развития. М.: Дело, 2019. С 14
31. Byudjetnoma 2020-yil. 2021–2022-yillarga byudjet mo'ljallari. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. https://www.mf.uz/media/file_uz/state-budget/sharh/byudjetnoma_2020.pdf
32. Бюджетная система Российской Федерации. Учебник. Под общ. редакции Долгановой Ю.С., Истомина Н.А. Екатеринбург.: Урал.унта, 2019. 356 с.
33. Vaxobov A.V., Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2002.
34. Vahobov A., Qosimova G., Jamolov X. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2005.
35. Vahobov A., Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish: O'quv qo'llanma. T.: IQTISOD-MOLIYA, 2008. 260 b.
36. Vaxobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. T.: Noshir, 2012. 712.
37. Ковалева Т.М., Барулин С.В. Бюджет и бюджетная политика Российской Федерации: Учебное пособие. М.: KNORUS, 2005. С
38. В. Mustafoyev va boshqalar. Konstitutsiyaviy huquq. Ensiklopedik lug'at. T.: O'zbekiston, 2006. 584 bet.

39. Malikov T. S., Haydarov N. H. Moliya: umumdavlat moliyasi: O'quv qo'llanma. T.: IQTISOD-MOLIYA, 2008. 153 b.
40. Malikov T.S., Haydarov N.H. Davlat byudjeti. T.:Iqtisod-Moliya, 2007. 84 b.
41. Ю.С.Долганова, Н.А.Исакова, Н.А.Истомина. Финансы. Учебник. Под общей редакции канд. экон. Наук, доцента Н.Ю.Исаковой. Екатеринбург: Урал.унта, 2019. С130.
42. Fuqarolar uchun byudjet: 2020 loyiha. Toshkent – 2019.
43. Malikov T.S. Moliya: O'quv qo'llanma. T: Iqtisod-Moliya, 2018. 268 b.
44. Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. T.: infoCOM.UZ. 2010.
45. Sirojiddinova Z.X. Byudjetlararo munosabatlar: O'quv qo'llanma. T.: infoCOM.UZ, 2010. 156 b.
46. B.K. Tuxliyev va boshqalar. Davlat byudjeti: O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2007. 19 b.
47. Fuqarolar uchun byudjet. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. T., 2018.
48. Шамсиев Н. Особенности современной бюджетной системы Республики Узбекистан// Биржа Эксперт. Т.: 2012. №5. С. 53-55.
49. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yillik hisobotlari.
50. I. Mamadjanov va boshqalar. O'rta muddatli byudjet. Namangan shahar byudjeti misolida: Uslubiy qo'llanma. T.: Baktria press, 2017. 302 b
51. X.Qurbonov va boshqalar. Davlat byudjeti. O'quv uslubiy majmua. T.: 2013.
52. G'aybullayev O., O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni: O'quv qo'llanma. T.: Baktria press, 2015. 168 b.

53. Inoyatov G.U., Ahmadjonova G.N. Byudjet va byudjet tizimi: O'quv qo'llanma. T.: Turon-iqbol, 2006. 304 bet.
54. «Budget Practices Survey». OECD Surveys, 2007.
<http://www.oecd.org/gov/budget/database>.
55. [https://www.mf.uz/media/file_uz/state
budget/sharh/byudjetnoma_2020.pdf](https://www.mf.uz/media/file_uz/state_budget/sharh/byudjetnoma_2020.pdf)
56. [https://www.aneews.com/p/114614925-politika-ehto-cho-takoe-
politika-politicheskaya-sfera-zhizni-obshchestva/](https://www.aneews.com/p/114614925-politika-ehto-cho-takoe-politika-politicheskaya-sfera-zhizni-obshchestva/)
57. <https://regulation.gov.uz/oz/document/11149>
58. [https://cyberleninka.ru/article/n/ekonomicheskaya-suschnost-
byudzheta](https://cyberleninka.ru/article/n/ekonomicheskaya-suschnost-byudzheta).
59. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, <http://www.lex.uz>.
60. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy veb-sayti, <http://www.mf.uz>.

MUNDARIJA

KIRISH	3
--------------	---

I BOB. “DAVLAT BYUDJETI” FANIGA KIRISH

1.1. “Davlat byudjeti” fanining predmeti, mazmuni, maqsadi, vazifalari va boshqa iqtisodiy fanlar tizimidagi o‘rni.....	5
1.2. Davlat byudjeti – iqtisodiy kategoriya sifatida.....	7
1.3. Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va funksiyalari.....	9
1.4. Davlat byudjeti orqali yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi.....	13
1.5. Davlat byudjeti: moddiy ma’noda, davlat ixtiyoridagi markazlashtirilgan pul fondi va huquqiy kategoriya sifatida.....	19
1.6. Davlat byudjetining umumiy moliyaviy munosabatlar tarkibidagi o‘rni va ahamiyati.....	20

II BOB. BYUDJET TUZILISHI VA BYUDJET TIZIMI

2.1. Byudjet tuzilishi va tizimi to‘g‘risida tushuncha. Jahonda mavjud byudjet qurilishi modellari, ularning xususiyatlari.....	25
2.2. O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va uning asosiy tamoyillari.....	28
2.3. O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti.....	33

III BOB. DAVLAT BYUDJETINING HUQUQIY ASOSLARI

3.1. Davlat byudjeti qonunchiligi va byudjet huquqi.....	39
3.2. Byudjet munosabatlarini tartibga soluvchi qonuniy-huquqiy hujjatlar.....	43
3.3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – byudjet munosabatlarining huquqiy asosi sifatida.....	45
3.4. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, uning mazmuni, tarkibi, byudjet munosabatlarini tartibga solishdagi ahamiyati.....	47
3.5. Soliq kodeksi, uning davlat byudjetini shakllantirishdagi ahamiyati.....	51
3.6. Mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy byudjetlarni shakllantirishdagi huquq va majburiyatlari.....	56

IV BOB. DAVLATNING BYUDJET SIYOSATI

4.1.	Davlat byudjeti – davlat iqtisodiy siyosatining quroli sifatida. Byudjet siyosatining maqsad va vazifalari.....	60
4.2.	Byudjet siyosatining taktikasi va strategiyasi.....	63
4.3.	Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi byudjet siyosatining rivojlanish bosqichlari, maqsad va vazifalari.....	66
4.4.	Mamlakatni moliyaviy sog'lomlashtirish, iqtisodiyotning rivojlanishini rag'batlantirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash hamda mamlakatni madaniy jihatdan yuksaltirishga qaratilgan byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari	75
4.5.	Byudjet siyosatini olib borishda davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha Strategiyaaning ahamiyati.....	82

V BOB. DAVLAT BYUDJETINI BOSHQARISH

5.1.	Davlat byudjetini boshqarish to'g'risida tushuncha.....	93
5.2.	Boshqarish obyektlari va subyektlari, ularning guruhlanishi, asosiy vazifalari.....	96
5.3.	Markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlari vakolatlari, ijroiya hokimiyati organlarining byudjet tizimini boshqarishdagi ishtiroki.....	98
5.4.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining byudjet sohasini boshqarishdagi ishtiroki.....	102
5.5.	O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligi, uning byudjet mablag'larini boshqarishdagi ahamiyati.....	108

VI BOB. BYUDJETLARARO MUNOSABATLAR

6.1.	Byudjetlararo munosabatlar to'g'risida tushuncha.....	112
6.2.	Byudjet darajalari o'rtasida daromadlar va xarajatlarning taqsimlanishi.....	118
6.3.	Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish va boshqarishda mahalliy byudjetlar rioya qilishi lozim bo'lgan cheklanishlar.....	134
6.4.	Byudjetlararo munosabatlarning zarurligi.....	137
6.5.	Byudjetlararo transfertlarning shakllari: subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar, dotatsiyalar, byudjet ssudasi, o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mablag'lar.....	146

VII BOB. BYUDJET TASNIFI

7.1.	Byudjet tasnifining zarurligi, mohiyati va ahamiyati. Byudjet tasnifining asosiy tamoyillari.....	158
7.2.	Byudjet tasnifining turlari: byudjet daromadlari tasnifi, uning turlari.....	161
7.3.	Byudjet xarajatlari tasnifi, uning guruhlanishi. Byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi;	165

	vazifa jihatidan tasnif; tashkiliy tasnif; iqtisodiy tasnif; hududiy tasnif.....	
7.4.	Byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifi.....	167

VIII BOB. DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARI TIZIMI

8.1.	Byudjet daromadlarining iqtisodiy mazmuni va manbalari.....	170
8.2.	Byudjet daromadlarining shakllanish manbalari.....	176
8.3.	Davlat byudjeti daromadlari tarkibi, tuzilishi va dinamikasi.....	178
8.4.	Byudjet daromadlarining shakllanishida soliqlarning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari.....	189
8.5.	Davlat byudjeti daromadlarining shakllanishida xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholidan undiriladigan daromadlarning tutgan o'rni.....	195

IX BOB. DAVLAT BYUDJETI XARAJATLARI TIZIMI

9.1.	Davlat byudjeti xarajatlarining davlatning funksiyalari bilan bog'liqligi. Byudjet xarajatlarining iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmun-mohiyati.....	200
9.2.	Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlanishi: joriy va kapital xarajatlar.....	203
9.3.	Davlat byudjeti xarajatlarining funksional tayinlanishiga ko'ra guruhlanishi.....	206
9.4.	Davlat byudjetining ijtimoiy sohalarini saqlash va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari.....	231
9.5.	Davlat byudjetining iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlari.....	234
9.6.	Davlat byudjetining davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari.....	236
9.7.	Davlat byudjetining mamlakat mudofaa tizimini saqlash va rivojlantirish bilan bog'liq xarajatlari.....	243

X BOB. DAVLAT BYUDJETI HOLATI

10.1.	Davlat byudjetining umumiy holati: balanslilik, profitsit va taqchillik holatlari.....	254
10.2.	Davlat byudjeti taqchilligi tushunchasi, uning shakllari, davlat byudjeti taqchilligini keltirib chiqaruvchi omillar.....	256
10.3.	Davlat byudjeti taqchilligini tartibga solish va boshqarish.....	260
10.4.	Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalari, ularning guruhlanishi, taqchillikni qoplashning ichki va tashqi, inflyasion va noinflyasion manbalari, ularning xususiyatlari.....	264
10.5.	Davlat byudjeti taqchilligi to'g'risidagi zamonaviy konsepsiyalar, ularning mazmuni, xususiyatlari va ahamiyati.....	268

XI BOB. BYUDJET JARAYONI

11.1. Byudjet jaryonining to'g'risida tushuncha. Byudjet jarayoni bosqichlari: byudjet loyihasini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, byudjet ijrosini nazorat qilish, byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash.....	276
11.2. Byudjet jarayoni ishtirokchilari, ularning vakolatlari va vazifalari.....	284
11.3. Davlat byudjetining ijrosini ta'minlash va byudjetga o'zgartirishlar kiritish tartibi.....	295
11.4. Byudjet ijrosi yuzasidan hisobotlar tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi	299
11.5. Byudjet jarayoni bosqichlarini nazorat qilish, nazoratning asosiy vazifalari.....	301
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	305

**J.R. Zaynalov, B.Sh. Xusanov,
S.S. Aliyeva, Sh.M. Latipova**

DAVLAT BYUDJETI

O'quv qo'llanma

*Muharrir Z. Bazarova
Badiiy muharrir K. Boyxo'jayev
Kompyuterda sahifalovchi Z. Ulug'bekova*

Nashr. lits. AI № 305.
Bosishga ruxsat 06.10.2021-yilda berildi.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. Ofset qog'ozi №2.
"Times New Roman" garniturası.
Shartli b.t. 18.2. Nashr hisob t. 18.8.
Adadi 100 dona. 52-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyoti
100000, Toshkent, Amir Temur, 60 -A.

«DAVR MATBUOT SAVDO» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
100198, Toshkent, Qoʻyliq, 4-mavze, 46.

80328,01

65.9(5-й экз) 261.3

ISBN 978-9943-7321-7-9



9 789943 732179